

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNSLIK INSTITUTI
MARKAZIYOSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI

O'ZBEKISTON TARIXI fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Toshkent-2015

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1-mavzu: o‘zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.....	5
2-mavzu. O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri.....	13
3-mavzu. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.....	19
4-mavzu. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi.....	27
5-mavzu. Ilk o‘rta asrlar va ix-xii asrlarda o‘zbek davlatchiligi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy va madaniy hayot	34
6 –mavzu. Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi.....	40
7-mavzu. Amir temur va temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	47
8-mavzu. Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....	54
9-mavzu. Chor rossiyasining turkistonni bosib olishi. Chorizm istibdodiga qarshi turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik.....	60
10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat.....	79
11-mavzu. Sovet hokimiyatining o‘zbekistonda amalga oshirgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlari va ularning mustamlakachilik mohiyati.....	90
12 - mavzu. Sovet hokimiyati davrida o‘zbekistonning ma’naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari.....	101
13 - mavzu. Mustabid sovet tuzumining o‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari.....	111
14 – mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissassi.....	129
15 - mavzu. Sovetlar imperiyasining tanazzulga yuz tutishi va o‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.....	140
16 - mavzu. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy, madaniy taraqqiyoti. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.....	159
Adabiyotlar ro‘yxati.....	178

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi tariximizni tubdan isloh qilish, mavjud birlamchi manbalarga tayangan holda holisona va haqqoniy, adolat hamda tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish va o'qitish imkonini berdi. Yurtimiz fuqarolari O'zbekistonning har qanday mafkuradan holi bo'lgan hamda tahlillarga asoslangan haqqoniy tarixini o'rganishi va undan saboq olishi davr taqozosiga aylandi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yo'lda katta qurbonlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida, o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda. O'zbekiston fuqarolari, xususan, yoshlar qalbiga milliy g'oyamizni singdirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda «O'zbekiston tarixi» fanining o'rni, imkoniyatlari katta. Shu boisdan, Respublika oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichida «O'zbekiston tarixi» fanini o'qitish asosiy fanlar qatorida turadi. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi».**

O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga ma'lum. O'zbekiston tarixi fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganishdan, tushuntirishdan iboratdir. O'zbekiston tarixi fani ajdodlarimiz hayoti bilan bog'liq holda sodir bo'lgan voqealar rivojining ichki mantig'ini, sabablari va oqibatlarini, asrlar davomida to'plangan amaliy tajriba va saboqlarni o'rgatadi.

Fanning maqsad va vazifalari

I. Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarda O'zbekiston hududida qadimdan yashagan aholi, ularning turmush tarzi, mavjud bo'lgan davlatlar, ularning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosati bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

II. Fanning **vazifasi** – talabalarga O'zbekiston hududini yagona tarixiy madaniy makon sifatida uzoq o'tmish davrlardan to bugungi kunga qadar taraqqiyot bosqichlarini yaxlit jarayon sifatida tushuntirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar

Talabalar "O'zbekiston tarixi" fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim:

- O'zbekiston xalqlarining siyosiy tarixi, qadimgi va ilk davlatchilik tarixi, xalq sifatida shakllanishi va hukmron sulolalar tarixi, siyosiy kurashlar tarixi,

bosqinchilik yurushlari, milliy-ozodlik harakatlari, O'zbekistonda Rossiya bosqini va mustamlaka boshqaruv tizimi, O'zbekistonda Mustabid sovet tuzumining o'rnatilishi, Sovet tuzumining qatag'onchilik siyosati va uning oqibatlari, «paxta ishi», paxta yakkahokimligi, «qayta qurish siyosati» va mustaqillik davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar mohiyatini **bilishi kerak;**

- O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning qadimiyatdan to hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, davlatlarning boshqaruv tizimi, ijtimoiy munosabatlar, xo'jalik tarmoqlari, yer egaligi masalasi, soliq tizimining joriy etilishini bilishi va ularni tarixiy sharoit nuqtai nazaridan tahlil qila olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

- Talaba ushbu fandan olgan bilimni amaliyotda tadbiq eta bilishi, tarixiy voqea hodisalarni to'g'ri tahlil qila olishi, ulardan o'zi uchun foydali xulosalar chiqara olishi, olgan bilimni hayotda o'quvchilarni o'qitish jarayonida joriy qila olish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

1-mavzu: O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Darsning o‘quv maqsadi: O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va mintaqa tarixining jahon tarixi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish.

Tayanch iboralar: tarix, O‘zbekiston, fan, predmet, obyekt, nazariy-metodologik asoslar, tamoyillar, holislik, ilmiylik, tarixiylik, davr, tarixiy manba, yozma manbalar, moddiy manbalar, xalq, mamlakat, mintaqa, o‘tmish, Movarounnahr, Turkiston, Gerodot, xitoy yilnomalari, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, madaniyat, til, urf-odatlar, tarixiy o‘tmish, tarixiy xotira, sivilizatsiya, arxeologiya, numizmatika, paleografiya, etnografiya, sharq va g‘arb, shaharsozlik, “Avesta”, Bexistun yozuvlari, “Temur tuzuklari”, Beruniy, Forobiy, madaniy meros, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Alisher Navoiy, komil inson, vatanparvarlik, insoniylik.

Reja:

1. O‘zbekiston tarixi fani, predmeti, obyekt, uning maqsadi va vazifalari.
2. O‘zbekiston tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish.
4. Tarixiy manbalar va ularning turlari, ahamiyati.
5. O‘zbekiston tarixi fanining komil inson tarbiyasidagi o‘rni va roli.

Asosiy qism

Kishilik jamiyati qaror topganidan odamzod avlod-ajdodlari kimligini, qanday hayot kechirganligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan zaminni, Vatanining o‘tmish tarixini bilishni istaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, dini, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Har qaysi mamlakat, har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan uzoq va betakror tarixi bo‘lgani kabi ona Vatanimiz O‘zbekistonning ham, o‘zbek xalqining ham boy va sermazmun tarixi mavjuddir. qadim o‘tmishda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan ona zaminimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko‘ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoga mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng to‘lqinli, shiddatli chorralardan biri bo‘lib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma’lum darajada aralashuvi sodir bo‘lib, ularning madaniyati, tili, dini, fani, san’ati, turmush tarzi bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgan.

Bugungi kunga kelib Vatanimiz O‘zbekiston nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Tariximiz ildizlari necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. O‘zbek xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bo‘lib, hozirgi O‘zbekiston hududida ilk mustaqil davlat tuzilmalari, miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo‘lib, qariyb 3 ming yil mobaynida takomillashib borgan va Dunyo davlatchiligi

ravnaqiga eng yuksak darajaga ko'tarilganligi butun dunyoga ma'lumdir. Bundan qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Eramizgacha va undan keyingi asrlarda qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku-fayzini, mahobatini yo'qotmagan asori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugungi kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassam tarix, adabiyot, san'at, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz iftixorimizdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi ko'hna shaharlarimiz bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohlarga aylangan. Muqaddas zaminimiz orqali o'tgan "Buyuk Ipak yo'li" Sharq va G'arbdagi mamlakatlar va xalqlarni bir-biri bilan bog'lab, ularning madaniy, iqtisodiy hamkorligiga xizmat qilgan.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini, tabarruk zaminimizda necha ming yillar mobaynida yashab, kurashib ijod qilib kelayotgan xalqimiz o'tmishini "O'zbekiston tarixi" fani o'rganadi. "O'zbekiston tarixi" predmeti xalqimizning eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayoni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosi, davlatlarning tashkil topishi, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rganadi. "O'zbekiston tarixi" fanining dolzarb muommolari, yechimini kutayotgan talaygina masalalari mavjud bo'lib, jumladan Vatanimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholi va ularning joylashuvi, bu aholining qo'shni qabilalar bilan turlicha munasabatlari, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashagan qadimiy mahalliy aholi bizning ajdodlarimiz ekanligini asoslash va tadqiq etish shular jumlasidandir.

O'zbekiston tarixini o'rganishda manbalar alohida ahamiyatga molikdir. Bular moddiy va yozma manbalardir. Tariximizning eng qadimgi davrlarini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalarga suyaniladi. Bu manbalar turli ko'rinishlarda bo'lib, ularga qadimgi ajdodlarimiz yashagan manzilgohlar, shahar xarobalari, mozor-qo'rg'onlar qoldiqlari, kundalik turmush va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat, jangovor qurollar, turli-tuman ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa eng qadimgi yozuvlar, bitiklar, kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish joizki, tarix- "tadqiq etish", "tekshirish", "voqealar haqida aniq hikoya qilish" ma'nolarini anglatib, insonlar haqida, ularning uzoq o'tmish davrlardan bizgacha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

Vatanimiz tarixi ajdodlarimizning qadimgi davrlardan buyon bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini, ilk davlat shakllarining vujudga kelishi, xalqimizning millat sifatida shakllanishi, ma'lum davrlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolganligini, uning ayanchli mashaqqatlarini, ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashi, jasorat ko'rsatgan qahramonlarini, xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarishda jon fido qilgan o'g'lonlarini, qatag'on davri qurbonlari, nihoyat pirovardida xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik sharoitida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratishi sohalarida faoliyatini va nihoyat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish tomon borganligini o'rgatadi.

O'zbekiston tarixi fani xalqimiz tarixini haqqoniy aks ettiruvchi ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar yig'indisi hisoblanadi.

II. O'zbekiston tarixini yoritishda ilmiy nazariy-metodologik asoslarni o'rganish katta ahamiyatga egadir. Ular asosan quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, yoritishda ularga holisona, haqqoniy, ilmiy yondoshuv asosiy metodologik tamoyildir. Bunda tahlil qilinayotgan har xil tarixiy voqea-hodisalarni holis, haqqoniy voqea-hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada, deb o'rganish lozim. Holislik talab qiladigan qoidalar shundan iboratki, turli tarixiy davrlarda tarixiy-madaniy taraqqiyotni o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan, yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan barcha voqea-hodisalarni hech bir o'zgartirishlarsiz, qanday bo'lsa, o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosa chiqarib, yaxlit holga keltirish muhimdir.

Mustaqillik tarixni holisona yoritish imkoniyatini yaratdi. "O'zbek olimlarining kuch-g'ayrati bilan, - deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov:- tariximizning ko'pdan ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri XIX asr oxiri, XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etiladi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni "oqlash" vazifasi umuman olganda bajarib bo'lindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir".

O'zbekiston tarixini o'rganishning ikkinchi uslubiy tamoyili-bu voqea va hodisalarni dialektik asosda o'rganishdir.

Dialektika-olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Har bir voqea-hodisani, boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rganishdangina mazkur voqea-hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea-hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi deb qaramoq kerak. Chunki mavjud bo'lgan har bir xalq, millat yoki elat tarixi faqat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib tursada, butun insoniyat taraqqiyoti tarixi bilan umumiy aloqadorlikdadir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra haqiqatdan ham o'zbek xalqining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jahon tarixi taraqqiyotining bir o'zagi-qismidir. Eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o'tmishga qadar O'rta Osiyo,

Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Eron, Afgʻoniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar orasida yagona iqtisodiy, madaniy makon mavjud edi.

Uchinchi asosiy tamoyil tarixiylik boʻlib, har bir voqea-hodisa qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu koʻrinishda sodir boʻlganligini, bu voqea-hodisa oʻz taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib oʻtganligini, keyinchalik u qanday holatga tushganligini bilish tarixiylik tamoyilining asosiy talabidir. Masalan, biron davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai-nazaridan turib baho bermoqchi boʻlsak, birinchidan u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo boʻldi, ikkinchidan, u oʻz taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib oʻtdi, uchinchidan, uning tarixiy oʻrni, mavqei qanday degan savollarga aniq javob berish zarur.

Tarixiylik uslubi xalqning oʻtmishiga, hozirgi zamoni va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida oʻtmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab etadi. Oʻtmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik mukammal oʻrgansak, anglab yetsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni aniq tasavvur etamiz.

Toʻrtinchi tamoyil ijtimoiy yondoshuv tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda oʻrganishni taqozo etadi. Voqealarni alohidja bir ijtimoiy tabaqa-kambagʻallar, yoʻqsillar yoki mulkdor boylar nuqtai-nazaridan turib tahlil etish, yoritish, bir tomonlama yondoshuv boʻlib, bu tarixni soxtalashtiradi, notoʻgʻri xulosalarga olib keladi.

Ijtimoiy yondoshuv tamoyili davlat arboblarning siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yoʻlboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga koʻrsatgan ijobiy yoki salbiy taʼsirini, jamiyatning u yoki bu yoʻldan rivojlantirishdagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga molikdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mamlakatimiz tarixini oʻrganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, anʼanalar, urf-odatlar, din, diniy taʼlimotlar va ularning asoschilari faoliyatini yoritishda sivilizasion nuqtai-nazardan yondashmoq kerak.

Vatanimiz tarixini yaratishda, yuqorida zikr etilgan metodologik tamoyillardan tashqari faktlarni taqqoslash, davrlashtirish va boshqa usullardan ham zarur.

Vatanimiz tarixini mukammal oʻrganish, tadqiq qilishda uni toʻgʻri davrlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Sovetlar hukmronligi davrida SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan vatanimiz tarixini besh davrga boʻldilar.

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davri.
2. Quldorlik tuzumi davri.
3. Feodalizm tuzumi davri.
4. Kapitalizm tuzumi davri.
5. Sotsializm va Kommunistik davriga boʻlindi.

Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta “Kommunistik” ga olib boradi degan gʻoyani ilgari surush va oʻtkazishdan iborat edi. Shu tufayli XX asrning oxiriga kelib insoniyat bu gʻoyani yelkasidan uloqtirib tashladi. Natijada butun dunyoda “sinfiy qadriyatlar” dan “milliy va umuminsoniy qadriyatlar” ning ustunligi eʼtirof etildi.

Vatanimizning, o'zbek xalqining boy, serko'lam, betakror tarixi, uning o'ziga xos va mos tarixiy taraqqiyot davri mavjud bo'lib, uni tarixnavis olimlarimiz fikriga ko'ra quyidagi davrlarga bo'lish joizdir.

1. Ibtidoiy jamiya-T., Qadimgi davr. noto'g'riligini XX asrda ko'plab xalqlar taqdirida sinab ko'rildi. Pirovardida bu fojeali oqibatlarga olib keldi

2. O'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

O'zbekiston tarixi davrlashtirish masalasi yuzasidan 7 ta davrga bo'linadi:

1. Ibtidoiy to'da davri.
2. Urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri.
3. Ilk o'rta asrlar davri.
4. O'rta asrlar davri.
5. Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri.
6. Sovetlar davri.
7. Milliy istiqlol, demokratik va fuqorolik jamiyati qurish davri.

“Turon tarixi” jurnalida A. Asqarov yuqoridagi 7 davrni ko'rsatib o'tadi.

3.O'zbekiston tarixini o'rganishda asosan moddiy va yozma manbalardan foydalanamiz. Ularni davrlashtirish nuqtai nazaridan quyidagi manbalarga ajratish mumkin.

a) Eng qadimgi davrni arxeologik ashyolar yordamida;

b) “Avesto”, Bexistun yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari asosida;

v) Ilk o'rta asrlarni yunon-rim, so'g'd, xorazm va fors tili yozma manbalari asosida;

g) Mustamlakachilik davrini esa forsiy, turkiy, rus va xorijiy mamlakatlar ilmiy asarlari yordamida;

d) Mustaqillik davri esa Vatanimiz va xorijda chop etilgan O'zbekiston tarixiga oid asarlar yordamida yoritiladi.

Demak, qadimgi ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, kundalik turmushda ishlatgan jihozlari, tanga pullar, harbiy qurol-yarog'lar, uy-joy xarobalari, qal'alar, shaharlar, qabrlar moddiy-tarixiy manbalar deb ataladi. Arxeologik ilmiy tadqiqotlar orqali olib borilgan izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar asosiy manbalar hisoblanadi.

Yozuv paydo bo'lishi bilan savodxon kishilar o'zi yashab turgan va borib ko'rgan mamlakatlarini, ularning turmush tarzi, madaniyati haqidagi fikrlarini daraxtlarning po'stlog'iga, toshga, teriga, qog'ozga yozib qoldirganlar. Voqea-hodisalar, xalqlarning hayoti haqida, yerni meros qoldirish, in'om qilish, sotish, sotib olish yozma hujjatlar orqali va podsho, hokim, amir, beklarning yozma shakldagi qonun va farmonlari orqali amalga oshirilgan va saqlab qolingan. Bunday manbalar yozma manbalar deb ataladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VII-VIII asrlardagi hayotini o'rganishda “Avesto” kitobi qimmatli manba hisoblanadi, Vatanimiz tarixiga oid ma'lumotlar yunon va rim manbalarida: Gerodotning “Tarix”, Ksenofontning “Yunoniston tarixi” asarlarida uchraydi.

Xitoy yozma manbalaridan “Tarixiy yilnomalar”, “Katta Xan tarixi” va boshqa asarlarida Turkiston tarixi haqida ma’lumotlar bor.

Mamlakatimiz tarixini o’rganishda turkiy, fors, anab manbalarining ahamiyati katta bo’lib, S.E Malovning “Eniseyskaya pismennost tyurkov. Teksti perevodom”, A.Sa’dullayevning “Qadimgi O’zbekiston ilk yozma manbalarda”, N.Raxmonning “Turk hoqonligi” kitobida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

O’zbek xalqining etnik tarixini o’rganishda Abulg’oziyning “Shajarai turk”, Iso Jabborovning “O’zbek xalqi etnografiyasi” asarlaridan foydalanish mumkin.

O’zbek xalqining o’rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotini o’rganishda Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u-bilig”, Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’ati turk”, Nashshaxiyning “Buxoro tarixi”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” kabi nodir asarlari muhim tarixiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Turli sulolalar tarixini yoritishga bag’ishlangan Shahobiddin an-Nasaviyning “Siyrat as Sulton Jaloliddin Manguberdi”. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlari qimmatli manba hisoblanadi.

O’zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharq shunoslik institutidagi o’qlyozmalar xazinalaridan muhimi hisoblanadi. Bu yerda 40 mingdan ortiq qo’lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosmalar kitoblar, 10 mingdan ortiq sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Ana shu qo’lyozma hujjatlar milliy tariximizni yanada to’laroq ochishga ko’maklashishi, tariximiz sahifalaridagi “oq” va “qora” dog’larni barham topishiga yordamlashadi.

Hozirgi kunda tariximizni o’rganishda mustaqillik davrida tarixchi, etnograf olimlarimiz tomonidan yaratilgan darsliklar va o’quv qo’llanmalari muhim ahamiyatga egadir.

4. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek, “Har bir fuqoroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko’z qorachigidek asrab-avaylashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o’rgatadi. O’zimizning boy o’tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg’ularini uyg’otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi”.

Vatanimiz tarixi yoshlarga xalqimizning o’tmishi, tarixi haqida bilim berib qolmasdan balki ularni vatanparvar, insonparvar, ma’naviy jihatdan komil inson bo’lib yetishishlarida dastur-amal hisoblanadi. Vatanimizni keyingi avlodlarga yanada obod, qudratli, har tomonlama rivojlangan holatda yetkazish davrimizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas’uliyatli va sharaflı vazifani ado etish yoshlarga, ularning ma’naviy barkamolligiga bog’liqdir. Bu xususda Prezidentimiz I. A. Karimov “Biron bir jamiyat, ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va mustahkamlamay turib, o’z istiqbolini tasavvur qilib bo’lmaydi”-deydi.

“...Tug’ilib o’sgan yurtida o’zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko’tarib yurushi uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor

inson-irodali inson”. Insonda tarixiy xotira o‘z Vatani tarixini, o‘z xalqi, avlodlari hayotini o‘rganish orqali shakllanadi.

Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo‘ldan urush, xar-xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonlarni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”-deb uqtiradi I. A. Karimov.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixini o‘qitish barcha o‘quv maskanlarida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va obyekti nimalardan iborat?
2. Tarixiylik tamoyilining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Tarixni tadqiq etishda holislik tamoyilining ahamiyati nimada?
4. Ilmiylik tamoyili nimalarga asoslanadi?
5. Qadimgi va o‘rta asrlarga oid qanday manbalar mavjud? Misollar keltiring.
6. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?
7. O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat bo‘lganmi? Qaysi manbalarni bilasiz?
8. O‘zbekiston hududida sun’iy sug‘orish qaysi vaqtda boshlangan?
9. Xitoy manbalarining vatanimiz tarixini o‘rganishda ahamiyati nimadan iborat?
10. Tariximizni o‘rganishda va keyingi avlodlarga yetkazishda tarixiy xotiraning ahamiyati?
11. “Tarix- xalq ma’naviyatining asosidir” iborasini qanday tushunasiz?
12. Sovetlar davrida tariximiz qanday davrlashtirilgan?
13. Barkamol avlob tarbiyasida tarixiy manbalar va tarixiy-madaniy merosimizning ahamiyati nimada?

Vazifalar:

1. “Mening kichik Vatanim- mahallam, qishlog‘im, tug‘ilib o‘sgan joyim” mavzusida daftarda o‘z mahallasi, qishlog‘i, tug‘ilib voyaga yetgan kichik Vatani tarixini o‘rganib, insho tayyorlab kelish. Fotosur‘atlar, slayd shaklida taqdimot qilish ham tavsiya etiladi.

2. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarini chuqur o‘rganish.

3. “Avesta” tarjimalari bilan tanishish va o‘rganish asosida mazkur manbaning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatib berish.

Mustaqil ish uchun vazifalar:

I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarini o‘rganib chiqib, mustaqil ish tayyorlash (referat, slayd-, buklet-taqdimot, ma’ruza, insho, fotosur‘atlar to‘plami shakllaridan birini tanlab).

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”, -T., “O‘zbekiston”, 1992.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, -T., “O‘zbekiston”, 1997.
3. Karimov I.A. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida”, -T., “O‘zbekiston”, 1998.
4. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, -T., “Sharq”, 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010, 12 noyabr
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., “O‘zbekiston” 2015
9. Ahmedov V. “Tarixdan saboqlar”, -T., “O‘qituvchi”, 1994.
10. “Vatan tuyg‘usi”, -T., “O‘zbekiston”, 1996.
11. Jabborov I. “Antik madaniyat va ma‘naviyat xazinası”, -T., “O‘zbekiston”, 1994.
12. Sa‘dullayev A. “Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda”, -T., “O‘qituvchi”, 1996.
13. Narshahiy M. Buxoro tarixi. “Meros” turkumi. -Toshkent: “Kamalak”, 1991.
14. Nizomiddin Jomiy. Zafarnoma. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 1996.
15. “O‘zbekiston tarixi”, A.Sa‘dullayev, B. Eshonov umumiy tahriri ostida. -T., “Universitet”, 1997.
16. Q.Usmonov, M. Sodiqov, N. Oblomurodov “O‘zbekiston tarixi”, I-qism, -T., 2002.
17. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.
18. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universite-T., -T., 2005.
19. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.
20. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston Chor Rossiyasi hukmronligi davrida. 1-kitob. Sharq. -T., 2000.
21. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. Sharq. -T., 2000.
22. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. 3-kitob. Sharq. -T., 2000.
23. Is‘hoqov M.M. Avesta. Yasht kitobi. -Toshkent, 2000.
24. Shamsiddin Kamoliddin. Ibn al-Asir. Polniy svod istorii. Perevod s

arabskogo. -Tashkent: «Uzbekistan», 2006.

25. Shamsiddin Kamoliddin. Drevnetyurkskaya toponimiya Sredney Azii. -Tashkent: "Sharq", 2006.

26. Xo'jayev A., Xo'jayev K. Qadimgi manbalarda xalqimiz o'tmishi. -Toshkent: "Ma'naviyat", 2001.

27. Mirza Alim ibn Mirza Raxim Toshkandi. Ansab As-Salatin va Tavarix-al-Xavakin (Genealogiya sultanov i istoriya xakanov). -Tashkent, 2007.

28. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix. -Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

29. Zohir A'lam. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. -Toshkent: "Yurist-Media markazi", 2008.

30. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

2-mavzu. O'ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI

Darsning o'quv maqsadi: Talabalarga yurtimiz insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligini tarixiy ma'lumotlar orqali yetkazish natijasida mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Tayanch iboralar: antropogenez, paleolit, neolit, eneolit, bronza davri, homo habilis, zinjanthrop, avstralopitek va pitekanthrop, arxantrop, Selungur, Teshiktosh, Ko'lbuloq, Machay va Obishir, Qo'shilish, Omonqo'ton, Obirahmat, makonlar va manzillai, dastlabki dehqonchilik madaniyati, dastlabki diniy e'tiqodlar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, qadimgi shaharlar va davlatlar, Navro'z, yozuvlar, qadimgi Xorazm, sug'orma dehqonchilik, olov va kamonning kashf etilishi, hunarmandchilik qurollari, Baqtriya davlati, Zardushtiylik, qadimgi pahlaviy, oromiy yozuvlari.

Reja:

1. O'rta Osiyo jahon antropogen mintaqalaridan biri sifatida.
2. Paleolit davri va uning bosqichlari.
3. O'rta Osiyoda Mezolit davri tosh industriyasining xususiyatlari.
4. Neolit va Eneolit davri. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishi.
5. Shaharsozlik elementlarining ilk bosqichi.
6. Bronza va Temir davri. Xo'jalik taraqqiyoti va mulkiy tabaqalanishning vujudga kelishi.

Asosiy qism

Odamzodning paydo bo'lishi muommosi birgina biologiya fanining vazifasi bo'lmay, balki bu jumboq bilan arxeologiya va antropologiya fanlari ham shug'ullanadi. Bu muommoning ilmiy va ilohiy yechimlari mavjud. qaysi birining mutlaq to'g'riligiga ishonish esa har bir shaxsning subektiv huquqi hisoblanadi.

Jahon arxeologlari tomonidan insoniyat ilk vakillarining mehnat qurollari va suyak qoldiqlari Sharqiy Afrikaning Olduvoy darasidan, Indoneziyaning Yava orolidan, shuningdek Janubiy Osiyo mintaqasidan topib o'rganilgan. Fanda bu odam turlari Zinjanthrop, Avstralopitek va Pitekanthrop nomlari bilan yuritiladi. Eng

qadimgi odamlar-Arxantroplarning hayvonot olamidan farq qiluvchi eng muhim jihati ularning mehnat qurollari yasay olishlari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ibtidoiy odam vakillari “Homo habilis”-ishbilarmon odam deb yuritiladi. Ibtidoiy odamlarda mehnat qurollarining mavjudligi va ularning aksariyati toshdan yasalganligi sababli arxeologlar insoniyat tarixining ilk davrlarini tosh davri deb yuritib uni quyidagi bosqichlarga bo‘ladilar:

Paleolit davri (“paleos” qadimgi, “litos” tosh.)

1. Ilk Paleolit 2,5 mln. yildan-100 minginchi yilliklar
2. O‘rta Paleolit (Muste) 100-40 ming yilliklar
3. So‘nggi Paleolit 40-12 ming yilliklar
4. Mezolit (“mezos” o‘rta, “litos” tosh.) davri 12-6 ming yilliklar
5. Neolit (“neo” yangi, “litos” tosh.) davri 6-4 ming yilliklar
6. Eneolit (“eneos” mis, “Litos” tosh.)davri 4-3 ming yilliklar
7. Bronza (jez) davri 3-2 ming yilliklar
8. Temir davri 1 ming yilliklar

Jamiyatshunos olimlar ibtidoiy odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xosligiga G‘arab jamiyat tarixini qo‘yidagicha davrlashtiradilar:

1. Ibtidoiy to‘da davri. Bu davr inson paydo bo‘lganidan O‘rta Paleolitning oxiriga qadar davom etadi.

2. Urug‘chilik davri. Ibtidoiy jamoa tuzumining bu bosqichi 40 ming yillikdan 3-2 ming yillikkacha bilgan davrni o‘z ichiga olib, urug‘chilikning birinchi bosqichi Matriarxat (ona urug‘i) davri, ikkinchi bosqichi Patriarxat (ota urug‘i) davri deb yuritiladi. Kishilik jamiyatining bronza davriga kelib, ibtidoiy jamoa davri tugab, asta sekin sinfiy jamiyat kurtaklari paydo bo‘la boshlaydi.

O‘rta Osiyo mintaqasi odamzod paydo bo‘lishi uchun qulay bo‘lgan o‘lkalardan biridir. Chunki qulay iqlim sharoitlari tufayli O‘rta Osiyo iste‘mol madaniy o‘simliklar kelib chiqqan yettita asosiy markazlardan biri hisoblanadi. Bular Kichik Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Shimoliy G‘arbiy Hindiston, Kavkaz va O‘rta Osiyodir. Bu hudud non o‘simliklari bo‘lgan bug‘doy, arpa va javdarning kelib chiqqan jahon manbaidir.

O‘rta Osiyoda eng qadimgi ajdodlarimiz izlari Tojikistonda, Janubiy Qozog‘istonda, O‘zbekistonda (Selungur, Teshiktosh, Ko‘lbuloq) topib o‘rganilib ular ashel davriga tegishli ekanligi aniqlandi. Selungur va Ko‘lbuloq manzilgohlaridan topilgan odam suyagi yoshi bir million yilni ko‘rsatadi. Bu esa O‘rta Osiyo mintaqasi odamzodning ilk ajdodlari paydo bo‘lgan (antropogen) mintaqalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

So‘nggi 100 yil davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston hududidan ibtidoiy davrga oid ko‘plab manzilgohlar topib o‘rganildi. Jumladan 1985 yilda arxeolog O‘.Islomov Farg‘ona vodiysi So‘x rayoni yaqinidan Ilk Paleolit davriga talluqli Selungur manzilgohini, arxeolog M.Qosimov esa Toshkent viloyati Angren shahri yaqinidagi Ko‘lbuloq manzilgohini topib o‘rgandi. Bu manzilgohlardan topilgan moddiy ashyoviy dalillar mintaqamiz odamning paydo bo‘lishi va rivojlanishida jahonda kam uchraydigan mintaqalardan biri bo‘lganligidan dalolatdir.

O'rta Osiyo jumladan Farg'ona vodiysi o'zining tabiiy-iqlim sharoiti va ekologik imkoniyatlariga ko'ra ibtidoiy to'da davrining o'rta bosqichi-ashel davridan boshlab eng qadimgi ajdodlarimizning e'tiborini iziga tortgan va bu mintaqadagi Selungur G'orida sinantroparning zamondoshlari ilk bor makon topgan. Bu makondan odam suyak qoldiqlari topildi. Bu voqea O'rta Osiyoni odamning paydo bilish mintaqalari tizimiga kiritdi.

Selungur topilmasi juda yomon saqlangan. Ammo akademik V.P. Alekseyev va professor -T.,Q. Xo'janovlar fikriga ko'ra, bu yerdan odam bosh suyagi qomqog'ining morfologik tuzilishi uning juda qadimiy va g'ordan topilgan boshqa ashyoviy dalillar bilan zamondosh ekanligini inkor etmaydi. Ushbu topilma o'z ahamiyati bilan O'rta Osiyo hamda O'rta Sharq mintaqasida tengsiz kashfiyot hisoblanadi. Shuning uchun o'zbek arxeologlari va antropologlari uni "fergantrop", ya'ni "Farg'ona" odami deb atamaqdalar. U odamning paydo bilish shajarasida pitekantrop bilan neandertal odamlari oralig'idagi bo'g'inni to'ldiradi.

Qadimgi odamlar asta-sekin tabiatdan tayyor narsalarni olibgina qolmasdan, mehnat qurollarini takomillashtirib bordi. Toshni ishlab, undan kesish, teshish uchun ishlatiladigan maxsus qurollar tayyorlana boshlandi. Shunga qaramay inson hali tabiat oldida ojiz edi. Ular tabiat va yovvoyi yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun to'da-to'da bo'lib yashashardi. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichi shuning uchun ham to'da davri deb yuritiladi. To'da davri ilk va o'rta paleolit davrlarini (1 mln.-40 ming yilliklar) o'z ichiga oladi.

O'rta paleolit (100-40 ming) davrining boshlarida yerda iqlim soviy boshladi. Muzlik davri boshlanib u mezolit davriga qadar davom etdi. Bu davrda inson kiyinish madaniyatini, hamda sun'iy olov yaratish usulini o'zlashtirdi. Olovning kashf etilishi insoniyat taraqqiyotida yana bir katta qadam bo'ldi. Ovlanagan hayvonlar go'shtining pishirib iste'mol qilinishi insonning biologik mukamallashuvini ta'minladi. Diniy tasavvurlarning ilk ko'rinishlari paydo bo'ldi. Surxondaryoning Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bolasining qabri bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Chunki bola ma'lum tartib-qoida va rasm-rusmga binoan dafn qilingan edi.

So'nggi paleolit (40-12 ming yillik) davrida aql-idrokli odam-"Xomo sapiens" shakllandi. Inson turar joy qurishni o'zlashtirdi. Odam irqi paydo bo'ldi. Tasviriy san'at, diniy tasavvurlar vujudga keldi. Ona urug'i-matriarxat davri boshlandi.

2. Miloddan oldingi 12 ming yillikdan o'rta tosh-Mezolit davri boshlandi. O'zbekiston hududida mezolit davriga oid yodgorliklar Toshkentda (Qo'shilish), Surxondaryoda (Machay) va Farg'onadan (Obishir) topilgan. (Respublikamizda bunday joylar 100 dan oshiq). Bu davr odamlarining asosiy mashg'ulot turi xali ham ovchilik va baliqchilikdan hamda termachilikdan iborat bo'lgan. Odamlarning mehnat qurollari takomillashib, mikrolit-mayda tosh qurollari paydo bo'ldi. O'q-yoy ixtiro qilinishi yakka ovchilar mavqeini oshirdi.

Mezolit davrida O'rta Osiyoning deyarli barcha rayonlari aholi yashashi uchun qulay imkoniyatlarga ega edi. Muzliklardan so'ng hosil bo'lgan katta-kichik daryo va ko'llar, ular atrofidagi qalin o'rmonlar va chakalakzorlar yovvoyi hayvonlarning ko'payishi, baliqchilikning rivojlanishi uchun juda qulay edi.

Mezolit davri jamoalarida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga kirib ulgurgan edi. Ana shu tasavvurlar haqida guvohlik beruvchi birdan bir ashyoviy dalillar mezolit davri mozorlari-yu, u davr rassomlari chizgan g'oya toshlardagi rasmlardir. Surxondaryoning Zarautsoy darasidan topilgan qoyatosh suratlarida yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Zarautsoy qoya suratlari o'sha davr odamlarining fikr-doirasini, diniy tasavvurlarini o'sha davr mafkurasini darajasini ko'rsatadi.

3. Neolit yunoncha so'z bo'lib, "neo" yangi, "lit" tosh degan ma'noni anglatadi. Kishilik tarixining neolit davri qurollarni ishlash texnikasida silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash usullarini ixtiro etilishi tufayli kelib chiqdi. Mehnat qurollari takomillashgan neolit davri jamoalari uchun endi mezolit davridagidek daydi hayot kechirishga zarurat qolmaydi. Endi ular o'troq hayot kechirishga o'tadilar. O'troq turmush tarzi dehqonchilikning kelib chiqishiga hamda cho'lli mintaqalarda chorvachilikni ham paydo bo'lishiga olib keldi. Neolit davri jamoalari hayotida o'troq ho'jalikning yorqin belgisi sifatida yana bir ho'jalik yangiligi ixtiro qilindi. Bu-bo'lajak hunarmandchilik ho'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan sopol ishlab chiqarishning paydo bo'lishi edi.

To'qimachilik hunarmandchiligining vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Yig'ilgan ipdan to'r to'qish, u yordamida baliq ovlash ovchilik xo'jaligining keskin darajada rivojlanishiga olib keldi.

O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida mil.avv. 6-5 ming yilliklarda neolit davri qabilalari ziroatchilikka o'tadi. Qadimiy ziroatchilar makonlaridan biri Chaqmoqli deb atalib, Ashxaboddan 40 chaqirimli yerdadir. Bu yerdan paxsali bir xona o'ylar topilgan. Uylar ichidan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, sopol parchalari topilgan. Chaqmoqli O'rta Osiyoning aholisi ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan dastlabki qishloqlardan biri hisoblanadi.

Neolit davri Ovchi va baliqchilarning qadimgi yodgorligi Kaltaminordir. U Xorazmning sobiq Kaltaminor kanali o'zanidagi manzilgohlardan ibora-T., B uyodgorlikning ancha yaxshi saqlangan manzilgohlaridan biri Jonbos-4 dir. Kaltaminor yodgorligiga xos mehnat qurollari va kulolchilik buyumlari Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarda: Zarafshon va Amudaryoning quyi oqimlari hamda Qizilqum sahrolarida uchraydi.

Mehnat qurollarini takomillashtirish uchun doimiy izlanishda bo'lgan odam miloddan avvalgi 4 ming yillikda misni kashf qildi. Bu davr fanda Eneolit davri deb yuritilib, bu davrda Markaziy Osiyoning janubida sug'orma dehqonchilik vujudga keldi. Xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi; sopol idishlar hayvon, qush, o'simlik shaklidagi naqshlar bilan bezatila boshlandi.

Eneolit davrining ko'plab manzilgohlari Turkmaniston janubidan topib o'rganilgan (Anov, Namozgoh, Oltintepa).

4. Miloddan avvalgi 3-ming yillik o'rtalaridan boshlab bronza mehnat qurollari va yarog'lar yasashda asosiy xom ashyo bo'lib qoldi.

Bronza davriga kelib hozirgi O'zbekiston hududida ilk dehqonchilik vujudga keldi. Ziroatchilarning qadimgi manzilgohlaridan birini arxeologlar Zarafshon vodiysidagi Zomonbobo ko'li yaqinidan topib o'rganganlar. Qazuv ishlari natijasida yarim yerto'la chayla-uy qoldiqlari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar suyaklari,

bug‘doy, arpa donalari, toshdan yasalgan yorg‘uchoqlar, chaqmoqtoshdan yasalgan o‘roq va sopol idishlar topilgan.

Panjakent yaqinidagi Sarazm qishlog‘idan arxeologlar qadim ziroatchilarning yana bir manzilgohini topdilar. U yerdan ko‘plab mehnat qurollari chiqdi. Ko‘p xonali uylar, metall erituvchi ustaxonaning mavjudligi Sarazm qadim aholisining yuksak turmush madaniyatidan darak beradi.

Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari bronza davrining eng tipik manzilgohlari bo‘lib, ular miloddan avvalgi 2 ming yillik o‘rtalariga taalluqlidir. Sopollitepa yodgorligi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan topilgan. Manzilgoh to‘rtburchak shaklida bo‘lgan. Bu qal‘aning ko‘plab xonalari, xo‘jalik bo‘linmalari aniqlandi. Ularda kulolchilik xumdonlari, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, taqinchoqlar topilgan. Arxeologlar ma‘lumotlariga ko‘ra ularda shaharga xos bo‘lgan barcha belgilar mavjud ekan. Bu esa Vatanimiz tarixida ilk urbanistik jarayonlar aynan bronza davridan boshlanganligini ko‘rsatadi.

Amudaryoning quyi oqimidan topilgan Tozabog‘yob yodgorligi ham bronza davrining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalari manzilgohidir.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida ro‘y bergan buyuk madaniy ho‘jalik ixtirosi edi. Shu munosabat bilan mehnat qurollarining turi ko‘paydi, harbiy qurollarning xili va jangovarligi ortdi. Bronzadan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari ham paydo bildi. Ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamchil metall bo‘lib qolaverdi. U mehnat qurollarini yasashda tosh xom ashyosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi.

Bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlari, harbiy qurol-aslahalar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonalari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayirboshlash kuchaydi. Masalan, O‘rta Osiyoning janubiy rayonlarini Xitoy bilan bog‘lab turgan “Ipak yo‘li” yoki Badaxshon la‘lining Yaqin Sharqqa yoyilishini ta‘minlagan Lazurit yo‘lini eslash mumkin. Aloqa bobida quruqlikda transport sifatida hayvonlar kuchidan foydalanish boshlandi. Hayvonlar qo‘shilgan g‘ildirakli aravalar vujudga keldi.

Arxeologlarning O‘rta Osiyoda olib borgan ilmiy izlanishlarining natijalariga ko‘ra bronza davrida ovchilik va termachilik hayotda o‘zining dastlabki rolini yo‘qotdi. Aholining asosiy xo‘jaligi chorvachilik va dehqonchilik bo‘lib qoldi.

Ota urug‘i vujudga keldi. Ikki urug‘ o‘rtasida bir necha ming yillar davom etgan guruhiiy nikoh tizimi buzildi. Juft oila o‘z mazmuni bilan monogam (yakka) oila darajasiga ko‘tarildi. Bunga ko‘ra oilada erning haq-huquqi mustahkamlandi. Erkaklar cheksiz huquq va davlat egasi sifatida oilani boshqardi. Ibtidoiy urug‘chilik jamoasi iqtisodiy negizida sodir bo‘lgan bu o‘zgarishlar o‘z navbatida urug‘chilik jamoasi tuzumining yemirilishiga, dastlabki sinfiy jamiyat asoslarining vujudga kelishiga xizmat qildi.

Temirdan yasalgan mehnat qurollarining keng tarqilishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu hol ishlab chiqarishning yanada ilg‘or usullariga o‘tish uchun sharoit yaratdi. Urag‘ jamoasi hududiy qo‘shni jamoaga aylana bordi.

Yangi yerlar va suv manbalari uchun qabilalar o'rtasida doimo kelishmovchiliklar bo'lib turgan. Qabila chegaralarini qo'riqlash, yangi yerlarni o'zlashtirish va boshqa qabilalar ustiga yurush qilish maqsadida qabilaviy harbiy ittifoqlar tashkil topa boshlagan. Bunday ittifoqlar tepasida urug', qabila boshliqlari turganlar. Ular o'z obro'si va ta'siri bilan mashhur bo'lgan kishilardan saylangan.

Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida O'rat Osiyo aholisi to'rt guruhga bo'lingan: zodagonlar, harbiylar, ziroatchilar va hunarmandlar.

Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek, hunarmandchilik va mol ayirboshlashning rivojlanishi urug' va qabilalar ichida ayrim to'q oilalarning vujudga kelishiga olib keldi. Muntazam bo'lib turadigan harbiy to'qnashuvlar sharoitida urug'-qabila boshliqlarining ta'siri kuchayadi. Jamiyat endi harbiy demokratiya qonun-qoidalariga asosan yashay boshlaydi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Sivilizatsiya tushunchasini izohlab bering?
2. Zardushtiylik dinining muqaddas «Avesto» kitobining ahamiyati nimada?
3. Paleolit davridagi qanday kashfiyotlar iqtisodiy hayotning rivojlanishiga asos bo'ldi?
4. Matriarxat va patriarxatning insonlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o'rni bo'lgan?
5. O'q-yoyning kashf etilishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
6. Neolit davrida ishlab chiqarish xo'jaligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
7. Bronza davrida odamlar hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
8. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar haqida gapiring?
9. Ko'lbuloq va So'x g'orlari topilmalari haqida nimalar bilasiz?
10. "Avesta" da mintaqamizda paydo bo'lgan ilk davlat uyushmalari to'g'risida qanday ma'lumotlar keltirilgan?

Vazifalar:

Matyoqub Madaminovning "Xorazmning qadimiy va o'rta asrlar shaharsozligi tarixi" (Toshkent: "Istiqlol", 2009) nomli monografiyasi bilan tanishib chiqish va tahlil qilish.

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Mintaqamizda paleolit-bronza davrlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, diniy o'zgarishlar, yutuqlar tahliliga oid jadvalni daftarlarida to'ldirish
2. O'zbekistonning qadimgi dehqonchilik madaniyati markazlari tarixini o'rganish

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., "Sharq" 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.,

“O‘zbekiston”, 1992.

3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. —T., “O‘zbekiston” 2009.

4. Asqarov A. Sopollitepa. -T., 1973.

5. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. -T., “O‘qituvchi”, 1994.

6. Islamov U. Pishera Machay. -T., 1975.

7. Kabirov J. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. -T., 1990.

8. Karabkova G.F. Mezolit Sredney Azii. -L., 1964.

9. Masson V.M. Poseleniya Djeytun. -M., 1971.

10. Okladnikov A.P. Paleolit i mezolit Sredney Azii. -M., L., 1966.

11. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -M., 1948.

12. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. -T., 1957.

13. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.

1. 12. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universite-T., -T., 2005.

14. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.

15. Is‘hoqov M.M. Avesta. Yasht kitobi. -Toshkent, 2000

16. Sulaymonov R. Drevniy Naxsheb. -Tashkent, 2000

17. M. Madaminov. Xorazmning qadimiy va o‘rta asrlar shaharsozligi tarixi. -Toshkent: “Istiqlol”, 2009.

18. M.Is‘hoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O‘rta Osiyo ilk shaharlari va davlatlari tarixidan. -Toshkent: Xorazm Ma‘mun Akademiyasi nashriyoti, 2010

19. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

3-mavzu. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Darsning o‘quv maqsadi: Yurtimiz hududida davlatchilikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari to‘g‘risida bilimlar berish va ularni tahlil qilish borasida ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash.

Tayanch iboralar: davlatchilik, ilk shahar ko‘rinishidagi manzilgohlar, shaharlar, davlat, mudofaa devorlari, ijtimoiy tabaqalanish, ortiqcha mahsulot, mehnat taqsimoti, hunarmandchilik, kulolchilik, chorvachilik, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, harbiy zodagonlar, koxinlar, “Avesta” ma’lumotlari, o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik, nmana, vis, zantu, dahyu, kavi, Qiziltepa, Kuchuktepa, Beshqo‘ton, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha, Obishir, Sho‘rtepa, Avesto, Baqtriya, Parfiya, Qang‘, Davan (Parkana) Kushon, Daratepa, Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Dalvarzin, Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona, Qang‘, Davan, Marg‘iyona, Gerodot, tarixiy manbalar ma’lumotlari, Ahmoniyalar davlati, Parfiya, To‘maris, Shiroq, Kir II, satraplik, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar sulolasi, ellinizm, antik davr, yuechji, guyshuan, Kushonlar, Kudjula Kadfiz, Kanishka, Vima

Kadfiz, otashparastlik, buddaviylik, moniylik, oromiy yozuvi, sug‘d yozuvi, yunon-boxtar yozuvi.

Reja:

1. Davlatchilikning asosiy omillari. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona.
2. Ahmoniylar hukmronligi va Iskandar Zulqarnayn bosqini davrida O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti.
3. Qadimgi Yunon – Baqtriya, Parfiya, Qang‘, Davan (Parkana)
4. Kushonlar davlati.

Asosiy qism

Arxeologik manbalarning dalolat berishicha O‘rta Osiyoning ba’zi vohalari (Baqtriya, Marg‘iyona, Katta Xorazm)da so‘nggi bronza va ilk temir davrlaridayoq dastlabki siyosiy birlashmalar- davlat tuzulmalari paydo bo‘lgan. Ularning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, aftidan, tashqi sub’ektiv omillar (jumladan, Old Osiyoda joylashgan Midiya, Ossuriya kabi davlatlar tomonidan solib turilgan xarflar) ham ma’lum ta’sir ko‘rsatgan. “Avesto”, antik davr adabiyotlari (Gerodot, Yustin, Strabon asarlari) va ilmiy adabiyotlar (S.P.Tolstov, V.Masson, M.Dandamayev asarlari) da O‘rta Osiyoda ahmoniylargacha bo‘lgan davrida quyidagi davlat uyushmalari bo‘lganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

1. Mil. avv. IX-VI asrda oid qal’alar Anov, Yoztepa (Turkmaniston), Daratepa, Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Dalvarzin (O‘zbekiston) dastlabki davlat uyushmalari markazlari bo‘lgan deb taxmin qilinadi.
2. Aryonam Vayjo- markazi Ariya va Marg‘iyonada bo‘lgan “Katta Xorazm” yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati.
3. Qadimgi Baqtriya davlati.

“Avesto” ning Yasht qismida ta’riflanishicha, ilk sinfiy tengsizlik davrida Markaziy Osiyoda jamiyat alohida oilalar (“nmana”) dan tashkil topgan. Yerga urug‘ jamoasi (“vis”) egalik qilgan. Bir necha urug‘lar qabila (“zantu”)ga birlashgan, qabilalar birlashib viloyat (“dahyu”)ni tashkil qilgan. Viloyatlardan boshliq (“kavi”)lar idora qilgan. “Avesto” ga ko‘ra jamiyat o’sha davrda kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo‘lingan. Bu davrda oila tarkibida to‘la huquqqa ega bo‘lmagan a’zolar vira, vaysa va parnaytarlar ham bo‘lgan. Vira odatda “erkak” “janchi” ma’nosi bilan birga “qul” ma’nosida ham ishlatilgan.

Yuqorida e’tirof etilgan toifalar orasida chorvadorlarga alohida e’tibor berilgan. Xususan, Ahura-Mazda madhiyalari orasida “Sen o’sha, kim bizga hayot manbai bo‘lgan chorvani dunyoga keltirgansan... Chorvaga yaxshi ega kerak. Ushbu yerdagi chorva egalariga men erkin hayotni ta’min qilaman”, - degan fikrlar uchraydi. “Avesto” da o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan O‘rta Osiyo va Eron xalqlari haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Bu ikki hudud o‘rtasidagi nafaqat iqtisodiy va siyosiy balki diniy, ma’naviy va g‘oyaviy qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘lgan. “Avesto” jamiyatda ezgulikni targ‘ib qilgan. Uning asosiy shiori “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”dir. Bu muqaddas kitobda targ‘ib qilingan ezgu niyatlar asrlar davomida jahon xalqlari qalbiga singib, ularni yaxshilikka davlat qilib kelgan. Otashparastlik dinida yakka xudolik ta’limoti targ‘ib etilishiga qaramasdan Zardusht Ahura-Mazdaga tayanch

bo'lgan bir necha xudolar haqida ma'lumotlar bergan. Ular orasida Mitra xudosi insoniyatga hayot manbai bo'lgan quyosh nuri va issiqlik beradi. Anaxita xudosi odamlarga yer, suv, hosildorlik, go'zallik, sevgi-muhabbat, nafosat, qaxramonlik, kuch-quvvat, yutuqlar beradi.

“Avesto”da O'rta Osiyodagi ko'plab jug'rofiy nomlar tilga olinib, jumladan shunday deyiladi: “Eng yaxshi yerlar va mamlakatlarning birinchisi qilib, men Axura-Mazda, Aryonam Vayjoni yaratdi Yaxshilarning iqqinchisi sug'dlar Bahdi va hakoza. Hammasi bo'lib “Avesto” da 16 ta mamlakat sanab o'tiladi.

Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan mamlakatlar Yasht viloyatlari ro'yxatidan farq qilib, bu ro'yxatga ko'ra unga Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Bahdi, Nisayyo, Ar'yo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Raga, Chaxro, Varna, nomsiz yetti Hind viloyatlari va Ranxa daryosi boshlaridagi mamlakatlar kiradi. “Avesto”da Aryonam Vayjo, Sug'd (Gova), Baqtriya va Marg'iyona kabi viloyatlarga aniq tasvirlar berilishi kitobni yaratuvchilar o'lka viloyatlarida yashaganliklari va ular haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi.

“Aryonam Vayjo” - “Oriy kengliklari” ma'nosini beradi. Ko'p tadqiqotchilar uni Xorazm deb tushunsalarda, boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, I.M.Dyakonovning fikricha “oriy kengliklari” bir mamlakat yoki viloyat tushunchasidan ko'ra kengroq, ma'noda qo'llanib, butun O'rta Osiyo va Sharqiy Eron tekisliklarini o'z ichiga olgan. “Oriy” atamasi odatda ko'chmanchi qabilalar – “turlar”ga qarshi bo'lgan xalqlarga nisbatan qo'llanilgan. Antik tarixchilar bu jildida girkaniylar, parfiyaliklar, tamaneylar, drangiyonlar va xorazmliklar yerlari chegaralaridan o'tgan Oks daryosida to'g'on qurilgan va u xorazmliklarga tegishli ekanini yozadi. Gekatey Gerodotdan sal oldinroq (mil. avv. 500 yillar) parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan “bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog'larda yashovchi” xorazmliklarni tilga olgan edi. Bu “Katta Xorazm” bo'lib, yuqoridagi fikrlarga ko'ra, Marv va Hirotning ba'zi tumanlarini ham qamrab olgan.

“Avesto”ning Yasht madhiyalari ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv IX-VIII asarlarga oid Amirobod madaniyati Xorazm yodgorliklari orasida alohida o'rin tutadi. Bu davrda bronza davri madaniyati xususiyatlari saqlanib qolgan, yarim yerto'la turar joylar va sug'orish inshootlari qurilgan, qo'lda yasalgan idishlar keng tarqalgan (bu davrda hali kulolchilik charxi ma'lum bo'lmagan). Bronza buyumlaridan o'roqlar, jez ignalar va o'q uchlari qo'yilgan tosh qoliqlar topilgan.

Mil. avv. VI-V asrlarda Xorazm hududida ko'plab shahar - qal'alar mavjud bo'lib, shulardan biri – Ko'zaliqir Xorazmning qadimgi markazlardan biri bo'lgan. U mustahkam mudofa devorlari bilan o'ralgan. Ko'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi bilan Baqtriyadagi Qiziltepa shahar devorlarining tuzilishida ancha o'xshashliklar bor. Shahar devorlari ustida o'q otish uchun harbiy minora-mudofa burji qurilgan. Devorlarning har ikki qatorida shinaklar qilangan. Bu davrda uy-joy qurilishi ancha takomillashgan. Uylar, g'isht va paxsadan qurilgan. Jumladan, Dingalja uy - qo'rg'oni paxsa devori bilan o'ralgan uy-joy, xo'jalik xonalari va hovliidan iborat bo'lgan. Qadimgi Xorazmda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, binokorlik va savdo- sotiq ancha rivojlangan.

Mil.avv. IV asrda Xorazm Ahmoniyar hukmronligidan ozod bo'lib, mustaqil davlatga aylandi. Mil.avv. III-II asrlarda Xorazm Yunon- Baqtriya va Parfiya

davlatlari bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini o'rnatganni bu yerda o'ziga xos madaniy taraqqiyotning shakllanishida muhim omil bo'ldi. Jonbosqal'a, Qo'yqirilgan qal'a yodgorliklari mazkur madaniyat namunalari dandir. Xorazm hududidan O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvlar. (Oybo'yirqal'adan mil.avv. V- IV asrlarga oid xum sirtidagi yozuv) topildi. Qo'yqirilgan qal'a – dan mil.avv. IV-III asrlarga oid yozuv namunalari, Tuproqqal'a yodgorligidan oromiy yozuvidagi butun bir arxiv hujjatlari topilgan.

O'rta Osiyoda yana bir yirik davlat tuzulmasi Qadimgi Baqtriya podisholigi bo'lib, "Avesto" da u "Go'zal, tug'lari yuksak ko'tarilgan" davlat sifatida ta'riflanadi. Baqtriya haqidagi qadimgi ma'lumotlar Naqshi Rustamdagi Bexstun, qoyasida ham uchraydi. Baqtriya satrapligi Ahmoniylar imperiyasining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Shu tufayli bo'lsa kerak, Persepolda Baqtriyaliklar 15 joyda (jumladan, idish ko'targan va tuya yetaklashgan holda) tasvirlangan. Baqtriya haqida qadimgi yunon tarixchilari – Gerodot, Ktesiy, Strabon, Diador, Pliniy, Arrian, Kursiy Ruf, Gekatey va b. qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Jumladan, Ktesiy Ossuriya podishosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurushi, Baqtriya podishosi Oksiart va uning xazinasini haqida xabar beradi. Ktesiy asarlarida tasvirlangan xalqlar orasida Baqtriyaliklar birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Gerodotning "Tarix" asarida Ahmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan 20 ta satraplik va 70 xalqlar orasida Amudaryo, qirg'oqlarida joylashgan mamlakat – Baqtriya va baqtriyaliklar Ariananing jovohiri sifatida tariflaydi. Ko'pchilik muoliflar baqtriyaliklarni "jangovor", "botir", ko'p sonli xalq sifatida tariflaydilar. Mamlakatda mastahkamligi sababli "zabt etib bo'lmaydigan" ko'plab joylar, shu jumladan, poytaxt Baqtra (Balx) bor edi.

Ktesiyning "Persika" asarida Baqtriyaning ko'plab qal'alari va istehkomlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Baqtriya hududidan mil.avv. 1- ming yillikning 1 yarmiga oid 240 dan ortiq uy- qo'rg'onlar, qal'alalar va shaharlar qoldiqlari tekshirilgan. Baqtriya daryo va vohalardan iborat beshta viloyat – Surxon, Balxob, Kofirnixon - Vaqsh, Panj, Ko'kcha - Qunduzni birlashtirgan. Keyinchalik Baqtriya davlati kuchayib, o'z tarkibiga Marg'iyona va Sug'diyonani ham qo'shib olgan. Shunday qilib, mil.avv. VII asrlarda qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va ularga chegaradosh viloyatlar kirgan. Bu vaqtda Baqtriya va Sug'dning Qizil tepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on va Afrosiyob kabi markaziy shaxarlari bo'lgan. Shimoliy Avg'onistonda yirik shaxarlar qoldiqlari – Bolo Xisor va Oltindiyorlar tekshirilgan. Bolo Xisor o'rnida qadimgi Baqtriya joylashgan. Shaharlar keng maydonlarni egalagan. Ularning qalin mudofa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'on-qal'alari ham bo'lgan.

Surxon voxasida joylashgan Qiziltepa (Markazi bo'lgan), Kuchuktepa, Beshqo'ton, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha, Obishir, va Sho'rtepa yodgorliklari alohida o'rin tutadi. Bu qal'a va uy - qo'rg'onlar mudofa burchlari (Minorolari) bo'lgan qalin devorlar bilan o'ralgan. Uylar hom g'isht va paxsadan qurilgan. Hunarmandchilik ancha rivojlangan. Yodgorliklardan sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan pichoqlar, o'roqlar, bronza idish parchalari va o'q uchlari, jez igna va bigizlar, sopol urchuqlar, toshdan yasalgan qurollar topilgan.

Gerodot Axmoniylar podishosi Qir Midiyani bo'ysundirgandan so'ng uning yo'lida "Vavilon, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar turgani" haqida xabar beradi. Bu Baqtriya va sak-masagetlar kofederatsiyasi Misr va Bobil singari yirik davlatlar bilan bir qatorda turganidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar Marg'iyona, Sug'd va hatto Areya ham bir muncha vaqt Baqtriya tarkibiga kirlanligini tasdiqlaydi.

O'rta Osiyo hududidagi uchinchi siyosiy kuch "Avesto" da "turlar" deb atalgan ko'chmachi sak qabilalarining konfederatsiyalari bo'lib, ular O'rta Osiyoning shimoliy kengliklarida yashar edilar. Ko'chmachi qabilalar jamiyatlari mil.avv. XI-VIII asrlarda o'lkaning to'liq hududlarida tarkib topgan. Bu jamiyatlar hujumkor tabiatga ega kuchli harbiy-siyosiy birlashmalardan iborat bo'lib, muntazam janubiy dahqonchilik vohalariga xavf solib turar edilar.

Qadimgi yunon tarixchilari Kaspiy dengizidan Oltoygacha bo'lgan bepayon hududda ko'chmachi skiflar yashashi haqida ma'lumotlar berishgan. Ahmoniylarning mixxat yozuvlarida skiflar tarkibiga kiruvchi saklar uch guruhga bo'linadi:

1. Saka – xaumavarka. Tadqiqotchilar bu guruhni Gerodotning "skif - amorglar" bilan bir deb hisoblaydilar.
2. Saka – tigraxauda – "o'tkir uchli qalpoq kiygan saklar".
3. "Saka – tiay – tara - darayya" - "daryo ortidagi saklar".

O'rta Osiyoda yashagan eng yirik qabilalardan biri – massagetlar bo'lib, ular bir necha sak qabilalarini, birlashtirgan yirik qabilalar ittifoqi edi. Massagetlar jangovor qabilalar ittifoqi bo'lib, ular nayza, cho'qmorlar bilan qurollanganlar. Massagetlar uchun uzoq yashash yoki jangda halok bo'lish faxr hisoblangan.

Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari Eron Ahmoniylari, IV asrning ikkinchi yarmida Iskandar Zulqarnayn boshliq yunon – makedon davlati, .. asrning 20 yillaridan III asr o'rtalarigacha Salavkiylar davlati (yunon lashkarboshisi nomi bilan atalgan) asoratiga tushib qoldi. Salavka Iskandar davrida Spitamenning qizi Apamaga uylangan. Shu tufayli bo'lsa kerak, u 293 yili Apamadan tug'ilgan o'g'li Antiox I ni Markaziy Osiyo yerlariga hukumdor etib tayinlagan. Salavkiylar davrida yunonlar bilan bir qatorda mahalliy zadogonlar ham davlatni boshqarishda ishtirok etishgan. Mil.avv. 250 yillarda Salavkiylar davlati o'zaro kurashlar natijasida ikkiga - Yunon – Baqtriya va Parfiya davlatlariga bo'linib ketdi.

Salavkiylar sulolasidan bo'lgan Diodot Yunon – Baqtriya davlatiga asos soldi. Uning vorislari (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo oraliqlaridagi katta yerlarni egallab oldi. Mil.avv. II asr o'rtalariga kelib Yunon- Baqtriya davlati o'z qudratini yo'qotdi va Sharqiy Turkistondan kelgan yuechji va sak qabilalari tomonidan mil.avv. 140-130 yillarda tugatildi. Bu davrlarda O'rta Osiyo xalqlari og'ir mustamlakachilik asoratlarni boshdan kechirgan, bo'lsalarda, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlari bir muncha tokomillashgan. Bu davrda ellin madaniyatning mahalliy xalqaro madaniyati bilan qo'shilishi yanada kuchayib, o'lkani obodonlashtirishga katta hissa qo'shgan.

Parfiyada hokimiyat Mitridat I qo'lga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqini kuchaytirdi. Shundan keyin Mitridat I Marg'iyonani bosib oldi. Bir oz vaqt

o'tgach, Sug'diyona Baqtriyadan ajralib chiqdi. Mil.avv. 128 yili Mitridat II taxtga o'tirdi. Uning hukumronligi davrida Parfiya Rimning asosiy raqibiga aylandi. Biroq, mil.avv. 88 yilda Arshak IX nomi bilan Gotrag taxtiga o'tirgach. Bu qudratli davlat inqirozga yuz tutdi. Shundan keyin, ba'zi qaram davlatlar Parfiyadan ajralib ketdilar. Parfiya davlatini III asrgacha Arshakiylar boshqarib turushgan. Parfiya davlati haqida Niso hujjatlari ko'payib ma'lumotlar berilgan.

Mil.avv. III asrda sak qabilalari Qanguy davlatiga asos solganlar. Xitoy manbalarida u Qangyuy deb atalgan. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan qang'lar sak va sarmat qabilalarining bir qismi sifatida Qanguy davlat uyushmasining asosini tashkil etganlar. "Avesto"da tilga olingan Qangxa-Qang ekanligiga ham olimlar shubha qilishmaydi. Dastlab uncha katta bo'lmagan qabilalar yo'lboshchilar ittifoqidan tashkil topgan bu davlat uyushmasining shimoliy qismi mil.avv. II asrgacha xunlarga janubiy qismi yuechjilar hokimiyatiga bo'ysungan. Mil.avv. II- mil. II asrlarda u qudratli davlatga aylandi. Unga Ural bo'yi sarmatlari ham bo'ysungan.

Shi-szi solnomasiga ko'ra, Qanguy dastlabki kuchsizgina davlat bo'lgan paytda, hukmdor oqsoqollar orasidan tanlangan va u oqsoqollarning birlashgan qo'shinlariga tayangan. Ko'chmanchilarda har bir oila boshlig'i jangchi hisoblangan. Shuning uchun Qanguy qo'shinlarining soni ulardagi oilalar soniga teng bo'lgan. Qanguy qudratli davlatga aylangan vaqtda 120 ming qo'shinga (demak shuncha oilaga ham) ega bo'lgan. O'sha paytda aholisi taxminan 600000 kishidan iborat bo'lgan. Xitoy elchilari o'z hukumdorlariga qanguylar haqida "mag'rur qo'rs" - deb ma'lumot berganlar. Bu davlatning siyosiy tarixi haqida ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida uchraydi. Jumladan, Xitoy qo'mondoni Li Guan-li qo'shinlari mil.avv. 101 y. Devonga bostirib kirganida Qanguy devonliklarni qo'llab quvvatlagan.

Solnomalar Qanguyni ko'chmanchilar davlati deb atasalarda, unda shaharlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradilar. Xalqi "Tuproqdan qilingan devor ichida yashaydigan" Yansiy shaharlari shular jumlasidandir. Qanguy poytaxtini juda qadim zamonlarda Qangxa joylashgan Sirdaryo deltasi hududida deb hisoblaydilar. Manbalarda ko'rsatilgan jug'rofiy o'rinlarga uncha to'g'ri kelmasada mamlakat poytaxti bo'lgan Bityan shahri Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi Qangxa shahar xarobasi o'rnida bo'lgan degan fikrlar mavjud.

Qanguy davlati bir-biriga teng bo'lgan o'troq - xo'jalik hududlaridan iborat beshta kichik hokimiyatni o'z ichiga olgan. Ular Qanguy ittifoqi ishtirokchilariga qaram bo'lgan Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegyan hududlaridan iboratdir. A.N. Bernshtamning fikricha Yuni-Toshkent vohasida, Suse – Sirdaryo va Arisning o'rta oqimida, Fumu – Yangiqo'rg'on atroflari, Gi-Sirdaryo etkalarida, Yuegyan esa – Xorazmda joylashgan. Bu ittifoqning umumiy chegaralari Xorazm, Shosh, Sug'd viloyatlari bilan bir qatorda Sirdaryo etaklari va Orol dengizi shimolidagi hududlarni o'zida birlashtirgan. Shuning uchun ham o'lkaning janubida joylangan boshqa davlatlar (jumladan Parfiya, Kushon va boshqa)dan farqli o'laroq Qanguy davlatida ko'chmachilar davlatiga asos belgilar saqlanib qolgan.

Farg'ona vodiysida ilk davlatchilar izlari qadimga dexqon-chilik madaniyati (Chust madaniyati) yodgorliklarida uchraydi. Hozirgacha Farg'ona vodiysida 80 dan

ortiq Chust madaniyati yodgorliklari qayd etilgan. Shahar madaniyati va davlatchilikni o'rganish ishida Dalvarzin, Ashqoltepa (Andijon viloyati), Chust yodgorliklari muhim o'rin tutadi. Chust madaniyatining so'nggi bosqichida (mil.avv. VIII-VII asrlar) mayda shahar – davlatlar asosida davlat birlashmalari vujudga kelgan. Mil.avv. 136-128 yillarda Farg'onaga kelgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Syan "Davanda 70 dan ortiq kichik va katta shaharlar bor" deb yozgan. Xitoy manbalarida Farg'ona Davan (Da-Van – Katta Van) deb atalgan.

Davan davlati mil.avv. IV-mil III asrlarda mavjud bo'lgan. Davan podsholigi sug'orma dexqonchilik, chorvachilik va hunarmanchilik rivojlangan. Ipak yo'li ta'sirida shaharsozlik madaniyati ancha takomillashgan. Bu davlat savdogarlar va sayyohlarni Sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan (Xitoy) imperiyasigacha bo'lgan yo'lining xavfsizligi oziq-ovqat, tarjimonlar va yo'l ko'rsatuvchilar bilan ta'minlab turgan. Mil. avv. II asr Davan davlatida 300 ming kishi yashagan. Vodiya shaharlar ko'p bo'lib, poytaxti Ershi shahri (hozirga Marhamat) bo'lgan. Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Davan davlati hududlari Xo'jandgacha borgan. Farg'onaning "Samoviy" deb nom olgan nasldor otlar ko'pchilikni qiziqtirgan. Mil.avv. 104-101 yillarda Xitoyning 60 ming kishilik qo'shni Davanga bostirib kirganda davanliklar qang'liklar yordamida xitoyliklarni xaydab, yuborib, o'z mustaqilligini saqlab qolgan. II asrda Davan davlati barham topdi. Uning yerlari Kushon podsholigiga qo'shib olindi.

Mil.avv. 140-130 yillarda shimoliy-sharqdan kelgan yuechji qabilalari (Guyshuan, Shuanmi, Xise, Xyumi, Dumi) Yunon Baqtriya davlatiga zarba berib, uning hududida o'rnatib qoldilar. Mil.avv. I asrda ular guyshuan qabilasi boshlig'i Kadfiz atrofida birlashdilar. Kadfiz yangi davlat hukumdoriga aylandi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoda) bo'lgan. Kudjula Kadfiz davrida Afg'oniston va Kashmir viloyatlari Kushon davlati tarkibiga qo'shib olinib, uning hududi yanada kengaygan. Kadfizdan keyin taxtga uning o'g'li Vima Kadfiz (Kadfiz II) o'tirdi. U mamlakatida pul islohoti o'tkazib tangalar zarb qildirdi. Kashishka davrida Kushon davlatining markazi Peshovar shahri (Afg'oniston) ga ko'chirildi. Bu davlatning hududi Hindiston va Sharqiy Turkistonda Amudaryoning o'rta oqimlarigacha kengaygan. Kanishka davrida budda diniga e'tibor kuchaygan. Samarqand va Termiz Kushon podsholarining yirik shaharlari edi. Tuproqqal'a (Xorazm) shu davrning yirik shahar - qal'asi bo'lgan. Bu yerdan Xorazm podsholarining arxiv hujjatlari topilgan. Bu davrda Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab sug'orish inshootlari (Talli-barzu) qurildi, savdo-sotiq rivojlanib, "Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati ortib bordi. Milodiy IV asrda Kushon davlati parchalandi.

Bu davrda dehqonchilik madaniyati Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo havzalari va Sirdaryo havzasi doirasida keng yoyilgan. Baqtriya, Sug'd va Xorazm davlatlari moddiy madaniyatida qadimgi sharq sivilizatsiyasi o'z aksini topgan edi. Bu davr hunarmandlari ishlab chiqargan mahsulotlar tovar xarakteriga ega bo'la boshlagan. Yunon-Baqtriya, Xorazm, Farg'ona (Dovon) va Qang davlatlarida yer egalari o'z yerlarida qullar mahnatidan keng ko'lamda foydalanishmagan. O'sha davrda jamiyat asosini erkin jamoa a'zolari tashkil etgan. Faqat kushonlar saltanati davridagina qullar mehnatidan foydalanish birmuncha kuchaydi. Biroq, u ham

Yunoniston va Rimdagidek qullar mehnatidan ommaviy foydalanish darajasiga ko'tarilmadi. Shunday qilib, bu davrda tarkib topgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy asosini erkin jamoa xo'jaliklari tashkil etar edi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. "Avesto"da jamiyat taraqqiyoti talqini va O'rta Osiyo hududidagi davlatlar tuzulmalari haqida nimalar bilasiz?
2. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari haqida nimalar bilasiz?
3. Ahmoniylar hukmronligi va Iskandar Zulqarnayn bosqini davrida O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida gapirib bering.
4. Ahmoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududida iqtisodiy rivojlanish jarayonlari qanday kechdi?
5. Ellinizm madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari O'rta Osiyoda yoyilishi jarayoni va natijalari to'g'risida nimalar bilasiz?
6. Antik davrda shaharsozlik madaniyatining rivojlanishi jarayoni haqida gapirib bering?
7. Nima uchun Kushon podsholigi O'rta Osiyoda davlatchilikni rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi?

Vazifalar:

1. "Vatanimiz hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi" mavzusida seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va rejaga ko'ra konspekt yozish.

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. M.Is'hoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O'rta Osiyo ilk shaharlari va davlatlari tarixidan. (Toshkent: Xorazm Ma'mun Akademiyasi nashriyoti, 2010) nomli o'quv qo'llanmasi bilan tanishish va quyidagi savollarga javoblar tayyorlash:
 - Ilk davlatlar paydo bo'lishining shart-sharoitlari
 - Shahar belgilari
 - Ilk davlatlardagi boshqaruv tizimi

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., "Sharq" 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2010, 12 noyabr
4. Asqarov A. Sopollitepa. -T., 1973.
5. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. -T., "O'qituvchi", 1994.
6. Islamov U. Pishera Machay. -T., 1975.
7. Kabirov J. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -T., 1990.

8. Karabkova G.F. Mezolit Sredney Azii. -L., 1964.
9. Masson V.M. Poseleniya Djeytun. -M., 1971.
10. Okladnikov A.P. Paleolit i mezolit Sredney Azii. -M., L., 1966.
11. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -M., 1948.
12. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. -T., 1957.
13. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.
14. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universitet-T., -T., 2005.
15. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.
16. Sulaymonov R. Drevniy Naxsheb. -Tashkent, 2000
17. Isamiddinov M.X. Istoki gorodskoy kulturq Samarkandskogo Sogda. -Tashkent, 2002.
18. M. Madaminov. Xorazmning qadimiy va o'rta asrlar shaharsozligi tarixi. -Toshkent: "Istiqlol", 2009.
19. M.Is'hoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O'rta Osiyo ilk shaharlari va davlatlari tarixidan. -Toshkent: Xorazm Ma'mun Akademiyasi nashriyoti, 2010
20. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

4-mavzu. O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

Darsning o'quv maqsadi: Turkiy xalqlar dunyosida o'zbek etnosining tarixiy-genetik o'rnini belgilash borasida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: etnogenez, urug', qabila, elat, millat, anushteginiylar, O'zbekxon, ulus, so'g'diylar, qang'lar, baqtriylar, xorazmiylar, dovonliklar, saklar, massagetlar, qarlulqlar, o'g'izlar, qipchoqlar, xalq, turkiy qavmlar, tubjoy aholi, "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilik", "o'zbek" atamasi, Dashti Qipchoq Eron ahmoniylari, makedoniyaliklar, arablar istilosi, kidariylar, xioniylar, kushonlar, eftalitlar, turk hoqonligi davrlari, Qoraxoniylar, Qarlulqlar, Saljuqiylar, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, millatlararo do'stlik.

Reja:

1. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi.
2. VI – VIII asrlardagi etnik – madaniy jarayonlar xususida.
3. O'zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari. "O'zbek" atamasi xususida.

Asosiy qism

Har bir xalqning o'z kelib chiqish va rivojlanish tarixi bor. O'zbek xalqining ham uzoq va voqeliklarga boy tarixi mavjud bo'lib, u xalq bo'lib shakllangunga qadar uzoq va murakkab etnik jarayonlarni boshidan kechirdi. Umuman olganda, hozirgi kunda xalqlarning kelib chiqishi – etnogeneziga e'tibor ayniqsa

kuchayganki, bu holat millatlar ichida o‘z-o‘zini anglash jarayonining o‘sganligi, o‘z tarixi, o‘tmishiga qiziqishining oshganligi, yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘lishi bilan o‘z ifodasini topadi.

Mustaqillik sharofati ila o‘tmishimiz, tariximizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Tariximizni, boy o‘tmishimizni ilmiy, holisona tarzda bayon qilish zamon talabiga aylandi. Prezidentimiz I.Karimovning 1998 yil iyun oyida bir guruh olimlar bilan o‘tkazgan uchrashuvida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi” 1998 yil 27 iyul qarorida va Prezidentimizning tarixiy o‘tmishimizni o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida hamda so‘ngi paytlardagi ko‘pgina chiqishlarda ko‘pgina o‘zbek xalqining tarixiy, ilmiy, haqqoniy tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko‘lamda yo‘l ochib berish, madaniy merosimizni asrab-avaylash, milliy mafkura g‘oyalarini rivojlantirib targ‘ib etish va boshqa ko‘plab muammolarni hal etish masalarini ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz jumladan shunday degan edi. “Tarixiy xotirasi bor inson – irodali. Takror aytamiz, irodali insondir. Kim bo‘lishdan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a‘zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urush, har xil aqidalarga ta’siriga tortish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasi mustahkamlaydi”. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotida tarixning o‘rni va roli nihoyatda katta bo‘lib, bu jarayonning hozirgi kunda davlatimiz ma’naviy hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi hozirgi kunda tariximizda kam yoritilgan va ilmiy asosda tamomila yangitdan ko‘rib chiqishga munsub bo‘lgan masalalardan biridir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixni tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”. Darhaqiqat, uch ming yillikdan ziyod davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan xalqimizning ildizlari asrlar qa’riga borib taqaladi.

Ma’lumki “O‘zbekiston qadimgi tarixining juda katta davri yozma manbalarsiz, arxeologiya va antropologiyaga oid manbalarga tayangan holda o‘rganiladi. Qadimgi Sharq yozma manbalardan (Xind, Ossuriya va Eron) ma’lumki mil.avv. II ming yillikning o‘rtalari va oxirlari (bronza davri) - O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron tarixi – xind- eron qabilalari yoyilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Hind – eron qabilalari dastlab juda keng hududlarda – Volga, Ural va Janubiy Sibir oralig‘idagi yerlarda yashaganlar”.

Tadqiqotchi -T.,Xodjayev fikriga ko‘ra, bronza davriga kelib, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo‘yli, boshi cho‘zinchoq, yuzi tor irqning vakllari tarqalgan. Shimoliy dasht va cho‘l hududlarida esa, janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho‘ziq bo‘lmagan qabilalar yashagan. Fanda janubiy qiyofali odamlar O‘rta Yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopatamiya, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Hindiston kabi katta geografik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog‘iston, O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy qismida Ural, Volga bo‘yi yerlarigacha tarqalgan.

A. Sagdullayev tadqiqotlarga ko'ra, bronza davriga kelib, O'rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo'shilishi jarayoni boshlanadi hamda aynan mana shu davrga kelib, o'lkamizda yashab o'tgan bronza davri qabilalari O'rta Osiyo qadimgi xalqlariga asos solganlar. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda mil. avv. II ming yillikning oxiri-I ming yillikning boshlari O'rta Osiyo hududlarida murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo'lib o'tadi. Xususan, janubiy hududlardagi hosildor vohalar o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirila boshlangan bo'lsa, shimoliy viloyatlarda ko'chmanchi chorvador qabilalar tarqala boshladi. Ko'chmanchi chorvadorlar va o'troq aholining uzviy munosabatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar avj oldi.

Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlandi. O'zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lida ajdodlarimiz murakkab etnogenez jarayonlarini boshdan kechirganlar. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar va boshqa qabilalarning aralashib ketishi, madaniy an'nalarning qo'shilib yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari tarkib topgan hududda joylashgan. Diyorimiz shu bois arxeologik va me'morchilik yodgorliklarga boy. Farg'ona vodiysining Seleng'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o'rta paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo bilan bir qatorda insoniyat paydo bo'lgan hududlar tarkibiga kirganligi hozirgi kunda uzil-kesil isbotlandi. Shuningdek, mezolit davriga oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyati o'zida jam qilgan Kaltaminor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo'lgan Joytun, Hisor tog' madaniyati, bronza davriga oid bo'lgan xilma-xil Zamonbobo, Sopollitepa, Sarazm, Dalvarzintepa, Chust madaniyatlari o'lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo'jaligini jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

O'lkamizda qadimgi aholisi tosh va bronza davrlariga qanday nom bilan atalganliklari bizga noma'lum. Ilk bora O'rta Osiyo aholisi hududidagi ma'lumotlar Sharq va antik davr yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, Yevroosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy "skiflar" nomi bilan ataladi. Yunon tarixchisi Gerodod, "bu xalqlar qadimiylilikda misrliklardan qolishmaydi", deb baho bergan edi. Pliniy O'rta Osiyo hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi hududida o'z asarida eslab o'tadi. Yozma manbalarda skiflarning ikki yillik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko'proq gap boradi. Axmoniy mixxat yozuvlarida saklar uchta qismga bo'lib ko'rsatiladi (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara-darayya). Massagetlar xususida ham turlicha fikrlar mavjud bo'lib, ular ko'chmanchi chorvador-harbiy qabilalar bo'lganligi ta'kidlanadi.

Ilk temir davridan boshlab (mil. avv. IX-VII asrlar) qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari joylashgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular Sug'diyonadagi-sug'diylar, qadimgi Xorazmdagi-xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi-baqtriylar, qadimgi Shoshdagi-Shoshliklar, Farg'onadagi – parkanaliklar shular jumlasidandir. Bu tarixiy nomalarning ko'plarini biz ilk yozma

manbalarda, xususan zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da, Ahmoniy hukmdorlarning mixxat asarlarida uchratamiz.

Shuningdek Qozog'iston hududlarida yashagan chorvador qabilalar bronza davridayoq ("Andronovo madaniyati") turkiy tilda so'zlashganlar degan asosli fikrlar ham mavjuddir. 1969 yil Olmaota yaqinidagi Issiqqo'rg'on makondan topilgan yozuv – mil.avv. IV-III asrlarda oid bo'lib, hozirgi kunda ilk turkiy tili yozuvi degan fikrlar ham bor. Bundan xulosa chiqaradigan bo'lsak, demakki, mil.avv. IV-III asrlardayoq O'rta Osiyoning shimoliy-sharqida turkiy tili aholi - qabilalar mavjud bo'lib, ularning xorazm, sug'd, baqtriya kabi yozuvlari o'sha joy aholisi ichida ishlatilgan. Yettisuvdagi saklarning bir qismi ham turkiy tilda so'zlashgan.

Tadqiqotchilar fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda qadimdan 2 xil: turkiy va sharqiy eroniy tilda so'zlashuvchi aholi mavjud bo'lgan. O'zbek xalqining qadimgi aholisini xuddi shu ikki bo'lak tashkil etgan. Mil.avv. II-I asrlarda va eramizning boshlarida esa uzoq davom etgan etnik jarayon natijasida hozirgi zamon o'zbek xalqiga xos bo'lgan "ikki dunyo oralig'i tipi" (Amudaryo, Sirdaryo) dagi irq kishilari O'rta Osiyoning katta hududlarida yashardilar.

Milodning IV asrlariga kelib bu tip kishilari hozirgi O'zbekiston hududining katta qismida uchray boshadilar. Eron ahmoniylarning O'rta Osiyoni bosib olishlari so'ngra makedoniyalik Iskandarning harbiy yurushlari mahalliy aholi etnogeneziga sezilarli ta'sir etmadi. Mil.avv. I asr va eramizning IV asrga qadar O'rta Osiyoga ko'chmachi yuechjilar, xioniylar, eftalit qabilalarining kirib kelishi davri bo'ldi. Xuddi shu davr yangi yer egaligi munosabatlarining ham shakllanish davri bo'ldi. Yuqoridagi qabilalar turkiy tildagi qabilalar bo'lib, ularning kirib kelishi turkiylashuv jarayonini yanada kuchaytirdi.

Eramizning 551 yilida Oltoyda yangi davlat – Turk xoqonligi yuzaga keldi. Turk xoqonligi hukmdori Muqanxoqon (554-576) va uning amakisi Istami Yabg'ularning O'rta Osiyoga yurushlari VI asrning 50 yillari oxiri va 60- yillarida ayniqsa kuchaydi. 568 yil O'rta Osiyo batamom ular qo'lga o'tdi. Ular avval ko'proq o'zlashtirilmagan yerlarga, so'ngra asta - sekin mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarga yaqinlashib, yerli xalq madaniy – xo'jalik yutuqlari ta'sirida yarim o'troq va ko'p hollarda o'troq turmush kechirishga, ular bilan iqtisodiy va madaniy aloqani kuchaytirishga moyassar bo'ldilar. Natijada Xorazm, Farg'ona, Sug'dning katta qismida yashovchi turkiy qabilalar ular bilan aralashib ketdi.

VI asrning 60-70 yillarida xoqonlik qabilalari Buxoro vohasi va hatto Shimoliy Afg'aniston hududlariga ham borib o'rtnasha boshladilar. Buning natijasida mahalliy aholi bilan o'zaro yaqinlashuv va qon-qarindoshchilik aloqalarining rivojlanish jarayoni sodir bo'la boshladi. 603 yilga kelib Turk xoqonligi uzil-kesil 2 qismga: Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyodagi bir nechta kichik yarim mustaqil davlatlar G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida edi.

Yangi yer egaligi munosabatlari rivojlanayotgan G'arb xoqonligining ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turklarning bir qismi o'troqlashadi, qolganlar yerli chorvadorlar bilan aralashib ketadi. O'troq hayotning an'anaviy- ma'muriy udumlari

ta'sirida boshqaruv tarkiblari asta-sekin o'zgarib, xoqonlik qabilalarining ijtimoiy-siyosiy mavqei mustahkamlanib boradi. Turklar etnik siyosiy hayotda faollashib, O'rta Osiyo jamiyatining barcha jabhalarida teng qatnasha boshlaydilar. Xoqon Sheguy vafotidan keyin (618 y.) hokimiyatiga kelgan To'n Yabg'u (To'n bohodir) davrida G'arbiy xoqonlik yanada kuchayadi.

Bu jarayonni to'xtatish uchun hech bir siyosiy kuch maydonga chiqmadi. Aksincha mahalliy aslzodalar, ayniqsa, sug'd zodogonlari turk xoqonlari himoyasida o'z savdo-sotiq ishlarini rivojlantirib, bu ishlardan juda katta daromad olar edilar. Turkiy aholisi son jihatdan ko'payib, ularning mahalliy aholi o'rtasidagi etnik qatlami tobora qalinlashib bordi. Ayniqsa turkiy qatlam VII-VIII asrlarda Shosh va Farg'onada ustun darajaga ega edi. Garchi G'arbiy Turk hoqonligi 659 yilga kelib parchalanib ketsa-da, uning etnik ta'siri o'lkada saqlanib qoldi.

VIII asr boshida arablarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholi etnogeneziga deyarli ta'sir ko'rsatmadi. Arablar ulardan siyosiy hukmronlikni tortib, olib turkiy xalqlarning O'rta Osiyoga krib kelish jarayoniga chek qo'ya boshladilar. Xoqonlik qabilalarining mahalliy aholi bilan aralashib ketishi, ularning tobora o'troq hayot tarziga o'tishi holati yuz berdi. Turkiy til tobora keng tarqala boshladi. Arablar turkiy xalqlar ta'sirini sindirish maqsadida Movarounnahrni eronliklarga yaqinlashtirish siyosatini tutdilar. Shu maqsadda O'rta Osiyoga VIII- IX asrlarda arabiy va eroniy oilalarni ko'chirib keltirib joylashtirish siyosatini yurgizdilar. Bu davrga kelib turklar o'z ta'sirlarida Yettisuvni saqlab qoldilar holos.

O'zbek xalqi shakllanishining keyingi, yana bir muhim davri IX-XII asrlar hisoblanadi. X asrning oxirlarida turkiy etnik qatlamning Movarounnahrning barcha hududlarida ustunligini ta'minlovchi tarixiy vaqealar sodir bo'ldi. Arg'u, tuxsi, qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari itifoqidagi Qoraxoniylar davlati yuzaga kelib, bu davlat 999 yil Movoraunnahrni o'z mulkiga kiritdi. Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig'il turkiy til dahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Koshg'ariy "eng ochiq va ravon til" deb atagan. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilib bo'lib, Ahmad Yugnakiyning (775-869) "Hibat ul-haqoyiq" (Haqiqatlar tuhfası) dostoni, Yusuf Xos Xojibning (XI asr "Qutadg'u bilik" (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, Mahmud Qoshg'ariyning mashhur "Devonu lug'atut-turk" asari, Ahmad Yassaviyning (1041-1167) "Hikmatlar"i hamda "O'g'uznoma", "Alpomish", "Go'ro'g'li", kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilida so'zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o'zini "tozik" - ya'ni "tojik" deb yurita boshlaydi. Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o'rtalaridan 1213 yilgacha) dan tashqari hukmronlik qilgan keyingi sultonlar, G'aznaviylar (997-1187), Saljuqiylar (1040-1157), Xorazmshoh - anusheginiylar (1097-1231) ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo'lib, o'z vaqtida O'rta Osiyo, balki O'rta Sharqda ham hukmronlik mavqeiga ega bo'lganlar. Mo'g'ullar istilosi garchi aholi boshiga nihoyatda og'ir kulfatlar va yo'qotishlar olib kelgan bo'lsa-da, tadqiqotchilar fikricha, o'zbek xalqi etnogenezi va irqiga deyarli ta'siri bo'lmadi.

Movarounnahr va Xorazmdan shimolda joylashgan viloyatlarni, musulmon mualliflari Dashti Qipchoq-Qipchoq cho'li deb atashgan. Qadimdanoq bu yerlarda

asosan turkiy xalqlar va turklashgan mo'g'ullar istiqomat qilar edilar. Chingizxon bosqinidan so'ng bu yerlar katta o'g'il Jo'chining ilkiga tushgan edi. Keyinchalik bu hudud ikki qismga bo'linib ketdi. Jo'chining o'g'li bo'lmish Shaybonning avlodidan bo'lgan Sulton Muhammad 13 yoshida (1312-1341) Oq O'rdaga hukmdor bo'ladi. Sulton Muhammadga O'zbekxon deb taxallus berilgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda o'lkamiz hududlarida eng qadimgi davrlarda yashagan o'troq mahalliy aholi – so'g'diylar, xorazmiylar, baqtriylar, saklar, massagetlar, hozirigi o'zbek xalqining asosini tashkil etadi. Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko'p hollarda o'zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo'lib, o'rta asrlarga kelib bu nomlar o'zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan o'troq aholi bilan uyg'unlashib ketgan va aholi o'z nomini o'zbek deb atagan. O'rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom "o'zbek", "o'zbeklar" sifatida tilga olindi. Ammo, shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va an'analariga sezilarli darajada ta'sir etmadilar, aksincha uning orasiga singib ketib yuqori darajadagi madaniyat ta'sirida bo'ldilar.

Tadqiqotchi Abduqahor Ibrohimovning yozishicha, o'zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryosi bo'ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda shakllangan, bu makon o'tmishda turli nomlar bilan, chunonchi Qipchoq dashti, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakatlari, o'zbek ulusi deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini jug'rofiy o'rin jihatdan shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash ham mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. O'zbek xalqining asosini hozirigi O'zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so'g'diylar, qang'lar, baqtriylar, xorazmiylar, dovonliklar, saklar va massagetlar tashkil etadi. Turli davrlarda bu hududlarga kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o'tishi bilan mahalliy aholiga o'z ta'sirini qisman o'tkazgan. O'zbek xalqi shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi chetdan kelgan (kelgindi) aholiga nisbatan sustun bo'lgan.

Bu fikrimizni isbotlovchi dalillardan biri keyingi uch-ikki ming yil davomida O'rta Osiyoda jumladan, O'zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o'zgardi. Xususan, sharqiy eroniy tillar o'rniga g'arbiy eroniy tillar (fors tili) va eramizning boshlaridan boshlab turkiy tillar keng tarqala boshladi. Ammo mahalliy xalqning "qoni", ya'ni genetikasi aytarli o'zgarmadi va qadimiy xalqlarga xos ko'pgina antropologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda.

O'zbek xalqi kelib chiqishining asosini eng qadimgi davrlardan boshlab o'lkamiz hududlarida yashab kelgan xalqlar va elatlar tashkil etgan. Ikki ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo'shilgan turkiy tili elat va xalqlar o'zbek xalqining shakllanishida asosiy tarbiyaviy qism sifatida qatnashgan.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

1. O'zbek xalqining shakllanishida rol uynagan qadimgi ajdodlarimiz haqida nimalarni bilasiz?

2. VI – VIII asrlardagi etnik – madaniy jarayonlar xususida gapiring.

3. O'zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari xususida nimalar bilasiz?

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. O'zbek xalqining etnik shakllanishi jarayoni.

2. "O'zbek" atamasini izohlang.

3. "Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi va hozirgi zamon" mavzusida mustaqil ish bajarish

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., "Sharq" 1998.

2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. -T., "O'zbekiston", 1992.

3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. --T., "O'zbekiston", 2005

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. --T., "O'zbekiston" 2015

5. Asqarov A. Sopollitepa. -T., 1973.

6. Islamov U. Pishera Machay. -T., 1975.

7. Kabirov J. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -T., 1990.

8. Karabkova G.F. Mezolit Sredney Azii. -L., 1964.

9. Masson V.M. Poseleniya Djeytun. -M., 1971.

10. Okladnikov A.P. Paleolit i mezolit Sredney Azii. -M., L., 1966.

11. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -M., 1948.

12. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. -T., 1957.

13. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T., O'zbekiston, 1994

14. K.Shoniyozov. O'zbek xalqining etnik shakllanishi. -T.,2002

15. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.

16. Abdulg'oziy. «Shajarai turk» -T., «Cho'lpon». 1982.

17. Ahmedov B. O'zbek ulusi. -T., «Nur». 1992

18. Zaki Validiy. O'zbek urug'lari -T., 1992

19. O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. -Toshkent, 2004.

20. Q.Sodiqov. Ko'k turk bitiglar: matn va uning tarixiy talqini. -Toshkent, 2004.

21. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universitet-T., -T., 2005.

22. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.

23. A.Asqarov. O'zbek xalqi-ning etnogenezi va etnik tarixi. -Toshkent: Universitet, 2007.

24. Qadimgi O'rta Osiyo tarixidan lavhalar. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

25. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

5-mavzu. ILK O'RTA ASRLAR VA IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI, SIYOSIY-IJTIMOIIY VA IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Darsning o'quv maqsadi: Talabalarda O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davlatchiligi va uyg'onish davri, uning vujudga kelishi sharoitlari va omillari, buyuk allomalar, ularning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni haqidagi bilim ko'nikmalarini boyitishdan ibora-T.,

Tayanch iboralar: Kushon podshligi, Eftalitlar davlati, Turk Xoqonligi, Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Ustrushona, Chag'oniya, Bayt ul-hikma, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar.

Reja:

1. Ilk o'rta asrlar davlatchiligi.
2. Arablar xukmronligi davrida O'rta Osiyo.
3. IX-XII asrlardagi o'zbek davlatlarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti.
4. O'rta Osiyoda uyg'onish davri, uning vujudga kelishi sharoitlari va omillari.
5. O'lkamizda ilm-fan va madaniyatning yuksalishi.

Asosiy qism

Insoniyat o'zining uzoq tarixiy o'tmishi jarayonida ko'plab tanazzul, to'siq va do'ngliklarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, muntazam sur'atda taraqqiyotga intilib, o'zining moddiy, ma'naviy va madaniy darajasini takomillashtirib borishga harakat qilgan. Qadimgi davr ma'naviyati, madaniyati ma'rifati, ta'lim tarbiyasi axloqiy, huquqiy normalari va falsafasi haqidagi fikr-mulohazalar yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi va turli urf-odatlarida o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyo hududida Antik davrlardan boshlab shakllangan moddiy va ma'naviy madaniyat Kushon podshligi, Eftalitlar davlati va Turk hoqonligi davrlarida ham yuksalib borgan. Bu davrda Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Ustrushona, Chag'oniya kabi viloyatlardan o'tgan "Ipak Yo'li" o'lka xalqlarining moddiy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Jumladan hunarmandchilik rivojlanib, me'morchilikning yangi uslublari vujudga keldi va ular murakkab muhandislik yechimi asosida amalga oshirildi. (Tuproqqal'a, Ustrushona, Varaxsha va boshq.) Qo'shni xalqlar va elatlar bilan savdo-sotiq aloqalari kuchaydi. Aholining savodxonlik darajasi o'sdi. Madaniy hayot san'atning turli janrlari bilan boyidi. Tabiiy fanlarga, atrof muhitni anglash, bilishga intilish kuchaydi.

Biroq, VIII asr boshlarida O'rta Osiyo aholisi arablar bosqini natijasida og'ir qiyinchiliklarga duchor bo'ldilar. Arab xalifaligi islom dini orqali O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham arab tili va yozuvini keng tarqalishiga astoydil harakat qildi. Shu bilan birga, O'rta Osiyoda asrlar davomida shakllangan moddiy va ma'naviy madaniyat, qadimgi Xorazm, Sug'd, Turk yozuvlari majburan yo'qotildi. O'rta

Osiyoda islom dinining yoyilishi, mahalliy urf-odat, udumlar bilan uyg'unlashtirildi. Abu Rayhon Beruniy asosli ravishda arablar zarbasi oqibatida Sug'd va Xorazmning boy madaniyati barbod bo'ldi deb afsuslangan edi.

Arab halifaligida hokimiyat ummaviylar sulolasidan abbosiylar qo'liga o'tgandan keyin, yangi sulola katta saltanatni idora qilishda, uning taraqqiyotini ta'minlashda ilmu-fanning ahamiyatini chuqurroq anglab yetdi. VIII asr oxiri IX asr boshlarida Bag'dodda ilm – fanga e'tibor kuchayib, qadimgi yunon olimlari Platon (Aflotun), Aristotel (Aristu), Sokrat (Suqrot), Yevklid (Iklidus) va boshqa. asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Ayni paytda, arab (islom) sivilizatsiyasining shakllanishida Hindiston, Eron, Yunoniston, O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlari madaniyatining ta'siri katta bo'ldi. Xalifalik ilm olmoq farz, degan hikmatiga amal qilib o'z tasarrufidagi o'lkalarda olimlarning ishlari uchun sharoit yaratishga harakat qildi.

Xalifalikning O'rta Osiyo va Xurson bo'yicha vakili sifatida Marvda hokimlik qilgan Ma'mun otasi Xorun ar-Rashid vafotidan keyin xalifalik taxtini egallagach, Bog'dodga barcha musulmon o'lkalari, jumladan, O'rta Osiyodan ham olimu fozillarni to'pladi. U otasi asos solgan ilmiy markaz- "Bayt ul-hikma"ni kengaytirib, uning qoshida ikkita (828 yilda Bag'dodning ash Shammosiya mahallasida va 831 yilda Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida) rasadxona qurdirdi. Ikkala rasadxonani ham al-Xorazmiy boshchiligidagi O'rta Osiyo va Xursondan kelgan olimlar boshqarishgan.

Xorazmiy davrida "Bayt ul-hikma"da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Husayn ibn Isohoq va Kusto ibn Luqo al-Ba'albakkiy va boshqalar bor edi. Marvlik Yahyo bin Abu Mansur ash-Shammosiya rasadxonasining, Holid ibn Abdumalik al-Marvirudiy Kasiyun rasadxonasining rahbarlari bo'ldilar.

IX asr boshlarida O'rta Osiyoda ijtimoiy va siyosiy vaziyat ancha barqarorlashib, mintaqada ilm-fan, umuman madaniyatning keng qo'lamda rivojlanishiga sharoit yaratildi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Marv, Xiva, Termiz, Xo'jand yirik madaniyat o'choqlariga aylandi. Xorazmda esa Ma'mun akademiyasi tashkil topdi. Bu ilk uyg'unash, ya'ni birinchi renessans davri edi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda arablar ta'siridan deyarli holi bo'lgan somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davlatlari davrida O'rta Osiyo xalqlarining Yaqin va O'rta Sharq musulmon davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqlarini rivojlantirishga qulay sharoit yaratildi. O'rta Osiyoning Buxoro, Samarqand, Marv, Termiz, Urganch, Xiva kabi shaharlari o'z davrining yirik madaniyat markazlariga aylandi. Bu shaxarlarda savdo-sotiq, ijtimoiy – siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, manaviyat va bilim o'choqlari rivoj topdi. Bunday madaniy markazlar musulmon Sharqining turli o'lkalari, Sharq va G'arb, Shimol va Janub mamlakatlarini bog'lab turuvchi qadimgi "Ipak yo'li" an'analarini davom ettiruvchi aloqa vositalari sifatida mashhur bo'lib bordilar. O'rta Osiyoning markazlashgan feodal davlatlari boshqa musulmon davlatlari bilan aloqalarining kuchayishi yurtidoshlarimizning o'zga mamlakatlarga borib ilm olish, o'z hamkasblari bilan muloqat qilishlari va buyuk allomalar bo'lib yetishishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi.

IX-XII asrlarda yashagan o'rta osiyolik buyuk allomalar – Muso al-Xarazmiy (1783-850), Ahmad Farg'oniy (taxminan 797-865), Abu Nasr Farobiy (873-950) Abu Bakr al-Xorazmiy (935-993), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Ismoil Jurjoni (1042-1136), Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144) Mahmud Qoshg'ariy (XI-asr), Yusuf Xos Hojib (XI-asr) va boshqalar o'zlarining ijodiy faoliyatlari, yaratgan o'lmas asarlari bilan dunyoga mashhur bo'ldilar. Bu davrda hadislar va diniy ilmlarning yirik rahnomalar Imom al-Buxoriy (810-870) Abu Mansur al – Moturidiy (vafoti 945) Burhonudin al –Marg'inoniy (1123-1197) va boshq. Tasavvur ilmining vakillari Yusuf Hamadoniy (1048-1140), Xoja Ahmad Yassaviy (1041-1166), Najmiddin Kubro (1146-1221) lar O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

O'rta Osiyodan yetishib chiqqan allomalar forsiy, turkiy va arab tillarida ijod qilishgan. Ular orasida Rudakiy (860-941) kabi shoirlar o'sha davr hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirishgan Narshahiy (899-959) kabi tarixchilarning xizmatlari beqiyosdir. Bu davrda yashab ijod etgan Abu Mansur as – Saolibiy (961-1038) Boxoro va Xorazmda yashab arab tilida ijod etgan qator shoirlar haqida ma'lumotlar keltirgan. O'rta Osiyo ilm – fani va madaniy taraqqiyotida Xorazm hukumdori Ma'mun boshchiligidagi ilmiy, jamoa akademiyasi muhim rol o'ynadi.

783 yilda tug'ilgan al – Xorazmiyning ismiga yana al – Ma'jusiyy va al - Qutrubbiiy atamalari qo'shilgan. Bu uning otashparastlik dini kohini oilasida tug'ilganidan dalolat beradi. Hayoti yirik ilmiy dargohlarda o'tgan al- Xorazmiy 850 y. Bag'dodda vafot etgan. Uning qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarining faqat 10 tasi bizgacha etib kelgan. Bular “Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” - algebraik asar, “Xind hisobi haqida kitob” yoki “Qo'shish va ayrish haqida kitob” - arifmetik asar, “Kitob surat ul-arz” - geografiyaga oid asar, “Zij”, “Asturlob bilan ishlash haqida kitob”, “Asturlob yasash haqida kitob”, “Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida”, “Kitob arrahnoma”, “Kitob at - tarix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola” va boshqalardan iboratdir. Bu asarlarning 4 tasi arab tilida bittasi Farg'oniyni asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimasida saqlangan qolgan uchtasi haligacha topilmagan.

Al –Xorazmiyning arifmetika bag'ishlangan kitobi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. O'sha paytlarda ko'chirilgan lotincha nusxasi hozirgacha Kembrij universitetida saqlanmoqda. Bu asr bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida “Algoritim kitobi” nomi bilan mashhur bo'lgan. Rim papasi Silvesto rim raqamlari o'rniga Xorazmiy ishlab chiqqan arab raqamlarini Yevropada iste'molga kiritish to'g'risida farmon bergan. “Algebra”, “Algoritim” atamalarining dunyo miqyosida tarqalishiga ham vatandoshimizning nomi sababchi bo'lgan. Al- Xorazmiyning geografiya xususidagi asarining 1037 yilda ko'chirgan nusxasi Strasburg kutubxonasida saqlanmoqda.

Al-Farg'oniyni astronomik asari Yevropada XII asrda lotin tiliga ikki marta XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima etilgandan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaldi. Al – Farg'oniy ijodiga Dante (XV asr), Shiller (XVIII asr) katta hukumat bilan

qaraganlar. Fargʻoniy yaratgan asarlardan birining qoʻlyozmasi Prinston (AQSh) universitetida saqlanmoqda.

Oʻrta osiyolik buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy tabiiy – ilim va ijtimoiy bilimlar sohasida 160 dan oshiq asar yaratgan. Uning asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimgi yahudiy, qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metafizik”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va boshq) ni batafsil sharhlab qiyin joylarini tushuntirib bergan, kamchiliklarni koʻrsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi asarlar yaratgan.

Oʻrta Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalar nafaqat fan va madaniyat sohasida, balki siyosat, davlat va jamiyat boshqaruvi haqida ham yirik asarlar yaratishgan. Shulardan biri, Saljuqiylar davlatida bosh vazir lavozimini egallagan Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomumulkning sharq tarixi va madaniyatida oʻchmas iz qoldirgan “Siyosatnoma” asari boʻlib, bu asarda markazlashgan davlat tuzish, kuchli davlat mahkamasi, armiya va boshqa nazorat vositalarini yaratish haqida fikr yuritilgan. “Siyosatnoma” asarini olimlar turkiy xalqlar davlat boshqaruvining siyosiy dasturi sifatida baholaganlar. Asarning asosiy gʻoyalari shoh va hokimlarni adl-u insofga, sulh va muruvvatga, davlatni boshqarishda qatʼiy qonun va tartib oʻrnatish, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli boʻlishiga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini taʼminlash uchun harakat qilishga daʼvat etishdan ibora-T., Shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror boʻlishi, raiyat oʻz maqsadiga erishishi, jamiyat sulh va adolatda yashashga sharoit yaratilishi taʼkidlanadi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy ham jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy boshqarishga oid qimmatli fikr-mulohazalar yozib qoldirgan. Bu fikrlar uning “Oʻtmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Geodeziya” va “Saydona” asarlarda maʼlum darajada oʻz ifodasini topgan. Beruniy Katta Xorazm davlatchiligi tarixiga toʻxtalib, bu davlat miloddan avvalgi XV-XII asrlarda mavjud boʻlganligi haqida maʼlumot beradi. Beruniyning “Saydona” asarida Oʻrta Osiyoning dorivor oʻsimliklariga toʻla tavsiya beriladi. Abu Rayxon Beruniy yaratgan asarlar turli asrlarda lotin, arab, sanskrit, fransuz, ilalyan, nemis, ingliz, rus, yahudiy, fors, turk va boshqa koʻp tillarda chop etilgan. Amerikalik professor J.Sarton Beruniy merosiga yuksak baho berish bilan birga, uni “oʻz davrining jahondagi birinchi donishmandi” deb atagan.

Oʻrta Osiyoning buyuk mutafakkiri Ibn Sino ham “Donishnoma”, “Tib qonunlar”, “Sheʼr toʻgʻrisida kitob”, “Musiqqa haqida risola” asarlaridan tashqari ijtimoiy hayotga oid asarlar ham yaratgan. Uning “Risola – ut- tayr” (qushlar risolasi) nomli falsafiy asarida odil podisho obrazi yaratilgan. Bu asar Farididdin Attorning (XII asr) “Mantiq - ut- tayr” asarlariga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatgan. Ibn Sino asarlari XII asrdan boshlab koʻp tillarga agʻdarilgan. Faqat “Tib qonunlari” ning oʻzi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilingan.

IX asrda islom diniga oid maxsus ilmlar shakllandi. Bu davrda baʼzi mualliflar keltirgan ilmlar tasnifida dunyoviy (anʼanaviy) ilmlar bilan birga islom ilmlari ham qayd etilgan. Birinchisiga yunonlardan oʻtgan falsafa, matematika, fizika va boshqa, kiritilgan boʻlsa, islom ilmlariga kalom, hadis, fiqh va boshqa. kiritilgan.

Movarounnahr bu davrda dunyoviy ilmlardan tashqari, islom ilmi markazlardan biriga aylanib, Ismoil al – Buxoriy, Imom at – Termiziy, Moturidiy, Marg‘inoniy, Kosoniy kabi allomalar bu sohada mashhur bo‘ldilar. Islom dini va ma’naviyati ilm-fan, axloq, mantiq siyosat va boshqa sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha davr muarrixlari, sayyohlari, Qiftiy, ibn Usayba, ibn Xallaqon, Yoqut Hamaviy, Aruziy Samarqandiy, Saolibiy, Bayhaqiy va boshqa. O‘rta Osiyo shaharlari madaniy hayoti, olimu-fuzalolari faoliyatini ta’riflovchi ko‘plab asarlar yozib qoldirganlar.

O‘rta Osiyodagi uyg‘onish davrining muhim belgisi – bu dunyoviy ilmlarga intilish hamda din va diniy bilimlarni jamiyat, inson manfaatlaridan kelib chiqqan holda talqin etishdan iborat edi. O‘lkamizda yuz bergan ilm-fan, madaniyat va san’at sohalaridagi yutuqlar, yangiliklarning asosiy mohiyatini insonparvarlik g‘oyasi, ijtimoiy va adolat prinsipi tashkil etadi.

G‘arb olimlarining e’tirof etishicha XVI asrgacha g‘arb dunyosi Sharq madaniyati bilan arab tilida bitilgan asarlar orqali tanishgan. G.Gegel o‘zining “Tarix falsafasi” asarida “Fan va bilimlar ayniqsa falsafa g‘arbga arablardan o‘tgan” deydi. Buyuk yurtdoshlarimizning asosiy qismi davr taqazosiga ko‘ra o‘z asarlarining aksariyatini arab tilida yozganligi bois, g‘arb olimlarining ko‘pchiligi sharq olimlarining asosiy qismini arab deb faraz qilganlar.

O‘rta Osiyoda Uyg‘onish davri madaniyati Yevropadan bir necha asr ilgari yuz bergan bo‘lib, u Yevropadagi yangi siyosiy – iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, ilm-fan va madaniyat tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Bu davr madaniyatining o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi xarakterlari xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish.

- Insonni koinotni Yaratguvchining eng oliy mahsuli deb baholash va inson tafakkurini ulug‘lash.

- Insonning adolat, taraqqiyot, ma’naviyatga intilishiga imkoniyat yaratish. Axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining bosh maqsadi deb bilish.

- Komil insonni voyaga yetkazishga qodir bo‘lgan rivojlangan davlatchilik tizimini vujudga kelishi.

- Ma’rifatli jamiyat va davlatni vujudga keltirish uyg‘onish davri ta’limotining muhim xususiyatidir.

XIII asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo‘g‘ullar bosqiniga uchradi, ko‘p shaharlar, madaniy va ma’naviy boyliklar yo‘qotildi, olimu-fazalolar quvg‘in qilindi yoki o‘ldirildi. Ilmu- fan, madaniyat inqirozga yuz tutdi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

1. Ilk o‘rta asrlar davlatchiligi tarixining asosiy xususiyatlari to‘g‘risida m’lumot bering
2. Turk hoqonligi davrida O‘rta Osiyoda siyosiy, ijtimoiy-ahvol qanday kechdi?
3. Arablar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoda siyosiy boshqaruv borasida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?

4. Arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari haqida nima bilasiz?
5. O'rta Osiyoda uyg'onish davri, uning vujudga kelishi sharoitlari va omillari haqida nimalar bilasiz?
6. Shu davrda ilm-fan va madaniyatning yuksalish bosqichlari.
7. Buyuk allomalar, ularning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni.

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. O'rta Osiyoda uyg'onish davrining buyuk allomalari haqida ma'ruza, slayd-taqdimot tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni, xalq millatni- millat qilishga xizmat etsin. -T., "O'zbekiston", 1998.
2. Karimov I.A.. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent, 1998.
3. Karimov I.A. Istiqolol va ma'naviyat -T., «O'zbekiston» 1994
4. Karimov I.A. Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligi tantanalaridagi nutqi. Asarlar. ..jild.
5. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent, 2008
6. Buyuk siymolar, allomalar. 1,2-kitob: -T, Meros. 1995, 1996.
7. O'lmas obidalar. -T., Fan. 1969.
8. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyo-T., -T., Fan, 1994
9. Uvatov U. Donolardan saboqlar. -T., A.Qodiriy. 1994.
10. Abdulqosim Bahodirxon. Shajarai turk. -T., "Cho'lpon", 1992.
11. Abdulqosim Firdavsiy. Shohnoma. -T., "G'afur G'ulom", 1984.
12. Buyuk siymolar, allomalar. 1-3 jildlar. -T., "Meros", 1995.
13. "Qutadg'u bilig" tarixiy manba. -Toshkent, 1994
14. Sh.Karimov. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1-kitob. -T., 1997.
15. Mahmud Qoshqarg'iy. Devonu lug'atit – turk. 3-jild. -T., "fan" 1960-1963.
16. Ma'naviyat yulduzlari. -T., 1998.
17. Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o'rni. Mas muh. M.M.Is'hoqov. -Toshkent:Fan, 2002.
18. R.Suleymanov.Drevniy Naxshab. -Tashkent:Fan, 2000.
19. R.Sulaymonov. Naxshab-unutilgan tamaddun sirlari. -Toshkent:Ma'naviyat, 2004.
20. M.Madaminov. Xorazmning qadimiy va O'rta asrlar shaharsozligi tarixi. -Toshkent:Istiqolol, 2009.
21. Q.Sodiqov. Ko'k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini. -Toshkent, 2004.
22. G'.Karim.Muqanna. -Toshkent: O'zbekiston, 2009
23. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi -T., 2000
24. Ahmedov B. O'zbek ulusi. -T., 1992
25. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. -T., 1998.
26. Rahmon N. Turk xoqonligi. -T., 1993

27. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., 2001
28. Mustaqillik izohli ilmiy-ommaviy lug'a-T., -T., "Sharq", 2000.
29. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T., -"O'zbekiston", 1997.
30. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. -T., 1996.
31. O'zbekiston tarixi. -T., "Universitet" 1997.
32. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.
33. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universitet-T., -T., 2005
34. Sh.Ziyodov. Al-Moturidiy hayoti va merosi. -Toshkent, 2000.
35. N.Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. -Toshkent, 2001.
36. M.Komilov. Movarou-nahrda fiqh ilmining rivoji va faqih Alouddin as-Samarqandiy. -Toshkent:Istiqlol, 2006.
37. Hudud ul-olam. Mas. muh. M.M.Is'hoqov. -Toshkent: O'zbekiston, 2008.
38. I.Eshmurodov, M.Eshmurodov. IX-XII asrlar Xorazm madaniyati Yoqut al-Hamaviy talqinida. -Urganch, 2005.
39. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.
40. G.Babayarov. Drevnetyurkskin moneti Chachskogo oazisa. -Tashkent, 2007.
41. M.Is'hoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O'rta Osiyo shaharlari va davlatlari tarixidan. -Toshkent, 2010.
42. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

6 –mavzu. MO'G'ULLAR ISTILOS VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI.

Darsning o'quv maqsadi: O'rta Osiyonnig mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi, mo'g'ullar zulmiga qarshi ozodlik kurashlari va mo'g'ullar hukmronligining oqibatlari to'g'risida bilimlarni yanada boyitish va mo'g'ullar istilosidan saboqlar chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Chingizhon, mo'g'ullar, "Yaso" qonunlari, xorazmshohlar, Muhammad Xorazmshoh, Chig'atoy ulusi, tatarlar, naymanlar, keraytlar, merkitlar, Turkon Xotun, O'tror voqeasi, Dashti Qipchoq, Oqshoh, O'zloqshoh, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Movarounnahr,Maxmud Yalavoch, Ma'sudbek , Mahmud Torobiy, Jaloliddin Rumi, Burxoniddin Rabg'uziy, Bahovuddin Naqshband.

Reja:

1. XIII asr boshlarida O'rta Osiyo ijtimoiy – siyosiy vaziya-T.,
2. O'rta Osiyonnig mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi.
3. Mo'g'ullar zulmiga qarshi ozodlik kurashlar.
4. Chig'atoy ulusi va uning ijtimoiy- siyosiy hayoti.

Asosiy qism

XII asrning II yarmida xorazmshohlar O'rta Osiyoda o'z hududlarining kengaytirish bilan band bo'lgan bir vaqtda Mo'g'uliston yerlarida turli qabila va urug'lar o'rtasida hokimiyat uchun kurash ketayotgan edi. Bu davrda bir – birlariga dushman urug'lar (mo'g'ullar, tatarlar, naymanlar, keraytlar, markitlar va b.) o'rtasida mulkdorlar va qabila boshliqlari manfaatlarini himoya qiluvchi davlat vujudga kelayotgan edi. Sahroyi qabilalarni birlashtirgan bu yarim ko'chmachi davlat boshlig'i Temuchin (1155 y. tug'ilgan) 1206 yil mo'g'ul aslzodalari tomonidan chiqarilgan qurultoyda barcha mo'g'ul – tatar xonlarining ulug' xoni etib saylandi va "Chingizxon" ("kuchli") laqabi ostida hokimiyatni egalladi.

Chingizxon o'z davlatida hokimiyatning 10 ta oliy lavozimini ta'sis etgan. U 150 kishidan iborat shaxsiy gvardiya va 10000 ta baquvvat jangchilardan qo'riqchilar tuzdi. U joriy etgan qonunga muvofiq har bir jangchi tinchlik payitida mehnat bilan harbiy safarbarlik o'n, yuz, ming' o'n ming tuman kabi bo'linmalar safida jang qilishi, har bir jangchi urushga o'zi bilan o'q-yoy, xanjar, qilich, qalqon, nayza, arqon, igna, bolta kabi zarur anjom – uskunalari olib kelishi shart edi. Qo'shnlardan tashqari, harbiy zodogonlardan iborat saralangan navkarlar bo'lib, ular keshik deb atalgan va favqulodda hollardagina jangga kirgan.

Chingizxon kuchli qo'shini bilan o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, qo'shni xalqlar yerlariga hujum boshladi. U 1206-1211 yillarida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari (buriyat, yoqut, oyrot, uyg'ur va qirg'izlar)ni bo'ysundirdi. Shundan keyin, Chingizxon Xitoyga hujum boshlandi va 4 yillik urushdan keyin Pekin shahrini egalladi (1215). Shu vaqtda e'tibordan Chingizxon Muhammad Xorazmshoh davlati bilan astoydil qiziqib, xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochdan, Sharqiy Turkiston va Xitoyga qatnovchi o'rta osiyolik savdogarlar Hasan Xo'ja, Yusuf O'troriy, Ali Xo'ja al – Buxoriylardan zarur ma'lumotlar olgan.

1218 yil Chingizxon Yettisuv hududlarini egallab olgach, Xorazmshoh huzuriga 500 tuyadan iborat karvon va elchilar jo'natgan. Biroq karvon O'tror shahrida shahar noibi Inalxonning buyrug'i bilan talon-taroj qilinib, elchilar qatl etildi. Chingizxonning bu voqea aybdorlarni jazolash, Inalxonni o'ziga berish haqidagi talabiga Xorazmshoh rad javobini berdi. Shunday qilib har ikkala tomon o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy ahvoli ancha og'ir edi. Mamlakatda mansabdor shaxslar va katta yer egalari bo'lgan aslzodalarning siyosiy tangliklaridan foydalanib, mustaqil ish tutishga intilishlari feodal tarqoqligi kuchaytirayotgan edi. Bunga Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotun va uning Dashti Qipchoqdan kelib saroyda yuqori lavozimlarni egallab olgan qarindosh-urug'larining o'zboshimchaliklari ham sabab bo'layotgan edi. Bundan tashqari, Xorazmshohning xalifalikka tegishli ko'plab yerlarning bosib olishi, 1217 yil Bag'dod sari qilingan muvaffiqiyatsiz yurush ham islom olamida uning obro'sida putur yetkazdi. Shunday sharoitda, Xorazmshohlar davlatiga mo'g'ullar hujumi boshladi.

1218 yilgi O'tror vohalari Chingizxonning Xorazmga yurushi uchun bahona bo'ldi. 1219 yil sentabrda Chingizxon barcha qo'shnlarni O'tror atrofida to'plab, ularni to'rt yo'nalish bo'yicha taqsimladi. U qo'shinlarining bir qismini o'g'illari O'qtoy va Chig'atoy boshchiligidagi O'tror shahrini qamal qilishga qoldirdi. Ikkinchi

qismini Jo'ji boshchiligidagi Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Sig'oq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini egallashga uchinchi qismini Oloqnuyon boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Binkat va Xo'jand shaharlarini egallashga yubordi. Chingizxonning o'zi esa asosiy qo'shinlari bilan Buxoroga yurush boshladi.

Movarounnahr osmonida zulmat bulutlari yoyilgan, Vatan taqdiri xavf ostida qolgan bir vaqtda Xorazmshoh Muhammadning o'zboshimchalik va kaltabinlik bilan olib borgan siyositi mamlakatni halokatga olib keldi. U o'g'li Jaloliddin va tajribali sarkarda Temur Malikning maslahatlarini e'tiborga olmasdan, kuchlarini yirik shaharlarga bo'lib tashladi. O'zi esa mamlakatni qiyin vaziyatda qoldirib, bir to'da qo'rqqon ayonlari bilan janubi - g'arbga qochdi.

O'tror shahrini egallash uchun qoldirilgan mo'g'ul qo'shinlari uni 5 oy qamal qildilar. Sharhar hokimi Inalxon boshliq mudofachilar mo'g'ullar siquviga katta qiyinchilik bilan bardosh berib turgan bir paytda Muhammad Xorazmshohdan norozi bo'lgan Qoracha Hojib boshchiligidagi bir guruh shahar himoyachilar mo'g'ullar tarafiga o'tib ketdilar. Shundan keyin mo'g'ullar O'tror shahrini egallab uni talan-taroj qildilar va ommaviy qirg'in o'tkazdilar.

Xorazmshoh qo'shinlarining bo'lib tashlanganidan foydalangan Chingizxon 1920 yil boshlarida Buxoro shahrini qamal qildi. Buxoro aholisi Ixtiyoriddin Qushul, Hamid Po'ra, qoraxitoy Suyunchxonlar boshchiligida shahar mudofaa qilindi. Biroq kuchlar teng bo'lmagani va chetdan madad kelmaganligi tufayli himoyachilar taslim bo'ldilar. Mo'g'ullar Buxoro shahri egallab, uning noyob, me'moriy yodgorliklarini vayron etdilar, machitlar otxonalarga aylantirdi.

Buxoro egallangandan keyin Chingizxon qo'shinlari 1220 yil martida Samarqandga yurush boshladi. Samarqand shahri aholisi uzoq qamalga dosh bera oladigan darajada mudofaga tayyorgarlik ko'rgan bo'lsada, tadbirkorlik va ahillik yetishmaganligi tufayli mudofaachilar taslim bo'ldilar. Shahar vayron etilib 30000 ga yaqin kishi qul qilindi. Xo'jand va Termiz shaharlari ham shu holga tushdilar.

1221 yil boshlarida Xorazmshohning o'g'illari Jaloliddin, O'zloqshoh va Oqshohlar Xorazmshoh vafot etganligi, Jaloliddin uning vorisi etib tayinlanganligi ma'lum qildilar. Biroq, saroydagi ziddiyatlar Jaloliddinga mamlakatni boshqarishga imkon bermadi va u Uzloqshoh foydasiga taxtda voz kechdi. Jaloliddin Temur Malik guruhi bilan yashirincha Xursonga o'tib ketdi. O'zloqshoh ham taxtni tashlab qochdi. Xorazm taxti qipchoq amiri Xumortakin qo'liga o'tdi.

Shunday vaziyatda Chingizxon va Jo'ji qo'shinlari Urganch shahrini qamal qilishdi. Shahar mudofasi yaxshi tashkil etilgan bo'lib, mudofaachilarga buyuk alloma Najmiddin Kubro va 76 yoshli Ahmad ibn Umar Xivaqiy boshchilik qildilar. Kubroning "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deb qilgan xitobi ostida urganchliklar qariyb 5 oy mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatdilar. Biroq, yordamchi kuchlar bo'lmaganligi tufayli mag'lub bo'lishdi. Xumortakin mo'g'ullarga shahar darvozasini ochib berdi. Qattiq qirg'indan keyin shahar mo'g'ullar qo'liga o'tdi. 1221 yil oxirlarida Chingizxon Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlarida o'z hukumronligini o'rnatdi.

Mo'g'ullar bosqini natijasida o'lkamizda madaniyat o'choqlari barbod bo'ldi, san'at obidalari vayron etildi, mamlakatda og'ir tushkunlikka uchradi. Yakson

etilgan obidalar, yozuvlar, madaniy inshootlar, talab olib ketilgan buyumlar xalqimizning keyingi ma'naviy hayotiga o'zining ayanchli ta'sirini ko'rsatdi. Herman Vamberi bu haqda "O'zlarining san'atlari, ilm – ma'rifatlari, nozik tabiatlari va axloqlari bilan dong taratgan Movarounnahr aholisi baxtsizlikka uchrab, masxara etildi. Buyuk bir el shamolday tarqab ketdi", deb yozgan edi.

Chingizxon Markaziy Osiyoni egallab olgan bo'lsada hech qayerda Movarounnahrdagidek qarshilikka uchramaydi. O'tror, Xo'jand shaharlari aholisi, shayx Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi boshliq mudofaachilar bosqinchilarga qattiq zarbalar berdilar. Ayniqsa, Jaloliddinning jasoratlari tahsinga loyiqdir.

Jaloliddin Manguberdi Muhammad Xorazmshohning turkman xotini Oychechakdan tug'ilgan (1190) bo'lib, mo'g'ullar O'rta Osiyoga bostirib kirganda, u 20 yoshga to'lgan barvasta yigit edi. Uning Muhammad Xorazmshohning vorisi sifatida mamlakatni boshqarishga qarshi bo'lgan qipchoq amaldorlari ukasi O'zloqshohni taxtga o'tqazish payiga tushdilar. Bunday sharoitda davlatni boshqarishga ko'zi yetmagan Jaloliddin Temur Malikning ozgina qo'shinlari bilan Xursonga yo'l ochdi. Uning 700 kishilik qo'shini dastlabki g'azna shahri yaqinida 30 ming kishilik mo'g'ullar qo'shinini tor-mor qildi. Jaloliddin G'aznada qaytadan qo'shin to'pladi. U qo'shinlari orasida boshlangan nizolarni bartaraf qilib, qat'iy harbiy tartib o'rnatdi.

1221 yil yozida mo'g'ullarning Shig'i Qutxu nuyon boshliq qo'shinlari bilan Jaloliddin qo'shinlari o'rtasida Parvon dashtida bo'lgan jangda Jaloliddin qo'shinlari g'alaba qozondi. Tarixchilarning yozishga "Jaloliddinning o'zi Shig'i Qutxuning qo'shini o'rtasiga otilib kirib, uning harbiy tartiblarini buzib yuborgan va bayroqlarni otlarning tuyoqlari ostida poymol qilgan" jangda katta talofat ko'rgan Shig'i Qutxu qolgan qo'shinlari bilan Chingizxonning Tollikondagi qarorgohiga qochgan. Chingizxon qisqa vaqt ichida qo'shinlariga bir necha marta zarba bo'lgan Jaloliddinga qarshi o'zi jangga kirishgan.

Bu vaqtda Parvonadagi jangda qozonib ko'plab o'ljalarni qo'lga kiritgan Jaloliddin qo'shinlari o'rtasida ham bo'lishi yuz berdi. Jaloliddinning umumiy dushmani bo'lgan mo'g'ullarga qarshi jipslashishga qilgan da'vatlariga qaramay ayrim xalqlarning vakillari, jumladan, xalajlar, afg'onlar va boshqa qo'shini tark etdilar. Shunday bo'lsa-da Jaloliddin mo'g'ullar uchun hali ancha xavfli kuch edi.

Chingizxon qo'shinlarining uni o'rab olish va qo'lga tushirishga harakat qilayotganligini eshitgan Jaloliddin G'aznani tark etdi. Biroq G'aznadan 50 chaqrim sharqda Jaloliddin mo'g'ullar bilan to'qnashib jang bilan chekina boshladi. Chingizxon Sind daryosi bo'yida Jaloliddin qo'shinlarini o'rab oldi. Bu yerda bo'lgan uch kunlik jangda Jaloliddin mo'g'ullarning ko'plab qo'shinlarini qirib tashladi, o'zining ham barcha amirlari halok bo'ldi. Jami 700 ga yaqin qo'shin bilan qolgan Jaloliddinni Chingizxon tiriklayin qo'lga olish haqida buyruq bergan. Mo'g'ullar tomonidan o'rab olingan Jaloliddin qurshovidan chiqish imkoni yo'qligini ko'rgach, oila a'zolari va qo'shinlarga o'zlarini daryoga tashlash haqida buyruq bergan. U oz sonli qo'shinlari bilangina narigi qirg'oqqa chiqib olishga muvaffaq bo'lgan.

Shundan keyin Jaloliddin 10 yil davomida Hindiston, Eron, Iroq va Kavkazortida mo'g'ullar va boshqa dushmanlarga qarshi jang qildi. Jaloliddinning mo'g'ullar bilan so'nggi yirik jangi 1227 yil sentabr oyida Isfaxon yaqinida bo'lib, unda mo'g'ullar yoppasiga qirib tashlandi. Mo'g'ul lashkarboshlaridan biri Tavkal nuyon Jaloliddinning harbiy talanti va jasoratini ko'rib "Haqiqatan ham u o'z davrining bahodiri va tengqurlarning dahosidir" deb tan olishga majbur bo'lgan.

Jaloliddinning obro'-e'tibori oshib borishi bilan birga uning g'animlari ham ko'payib bordi. Nasafiyning yozishicha u ko'plab murakkab vaziyatlardan qutilib ketgan bo'lsada, kutilmagan vaziyatda bir kurdning urgan nayzasi oqibatida halok bo'lgan. Bu xabarni eshitgan Mayofarikin hokimi al-Malik, al-Muzaffar Jaloliddinni izzat- hurmat bilan ko'mish, qabrini boshqalar haqorat qilmasligi uchun tekislab qo'yish haqida farmon bergan. Jaloliddinning joniga qasd qilgan kurd va uning erkak hamqishloqlari o'ldirgan.

Tarixiy manbalarda jasur lashkarboshi haqida Jaloliddin Manguberdi to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ular orasida eng mukammali Shahobiddin Muhammad Nasafiy qoldirgan ma'lumotlardir. 1224 yildan boshlab Jaloliddinning harbiy yurushlariga ishtirok etgan Nasafiy o'zining "Sulton Jaloliddin Manguberding hayoti yo'li" nomli asarida Jaloliddin haqida, "U turk bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora holi bor, o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U kamtarin, jiddiy odam bo'lib, hech qachon baqirmas, so'kinmas, o'z atrofidagilar oldida o'zini juda yaxshi, sipo tutar edi. U ko'p gapirmas, hoholab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. O'z xalqining mushkulini yengillashtirishni yaxshi ko'rar edi. Biroq u yashagan to's-to'palon davr unga bunday xayrli ishni amalga oshirishga imkon bermadi. Sulton Jaloliddin eng og'ir sharoitlarida ham qat'iy tura oluvchi, eng qiyin siovlarda ham sira qo'rqmaydigan odam edi", deb yozgan.

Shunday qilib o'z yurtining erki, ozodligi uchun mardonavor kurashgan qahramon Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro va boshqalar qatori Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi uchun jonini fido qildi. Xalqimiz hamisha o'z qahramonlarini e'zozlab kelgan. 1999 yil 5 noyabr kuni Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishi bo'ldi. Yig'ilishda Jaloliddin Manguberdi sharafiga o'rnatilgan haykal ochildi.

Chingizxon vafotidan keyin mo'g'ullar egallab olgan hududlar o'g'illari – Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va To'lixonlarga bo'lib berilgan edi. Mo'g'ul xonlari, no'yonlarining bosib olingan hududlarda davlatni boshqarish tajribasi va layoqati yetishmaganligi tufayli, ular ko'proq boy hududlarni tashlash, o'lpon o'ndirish bilan band bo'lishib, shaharlar hayoti va savdo – sotiqqa befarq edilar. Xonlar va no'yonlarning betayin siyosati, ularning o'zaro hokimiyat va mulk talashib nizo chiqarishlar, mahalliy amaldorlarning ikkiyuzlamachiliklari va xushomadgo'yliklari O'rta Osiyo xalqlarini og'ir ijtimoiy – iqtisodiy ahvolga solib qo'ygan edi.

Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy hukumronlik qilgan (1227-1241) Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy yerlari Chig'atoy ulusi deb atalgan. Chig'atoyning o'zi Yettisuvda yashab, Movarounnahrni boshqarishni Mahmud Yalavoch (1226-1238) va uning o'g'li Ma'sudbekka (1238 - 1289) berib qo'ydi. Mahmud Yalavoch davrida Movarounnahrda bir qator norozilik harakatlari

(jumladan, Mahmud Tarobiy boshchiligidagi 1238 yilgi qo'zg'olon) ko'tarilgan bo'lsa-da, Ma'sudbek o'lka ijtimoiy – iqtisodiy hayotini yaxshilash bo'yicha ba'zi ijoiy o'zgarishlarini amalga oshirdi. Uning ta'sirida mo'g'ul xonlar Guyukxon (1246-1248), Munkexon (1251-1260) va Olg'uxonlar (1261-1266) Movarounnahrda tinchlik va tartib o'rnatishga harakat qildilar. Jumladan, Munkexon jon solig'ini va pul muomalasini tartibga soldi, mo'g'ul aslzodalarining bu yerga kelib, mahalliy boshqaruv ishlariga aralashishiga chek qo'yildi.

Bu davrda vayron bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Toshkent, Termiz, Urganch va boshqa shaharlar qaytadan tiklandi. Farg'ona muzofotidagi O'zgand, Axsikent, Isfara, Quva shaharlari obodonlashdi. Shu bilan birga, Andijon, Qarshi singari yangi shaharlar paydo bo'ldi. Shaharlarining kengayishi va obodonlashishida 1271 yil Ma'sudbek tomonidan o'tkazilgan pul islohoti katta rol o'ynadi. Movarounnahrda bir xil vaznda zarb etilgan kumush tangalar umumdavlat muomalasiga kirtildi.

XIII asr oxirida Baroqxon vafotidan keyin Chig'atoy ulusi taxtini uning o'g'li Duvaxon (1291 - 1306) egalladi. O'sha davrda Andijonning obod shahriga aylanishi Duvaxon nomi bilan bog'liqdir. Duvaxon vafotidan keyin boshlangan tartibsizliklarni uning ikkinchi o'g'li Kepakxon (1318 - 1326) qisman bartaraf etishga muvaffiq bo'ldi. U bir qator iqtisodiy va ma'muriy islohotlar o'tkazdi. Kepakxon Chig'atoy ulusini mustahkamlash maqsadida xonlik markazini yaylovdan o'troq zonaga ko'chirtirdi. Natijada hozirgi Qarshi shahri bunyod etilib, u ulus markazi qilib belgilandi. Kepakxon bir qator islohotlar o'tkazdi. 1321 yil o'tkazilgan pul islohoti moliya tizimini izga solishda muhim rol o'ynadi. Ma'muriy islohotga ko'ra, Movarounnahr hududi tumanlarga (jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta Farg'ona viloyatida 9 ta) bo'lindi.

Kepakxon siyosatini Tarmashirin (1326 - 1334) davom ettirdi. U islom dinini qabul qilib, uni davlat dini darajasiga ko'tardi. Uning o'rniga kelgan Qozonxon (1334 - 1346) asosiy e'tiborini mahalliy va mo'g'ul amaldorlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratdi. Qozonxon vafotidan keyin hokimiyatni egallagan amir Qozag'on (1347 - 1358) o'tmishdoshlaridan farq qilib, ko'chmanchi mo'g'ul aslzodalari manfaatlariga mos siyosat yuritdi. Mahalliy aholi manfaatlariga zid bo'lgan bu siyosat oqibatida ijtimoiy – siyosiy vaziyat keskinlashdi. Siyosiy kurashlar jarayonida amir Qazag'on qatl etildi. Uning o'g'li Abdullohning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Bu orada Mo'g'ulistondan bostirib kelagn (1359) Tug'luq Temur Movarounnahrda jiddiy talofat yetkazdi.

XIV asr o'rtalariga kelib Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va g'arbiy ulus Movarounnahrda bo'linib ketdi. O'sha paytda Xorazmning sharqiy qismi ham g'arbiy ulusga qarar edi. Bu Movarounnahrda hokimyatga intiluvchi kuchlarning ko'payishiga va siyosiy vaziyatning yanada keskinlashuviga olib keldi.

Mo'g'ullar istilosi Movarounnahr xalqlari boshiga qanchalik og'ir kulfatlar solmasin ajdodlarimizni bunyodkorlik ishalirdan sovuta olmadi. Bu davrda Urganch, Qarshi, Andijon shaharlari qayta tiklandi. Samarqand, Buxoro, Shosh, Xo'jand kabi shaharlarda bir qator inshootlar bunyod etildi. XIII asrda Ko'hna Urganchda bunyod etilgan balandligi 62 metrlik minora, Buxoroda islom olamining

yetuk allomalaridan biri Sayfiddin Boxarziy (1258 yil vafot etgan) maqbarasi, XIV asrda Samarqandda qurilishi davom etdirilgan Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon maqbarasi, Ko'ha Urganchdagi Najmiddin Kubro, To'rabekxonim, Xo'janddagi To'baxonim maqbaralari o'z davrining noyob yodgorliklari hisoblanadi.

Bu davrda O'rta Osiyoda ilm-fan, manaviyat va badiiy adabiyot katta qiyinchiliklar bilan bo'lsada takomillashib bordi. Tarixshunoslik, ilmi – nujum, so'fiylik ta'limoti va boshqa bo'yicha bir qator asarlar yaratildi. Ular jumlasiga Najmiddin Kubro (1145 - 1221) shayx Sayfuddin Boxarziy, Bahouddin Naqshband (1318 - 1389) ta'limotlari, Juvayniy (1383 yil vafot etgan), Fayzulloh Rashididdin (1318 yil o'ldirilgan) asarlari kiradi. Masalan, Rashididdinning "Jome ut- tavorix" asariga ko'pchilik olimlar "Jahon tarixi" yaratishga dastlabki urush sifatida qarashadi. Adabiy sohada Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Pahlavon Mahmud, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi va boshqalar samarali ijod qildilar. Jumladan asli xorazmlik bo'lib, keyinchalik Turkiyada yashagan Jaloliddin Rumiy (1207 - 1277) ning 6 jildi, 25 ming 700 baytdan iborat "Masnaviy"si, g'azalnavis shoir Sa'diy Sheroziy (1219 - 1292) ning mashhur "Guliston" va "Bo'ston"i, Pahlavon Mahmud (1322 yil vafot etgan) ning chuqur falsafiy mazmuniga ega bo'lgan ruboiylari, XIII yil oxiri XIV asr birinchi yarimida yashab ijod etgan Rabg'uziyning o'zbek tili nasr namunasini o'zida aks etdirgan ikki jildlik "Qissasi Rabg'uziy" asari o'sha davr adabiyotining yorqin namunalaridir.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

- 1.XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda ijtimoiy – siyosiy vaziyat haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh o'rtasidagi elchilik munosabatlari to'g'risida gapirib bering
- 3.O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi tarixi qanday?
- 4.Mo'g'ullarga qarshi kurashda kimlar yetakchilik qildi va qanday natijalarga erishildi?
- 5.Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy ahvoli qanday edi?
- 6.Chig'atoy ulusi va uning ijtimoiy- siyosiy hayoti qanday bo'lgan edi?

Vazifalar:

1. Bahouddin Naqshband va Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodi bilan tanishib chiqish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Mo'g'ullar zulmiga qarshi ozodlik kurashlari.
2. "Jaloliddin Manguberdi vatanparvar siymo" mavzusida mustaqil ish bajarish

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov.I. A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008.
3. Karimov I.A. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi

tantanalarida soʻzlangan nutq. -T., Asarlar, VIII jild.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., “Oʻzbekiston” 2015

4. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) -T., Gʻafur Gʻulom, 1998.

5. Zayniddin X. Jaloliddin Manguberdi. -T., Fan 1995.

6. Ahmedov B. Oʻzbek ulusi. -T., “Nur” , 1992.

7. Bunyatov Z. Xorazmshoh – Anushteginlar davlati. -T., 1998.

8. Buxoro tarixi. -T., “Fan” 1976.

9. Vamberi Herman. Buxoro yoxud Movarunnahr tarixi. -T., 1999.

10. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning Oʻrta Osiy boʻylab sayohati. -T., 1991.

11. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. -T., “Xazina” 1991.

12. Karimov Sh. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. -T., 1- kitob. 1997.

13. Mirzo Ulugʻbek. Toʻrt usul tarxi. -T., “Choʻlpon”, 1994.

14. Oʻzbekiston tarixi (Oliy oʻquv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.

15. Oʻzbekiston tarixi (Oliy oʻquv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universiteti. -T., 2005.

16. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. Mas. muh. M.M.Xayrullayev. -Toshkent: Fan, 1999.

17. Sh.Saidov. Xorazmshoh Anushteginiylar davlati. -T., 2000

18. Oʻzbekiston tarixi (Oliy oʻquv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.

19. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev Oʻ. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

7-mavzu. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA OʻZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Darsning oʻquv maqsadi: XIV asrning oʻrtalarida Movarunnahrda siyosiy vaziyat, Amir Temurning Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatga asos solishi, uning jahon tarixida tutgan oʻrni haqidagi talabalar bilimni yanada boyitish.

Tayanch iboralar: Movarounnahr, moʻgʻul xonlari, Amir Temur, barlos, Xoʻja Ilgʻor qishlogʻi, Kesh, Loy jangi, Oltin Oʻrda, Toʻxtamishxon, Temur tuzuklari, Ilyos Xoʻja, Tugʻluq Temur, uch yillik, besh yillik, yetti yillik harbiy yurushlar, Samarqand, Saroy Mulk xonim, Sulton Boyazid, Anqara jangi, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulugʻbek, Mironshox, Pirmuhammad, Halil Sulton, Xuroson, temuriyzodalar, sohibqiron, vazir ul-vuzaro, devonbegi, udaychi, tumanboshi, mingboshi, yasovulboshi, miroxoʻr, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy.

Reja:

1. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi. Davlatchilik asoslari.

2. Amir Temurning harbiy yurushlari. Tashqi siyosa-T.,
3. Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
4. Temuriylar davrida fan va madaniyat, me'morchilik.
5. Temuriylar saltanatining parchalanishi: sabablari va oqibatlari.

Asosiy qism

Chingizxon lashkarlari tomonidan yurtimizning zabt etilishi bilan xalqimiz tarixida to'rtinchi bor qaramlik boshlandi. Chingizxon tomonidan amalga oshirilgan saltanat taqsimotida Movarounnahr, Yettisuv, Qashg'ar uning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga nasib etdi va Chig'atoy ulusi tashkil etildi. Chig'atoylar asosan tegishli soliqlarni qo'lga kirishi bilan kifoyalanib, boshqaruv ishini mahalliy nomoyondalar ixtiyoriga topshirib qo'ygandilar. O'zlari esa asosiy vaqtlarini madaniy viloyatlardan tashqarida biyobonlardagi qarorgohalarida o'tkazib kelgandilar, sababi ular dashtu biyobon voqeligida qanchalik siyosiy yuksaklikka ko'tarilmasinlar, ammo madaniy o'lkadagi turli yo'nalishdagi munosabatlar jarayonini hali eplay ololmasdilar. Lekin Kepakxon va Tarmashirinlar davrida Movarounnahr madaniy hayotiga moslashish hollari ko'zga tashlanadi.

Chig'atoy xonlaridan Qozon (vafoti 1346) davriga kelib esa ichki vaziyat keskinlashib yirik amirlar to'g'ridan to'g'ri hukmdor xonadonga nisbatan tazyiq o'tkaza boradilar. Buning natijasida Amir Qazag'on Qozonxonni fitna orqali nobud etishga muvaffaq bo'ladi. Amir Qazag'on shu tariqa hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Amir Qazag'ondan keyin uning o'g'li Abdulla otasi kabi siyosat yurgiza olmadi va siyosat qurboniga aylandi. Undan keyin taxtga o'tirgan Bayon sulduz qat'iyatsiz edi. Shu sababdan XIV asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrda boshboshdoqlik avjiga chiqdi.

Bu borada o'sha davr tarixchisi Nizomiddin Shomiy shunday deb yozgan edi. Bu vaqtda Kesh (Shahrisabz) viloyatida Hoji Barlos, Xo'jandda amir Boyazid, Balx va ba'zi viloyatlarda amir Qazag'onning nabirasi amir Husayn, Shibirg'onda amir Muhammadxo'ja, Xatlon (Xuttalon) va Arxang saroyda amir Kayxisrav va amir Uljoytu, Samarqand viloyatida esa amir Xizr Yosavuriy o'z boshlaricha hokimlik qilardilar. Ulardan har birlari oliy taxtni qo'lga kiritish payida bo'lganliklari xususida shubha qilmasa ham bo'ladi. Bu borada ayniqsa amir Husayn tirishqoqlik ko'rsatardi.

U o'zini amir Qazag'on nabirasi sifatida ulug' amirlik rutbasiga voris deb bilardi. Chig'atoylar izmida bo'lib kelgan Yettisuv va Qashg'ardagi vaziyatga kelsak, bu yerda bir qator nufuzli amirlar tomonidan xonlik baxtiga Tug'luq Temur o'tkaziladi. Huddi mana shu Tug'luq Temur 1360 yili Movarounnahrda chig'atoylar hukmini qaytadan tiklash uchun bu yerga lashkar tortadi. Mazkur yili voqesi munosabati bilan ilk bor Amir Temur nomi tilga olinadi. Amir Temur hijriy 736 yil sha'bon oyining yigirma beshida seshanba kuni dunyoga kelgan. (1336 y 8 aprel) (Yazdiy).

Amir Temurning otasi Tarag'ay bahodir (vaf. 1360 y) Kesh viloyatining nufuzli amirlaridan biri bo'lgan. Shu bilan birga, manbalaridan birida yozilishicha, Niyoziy (Achig'i) qishlog'i Amir Temurning me'rosiy mulki hisoblangan. Temur yoshligidanoq moddiy jixatdan ta'minlangan holda o'sgani ma'lum. U dunyoviy

ham diniy bilimlar olish uchun tegishli sharoitda o'sgan. Ikkinchi tomondan esa tug'ma istedod va o'tkir xotira sohibi bo'lgan. Shuning uchun ham o'rta asr tarixchilar uni tarix, she'riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik borasidagi salohiyati haqida alohida so'z aytib o'tganlar. Xullas yuqorida zikr etilgandek, Tug'luq Temurxonning 1360 yil fevral, mart oylarida Movarunnahrga yurush vaqtida Amir Temur o'ziga yarasha siyosiy faoliyat yurgizishga qodir, el-yurt oldida o'z burchini anglab ulgurgan shaxs sifatida yetilib bo'lgandi.

Amirlardan Xizr va Boyazid Tug'luq Temurxon qarorgohiga bosh egib boradilar. Hoji Borlos Xurson tomon jo'nashga jazm qiladi. Uning xizmatida bo'lgan Amir Temur esa shu yerda qolib, me'rosiy mulki hisoblangan Keshni birovlar qo'liga o'tib ketishini istamay, Hoji Sayfiddin yordamida Tug'luq Temurxon qabuliga boradi va Kesh viloyati hokimligiga erishadi. Bu vaqtda u 24 yoshda edi. Bir qaraganda Tug'luq Temurxonning bu yurushlaridan keyin Movarunnahrda ham Chingiziylar xonadoni mavqei amalda tiklanganday bo'lib ko'rinsada, aslida mahalliy yirik amirlar hanuz mustaqil siyosat yurgizishga intiladilar. Shuning uchun ham 1361 yil bahorida Tug'luq Temurxon yana bir bor Movarounnahrga qo'shin tortadi. Bu safar ham Amir Temurga Kesh viloyati nasib etadi. Ammo bu hol uzoq cho'zilmadi. Chunki ketish oldidan o'g'li Ilyosxo'jani Movarounnahrdagi qoldirgan Tug'luq Temurxon o'zining ishonchli amirlaridan Bekchikni undan boxabar bo'lib turushni tayinlagan. Tez orada amir Bekchik bilan mahalliy amirlar o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi.

Bunday vaziyatda Amir Temur Keshda va umuman Movarounnahrdagi qololmasdi. Shunga ko'ra u keyingi deyarli 9 yil davomida Amir Husayn bilan avval yonma-yon, so'ngra qarama-qarshilikda faoliyat ko'rsatdi. Buning sababi ma'lum. Amir Husayn boshdanoq, bobosi Amir Qazag'on davrida o'z xonadoni mavqeini tiklashga intilib keldi. Buning ustiga bu vaqtda qoraunaslar (ya'ni chingiziylar davrida chig'atoy ulusi g'arbiy qismlarida Movarounnahr, Xurosonga sharqdan kelib o'rnashgan va mahalliy turkiy aholi tarkibiga...? turkiy mo'g'ul qabilalari) orasida uning mavqei baland edi. Amir Temurning mavqei esa hali bu darajada baland emasdi. Xuddi shuning uchun ham u amir Husayn tomon intilgan.

Ularning ikkovilari bir maqsad-umumiy dushmanga qarshi kurash birlashtirgandi. 1363-1364 yillari ular Movarounnahr chingiziylardan holos etishga muvoffaq bo'ladilar. Ilyos Xoja Movarounnahrni tashlab qochadi. Amir Husayn ulug' amirlik maqomiga erishadi. Amir Temurga esa yana Kesh viloyati nasib etadi. 1365 yil bahorida Mo'g'ilistondan lashkar tortib kelgan Ilyos Xoja Amir Husayn va Amir Temur boshliq lashkarlarini mag'lubiyatga uchratadi. Bu jang tarixda "Loy jangi" deb tilga olinadi. Mag'lub tomon jumladan Amir Temur Amudaryo ortiga chekinishga majbur bo'ladi. Ammo mo'g'ullar zafari uzoqqa cho'zilmaydi. Ular Samarqandga qilgan yurushlarida Mavlonzoda Samarqandiy, Xo'rdaki Buxoriy, Abu Bakr Naddof Kaloviy boshliq Sarbadorlar tomonidan qaqshatqich zarba yeb, ortga qaytib ketadilar. Sarbadorlar g'alabasi haqidagi xabar avval Amir Temurga u orqali Amir Husaynga yetib borgan. 1366 yil bahorida Amir Husayn va Amir Temur Samarqandga keladilar va Konigilda o'tkazilgan g'alaba marosimida Amir Husayn buyrug'i bilan Sarbadorlarning yo'l boshchilari va faol ishtirokchilari qatl qilinadilar. Amir Temurning aralashuvi tufayligina Mavlonzodaning hayoti saqlanib qolinadi.

Amir Husayn Sarbadorlarga nisbatan nima uchun bunday siyosat tutgan degan savol uygʻonadi. Amir Husayn uchun oʻz siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va davri kelsa ulardan qutilish siyosatini tutdi.

Amir Husayn Temurning mavqeyiga bolta urushga jiddiy ravishda kirishdi. U Amir Temurning bir qator safdoshlari va yaqin amirlariga nisbatan tazyiq oʻtkaza boshladi. Xullas 1365-1370 yillar Amir Temur va amir Husaynlaro kurash yillari boʻldi va u Sohibqiron gʻalabasi bilan tugadi. 1370 yil 9 aprel chorshanba kuni nufuzli amirlardan Shayx Muxammad Sulduz, Kayxisrav Xuttaloni, Oʻljoytu apardi, Dovud dugʻlat, Sarbudogʻ jaloir, Joku barlos, Muyyiad Arlot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn baxodir hamda boshqa amirlar va sardorlar sayidlardan Sayid Baraka, Termizlik aka uka Sayidlar abu Maoliy va Ali Akbar kabilar huzurida Amir Temur hokimiyati bir ovozdin tan olinadi. Bu vaqtda Amir Tumur endigina 34 yoshda edi. Shu tariqa moʻgʻullarga 150 yillik siyosiy qaramlik, yurtidagi boshboshdoqlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi qoloqlik davoiga rasman chek qoʻyilib, davlatimiz mustaqilligi tiklangan. Oldinda esa bir qator mushkul va muhim vazifalarni hal etish kerak boʻlgan amaliy tadbirlar silsilasi turardi.

Amir Temur Davlat boshqaruvini oʻz qoʻliga olgan boʻlsada, ammo mavjud shart sharoitda amaliy qadamlar qoʻyib borish nihoyatda qiyin edi. Zero mamlakat biron bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega boʻlgan amirlar hozircha uning hukmronligini tan olgan boʻlsalarda, ular bilan Amir Temur oʻrtasidagi munosabat bundan buyon ularda va ular namoyondasi boʻlmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan koʻp jihatdan bogʻliq edi.

Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlardagi xavfsizlik pochta, qatnov vositalarini taʼminlash qoʻshinlar yurushi, janglar oqibatida xarob boʻlgan yerlarni obod etish, (mehmonlar toʻxtash joylari) makonlar qurish, kambagʻal va miskinlar uchun xayrxonalar ochishga katta eʼtibor bergan. Shuningdek u sayidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, musulmon jamiyatiga oʻziga xos mavqe va taʼsirga ega tabaqaga katta ikrom bilan qaragan. Davlat va Jamiyat qurishida turli tabaqalar (din peshvolariyu, olimlardan to miskinu savdogarlargacha) manfaatini koʻzlab ish yuritishni oʻzicha asos qilib olgan. Oʻzining 35 yillik faoliyatida A.Temur uchun bu bosh siyosat boʻlib qoldi. Amir Temur shuni tushunib yetdiki, yuksalish sharoiti va imkoniyatlariga ega boʻlgan makon va jamiyat yaxlitligicha erishmasdan turib boshqa siyosat, iqtisodiy va shunga oʻxshash tadbirlarni amalga oshirib boʻlmasdi. Bu yoʻldagi harakatlar Amir Tumur uchun oson kechmadi. Ammo nima boʻlganda ham XIV asrning 70 yillari oʻrtalariga kelib mamlakat siyosiy yaxlitligicha asosan erishib boʻlingandi.

Amir Temur Oltin urda Moʻgʻuliston, Xuroson, Afgʻoniston, Shimoliy Hindiston mintaqalariga tarixiy madaniy jihatlardan yaqin mintaqani birlashtirish niyatida harbiy yurushlar qildi.

Oltin oʻzda, Moʻgʻulistonda faoliyat koʻrsatayotgan siyosiy kuchlar A.Temur hokimiyatiga xavf solib turardilar. Masalan Oltin oʻrda xon Toʻxtamishxon Amir Temurning mamlakatda yoʻqligidan foydalanib 1387-1388 yillari Movarounnahrda hujum uyushtirib, uni tolon toroj qilgan. Shuning uchun 1389-1395 yillarda uch marotaba Toʻxtamishxonga qarshi harbiy yurushlar uyushtirib, uni tor-mor qilishga

muvaffaq bo'ldi. Bu bilan u Rossiyaning keyinga taraqqiyoti uchun yo'l ochib berdi. Amir Temur davlatni buyuklik darajisiga ko'tarish mamlakatni butun dunyoning siyosiy, iqtisodiy madaniy markaziga aylantirishga o'ziga bosh maqsad qilib qo'ygan edi. Ana shuni tashqi faoliyat bilan bog'liq amaliy tadbirlarni o'sha davr uchun tabiiy va zarur bo'lgan harbiy yurushlarsiz tasavvur qilib bo'lmasdi.

XIV asrning 80 yillarida Eronning, 90-yillarda esa Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Shimoliy Hindistonning Amir Temur tomonidan bo'ysundirilishini xuddi mana shu jihatlar orqali tushuntirmoq ham kerak. O'zining 35 yillik faoliyati davomida Amir Temur o'z oldiga qo'ygan barcha maqsadlarga erisha oldi. Mo'g'ullar iskanjasidan ko'pgina davlatlarni ozod etdi. Buyuk Ipak yo'li shuhratini qayta tikladi. Rossiya va Yevropani keyingi taraqqiyoti uchun keng yo'l ochib berdi. Turkistonni dunyoning eng madaniy o'choqlaridan biriga aylantirdi.

Amir Temur 1405 yil 18 fevral kuni Xitoyga yurush chog'ida O'trorda vafot etadi. U o'z hayotining so'nggi daqiqalarigacha faqat bir narsani el-yurt osoyishtaligi va ravnaqini ta'minlanishini o'yladi. Vafotidan oldin Sohibqiron oliy taxtning rasmiy vorisini tayinlagan, avlodlariyu a'yonlari unga xizmat qilishga qasam bergan bo'lsalarda ammo amalda ish umuman boshqacha tus oldi. Sohibqironning o'limi haqidagi xabar saltanat uzra tarqashi bilan har bir Temuriy shahzoda u yoki bu darajada vorislik ishtiyoqi bilan yongani, yo bo'lmasa bundan buyonga vaziyatda o'zi bo'lishi mumkin bo'lgan mavqe borasida o'ylagani aniq. Bularning barisi Temuriyzodalarning o'zaro qonli kurashlariga olib keldi. Aka ukani, jiyan – amakini ayamadi. Bunga javoban Temuriy shahzodalarga nisbatan xalqning ishonchi yo'qoldi, nafrati qo'zg'adi.

Taxt uchun kurash borasida Temuriyzodalardan Halil Sulton va Shohrux ko'zga yaqqol tashlanadi. Keyinchalik esa vaziyat 1409 yil Shohrux foydasiga hal bo'lishini ko'ramiz. Shunday qilib Turkistonning Sirdaryogacha bo'lgan qismi hamda Eronda temuriylar xonadoni hukmronligi saqlanib qoladi. Shohrux Movarounnahrni o'g'li Ulug'bekka (1409-1449) topshiradi. Lekin bu paytda davlatchiligimiz imkoniyatlarining Amir Temur zamonidagi manzarasi yo'qolgandi. Ya'ni, davlatning buyukligi yo'qolgandi. Otasidan so'ng Turkiston, Xuroson, Eronni bir markaz ostida birlashtirishga uringan Ulug'bekka omad yor bo'lmadi. Buni keyingi Temuriylar ham uddalay olmadilar. Aksincha kuchli ziddiyat yuzaga keldi. Samarqandda Abu Sa'id (1451-1469,) Hirotida Abulqosim Bobur (1452-1457) o'zlaricha hukmronlik qila boshladilar.

XV asrning so'ng yillarida Samarqand uchun Abu Sa'id nabiralari Boysung'ur (1477-1439), Sulton Ali (1483-1501) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 - 1530) o'zaro kurash olib borganlar.

Xulosa. Dashti Qipchoqda bosh ko'tarib kuchga to'lib kelayotgan shayboniylarning janubga tomon yurushlari arafasida Temuriylar xonadoni ichki ziddiyatlar ta'sirida g'oyatda zaiflashib qolgandi.

Davlatchiligimiz tarixiga nazar solgudek bo'lsak, Amir Temur davriga kelib o'zbek davlatchiligi tarixi o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilganligini ko'ramiz. U 150 yillik mo'g'ullarga qaramlikdan so'ng davlatimiz siyosiy mustaqilligini tikladi: o'z davrida mavjud sharoit, to'ra – turklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yo'lga qo'ydi: markazlashgan davlat tizimini yaratdiki, o'z zamonasi uchun bu

dunyo miqiyosidagi taraqqiyparvar voqea hisoblangandi. Iqtisodiy munosabatlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq) rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarini barpo etishga qattiq kirishdi; ijtimoiy-munosabatlarni (soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatini nazarga solish) muhim deb bildi; hukmronligining dastlabki kunidan to umrining oxirigacha fon va madaniyat ravnaqiga alohida diqqat bilan qaradi: o'z davri shart – sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda harakat qilib, davlatni saltanat mavqeiga olib chiqdi; o'lkani dunyoning eng buyuk siyosati, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi.

Temur tuzuklarida aytilishicha, Amir Temur davlat boshqaruvida 12 tabaqa vakillaridan foydalangan. Tuzuklar bayonida A.Temur tabiiy ravishda din va sharoitni birinchi o'rinda ta'kidlagan holda ijtimoiy tabaqalarga bo'lgan munosabatini boshqa yo'nalish va masalalardan ustun qo'yadi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. XIV asrning o'rtalarida Movarunnahrdagi siyosiy vaziyat haqida gapirib bering?
2. Amir Temur Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatga asos solishda nimalarga e'tibor qaratdi?
3. Amir Temurning harbiy yurushlari haqida gapirib bering?
4. Amir Temurning Sulton Boyazid bilan munosabatlarini tahlil qila olasizmi? Anqara jangidagi g'alaba qanday natijalarga, yutuqlarga olib keldi?
5. Fransiya, Ispaniya, Angliya qirollarining Amir Temurga yo'llagan maktublari haqida gapirib bering
6. Amir Temur tashqi diplomatik munosabatlarga qanday qoidalarga rioya etgan?
7. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni qanday?
8. Amir Temur davlatida qanday o'zgarishlar, tartiblar o'rnatildi? "Temur tuzuklari"dan misollar keltiring
9. Amir Temur vafotidan keyin siyosiy hayotda qanday o'zgarishlar ro'y berdi va ularning oqibati nimalarga olib keldi?
10. Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bekning hukmronlik yillarida Movarounnahr va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
11. Temur va temuriylar davriga oid qanday manbalar bor? Ular qanday ma'lumotlar beradi?

Vazifalar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Ibn Arabshoh, Mirxondlarning ijodiy merosi bilan tanishish va tahlil etish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Temur tuzuklari" mavzusida mustaqil ish bajarish.
2. Temuriylar davrida Movarunnahrning ichki siyosatini temuriy hukmdorlar faoliyati misolida yoritish
3. Temuriylar davrida tashqi diplomatik munosabatlar haqida ma'lumot to'plash

4. “Temuriylar tarixi” davlat muzeyi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash
5. 1996 yilda “Amir Temur yili”ning nishonlanishi to‘g‘risida ma’ruza tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. -T., 5. -T.,: O‘zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., “O‘zbekiston” 2015
3. Temur tuzuklari. -T.,G‘ofur G‘ulom. 1991.
4. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. -T., Fan 1968.
5. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. -T., 1998.
6. O‘zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., «Sharq» 2001.
7. Ivanin N. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. 1994.
8. O.Bo‘riev. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. -Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
9. “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mav-zusidagi xalqaro konfe-rentsiya tezislari. Mas. muh. B.A.Ahmedov. -Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
10. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. // B.Ahmedov, N.Norqulov, M.Hasaniy tarj. -Toshkent: Cho‘lpon, 1994
11. I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi tutgan o‘rni va roli. -T.,1992;
12. Temur tuzuklari.-T.,1992;
13. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. -T.,1994;
14. Ma’naviyat yulduzlari.To‘plam.-T.,1998
15. Temuriylar davri madaniy yodgorliklari. Mas. muh. N.Habibullayev. -Toshkent, 2003.
16. D.Yu. Yusupova. Jizn i trud Xondamira. -Tashkent: Fan, 2006.
17. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. Darslik. -T.,: Moliya-iqtisod, 2006.
18. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T.,: Sharq, 2000. 151-171 betlar.
19. I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli. -T.,: Fan, 1993.
20. Q.Usmonov, M.Sodiqov, N.Oblomurodov. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.,: Meros, 2002
21. O‘zbekiston tarixi. Darslik. -T.,: O‘AJBNT, 2003, 268-299 betlar.
22. Q.Usmonov, M.Sodiqov, O‘zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. 1-qism. – -T.,: Moliya, 2005.
23. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010.

8-mavzu. TURKISTONNING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Darsning o‘quv maqsadi: O‘rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari va oqibatlari, XV-XVI asr boshlarida Movarounnahr ijtimoiy – siyosiy vaziyati haqida talabalarda bilim xosil qilish.

Tayanch iboralar: ichki ziddiyatlar, siyosiy tarqoqlik, Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Samarqand, Dashti Qipchoq, Temuriyzodalar, Ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, Ubaydullaxon, Elbarsxon, Abdullaxon II, mang‘itlar, minglar sulolasi, Shohruxbiy, Abulfayzxon, Muhammad Raximbiy, Shohmurod, vazir ul-vuzaro, devonbegi, udaychi, tumanboshi, mingboshi, yasovulboshi, miroxo‘r, siyosiy tarqoqlik, Dashti Qipchoq, Xuroson, xonlik boshqaruv tizimi, amirlik, Abulg‘ozixon,

Reja:

1. XV-XVI asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy – siyosiy vaziya-T.,
2. O‘rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari.
3. O‘rta Osiyoning xonliklarga bo‘linib ketish oqibatlari.

Asosiy qism

1405 yilda Amir Temur vafotidan so‘ng uning yirik davlati parchalana boshladi. Temuriy shahzodlarning taxt uchun o‘zaro kurashlari qudratli davlatlarning bo‘linishiga asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Sohibqiron taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo‘lsada, ko‘pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405 yil mart oyida Temurning boshqa bir nabirasi Halil Sulton Samarqand taxtini egalladi. Undan tashqari, Xurosonda Shohrux: Balx, G‘azna va Qandahorda Pirmuhammad: G‘arbiy Eron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abubakr Mirzo: Turkiston, Sabron, O‘tror, Sayramda Amir Berdibek: O‘ratepa va Farg‘ona amir Xudoydod: Xorazmda amir Idiku o‘zlarini hukmdor deb e‘lon qildilar.

Mamlakatdagi parokandalik va o‘zaro urushlarga barham berish uchun Shohrux Mirzo ko‘p sa‘y-harakatlar qildi. XV asrning 20-yillariga kelib Amir Temur mulklarining qariyb hammasi Shohrux va uning oila a‘zolari qo‘l ostida edi. Movarounnahr yerlarini 1409 yildan boshlab Shohruxning to‘ng‘ich o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek boshqara boshladi. Ulug‘bekning xukmronlik davri (1409-1449 yy.) asosan, Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ulug‘bek bobosi Amir Temur kabi harbiy iste‘dodga ega emas edi. U mamlakat ichidagi va atrofdagi osoyishtalikni saqlab turish maqsadida ayrim harbiy yurushlar qilib turdi, holos. 1447 yilda Shohrux Mirzo vafotidan so‘ng temuriyzodalar o‘rtasida kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulug‘bek bu kurashga barham berishga harchand harakat qilmasin buning uddasidan chiqqa olmadi. Aksincha , o‘g‘li Abdullatifning bevosita ishtroki tufayli o‘zi bu kurashlarning qurboni bo‘ldi. Xullas, XV asrning o‘rtalarga kelib, Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin (1449 y.) Temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi. Abduqosim Bobur (1452-1457) va Abdusaid Mirzolarning (1458-1468) faoliyati ham o‘zaro urushlarga barham bera olmadi. 1469 yilga kelganda Xurosonda Husayn

Boyqaro hokimiyatini egallab, bu hududlarda nisbatan tinchlik o'rnatdi. Uning do'sti – buyuk shoir Alisher Navoiy (1441 - 1501) muhrdor, vazir, Astrobod hokimi lavozimlarida ishlab, Xuroson ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynaydi. Navoiyning sa'y-harakatlari bilan Xirotda ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. O'zaro urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnahrda esa bu davrga kelib siyosiy tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharlarda temuriy shahzodalar o'zlarining mustaqil hukmronligini o'rnatishga harakat qildilar. Ular hokimiyat uchun o'zaro kurashlarda Dasht Qipchoq qabilalari kuchlaridan foydalanishar edilar. Masalan: 1451 yilda Urusxonning nabiralari Abdusaidga hokimiyatni egallash uchun yordam bergan bo'lsa, oradan uch yil o'tgach Abdulxayrxon Muhammad Juqiga hokimiyatni egallashga ko'maklashdi. Bu o'zaro kurashlar Movarounnahr ahlining ahvolini yomonlashishga olib keldi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarining bir-biridan o'zaro mustaqil bo'lgan uchta hokimiyati vujudga keldi. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1468- 1503), 2. Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi (1468-1498), 3. Andijonda Umarshayx I Mirzo hukmronligi (1468-1494). Bu uchala davlatning o'zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta'lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbaxt Dashti Qipchoqda dasht urug'larini birlashtirib, o'z hokimiyatni mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh temuriylar, goh shimoldagi mo'g'ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487-88 yillarda O'tror, Sayram, Yassi (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini Shayboniyxon 1500 yilning boshlarida jangsiz egalladi. Dasht urug'lari bir necha oy shaharni shafqatsiz talon-taroj qildilar. Bu esa mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o'sha yili (1500 yil) Samarqand taxtini ikkinchi marta egaladi. Ammo mahalliy zodagonlar ko'pchiligi Boburni qo'llab-quvvatlamadilar. 1501 yilning bahorida Bobur Shayboniyxon bilan bo'lgan jangda yengildi va Samarqandni unga topshiradi.

Dashti Qipchoqliklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500) Samarqand (1501), Toshkent (1503), Hisor (1504), Urganch (1505), Hirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg'oniston hududlarigacha cho'zilgan yerlarda markazlashgan shayboniylar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik ayrim hukmdorlarning ajralib mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo'lsa, Shayboniyxon bunday tarqoqlikka chek qo'yib mamlakatning birligini mustahkamlay oldi.

Shayboniyxonning janubga tomon yurushlari Eron shohi Ismoil I tomonidan to'xtatildi. 1510 yil Marv atroflarida bo'lgan jangda dasht qo'shinlari tor-mor etildi va Shayboniyxon halok bo'ldi. Eroniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Bobur

1511 yilda Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo 1512 yilda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton qo'shinlari G'ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoilning birlashgan kuchlarini mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Hindistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Dashti Qipchoq qabilalari esa Movarounnahrda o'rinishib qoldilar.

XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar to'g'risida yozilgan muallifi noma'lum "Tarixi guzidan Nusratnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Boburning "Boburnoma" asrlari muhim manbalar hisoblanadi.

Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, birodarkushliklar nafaqat quyi tabaqa, ahlining, balki yirik zodagonlarning ham noroziliklariga sabab bo'ldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi. Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar sulolasi davrida ham markaziy hokimiyat unchalik mustahkam emas edi (bu o'rinda Abdullaxon II hukmronligi davri (1583-1598) birmuncha diqqatga sazovordir), Bu holat o'sha davr Vatanimiz hududlarining parchalanib, alohida davlatlariga bo'linib ketishi va zaiflashuvi uchun zamin yaratdi.

Muhammad Shayboniynon vafotidan so'ng Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yidilar. Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1534 yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. XVI asrning 40 yillariga kelib, zodagonlar va mahalliy sulolalar o'rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 y.y.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) yanada kuchaydi. U hatto 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi va 1557 yilda Buxoroni bosib oldi.

1561 yilda taxtga o'tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o'g'li Abdullaxon II markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron (1582), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1582), Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So'nggi shayboniy hukmdor Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyib qo'ya olmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan Eron safaviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar unumli foydalandilar. Eroniylar Balxni, qozoq sultonlari o'z manfaatlarini yo'lida Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar. Buxoroning zodagon guruhlarini astraxanlik Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek Sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi Toshkentni qozoqlardan tortib oldilar. Ammo ko'pgina urushlarga qaramay Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642) Abdulazizxon (1645-1680), Ubaydullaxon (1702-1711), xukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchand harakat qilmasin, bu harakatlar aytardi ijobiy natijalar bermaydi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar va hududlarida hokimlik qilib, bu hududlarni yirik yer egalari qolmay, butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruhlarini kuchiga tayanib markaziy hokimiyatga deyarli bo'ysunmas edilar. Hukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga yurushlardan ko'p foydalandilar. Abdulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747 y.y.) markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yo'qotib bordi. Hokimiyat asta-sekinlik bilan mang'it urug'lari qo'lga o'ta boshladi. Bu urug' vakili bo'lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tirdi.

Xorazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Shayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525 y.) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O'zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi.

Xon hokimiyati qabila zadagonlari bilan cheklangan bo'lib, nizolar va o'zaro urushlar deyarli tinmagan. Shu davrda Xorazm chuqur inqiroz davrini boshidan kechdi. Savdo – sotiqning arziyasi darajada ekanligi shahar hayotini sust rivojlantirdi. Bu jarayon XVII-XVIII asr boshlarida ham davom etdi. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlariga oid Xorazm haqidagi ma'lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta'kidlanadi. Xususan, Abdulg'oziyning "Shajarayi turk" asarida, Ivan Fedorov ma'lumotlarida bir holat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir qushbegi bilan birgalikda xon maslahatchilari, inoqlarning borligi ma'muriy tuzumning juda murakkabligidan darak beradi. Xo'jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o'zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623) va uning o'g'illari davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643), Abdulg'ozixon (1643-1663), Anusha (1663-1687) lar davrida Buxoro bilan Xiva o'rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo'lib o'tdi.

Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy –siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalashiga olib keldi. Bu davrda Farg'ona xonlikdan alohida o'lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasidan bo'lgan Shohruxbiy Farg'onada hokimiyatni o'z qo'lga oldi. Minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini, Yettisuvning bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm, ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchiliklar, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo'linib ketishning asosiy sababi bo'ldi. 1722 yildagi Rajabxon qo'zg'oloni Buxoro xonligini larzaga soldi. Abdulfayzxon (1710-1747) davrida Buxoro xonligi shu darajada parokandachilikni boshidan kechirdiki, Eron shohi Nodirshoh 1710 yilda Buxoroni keyin Xorazmni bosib oldi. Buxoroliklar va xorazmliklarni eroniylar talab, xonavayron qildilar. 1747 yilda Nodirshoh vafotidan keyin Abdulfayzxon ham o'ldirildi.

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. Xonliklar hududida yer egalari uchta turi davlat yerlari, xususiylar, vaqt

yerlari mavjud edi. Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj, zakot bo'lib, shu bilan birga turli majburiyatlar mavjud edi. Bular Xiva xonligida begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo'lsa, Buxoro amirligida urush paytida olinadigan favqulodda soliq jul, suv haqi, nimsara va boshqalar, Qo'qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o'rini egallagan bo'lib, diniy mutaassibilik mamlakatiga taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ayniqsa, xonliklar ichidagi etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to'siq bo'lar edi. Undan tashqari turli urug' vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo'lish uchun boshqa urug' vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug' vakillaridan xonlar ko'tarildi.

Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVII asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida qo'ng'irotlarning mavqeyi osha bordi va 1804 yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920- yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo'qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o'zlarining tashqi istilochilik urushlari va o'zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining tijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. Ayniqsa Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko'plab soliqlar xalqning ko'plab noroziliklarga sabab bo'ldi, natijada Xudayorxon ikki marotba taxtdan haydalib, yana taxtni egalladi. Minglar sulolasi QO'qonda 1710- yildan 1876 -yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududlariga bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og'ir kulfatlarni keltirdi. Xonliklar ichidagi sulolaviy va o'zaro urushlari xalqning og'ir ahvolini yanada og'irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug'lariga qarshi uyushtiradigan mavsumiy talonchilik yurushlari, Buxoro amirligining Kitob va Shahrisabz bekliklariga qarshi olib borgan doimiy urushlari Qo'qon xonligining Toshkent va Xo'jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlariga bitta xalqning parchalanishiga, o'zaro madaniy savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo'ldi.

Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg'or fikr, yangilik diniy mutaassablarning ta'qibiga uchrar edi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan hatto Qo'qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o'zaro aloqasi yo'q edi. Bu o'z navbatida O'rta Osiyo ilm – fanini turg'unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabiiy fanlarga e'tibor umuman yo'qoldi. O'rta Osiyo xalqlari Yevropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo'lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o'rnatilgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo'lida bo'lib, ular madaniy aloqalarga, fan- texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aytarli ta'sir ko'rsatmadi va o'lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat chor Rossiyasining o'z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O'rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Shayboniylarning O'rta Osiyoga yurushi va uni oqibatlarini yoritib bering.
2. Buxoro xonligining tashkil etilishi shart-sharoitlari haqida gapirib bering.
3. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar qanday kechganligi haqida so'zlab bering.
4. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida madaniy hayot qanday kechgan edi?
5. Turkistonni xonliklarga bo'linib ketishi sabablari nimada deb o'ylaysiz?
6. Buxoro amirligi – mang'itlar sulolasi haqida so'zlab bering.
7. Xiva xonligining tashkil etilishi va xonlikdagi davlat boshqaruvi masalarini yoritib bering.
8. Qo'qon xonligini tashkil etilishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida nimalar bilasiz?
9. Xonliklar davrida fan va madaniyat qay darajada taraqqiy etgan?
10. Xonliklar davrida me'morchilik va san'at sohasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

Vazifalar:

1. Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asarini o'qib chiqish va tahlil etish
2. Xonliklar tarixiga oid manbalar va adabiyotlar bibliografiyasini tuzish.

Manbalar ma'lumotlarini izohlash.

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Buxoro xonligi" mavzusida slayd-taqdimot tayyorlash
2. "Xiva xonligi" mavzusida slayd-taqdimot tayyorlash
3. "Qo'qon xonligi" mavzusida slayd-taqdimot tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov. Istiqloq va ma'naviya-T., Toshkent-T., O'zbekiston 1994.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, 1998.
3. Karimov I.A. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tarkib so'zi. "Xalq so'zi", 1997, 21oktabr.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., "O'zbekiston" 2015
5. Bayoniy M.Yu. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent-T., G'afur G'ulom nomli nashriyo-T., 1994.
6. Bobobekov X.N. Qo'qon tarixi. Toshkent-T., Fan. 1996.
7. Narshahiy M. Buxoro tarixi. «Meros» turkumi. -T., «Kamalak»,
8. O'zbekiston tarixi.Darslik. R.Murtazayeva va boshq. -T., 2000.
9. K.Xudoyberganov. Xiva xonlari tarixidan. Urganch, 2008.
10. A.S. Erkinov, N.-T., Pol-vonov, H.A. Aminov. Muhammad Rahmixon II- Feruz kutubxonasi Fehristi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
11. Sh. Vohidov. Qo'qon xonligida tarixnavislik. Toshkent: Akademi-nashr, 2010.

12. Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligida qarshi kurash. Toshken-T., Sharq 1998.
13. Ibrat I. Farg'ona tarixi. Toshken-T., Kamalak. 1991.
14. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it hukmdorlari tarixi. M.. 1962.
15. Mulla Olim Mahdumxoja. Tarixi Turkiston. Toshken-T., 1995.
16. A.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti.-T.,2001;
17. A.Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.,2000
18. R.R.Alimova. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (so'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarining tashqi iqtisodiy aloqalari). Toshkent, 2009
19. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.
20. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universite-T., -T., 2005.
21. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.
22. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. Toshkent:Sharq, 2010

9-mavzu. CHOR ROSSIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI. CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK

Darsning o'quv maqsadi: Chor Rossiyaning Turkistonni bosib olishi va uni boshqarishning mustamlakachilik mohiyati, Turkistonning xom ashyo bazasiga aylantirilishi va o'lkada Chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi haqida talabalarda bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tayanch iboralar: Uchta xonlik boshqaruv tizimi, Chor Rossiyasi, Avliyoota, Oqmachit, O'ratepa, Po'latxon, Gandimiyon shartnomasi, "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi" Nizom, chorizm, ruslashtirish, rus-tuzem maktablari, Qurbonjon dodxoh, mustamlakachilik siyosati, agressiv tashqi siyosat, Qo'qon xonligi, general-gubernatorlik, jadidchilik, "Turon" jamiyati, Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Fitrat, "Sho'royi ulamo", "Sho'royi islomiya", 1916 yil Jizzax qo'zg'oloni, imperialistik bosqinchilik.

Reja:

1. Chor Rossiyaning Turkistonni bosib olishi va uni boshqarishning mustamlaka tizimi
2. Turkistonning xom ashyo bazasiga aylantirilishi va o'lkada Chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi
3. Milliy ozodlik harakatining boshlanish va uning bosqichlari.
4. Turkistonda jadidchilik harakatining olib borgan ishlari.
5. 1916 yil xalq qo'zg'oloni, uning mohiyati va tarixiy ahamiyati.

Asosiy qism

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xonliklaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvol tang darajada bo'lganligi u paytda jahondagi eng agressiv davlatlar qatoriga kirgan, Yevropa davlatalriga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotgan Rossiyaning O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirish niyati ro'yobga chiqarishni tezlashtirdi. Bu niyat Rossiya imperatori Pyotr (1672-1725) davrida tug'ilgan bo'lib, u Xiva xonligini bo'ysundirish uchun hatto 1717 yilda Bekovich – Cherkasskiy boshchiligidagi O'rta Osiyoga harbiy ekspedisiya uyushtirgan edi. Lekin bu harakat, undan keyingi boshqa harbiy harakatlar: jumladan, 1839-40 yillarda Perovski boshchiligidagi harbiy yurush ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. XVII-XIX asrning birinchi yarmi davomida rus hukumati Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lda uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga bo'ysundirdi va u yerda harbiy istehkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirmaslik vazifa bo'lib qoldi.

Rossiyaning agressiv tashqi siyosati davomida uning kelajakda imperiyani kengaytirish uchun Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eronga uyushtiradigan harbiy yurushida janubdagi dengizlar, ular orqali okeanga chiqishida O'rta Osiyo plasdram vazifasini bajarishi kerak edi.

Yana shuni ko'rsatib o'tmoq joizki, chorizmning Turkistonga bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi katta yer osti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Rossiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Bu hol Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish rejasini ishlab chiqish va harbiy yurushlarni tezlashtirishga sabab bo'ldi. Shu sabablarga ko'ra chor Rossiyasi o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan qo'shinlar bilan Turkiston xalqlarini bo'ysundirish va jonajon Vatanimizni bosib olib, unga egalik qilish maqsadida harbiy yurushlarini boshladi.

Oldindan belgilangan reja asosida rus qo'shinlarining hujumi Qo'qon xonligiga qaratildi. Zamonaviy qurollar bilan to'la ta'minlangan 2850 kishilik rus qo'shini bir yil oldin mag'lubiyatga uchragan general Perovski boshchiligidagi 1853 yil iyul oyida Oqmachit qal'asiga hujum qildi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400 ga yaqin qal'a himoyachilari 20 kun davomida dushman hujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bo'lib tarixga kirdilar.

1853-1856 yillardagi Qrim urushi sababli Rossiya O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U Qo'qon xonligidan faol harakatini 1860 yil yozidagina qayta tashkil qila oldi. Xalqimizning qahramonona qarshiligiga qaramasdan yangi harbiy texnika bilan qurollangan rus qo'shinlari 1860-1864 yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyo ota, Turkiston, Chimkent shaharlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oldilar. Bu janglarda ko'ngilli himoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qahramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdilar.

1864 yil oktabrida general Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlarining Toshkentga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragach ular Niyozbek qal'asini egallab, Chirchiq daryosidagi to'g'onni buzib tashladilar va shaharga suv chiqmay qoldi. 1865 yil may oyida ruslar Toshkent shahriga yangitdan hujum boshladilar. Himoyachilarning fidokorligi, Mulla Alimqulning tadbirkorligi yangi harbiy

qurollar va muntazam harbiy qo'shin oldida ojiz edi. Toshkentni ruslar 42 kun deganda bosib oldilar.

1865-1866 yillarda rus qo'shinlari Qo'qon xoni va Buxoro amiri o'rtasida hamisha qo'ldan-qo'lga o'tib turgan Xo'jand, O'rtatepa, Jizzax shaharlarini qattiq janglardan keyin egalladi. Buxoro amiri Muzaffarning ko'rgan tadbirlariga, xalqning qahramonona qarshiliklariga qaramasdan 1868 yilgi Cho'ponota va Zirabuloq janglarida ruslarning qo'li baland keldi. Natijada amir Muzaffar Qo'qon xoni Xudoyorxon (1864-1879) kabi Rossiya bilan noteng sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Qo'qon xonligiga va Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tkazildi. Katta miqdorda tovon puli to'landi.

Olinmas qal'a hisoblangan Xiva xonligiga ruslar qattiq tayyorgarliklardan keyin 1873 yilda hujum qildilar. Xonlikdagi qoloqlik, harbiy texnika va san'atning pastligi bu yerda ham ruslarning g'olib kelishiga asos bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1864-1910) Gandimiyon shartnomasiga asosan 2200000 oltin so'm to'ladi hamda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurushlaridan mahrum bo'ldi. Ruslarning O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari XIX asrning 80 yillar o'rtalarigacha chorvador turklarni bo'ysundurgunga qadar davom etdi. Rossiya o'lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayronagarchiliklar yo'li bilan bosib oldi.

1867 yilda Turkiston general – gubernatorligi tashkil etilib, o'lka to'la ravishda harbiylar qo'liga o'tdi va o'lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo'lgan Turkiston general – gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general- gubernatori lavozimiga general fon Kaufman tayinlandi.

General – gubernator katta huquqlarga ega bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari olib borishi, soliq siyosatini belgilashi rus fuqaroligi huquqini berishi, mahalliy aholi ustidan chiqarilgan turli hukmlarini ijro etishga ruxsat berishi mumkin edi. Bu "Vaqtli Nizom" qonuni chor ma'muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi boshlang'ich, Kaufman Rossiya imperatoriga 1873 yilda Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi nizom loyihasini taqdim etdi. Nizom 1886 yilda podsho g'oyasiga ko'ra, o'lkada Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi.

XIX asrning 90 – yillariga kelib, Turkiston general – gubernatorligi beshta – Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uyezdlariga, uyezdlar bo'lislarga, bo'lislar uchastkalarga bo'linib boshqariladigan bo'ldi.

Turkistonning barcha viloyatlarida harbiy gubernatorlik boshqarmalari ta'sis etildi. Harbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyat boshliqlari esa doimo harbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo'ldi.

O'lkada mustamlakachilik tartiblari o'rnatilishiga qadar hakamlik vazifasini bajarib kelgan qozilar mahalliy aholi o'rtasidagi huquqiy muammolarni sharoit va odat normalariga tayanib amal qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Bu albatta, mahalliy xalq ommasining noroziligini kuchaytirmaslik maqsadida ko'rilgan tadbirlar edi. Ular general – gubernator tomonidan tasdiqlab, uyezd boshqalari nazorati ostida ish olib bordi.

Turkiston general-gubernatorligining makazi Toshkent boshqaruv 1870 yilgi shahar boshqaruvi qoidasiga ko'ra to'lig'i bilan podsho ma'muriyati qo'liga o'tdi. 1877 yilgacha eski shahar va yangi shahar alohida boshqarilsa-da, lekin eski shaharda hokimiyat general Geyns qo'lida edi. O'sha yili shahar Davlat dumasiga saylovar bo'ldi. Saylangan 71 deputatining atigi 21 nafari mahalliy aholi vakillari edi.

Shunday qilib, XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoning katta qismi Turkiston general – gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarrufiga o'tdi. Qo'qon xonligi tugatilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar. Xiva xonining Amudaryo bo'limi boshlig'i, Buxoro amirining "Rus siyosiy agentligi" nazorat ostida ekanligi va uchastka pristavlarigacha harbiylardan bo'lganligini inobatga olib, o'lkada to'la harbiy-ma'muriy boshqaruvi, harbiy politsiya rejimi jo'natilganligini yana bir bor qayd qilamiz. Bunday boshqaruv tez vaqt ichida o'lkani ruslashtirish va iqtisodiy qaram hududga aylantirish imkonini berdi.

Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan kunlaridan boshlab o'zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi. Buning uchun birinchi navbatda, Rossiya guberniyalaridagi sanoat korxonalari muntazam ravishda xomashyo bilan ta'minlab turuvchi temir yo'llari qurildi. Shu maqsadda 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko'rfazidan Chorjo'yga Kaspiyorti temir yo'li qurildi. 1888 yilda bu yo'l uzaytirilib, Smarqandga yetkazildi. 1906 yilda Toshkent – Orenburg temir yo'li ishga tushirildi. 1912 yilda Farg'ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'landi.

Mustamlaka Turkistonda temir yo'llari qurib bitirilishi o'lkani Rossiya sonoatining g'ildiragiga yanada mahkamroq bog'landi. O'lkaning xomashyo yetkazib manba sifatidagi o'rni mustahkamlashgach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida jadallik bilan o'z ta'sirini kuchaytirib bordi. Ular o'lkadan xomashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotalri olib kelib sotish bilan cheklanmay sug'oriladigan yerlarni sotib olib paxta ekishni kengaytirdilar. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, mahalliy sudxo'r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular asosan xomashyo yetishtirish yo'liga o'tib olgan dehqonlarga kelasi yili oladigan hosili hisobidan pul qarz berar edilar. Dehqonlarning moddiy ahvoli og'irlashgan sari ularning hosildan tushgan daromadi qarzini to'lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotalrini sotib olishga ham yetmas, ikkinchi tomondan katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo'rlar qo'liga o'tib keta boshladi. Bu holat yersiz dehqonlar, mardikorlar va arzon ishchi kuchini yanada ko'payishiga sabab bo'ldi.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi va yerlarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda o'lka yerlarida paxtaning Amerika navlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boruvchi stansiyalar tashkil etildi. Hatto bu navlarni o'rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o'lka paxtachiligida yetti barobar ko'paydi.

Rossiya uchun Turkistondan ko‘proq foyda ko‘rish maqsadida o‘lkaning o‘zida xomashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishildi. Bunday korxonalar o‘lkada barpo bo‘layotgan sanoatning asosiy sohasi edi. 1900 yilgacha Turkistonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80 % ini paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O‘lkaning o‘zida ishlab chiqarish bilan bog‘liq tayyor sanoat mahsulotlari asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan aholini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida hunarmandchilikning ko‘plab sohalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo‘lgan hunarmandlar ham yersiz dehqonlar singari ishsizlar safini to‘ldirib bordi. O‘lkaning ko‘plab unumdor yerlariga paxta ekilishi boshqoqli ekinlar ekiladigan maydonlarining qisqarishiga olib keldi. Ming yil davomida o‘zini oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab kelgan mahalliy aholi asta- sekin oziq - ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo‘lib qoldi. G‘alla mahsulotlari o‘lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma‘muriyatining o‘zi narx – navoni belgiladi. Sanoatda band bo‘lgan mahalliy ishchilarning turmush sharoiti yana ham og‘ir edi. Chunki ularning ish haqi yevropalik ishchilaridan 2-2,5 barobar kam bo‘lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko‘p edi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Turkiston o‘lkasini ruslashtirishdan iborat bo‘ldi. Podsho hukumati ko‘p minglab yersiz dehqonlarni, ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko‘chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o‘rin tutadi. Chorizm Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan Rossiya monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga joylashib oldilar.

Rossiyadan ko‘chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi, ularning joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko‘p miqdorda mablag‘lar ajratildi, o‘zini o‘nglab olgunga qadar oziq- ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab turildi. Yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko‘proq ekin maydonlariga ega bo‘ldi, ma‘lum muddagacha soliqdan ham ozod qilindi. Natijada, ko‘chirib keltirilganlar qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini ham yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlarni chor ma‘murlari, “Rossiyadan ko‘chib kelayotganlar bo‘sh yerlarni o‘zlashtirishga, bog‘lar yaratishga yordam beradi”, deb ko‘rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab aholining O‘rta Osiyoga ko‘chirib keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarini hal etishning bir yo‘li bo‘ldi.

Mustamlaka o‘lkada ko‘p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo‘ldi. Ular ayni bir vaqtda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzimiga qarshi bo‘lgan harakatlarini bo‘g‘ib turush uchun tayanch vazifani bajardilar. Chorizmning Turkistondagi madaniy- ma‘rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to‘la bo‘ysundirildi. Bu boradagi siyosiy mahalliy aholining ma‘naviy hayotiga aralashmaslik deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida aholini ruslashtirish, milliy madaniyatini cheklash, kamsitishdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. O‘lkada joriy etilgan rus-tuzem maktablari haqidagi loyihaga binoan 1884 yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Podsho ma'murlari mahalliy maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to'siq deb qaradilar. Shu sababli eski maktablarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko'rilmadi. Maktabning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma'murlari o'z mavqelarini mustahkamlash uchun mahalliy xalqning ayrim an'analardan urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, mahalliy xalq o'rtasida obro'-e'tibor qozongan shaxslardan, ruhoniylardan foydalandilar. Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqotlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushlash uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarining o'z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa missionerlarning o'lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir.

Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat salomatligini yaxshilash borasida ham biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

Masalan, 250 ming qoraqalpoq aholisi orasida atigi bitta shifokor bor edi. Vrachlar yetishmasligini, sog'liqni saqlash ishlarining bunday ahvolini chor ma'murlari "mahalliy aholi kuchli sog'lom va kasal bo'lmaydi. Ular yashaydilar va vaqti kelganda o'ladilar. Tarqalgan epidemiyalarga qanchalik pul ajratilmasini, baribir yetmaydi", -deb chorizmning shovinistik siyosatini yaqqol namoyish etdilar.

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlashishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib Rossiya nafaqat siyosiy jihatdan balki iqtisodiy tomondan ham Turkistonni o'ziga qarish qilib oldi. Chunki, uning maqsadi o'z hukmronligini mustahkamlab olishdan va Turkistonni chor imperiyasining mustamlaka homashyo manbaiga aylantirishdan iborat bo'ldi. Shu sababli chor hukumati Turkistonda o'zining mustamlakachilik siyosatini mustahkamlab bordi.

Umuman, 1873 yildan boshlab O'rta Osiyodagi uch yirik feodal davlatlar: Xo'qand, Buxoro, Xiva vassal bo'lib, "Mustaqil" ligini yo'qotdilar hamda har biri 500 mingdan to 2 million 200 mingacha to'lovlar (kontributsiya) to'ladilar. Chor Rossiyasi bosib olingan territoriyalarga ruslarni keltirib joylashtira boshladi. Misol uchun Qozog'istonni, Okmulla viloyatiga 1860-1890 yillar ichida 16 ming 350 kishini joylashtirdi. Umuman, Turkistonda 15 yil (1875-1890) ichida 19 rus qishloqlari vujudga keldi. Ayniqsa 1891 – 1892 yillardagi ocharchilik davrida ixtiyoriy ko'chib keluvchilarning soni ancha ko'paydi va Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari 2 foizga, Yettisuv viloyatida esa 5 foizga yetdi. Bundan maqsad, bir tomondan mustamlakachilikni mustahkamlash bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqlar o'rtasida milliy adovat urug'ini sochish edi. Chunki ko'chirib keltirilgan ruslar mahalliy aholiga qaraganda bir qator imtiyozlarga ega edi. Bundan tashqari rus

bo'lmagan xalqlarning milliy madaniyati ta'qib qilinar edi. Mahalliy aholiga ona tilida gazeta va kitoblar nashr etish, o'z bolalarini o'qitish ta'qiqlangan edi. Hukumat rus bo'lmagan xalqlarni rasmiy ravishda "begona zotlar" yoki tuzemes (sartlar) deb atardi, ruslarga mazkur xalqlarga nafrat bilan qarash ruhini singdirishga urinar edi.

O'rta Osiyo mehnatkashlari mustamlaka davrida ikki yoqlama zulmni boshidan kechirdilar, birinchidan mahalliy boylar ezsa, ikkinchidan chor ma'murlari va rus burjuaziyasi shundoq ham qashshoq bo'lgan aholini yanada qon qaqshatib taladi. Saltikov Shedrin aytganidek, "Toshkentlik janoblar" safiga qo'shilish uchun harbiy va grajdanlik xizmatiga yozuv va ochko'zlarning soni muri- malaxdek ko'paydi.

O'rta Osiyoda Chor Rossiyasi hukmronligining o'rnatilishi natijasida dvoryan- pomeshchiklarning soliq solish imkoniyati kengaydi, somaderjavenning davlat xazinasini boyidi, hosildor yerlarning hajmi ko'paydi. Xullas Rossiya "harbiy-feodal" hukumatini mavqei yanada mustahkamlandi. Bu esa yosh Rossiya burjua imperiyasining bosqinchilik siyosatiga mos kelib, fabrika-zavod korxonalari uchun tayyor mol sotish bozorlari va xom-ashyo manbalarini vujudga keltirdi.

Chor ma'murlari Turkistonda o'z hukmronligi mobaynida rus feodal imperializm uchun mumkin qadar ko'proq foyda undirib olishga intildi, yerli xalqlarni qul qilish va ezish uchun turli metodlarni qo'lladi. Ular mahalliy aholiga jirkanch ko'z bilan qarab, ishonchsizlik bildirar va past irq deb tushunar edilar. Shuning uchun ham chor ma'murlari mahalliy aholini ustidan hukm yurgizish uchun "qamchi va musht tushirish" siyosatini olib bordilar. Bu xil siyosat grajdan xizmatida va harbiy xizmatda yuqori mansablarni egallab turgan bir to'da dvoryanlar uchun foydali bo'ldi. Ularga firibgarlik siyosati yurgizilgan xizmat ko'rsatish, martaba qozonish "qahramonliklar" ko'rsatib shuhrat qozonish mumkin. "Bizning hukumatimiz shu bir to'la kapitalistlar, mansabdor muttahaamlar manfaati deb o'ylab netib turmay butun xalq manfaatlarini qurbon qilmoqda" degan edi rus tarixiy yozmalarda.

O'rta Osiyoning bosib olishi rus burjuaziyasi manfatiga to'g'ri kelardi "Kavkaz, O'rta Osiyo, Sibir rus kapitalizmi uchun xuddi mustamlakalar bo'lib xizmat qilmoqdalar va uning faqat g'oyat chuqurlashib borishinigina emas, balki kengayib borishni ham ta'min etmoqdalar" deyilgan yana bir tarixiy hujjatda.

Chor mustamlakachilari qishloq xo'jaligidagi patriarxal munosabatlarni, sanoati rivojlanishi, milliy madaniyatni va boshqalarni o'chishiga to'sqinlik qilib, feodal davlat mashinasining eski formalarini saqlab qolish uchun o'z siyosatlarini yurgizdilar. Bu hol keng xalq ommasini ezish va ekspluatatsiya qilish uchun hukmron sinflarga ma'lum vaqtgacha qulay sharoit vujudga keltirdi. Shu sababdan chor hukumati Xiva, Buxoroda eski feodal davlat idorasining formalariga yo'l qo'yib berdi.

Turkiston bosib olingandan so'ng Rossiya davlat xazinasini boyidi. Agar 1869 yil o'lkada 2.356.241 so'm daromad tushgan bo'lsa, bu 1880 yilda 4.119.491 so'mni tashkil etdi keyinchalik Farg'ona vodiysi butunlay qo'shib (1876) olingandan so'ng 6.537.22 so'mga yetdi. 1896 yil bu daromad 9.174.287 so'mga yetdi. Bundan tashqari, 1869-1896 yillarda chorizm ko'p minglab armiyasini saqlab turushi Turkistondan 174 million so'm pul oldi. 1868-1896 yillar davomida chorizm O'rta

Osiyodan olgan foydasini hisoblaganda 60 million soʻmni tashkil etadi. Bundan tashqari chorizm Turkistonda paxtachilikni rivojlantirish hisobiga ilgari Rossiya chet el paxtasiga toʻlayotgan boʻjdan qutildi. Natijada 1879-1896 yillarda 203 million soʻm davlat xazinasida qoldi. Bundan tashqari chet el davlatlariga paxta uchun toʻlash kerak boʻlgan 256 million soʻmdan qutildi. Shu yillar ichida Turkistonda Rossiyaga 26 million pul tola yetkazib berildi.

Paxtadan kelayotgan foyda yana shuni hisobi bilan koʻpaydiki, Amerikadan keltirilayotgan paxtaga nisbatan Turkiston paxtasini har bir pudiga 2 soʻm 38 tiyin kam haq toʻlandi, yaʼni bu 26 million Turkiston paxta tolasidan 60 million soʻm foyda oldi. Umuman 1869-1896 yillarda Turkiston Rossiyaga 155.490.652 soʻm daromad keltirdi.

Turkiston xalqlari Chorizmning mustamlakachilik siyosatiga va mahalliy ekspluatatorlarning tuzumiga qarshi chiqa boshladilar, aholi ayrim guruhlarining chor maʼmuriyati va mahalliy hukumat vakillariga qarshi hujum qilishlari koʻpaydi. Sirdaryo, Samarqand va Fargʻona viloyatlarida 1887 yildan to 1889 yilgacha mana shu xilda 668 ta chiqish boʻldi. 1899 yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, bundan tashqari 1899 yildan 1917 yilgacha esa Fargʻona, Samarqand, Xazarboʻyi, Sirdaryo, Yettisuv viloyatlarida jami boʻlib, 4922 marta hujum boʻlgan. 1892 yil Toshkentda qoʻzgʻolon koʻtarildi. “Toshkent vaqeasi” Musulmon ruhoniylari va feodal yuqori namoyandalari qoʻzgʻoloniga bosh boʻlib bu qoʻzgʻolonda qatnashdilar, yaʼni Abul Qosim Eshon va oqsoqol Ziyoy Muhammad boshchiligida Shayxontohur dahasidan kelayotgan 500 kishilik olomon shahar idorasiga qarab bordilar. Shahar boshligʻi Putinsev va katta Oqsoqol Matyoqub ularga peshvoz chiqqanda olomon toshboʻron qila boshladi. Shundan soʻng qoʻzgʻolonchilarning yuzga yaqini Anhor tomonga sarbozlar tomonidan siqib borildi va koʻpchiligi suvga choʻktirildi. Bu yerda shahid ketganlarning maʼlumoti yoʻq. Tarixga “Toshotar voqeasi” deb kirgan bu qoʻzgʻolon oqibatida gʻalayon qatnashchilari boʻlmish 60 kishidan 8 kishi oʻlim jazosiga, 3 kishi qamoqqa hukm qilindi.

1898 yil 17 may Dukchi Eshon qoʻzgʻoloni (Madalixon) yuz berdi. Qoʻzgʻolonchilar 200 kishi boʻlib Andijon shahriga kirib bordilar, ularning soni 2 mingta edi. Qoʻzgʻolonchilar mustamlakachi qoʻshinlarning Andijon shahridagi harbiy kazarmalariga hujum qildilar. Natijada 22 askar oʻldirildi va 18 nafari yaralandi. Bu qoʻzgʻolon taʼsirida Jizzax, Kattaqoʻrgʻon, Buxoro va Samarqand shaharlarida ham gʻalayon koʻtarildi. Andijon qoʻzgʻoloni ham shafqatsizlarcha bostirildi va 362 kishi Sibirga surgun qilindi. Madali Eshon va 5 yordamchisi dorga osildi. 1911-1913 yillarda Fargʻona viloyatida “idora tartiblariga va jamoa osoyishtaligiga qarshi kurash”lar davomida 1911 yilda 883, 1913 yilda 1220 “jinoiy ish” koʻrilgan. Sirdaryo viloyatida esa shunday “ayblar” bilan 1911 yilda 3487 kishi, 1913 yilda esa 53 94 kishi “jinoiy javobgarlikka” tortilgan.

Yuqorida qayd etganimizdek Rossiya Turkistondagi don ekinlarini qisqartirib oʻrniga paxta ekdi. Oqibatda rus pomeshchiklari oʻlkaga gʻalla olib kelib narxlarda pulladilar. Fargʻona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 709 sanoat korxonasi boʻlib, bulardan 220 tasi paxta tozalash, 76 tasi jun-teri, 32 tasi pilla quritishdan iborat edi. Bularning koʻpchiligi juda kichik va oddiy uskunalar bilan ishlaydigan korxonalar edi. Zavod va fabrikalar asosan puldor qoʻlida edi.

Turkistondagi sanoat ishchilarining umumiy soni XX asr boshlarida 20.925 kishi bo'lib ulardan o'zbeklar 12702 kishi, tojiklar 1142 qirg'iz va qozoqlar 944 kishi edi. Ularning turmush kechirishi va yashashi ancha og'ir ahvolda bo'lgani, ular 10-12 soatlab ishlardi. Ba'zi tarmoqlarda esa 17-18 soatgacha yetgan. Ularning ish haqi Rossiya markazidagidan 1.5 baravar kam edi. Xalq maorifiga esa harbiy – politsiya apparatiga qaraganda 35 foiz kam haq ajratilar edi. O'lkada tibbiy xizmat ham orqada edi. 1913 yilda butun Turkiston bo'yicha 212 shifokor bor edi, ya'ni bu 4 mln 366 ming kishilar uchun xizmat qilar edi.

Aholining 90 foizini tashkil etgan dehqonlar va chorvadorlarning ko'pchiligini ahvoli ham juda og'ir bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda sug'oriladigan yerlarga joylashgan xo'jaliklarning 43,9 foizi faqat bir desyatinaga qadar, 28,8 foizi bir desyatinadan ikki desyatinagacha, 26,9 foizi esa 2-5 desyatinagacha yerga ega bo'lgan. Shunday qilib, dehqon xo'jaliklarining 84,9 foizi mayda yer egalarini tashkil etardi. Yerdan olinadigan soliqlar yildan-yilga oshib borar edi. Bu davrda ya'ni 1990 yil Turkiston paxtasi Rossiya sanoatining ehtiyojini faqat 24 foiz ta'minlangan bo'lsa, 1914 yilga kelib u sanoatni 50 foizini ta'minlay boshladi.

Asr boshlaridan iqtisodiy tanglik ham o'lka aholisining ahvolini yomonlashtirdi. Masalan: 1901-1903 yilda paxta maydoni 68 ming 126 desyatinaga kamaydi. Buning natijasida ko'pgina korxonalar yopildi va ishsizlik ko'paydi. Xullas, 1905 yilga kelib inqilob, nafaqat Rossiya markazida, balki uning qoloq o'lkasi Turkistonda ham yetilgan edi. 1905 yil birinchi rus inqilobining ta'sirida Turkistonda ham xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ayniqsa kuzda siyosiy yetakchilar o'lkada kuchaydi. Masalan, O'rta Osiyo va Orenburg Toshkent temir yo'li ishchilarining yangi chiqishi bo'lib o'tdi. 14-18 oktabr Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon sanoat korxonalari ishchilari ish tashlab majlislar erkinligi, 8 soatlik ish kunini joriy qilish kabi siyosiy va iqtisodiy talablar bilan chiqdilar. 19 oktabrda Toshkent ishchi va mehnatkashlarining mitingi bo'ldi. Podshoh askarlari namoyishchilarni o'qqa tutdi. Natijada 3 kishi o'ldi va 26 kishi yarador bo'ldi. Shundan so'ng Toshkent harbiy qal'asida 15 dan 16 noyabrgacha o'tar kechasi soldatlar qo'zg'oloni bo'ldi. Qo'zg'olonlarga qarshi kechasi soat 2 da uchta o'qchi batlon va yarim batariya soldatlari qa'la ichiga olib kirildi, ular qo'zg'olonchilarni to'pga tutish to'g'risida buyruq berilgandan keyin 16 noyabrda taslim bo'ldilar. Chor hukumati qo'zg'olonchilardan ayovsiz o'ch oldi. Soldatlardan 2 kishi otishga 18 kishi katorgaga yuborildi. Inqilob davomida mahalliy millat ichidan ham inqilobchilar yetishib chiqdi. Bulardan D.Ustaboyev, aka-uka Qosimxo'jayev, A.Xo'jayev va boshqalarni aytish mumkin. Inqilob davomida 1906 yil fevralida RSPP ning 1 Turkiston konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu davrda jadidchilik ham xalq ommasi o'rtasida maorif va ma'rifiy ishlarni olib borishda faol ishtirok etdi. Uning rahbarlari Mahmud Behbudiy, Munavvar qori va boshqalar Turkiston hayotini o'zgartirish, uni chuqur demokratik mazmun asosida isloh qilish, yangilash uchun kurashdilar.

Birinchi rus inqilobi mag'lubiyatidan keyin Turkiston xalqining milliy ozodlik harakati davom etdi. 1905-1909 yilda ham mehnatkashlarning chiqishlari bo'lib turdi. Masalan, Samarqandlik Nizom Pirimqulovning chiqishini aytish mumkin. 1909-1910 yilda Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va boshqa viloyatlarda dehqonlarni

chiqishi bo'lib o'tdi. Chorizm o'zining mustamlakachilik siyosatini 1-jahon urushi davrida yana ham kuchaytirdi. Chunki Rossiya uchun urush xarajatlarini qoplash va Turkiston o'lkasida ko'proq foyda undirish zarur edi. Xullas 1914-yil 1-avgustida boshlangan 1-jahon urushi nafaqat Rossiya uchun balki Angliya, Fransiya, Germaniya va 70 dan ortiq mamlakatlar uchun mazmuni va mohiyati jihatidan boshqa birovlarining yerini bosib olish va ularni bo'ysundirish, raqobat qiluvchi millatni xonavayron qilish, uning boyliklarni talashdan iborat bo'ldi.

Imperialistik bosqinchilik urushi mustamlaka yerlarini shu jumladan Turkiston o'lkasi xalqlarini ham xonavayron qildi. Ahvol kundan-kunga yomonlashib bordi. Oziq-ovqat tanqisligi tobora kuchayib, 1916 yil o'lkada g'alla mahsuloti 2,2 mln pudga kamayib keldi va natijada o'lkada ocharchilik boshlandi. Bundan tashqari, narx-navo va soliqlar yanada oshdi. Chor hukumati urush davrida paxtaning bir pul tolasiga 2 so'm 50 tiyin miqdorida qo'shimcha soliq belgiladi. Shuningdek paxtaning o'rta hisobdagi bozor narxi 30 so'mdan sun'iy ravishda 24 so'mga tushirilib, dehqon har pud paxta tolasidan 6 so'm zarar ko'rdi. Paxtaga qat'iy narx belgilangani holda to'qimachilik va boshqa sanoat mollari hamda oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari muvofiqlashtirilmadi va bularning bahosi kun sayin oshib bordi. To'qimachilik korxonalari arzon paxta olib, ishlab chiqargan gazlamalarni esa yuqori bahoda sotib, dehqonlarni yanada qashshoqlashtira bordilar. Shunday qilib hamda korxona egalari ham natijasida katta yer egalari va savdogarlar hamda korxona egalari ham kundan-kunga boyib bordilar. Ayniqsa, soliqlarni ko'payishi mehnatkashlarning xonavayron qildi. Chunki, o'sha davr ma'lumotlariga ko'ra, Turkistondan yig'iladigan yer solig'i 1914-yildagi 6 mln. 859 ming 21 so'mdan 1916-yilda 14.311.77. so'mga yetib, ya'ni 2 baravar ko'paydi. Hunarmandlardan olinadigan soliq esa 1 mln. 149 ming 676 so'mdan 2 mln. 839 ming 240 so'mga yetdi.

O'lka aholisidan turli soliq va yig'imlar to'plash kuchaydi va bu aholini yanada xonavayron qildi. 1914-1916 yillarda Namangan uyezdi aholisidan majburiyat tariqasida 3360 ot va 119 ming 640 so'm pul, Skobelev uyezdi aholisidan esa 4325 ot, 200 o'tov, 178 ming 656 so'm pul, Kattaqo'rg'on uyezdidan 2159 ot va 56 ming 531 so'm pul, Toshkent eski shahar aholisidan 5165 ot 150 ming 934 so'm pul olingan.

1914-1916 yillar ichida Farg'ona viloyati aholisidan urush ehtiyojlariga deb qo'shimcha ravishda 302 ming 545 so'm pul to'plangan edi. Samarqand uyezdining Dahbed bo'limi dehqonlari uchastka pristavi Sokolniskiy ustidan yozgan shikoyatlarida quyidagi ma'lumot keltiriladi, ya'ni pristav urush ehtiyojlari uchun deb 1915 yil yozida aholidan 7 marta 34 ming 300 so'z to'plagan, shu yilning oktabr oyida Sokolniskiy aholidan qo'shimcha 20 botmondan g'alla, 8 botmondan guruch, 2 botmondan sabzi, 2 botmondan piyoz topshirishni buyurgan. Natijada Dahbed bo'limi viloyatlaridan 7840 pud bug'doy, 3136 pud guruch, 784 pud piyoz, jami 29615 so'mlik mahsulot yig'ib olingan. Turkiston general-gubernatori Kuropatkinning yozishicha, faqat rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Turkiston o'lkasidan "Urush ehtiyojlari uchun" 1914-1916 yillarda 70 ming ot, 13441 o'tov, 30 ming metr namat, 300 ming tonna go'sht, 3 mln, pud paxta moyi, 12 ming tuya va boshqalar aholidan tortib olingan. Shunday qilib birinchi jahon urushi davrida Turkiston

aholisi har taraflama jabr-zulm ostida qoldi. Shahar va qipchoqlarda ochlik va qashshoqlanish kuchaydi. Bu holat Turkiston aholisining noroziligini kuchaytirdi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda tarixiy sharoit quyidagicha jarayonda rivojlanib bordi. Turkiston sof mustamlakaga aylanib, chorizm uni iqtisodiy jihatdan to'la quvvat bilan kemirishga kirishib ketdi. Turkiston o'lkasi jahon mustamlaka zanjiridagi eng mustahkam halqa bo'lib, G'arbiy Yevropa mustamlakachiligi uning oldida oddiy bir hol edi. Mustamlakachilikning bu rejasi ularga Turkistonni istagancha talash, toptash imkoniyatini uzoq vaqt saqlab qolish "huquqini" beradi.

Chorizm mahalliy burjuaziyaning paydo bo'lishini aslo istamasdi, chunki unga ham to'la ishonib bo'lmaz edi, ularning juda ko'pchiligi o'z xalqidan batamom yuz o'girib imperiya tomoniga o'tib keta olmasligini ham bilardilar. Ularni o'z xalqi bilan bog'lab turuvchi milliy, tarixiy ildizlar bor ediki, bu milliy uyg'onish pallasidan bir-birini tezroq tushunib olib, mustamlakachilarga qarshi yagona front bo'lib kurashga zamin hozirlashi mumkin edi. Shunga ko'ra rus chorizmi burjuaziyasi o'sib kelayotgan mahalliy burjuaziyaning iqtisodiy-siyosiy huquqlarini cheklab qo'yishda. Milliy burjuaziya bu kamsitishdan norozi edi. Rus burjuaziyasi har jihatdan avvalo iqtisodiy jihatdan o'zbek milliy burjuaziyasini qaramlikda saqlab kelar edi. Bu kamsitishlar o'zbek burjuaziyasining nafsoniyatiga tegar edi. Ruhoniylarning iymon-e'tiqodi but, xalqning emin-erkin dasturxonini to'kin jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma'rifatli bo'lishni astoyidil istovchi ilg'or guruhi ham mavjud ediki, ular johil ruhoniylarga ham chorizmga ham qarshi edilar.

Abdurauf Fitrat (1886-1939) bilan davlat va jamoat arbobi F.Xo'jayevlar (1896-1938) ham Buxoroda tavallud topganlar, ikkisi ham ilk ma'lumotni Buxoroda oldilar keyin ular o'z bilimlarini oshirish dunyoqarashlarini o'sishi niyatida xorij mamlakatlarida tahsil ko'rdilar. Fitrat birinchilardan bo'lib qo'shni Turkiya mamlakatlaridagi mashhur Istanbul dorilfununida tahsil oldi. Buxoroning eng boy savdogarlaridan bo'lmish Ubaydulloxo'janing yolg'iz o'g'li Fayzulla Xo'jayev esa Rossiyaning sanoat shaharlardan biri Moskvada (1909-1912) ta'lim-tarbiy ko'rdi.

Jadid namoyondalaridan yana biri Muhmudxo'ja Behbudiy (1875 yili Samarqand 1919 yili Qarshi)dir. U ruhoniy oilasida tug'ilgan, eski maktab va madrasada o'qigan qozixonlarda mirzolik va muftiylik qilgan. Arabiston shuningdek Qozon va Ufaga (1903-1904 yillar) borgan. M.Behbudiy Turkistonda yangicha "usuli jadid" maktablari zururligini nazariy asoslangan va ularni tashkil etishga rahnamolik qilgan. U yuzdan ortiq darsliklar va qo'llanmalar yaratgan. Ulardan, "Muktaxibi jug'rofiya oyi umumiya". (Qisqa umumiy jo'g'rofiya) "Kitobul-atfol" (Bolalar maktablari) "Muxtasari tarixi islomiyga" (Islom qisqacha tarixi)lar shular jumlasidandir. M.Behbudiy taraqqiyparvar ziyoli, jamoat arbobi, olim Ismoil Gasperalning sevimli shogirdlaridan biri bo'lib, uning ilg'or g'oyalarini Turkistonda keng tarqatuvchi va amalga oshiruvchisidir. 1913 yilda "Samarqand" gazetasini va "Oyna" jurnalini chiqara boshladi. Bu jurnal o'lkadagi birinchi o'zbek tilidagi jurnal edi. Uning "Padarkush" (1913) pyesasi ham shu jurnalda bosilib chiqqan. M.Behbudiy ijodiy faoliyati 3 qoidaga asoslangan bo'lib:

1. Zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish.
2. Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish:

3. Milliy baqqlikdan chiqib dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarda jahon andozalari talablariga javob beradigan ish yurituvchi millatni shakllantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

1917-1918 yillarda M.Behbudiy oktabr to'ntarilishi to'g'risida turli mulohaza va fikrlarga ega bo'lgan o'z maqolalarini matbuotda chop etadi. Bu maqolada oktabr to'ntarishi davomida ishlatilgan zo'ravonliklardan norozilikni bildiradi. Xuddi shu davrda "Yangi hisob" darslikni yozadi, hamda maktablarni tashkil etish va isloh qilish ishlariga bosh-qosh bo'lish maqsadida 1918-yilda Samarqandda tuzulgan "Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi" da maorif komissari lavozimida ishlaydi. U mustaqillik to'g'risida o'tkir va aniq vazifalarni ilgari surgan edi. Ammo Buxoro amirining buyrug'i bilan "Bolsheviklarning ayg'oqchilaridan" deb ayblanib, pinhona josuslar orqali Qarshi shahriga olib kelib qatl etildi. Taraqqiyparvar M.Behbudiy g'oyalari orzu umidlari mustaqillik tufayli ro'yobga chiqmoqda.

Jadidlarning o'lka xalqlari orasida olib borgan madaniy oqartuvchilik faoliyatida Toshkentlik jadidlarning tashabbuslari mashhur jadidlar taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan "Turon" jamiyati maydonga keldi. Uning mutaxassisleri quyidagilar edi.

1. Ubaydulla Asadullayevich Xo'jayev (Mergancha)
2. Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Observerskaya)
3. Munavvar qori Abdurashidxonov (Shayxontoxur)
4. Komilbek Norbekov (Sag'bon)
5. Mulla Abdulla Avlonov (Sapyorskaya)
6. Muhammadxon Poshshoxo'jayev (Zanjirlik)
7. Kattaxo'ja Boboxo'jayev (Qor yog'di)
8. Bashirulloxon Asatillaxo'jayev (Mergancha)
9. Nizomiddin Asomiddinxo'jayev (orqa ko'cha)
10. Karimbek Norbekov

Jamiyatning 73 moddalik ushbu ruscha nizomida uning maqsad-vazifalari quyidagicha belgilangan:

A) aholi o'rtasida sahna ishlariga, ezgulikka muhabbat uyg'otish, jiddiy munosabat o'rnatish;

B) xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali xalqqa sog'lom hordiq bag'ishlash;

V) ma'naviy va moddiy ahvolni yaxshilashga muhtoj bo'lgan Turkiston o'lkasi doirasidagi musulmon e'tiqodiga mansub kishilarga yordam berish.

Ikkinchi bandeda jamiyatning quyidagi huquqlari belgilangan: kechalar, konsertlar, spektakllar va shularga ommaviy tomoshalar uyushtirish; o'z nomiga klub, musiqa kurslari, kutubxona, qiroatxona ochish; o'z nomiga boshlang'ich maktablar ochish va ta'minlash;

- hojatmandlarga shu jumladan, o'qituvchilarga moddiy yordam berish ularning o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari uchun stipendiyalar ta'sis etish, shuningdek, maorif muassasalarini, rasmiy, xususiy, ijtimoiy qanday toifada bo'lishidan qat'iy nazar moddiy qo'llab quvvatlash.

Darhaqiqat, jamiyat toshkentlik taraqqiyparvarlarning barcha faollarini atrofga to'pladi. Uning zaminida teatr havaskorlari gruppasi tashkil topdi. Uning nomida klub, kutubxona, gazeta maydonga keldi. Teatrshunos M.Rahimov yozishicha, Avloniy bosh bo'lgan teatr jamoasi gruppasi 1913 -yilning oxirida 25 kishidan iborat bo'lgan. Jumladan ularning orasida Ilgin bosmxonasi ishchisi Nizomiddin Xo'jayev, maorifchilar: G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Samix Qori, Fuzayl Jonboyev, Xasan Qori, xizmatchi Bahriddin A'lamov, "Prikazchi" (ish yurituvchilar) Muhammadjon Poshshoxo'jayev, Qudratilla Maxsum kabilar bor edi. 1916 yilda gruppaga Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xo'jayevlar a'zo bo'lib kirdilar.

Bular safiga Laziz Azizzoda, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Yusuf Aliyev, Muso Azimov ham qo'shildi. Gruppa afishalarida Mirmulla Shermuhammedov va Eshonxo'ja xoniy nomlari uchrashini hisobga olsak, gruppani hozircha aniqlangan a'zolari soni, Avloniyni qo'shib hisoblaganda 19 taga yetadi. Ularning aksariyati iste'dodli ijodiy yoshlar edi. Masalan: Aqbarov durustgina shoir, mardikorlik haqidagi bir she'riy to'plamning muallifi edi. Nizomiddin Xo'jayevning nomi izohga muhtoj emas. Yu.Aliyev, S.Tursunxo'jayev, B.A'lamov, M. Poshshoxo'jayev, K.Muxzumovlar ijtimoiy faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod bilan ham shug'ullanganlar. Yu.Aliyev she'rlar yozgan, S.Tursunxo'jayevning "Turkiston vatanparvarlari" dramasi sahnaga qo'yilgan. Mashhur Mannon Uyg'ur, "Kalima" ning muallifi G'ulom Zafariy, yangi o'zbek maorifchiligidan asoschilaridan biri bo'lgan. Shokirjon Rahimiy, o'zbek kino san'atining poydevorini qo'yganlardan U.Xo'jayevlarning nomi o'quvchilarimizga yaxshi tanish. Fransuz tilini bilgan g'arb adabiyotining originalida o'qigan, she'r va hikoyalar bilan vaqtli matbuotda faol ishtirok etgan. Mirmulla Shermuhammedov, Hamza dramalarini xolis va odilona tahlil qilib, yuksak baholagan birinchi o'zbek teatr tanqidchisi edi.

Avloniy gruppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning "Padarkush" bo'ldi. 1914-yil 27-fevral Toshkentning 2000 kishilik muhtasham "Kolizey" teatri tomoshabinlar bilan to'la. Gelereya va yo'laklarda ham odam qatnaydi, sahna ochiladi, O'rta bo'y miqti, yevropacha kiyingan kishi paydo bo'ladi.

"Muhtaram jamoat! – gap boshlaydi. Bugun Toshkent xalqi hayotida tarixiy kundir," notiq teatr va uning jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'zlaydi. Tomoshabinlar uning har bir gapini berilib tinglaydilar. "Teatr bu o'yinbozlik emas! Masxarabozlik ham emas, - davom etadi u. Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har kimsa o'z husni kabi o'zini ko'ra olur,, Yuziga un surtib masxarabozlik shakliga kirgan zotlar tabibi xoziqdirlar," Notiq teatrn har bir xalq milliy taraqqiyotining muhim belgilaridan deb hisoblaydi, misollar keltiradi. U mashhur taraqqiychimiz Munavvar qori edi.

Spektakl boshlandi. U mahalliy xalq turmushidan olingan bo'lib, yerli havaskor yoshlar tomonidan qo'yilgan birinchi sahna asari mashhur "Padarkush" edi. Spektakl deklamatsiyaga ulanib ketdi. Taraqqiychilik tug'yon urib turgan "Oila munozarasi" tinglandi. Xalq milliy kuylarga solib yozilgan, ijtimoiy dard bilan yoniq qo'shiqlar yangradi. Nihoyat tomosha tugadi. Kishilar teatrdan olgan taassurotlarini qizg'in muhokama qilgancha tarqaldilar. Turon o'z faoliyatini shunday boshlagan edi. Truppa ishida qardoshlar ham ishtirok etdilar. Jumladan Avloniy taniqli teatr rejissori Zaki Boyazidskiy, mashhur Ozarbayjon san'atkori

Sidqiy Ruxillo bilan hamkorlik qildi. Masalan, truppaning spektakllarini Zaki Boyazidskiy sahnaga qo‘ygan edi. Sidqiy Ruxillo esa 1916 yilda Avloniyning taklifi bilan Toshkentga keldi va shoirning uyida truppa ko‘magida “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yadi. Majnun rolini Sidqiy Ruxilloning o‘zi o‘ynaydi.

Truppaning g‘oyaviy badiiy rahbari Avloniy edi. 1914 yilning 26 dekabrda truppa “Turkiston” nomi bilan Farg‘ona vodiysi bo‘lib safarga chiqdi, bir qator shaharlarda gastrolga bo‘ldi. Agar siz o‘sha yillari chiqib turgan vaqtli sahifalariga ko‘z tashlasangiz, truppaning Qo‘qon (1915 yil 7 yanvar) Andijon (9 yanvar) Namangan (21-24 yanvar), O‘sh (29 yanvar) va qo‘ygan spektakllari va ularda Avloniyning faol ishtiroki, xususan ijodkorlik mahoratiga oid ehtiros bilan yozilgan maqolalariga duch kelasiz. “1915 yilda mahalla xalqi” domlamiz “Teatrchi” bo‘ldi, “Masxaraboz bo‘ldi”, - deb meni maktabdan quvib, “Mirobod mahallasidagi boshlang‘ich maktabni yopdilar”, - deb yozadi Avloniy o‘z tarjimai holida.

Shularga qaramay, Avloniy ijtimoiy faoliyati qizg‘in davom etdi. Jumladan uning shu yillar “Nashriyot”, “Maktab” kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh bo‘lganini eslash kifoya. Adib ularni keyinroq o‘z tarjimai holida shunday izohlaydi: “Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”. Maktab ishi, xalq orasida marifat tarqatish Avloniyning 1917 yilgacha bo‘lgan faoliyatining bosh yo‘nalishini tashkil qildi. Bu yo‘lda katta fidoiylik ko‘rsatdi. Shoirning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi Yu.Toxiriy xotirlagandek, butun Toshkentda dovuq qozondi. Lekin ish og‘ir kechdi. Chor mustamlakachilik siyosatini og‘ishmay amalga oshirib borayotgan o‘lka ma‘muriyati maktab masalasida qattiq turdi. Har bir yangi usuldagi maktabning o‘qituvchilarigina emas (ularning uy adreslarigacha talab etilgan), o‘quvchilarni ham kamligi, ayniqsa, dastur va darsliklar hamda ularning mualliflari qat‘iy nazorat qilindi. Avloniy shaxsiy arxivida saqlanib qolgan Sirdaryo viloyat xalq maktablari nozirining 1914 yil 19 fevral 583 hamda 24 maydagi 1118 raqamli talabnomalari (chamasi bunday hujjatlar har yili to‘ldirib borilgan) shundan darak beradi.

1908 yil Avloniyning Miroboddagi maktab yopildi. Buning sabablari ko‘p bo‘lishi kerak. Avloniy nazarimizda, o‘z tarjimai holida shulardan bittasini tilga oladi. “Maktabimda yer, odamlar, tog‘- u toshlar, daryo, osmon haqida suxbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bo‘lishib, meni kofir bo‘lding, deb maktabimni yopdilar”.

Adib 1909 yilda Degrez mahallasida yana maktab ochdi. Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo‘lgan yangi darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. Negaki yangi maktabning afzalligini shunchaki talab qilish, o‘z o‘quvchilari misolida ko‘rsatish hali kifoya emas edi. Yangi o‘quv sistemasining keng yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi. Avloniy yozadi: “Bizim Turkiston maktabi islomiyasinda avvaldan oxirga qadar ta‘lim ulanajak kitoblar”: “Chor kitob”, “Sabot-ul ojizin”, “Fuzuliy”, “Navoiy”, “Xo‘ja Xofiz”, “Bedil”, “Maslak ul-muttakin” lar kabi she‘r kitoblari uldigi jumlaning ma‘lumidir. Bu kitoblarning ba‘zilari e‘tiqod va amollari islomga taalluqli mushkul masalalardan iborat

o'g'lonlardan hamda aksariyati forsiy tilda yozilganlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir-bir narsa anglamoqlari, imkon xoriyinda edi.

Shuning uchun ham adibning 1909-1917 yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o'ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning "Birinci muallim", "Turkiy Guliston", "Yoxud ahloq", "Maktab gulistoni" singari darsliklari, "adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami inqilobiga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko'p yangi usul maktablari uchun qo'llanma bo'lib xizmat etdi. "Muallim afandilar va adabiyot muxbirlari bilan bu asari nochozonalari iltifotsiz qoldurmadi. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalini kiritib maydoni ta'lima qo'yidilar" deb yozgan edi Avloniy mamnuniyat bilan, Ma'lum sabablarga ko'ra bosilmay qolgan "Uchinchi muallim", "Maktab Jug'rofiyasi", "Hisob masalalari" singari darslik kitoblari haqida ham adibning zamondoshlari juda iliq fikrlarni aytadilar. Darhaqiqat bu asarlar inqilobgacha bo'lgan o'zbek maktabi, pedagogik fikri taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. 10 yillarda "Nashriyot", "Maktab" kabi turli shirkatlarning dunyoqarashida ham katta xizmat qildi. 1914 yil 19 sentabrda ta'xis etilgan "Nashriyot" shirkatining 28 punktli rus va o'zbek tillarida yozilgan shartnomasida uning asosiy maqsadi "Turkiston o'lkasidagi musulmon aholisi o'rtasida umumeropa madaniyati va ma'rifatini gazetalar va jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish", deb ko'rsatilgan. 1916 yil 18 martda tuzulgan, notarius D.Egorov tasdiqlagan "Maktab" shirkatining 37 bandli shartnomasida ham shu maqsad tilga olinadi. Keyingi shirkatning muassislari orasida Avloniy va M.Poshsxo'jayev bilan bir qatorda mashhur Nizomiddin Xo'jayev va Shokirjon Rahimiy, 1907-1910 yillarda "Ta'lim alifbo", "Ta'limi soniy" kabi darsliklar yozib, 1918 yili Toshkentda Langer mahallasida xotin - qizlar maktabi ochgan Rustambek Yusufbekov, taniqli ma'rifatparvar Avloniy bilan birgalikda 1909 yilda "Jamiyati xayriya" tuzgan Toshxoji Tuyoqboyevlar ham bor edi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun tuzulgan alifbolar anchagina bor. Agar uning ro'yxati tuziladigan bo'lsa, boshida, shubhasiz. Saidrasul Azimiyning "Ustod avval"i bilan Munavvarqorining "Adibi avval"i turadi. Avloniyning "Birinci muallim" ham o'zining ma'lum o'rniga ega.

"Birinci muallim" 1917 yilga qadar 4 marta nashr etilgan, U muallif ta'kidlaganidek "Avvalgi sinf shogirdlari uchun" yozilgan edi.

"Ikkinchi muallim" yuqoridagi kitobning bevosita davomi, "Alifbo" dan so'ng o'qitmoq uchun yozilgan.

S.Ayniy birinchi yangi usul maktabi Buxoroda 1908 yilda ochildi deb ko'rsatildi. F.Xo'jayev uni buxoroliklar ongida siljish yaratgan hodisalardan biri deb hisoblaydi. Gap shundaki, bu maktab buxorolik taraqqiyparvar muallimlar A.Burxonov va Nizomiddinlar nomi bilan bog'liqdir. Ular o'sha yili imtihonni otonalaru, elning e'tiborli vakillari ishtirokida o'tkazganlar. Tantanali marosimda katta bahs boshlanib ketgan. To'planganlar ikki guruhga Mulla Ikrom bosh "Jadidchilar" va Mulla Abdurazzoq bosh "Qadimchilar" ga bo'lingan. Bahsda "Qadimchilar" ustun kelgan. Hali o'zini o'nqlab olmagan jadidchilik mag'lubiyatga uchradi. Maktablar yopib qo'yildi, bolalar uylariga qaytarib yuborildi, hukumat otonalardan bundan buyon bolalarmizning jadidlar usulida o'qitmaymiz, - degan tilxat

oldi. “Jadid” degan nom dinsizlik va boshqa har qanday jinoyatlarni ifodalovchi nom bo‘lib qoldi.

Bu 1908 yil edi. Hayot to‘xtab qolmadi. “Usuli jadid” qiyinchilik bilan bo‘lsada o‘ziga yo‘l ochib berdi. Uni quvvatlovchilar ko‘payib bordi. Kitob darslikka ehtiyoj zo‘raydi. Shu maqsadda 1909 yilning martlarida “Shirkati Buxoroyi sharq” tuzuldi. Usuli jadid bilan tanishmoq uchun bir kishi Bog‘chasaroyga, yana bir kishi Istanbulga yuborildi. Lekin yangi maktabning dushmani ham ko‘paydi. Shu sababli 1909 yil 18 iyunda Buxoro yoshlari “Taribiya atfol” nomida yashirin jamiyat tashkil qildilar.

Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o‘quvchilar yubormoq chorasiga kirishmoq edi. Jamiyatning yordamida bir qancha talaba Istanbulga yuborildi. S.Ayniy asarining 1927 yilgi Moskva nashrida quyidagi faktni uchratamiz.

“Ixmoli tahsil uchun Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li (1878-1968) uning birodari Ato Xo‘ja (1894-1938), Mazhar Maxsum Burxon o‘g‘li Abdurauf Fitrat, Muhumbek Istanbulga safar qildilar,. Fitrat mazkur talablarning eng iste’dodlisi va eng fozili edi”.

Fitrat Istanbulda 1909-1912 yillarda o‘qidi. Umuman olganda, 1911 yilda Istanbulda o‘qiydigan yoshlar, Turkistonliklarini ham qo‘shib hisoblasak 45 taga, 1912 yilda esa 30 taga yetgan. B.A.Pestovskiy Fitratni 18 yoshlarga qadar Buxoroda tahsil ko‘rib, Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston kabi yerlarda Markaziy Rossiyaning Moskov, Peterburg kabi shaharlarda sayohat etganlar, deb yozadi. Demak u Buxoroda 1904 yillarga qadar o‘qigan. So‘ng chamasi haj qilgan “Tazkiyrat O‘sh-sho‘ro” muallifi Ne‘matilla muxtaramning Xoji Mullo Abdurauf deb tanishtirishini bilmasa kerak.

“Bizda jadidchilikning birinchi davri panislomizm bayrog‘i ostida yurdi”- deb yozadi. Fitrat 1936 yilda “Aruz haqida” kitobida jadid adabiyotining Aruz vazni bilan yozilishi mana shu davrga to‘g‘ri keladi. Bora-bora panislomizm, panturkizm, o‘zbek millatchiligiga bir-biridan ayrim xatti-harakatlar tarzida ajratildi. Men bularni juda yaxshi eslaymanki panislomizm bilan o‘zbek millatchiligining adabiyotdagi in‘ikoslaridan bittasi vazida aruz va barmoq tarafdorligi shaklida ko‘ringan edi. Turkistondagi faoliyat bosqichlari quyidagilardan ibora-T.,

1. 1885-1895 yillar jadid usulidagi maktablarning Qo‘qon va boshqa joylarda ochish uchun harakatlarning boshlanib ketishi.

2. 1895-1905 yillar jadid maktablarining tashkil etish davrining to‘liq shakllanishi, ya’ni Buxoroda Jo‘raboy, Samarqandda A.Shakuriy, S.Azimiy, A.Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Monnon Qozi, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Qo‘qonda Salohiddin domla, Hamza, Andijonda Shamsiddin domla, Namanganda, I.Ibrat, So‘fizoda va boshqalar maktab tashkil etganlar.

3. 1905-1914 yillar madaniyat maorifni milliy lashtirish maqsadida ro‘znomalar va jaridalarni chop etish, matbaa ishlarini keng yo‘lga qo‘yish, ilm, fan va adabiyotni rivojlantirish.

4. 1914-1917 yillar jadidchilik yanada shakllantirish uchun siyosiy farqlar va tashkilotlarni tuzish, ularning oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yish;

5. a) Rossiyadan to‘la ajralib chiqish.

6. b) Rossiya federatsiyaisi tarkibida “Milliy hududiy muxtoriyat tuzish”,

7. v) Rossiya unitarizm tarikibida faqat ma'naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolatiga ega bo'lish.

8. 1917 yil noyabr 1918 yil fevral Qo'qonda "Turkiston Muxtoriyati" ning tashkil topishi va unga turli millat vakillarining kiritilishi hamda uning sho'rolar tomonidan qonga botirilishi yoki "Qo'qon fojiasi" davri.

9. 1918-1924 yillar Sho'ro mustabit hokimiyati tarkibida ishtirok etishi. Shuningdek maorif-matbaa ishlarida "Chig'atoy gurungi" tashkilotini tuzishdagi harakatlar davri.

10. 1924 yilda Turkistonning parchalanishi munosabati bilan milliy ozodlik harkatini zimdan amalga oshira borib, "Chig'atoy gurungi" orqali madaniyat maorif va matbaa ishlarini yo'lga qo'yish davri.

11. 1920 yillar oxiri va 1937-1938 yillar hamda 50 yillarning o'rtalarigacha qatog'onga uchrashi davri.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki jadid namoyandalari Turkistonni mustaqil qilish, milliy davlat yaratish, milliy tilda davlatni boshqarish, millatni siyosiy teng huquqlarni amalga oshirish uchun kurash olib borganlar. Turkistonda 1 – jahon urushi yillarida mehnatkashlarning ish tashlashlari va dehqonlarning g'alayonlari bo'lib turdi. 1915 yil noyabrda Qo'qon jandarma bo'limining maxfiy axborotida urushdagi talofatlar to'g'risidagi ovozlari, turmushdagi kamchilik va ish tashlashlar aholini hayajonga solayotganligi ko'rsatilgan bo'lib, unda aholi o'rtasida norozilik kuchaygani ko'rsatildi. 1914 yil kuzida Sulyuvta ko'mir koni ishchilarining, Yettisuv temir yo'li ishchilarining, 1915-1916 yillarda Chelek neft konlari xodimlari va Andijon paxta zavodi ishchilari hamda 1915 yil iyulda Andijondagi "Besh bosh" paxta zavodining ishchilari ish tashladi.

1916 yilda Toshkent va Qizil Arvot temiryo'l porovoz tamir korxonalarining ishchilari ham bu kurashga qo'shildilar.

Bu davrda dehqonlar harakati ham ancha kuchayib, soliqlardan bosh tortishlar kuchaydi. Masalan, Kattaqo'rg'on uyezdi Chelak uchastka pristavining 1915 yil 18 iyundagi xabariga ko'ra, Xo'jaariq volost dehqonlari ariq qazish va to'g'on qurish majburiyatlarini bajarishdan bosh tortganlar. 1915 yil 21 noyabrda shu uyezdning Titon qishloq ahli "Sug'orish ishlariga qatnashmaymiz, qo'lingdan kelganini qil, bizni uyezd hokimiga chiqsang chiqaqol, shtrafdan ham, qamoqdan ham qo'rqmaymiz",- deb qat'iy turib olgani to'g'risida axborot qilgan. Bundan dehqonlarning noroziliklari butun o'lka bo'ylab yoyildi.

Bu davrda ancha faollashgan jadidchilik harakati ham o'z saflariga milliy demokratiyaning ziyolilaridan Xamza, Abdulla Soliq, Zavqiy, Munavvar Qori, Avaz O'tar, Fitrat, Behbudiy va boshqalarni to'plab, bir qator talablar bilan chiqdilar, ya'ni Turkistonga Rossiyadan ruslarni ko'chirib keltirishni to'xtatish, mahalliy burjuaziyani rus burjuaziyasi bilan huquqan tenglashtirish, soliqlarni kamaytirish, favqulodda holatni bekor qilish, musulmon bo'lmaganlarga Turkistondan yer olishni taqiqlash ayrim islohotlar o'tkazish, yangi usul maktablarini tashkil etish. Turkiston musulmonlariga kengroq siyosiy huquqlar berilishini, ularning ruslar bilan huquq jihatdan tenglashtirishni, mahalliy kadrlarni hamma sohalar bo'yicha ko'plab tayyorlashni talab qilib chiqdilar. Bu esa o'z-o'zidan mahalliy aholini o'stirishda muhim bosqich bo'ldi. Mahalliy aholini chorizm zulmi va asoratiga qarshi

ko'tarilishida 1916 yilda yozgi voqealar kuchli bo'ldi. Chunki, Rossiya urushiga har qancha rezervlarni yuborayotgan bo'lsa ham odam yetishmas edi. Shu tufayli, Rossiya harbiy ministrligi Turkiston O'lkasining yerli aholisini armiyaga chaqirish to'g'risida loyiha ishlab chiqqan, ya'ni 1916 yil 25 iyundagi farmonga muvofiq "Imperiyadagi g'ayri harbiy inshootlar, shuningdek davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb etish" ko'zda tutildi. Bu farmonga Turkistonning rus bo'lmagan aholisidan (19 yoshdan 43 yoshgacha) 250 ming kishini safarbar qilish e'lon qilindi. Bu xabar yashin tezligida butun Turkistonga yoyildi. Safarbarlikni amalga oshirishda katta xatolarga yo'l qo'yildi, ya'ni boy bolalari o'rniga ham kambag'allardan jo'natiladigan bo'ldi. Bu esa aholini g'azabini keltirdi va xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Birinchi qo'zg'olon 4 iyulda Xo'jandda yuz berdi. Qo'zg'olonchilar soni tez orada 6000-7000 ming kishiga yetdi va mardikorlikka odam bermaymiz deb politsiya mahkamasini o'rab oldilar.

Natijada otishmada ko'p odam yarador bo'ldi, ko'plari o'ldirildi. 7 iyulda Samarqandda 11 iyulda Toshkent viloyati, 19 iyulda Andijon va Namangan viloyatlarining butun shahar va qishloqlarida mirshablar bilan alamzada xalq o'rtasida qonli to'qnashuvlar boshlandi. Jizzaxdagi qo'zg'olon eng kattasi bo'ldi. Qo'zg'olonchilardan Masharif Xusanov Musabek To'rabekov, Ernazar Pirmatov, Usta Olimbekov va boshqalar haqiqiy xalq qahramonlari sifatida maydonga chiqdilar. 1916 yil 13 iyulda (bozor kuni) Jizzax qo'zg'oloni keskin tus olib, Oqsoqol Mirzayor Xudayorxonov va uyezd hokimi polkovnik Rusinlar o'ldirildi. Faqat toshkentdan kelgan kuch yordamida qo'zg'olon bostirildi. Bu qo'zg'olon yozuvchi N.safarovning "Tarix tilga kirdi" nomli pesasida ham aks etgan. Umuman 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni g'alayonlari Farg'ona viloyatining 5 uyezdiga Andijon, Qoqon, Namangan, Skobelev va O'sh uyezdlariga yoyildi. Rasmiy xabarlariga ko'ra Farg'ona viloyatining 107 joyida, Samarqand viloyatining 25 joyida, Sirdaryo viloyatining 20 joyida bo'lib o'tdi. Bunday qo'zg'olonlar Avliyo ota (Jambul), Kazalinsk, Chimkent shaharlari va Yettisuv viloyatida to sentabr oyining oxirigacha davom etdi.

Chor ma'murlari 1916 yil yozida boshlangan xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun 1916 yil 17 iyulda Turkiston o'lkasida harbiy holat e'lon qildilar. Farmonga muvofiq Chor hakimiyatiga qarshi har qanday harakatga qatnashgan kishi "Davlatga xiyonat qilishda ayblanib, o'lim jazosiga mahkum etilishi, mol-mulkleri musodara qilinishi" ta'qidlanadi. Shunday qilib, bu farmonga muvofiq Turkiston o'lkasining ko'pgina joylarida qo'zg'olon ayovsiz bostirildi va natijada qariyb 3 mingdan ortiq kishilar otib o'ldirildi, minglab kishilar yarador qilindi va ko'plab kishilar qatorga va surgun, hamda turmalarga yuborildi. Chor ma'murlari qo'zg'olonchilar va ularning oila a'zolaridan ayovsiz o'ch oldidar. Juda ko'p shahar va qishloqlar vayron etildi. Jazo otryadlari minglab kishilarni yoshu-qari demay, qirib tashladilar. Minglab kishilar o'z joylaridan quvildilar.

Ammo 1916 yil qo'zg'oloni: Turkistonliklar uchun katta hayot maktabi bo'ldi. Podshoning mardikorlikka safarbarlik tadbiri 1916 yil qo'zg'oloni davomida deyarli barbod bo'ldi va mo'ljallangan 259 ming kishi o'rniga 123 ming kishi Turkistondan mardikorlikka safarbar qilindi. Bu shuni ko'rsatadiki, begunoh to'kilgan qon zoye ketmadi, qo'zg'olon davomida ming-minglab istiqloлга intiluvchi yangi kuch

kurashchilarining avlodlari yetishib chiqdilar. Shuning uchun-atoqli yozuvchimiz Oybek ham shu algʻov-dalgʻov davraning fojiali voqealariga atalgan romanini bejiz “Qutlugʻ qon” deb atamagan.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Nima sababdan Rossiya va Angliyaning mustamlakachilik manfaatlari Oʻrta Osiyo masalasida toʻqnashdi?
2. Podsho Rossiyasining Oʻrta Osiyoni bosib olishdagi maqsadlarini aytib bering ?
3. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimining oʻrnatilishi va uning oqibatlari haqida gapirib bering.
4. Rossiya imperiyasi mustamlaka tizimiga qarshi koʻtarilgan xalq harakatlarini natijalari qanday boʻldi?
5. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida madaniy hayotda roʻy bergan oʻzgarishlarni yoritib bering.
6. Turkistonda XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlaka zulmining yanada kuchayishi sabablari nimada?
7. Oʻlkada demokratik va milliy-ozodlik harakatlarining avj olishiga sabab boʻlgan omillarni keltiring.
8. Jadidchilik harakatini vujudga kelishi haqida gapirib bering.
9. Jadidlar harakati rahnamolaridan kimlarni bilasiz?
10. Jadidlar qanday gʻoyalarni ilgari surganlar?
11. Mustamlakachilar maorif sohasida qanday siyosat tutdilar ?

Vazifalar:

1. Chorizm davridagi rus-tuzem maktablari haqida maʼlumotlar toʻplash va tahlil qilish
2. Jadidlarning maorif sohasida olib borgan faoliyati toʻgʻrisida maʼlumotlar toʻplash
3. “Jadidchilik harakati” mavzusida slayd, buklet, maʼruza-taqdimot tayyorlash

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. “Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati” mavzusida mustaqil ish bajarish

Tavsiya etiladigan qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va maʼnaviya.-T., T., “Oʻzbekiston”. 1994.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., “Oʻzbekiston” 2015
3. Oʻzbekiston xalqlarini tarixi II jild., -T., “Fan” 1993.
4. Oʻzbekiston tarixi va madaniyati. -T., “Oʻqituvchi” 1992.
5. Bayoniy Yu. Shajarai Xorazmshohiy . —T., Kamalak. 1991
6. Hasaniy M. Turkiston bosqini. -T., Nur 1992
7. Aliyeva A. Maxmudxoʻja Behbudiy -T., 1994.
8. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. -T., 1997.

9. Murtazayeva R. va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T., 2005.
10. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., Sharq 2001.
11. Usmonov Q. va b. O'zbekiston tarixi. -T., 2006.
12. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi eshon fojiasi.-T., "Cho'lpon" 1992.
13. O'zbekim "Vatan" seriyasi. -T., 1992.
14. Vatan tuyg'usi. —T., "O'zbekiston" 1996.
15. Xo'jayev Fayzulla, Tanlangan asarlar. -T., "Fan" 1976.
16. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. -T., "Yozuvchi" 1994.
17. A.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. -T.,2001;
18. A.Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi. -T.,2000
19. Sh.G`aforov. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko`chirilganlar. -Toshkent: Fan, 2006.
20. Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T., "Sharq" 1998.
21. X.Majidiy. Turkiston bosqini. -T.,1992;
22. Soliqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vositalarimiz. -T., 1992. 20-30 betlar.
23. Karimov Sh. Qafasdagi qush orzusi. -T., "Fan" 1990. 30-39 betlar.
24. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T., Sharq . 2000
25. Nabiev A. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi -T., "Yozuvchi" 1998.
26. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1,2,3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

10-mavzu. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLI HARAKAT

Darsning o'quv maqsadi: Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat sbabablari, natijalari to'g'risida bilimlarni shakllantirish va mavzuning mohiyatini aniq tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qila olish ko'nikmalari rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Rossiya, 1917 yil inqilobi, Turkiston, Turkiston general gubernatorligi, ishchi va askar deputatalari soveti, ijtimoiy-isyosiy beqarorlik, qurultoy, Bolsheviklar diktaturasi, agressiv tashqi siyosat, jadidchilik, Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi, Turkiston Muxtoriyati, Oktabr inqilobi, qo'rboshilar, Madaminbek, Junaidxon, Ergash qo'rboshi, "Yosh xivaliklar", "Yosh buxoroliklar", Said Olimxon, Kompartiya, Xalq sovet Respublikasi.

Reja:

1. Rossiyada 1917 yil voqealari: Turkistonda siyosiy jarayonlarning jadallashuvi.
2. Turkiston Muxtoriyati-tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich.

3. Turkistonda ajnabiy guruhlar zo‘ravonligi. Bolsheviklar diktaturasining o‘rnatilishi

4. Turkistonda Istiqlolchilik harakati va uning mohiyati.

Asosiy qism

XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Turkiston General Gubernatorligi, Rossiya imperiyasiga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonliklari kirar edi. O‘lkada besh milliondan ko‘proq islom diniga e‘tiqod qiluvchi aholi yashardi. Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan rusiyzabon aholi o‘lkadagi butun aholining o‘ndan bir qismidan ham kam edi.

Ko‘pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg‘unlashib ketgan davomli turg‘unlikka olib kelgan omillarning birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g‘arb usulida zo‘rlik bilan yangilash (zamonaviylashtirish) turadi. Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilash jarayoni doimo qoloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Birinchidan, iqtisodiy ekspansiya yillar mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo‘jaligining yangi o‘choqlari-zo‘r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yog‘i ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish, temir yo‘l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o‘lka milliy xo‘jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o‘choqlarining barpo etilishi o‘lka iqtisodiyotini izdan chiqardi, ko‘p ukladli ijtimoiy tuzilmani vujudga keltirdi. Bunda asosan hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko‘proq tushkunlikka uchrab yemirila bordi. Va nihoyat Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan o‘lka xo‘jaligining dehqonchilik-xom ashyo yetishtirish yo‘nalishida bo‘lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi o‘lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Ana shu tobelik halokati oqibatlarining butun og‘irligini Birinchi jahon urushi (1914-1917) yillarida xalq ommasini o‘z gardanida sinab ko‘rdi: muntazam harakatda bo‘lgan temir yo‘llar ishidagi uzilish va barbod bo‘lish hollarining tez-tez sodir bo‘lib turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi.

O‘sha davrdagi tarixiy vaziyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar ham juda keskinlashib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Imperiyaning urushga jiddiy tayyorgarligi bo‘lmaganligi sababli oziq-ovqat va boshqa zahiralar tez orada tugadi. Ishlab chiqarish qisqardi. Katta yer maydonlari ekilmasdan qoldi. Soliqlar kundan-kunga oshib bordi. Shahar aholisi, ishchilar oziq-ovqat yetishmasligidan qiynaldilar. Ish tashlashlar va dehqonlar g‘alayonlari tobora kuchaydi. 1916 yilgi qo‘zg‘olon ham urushdan, mustamlakachilik zulmidan norozilik ko‘rinishi edi. Frontdagi mag‘lubiyatlar va mamlakatdagi inqirozga podsho hukumati va boshqaruv tizimi aybdor qilindi. Faqat “pastdagilar” emas, balki “yuqoridagilar” ham o‘zgarishlar muqarrar ekanligini tushundilar. Rossiyaning yirik shaharlarini ommaviy ish tashlashlar qopladi. Podsho va uning vazirlari layoqatsizliklarini ko‘rsatdilar. 1917 yil 27 fevralda yuz bergan inqilob Romanovlar sulolasining podsholik tuzumiga barham berdi. 1917 yil podshoh Nikolay II o‘z ukasi Mixail foydasiga taxtdan voz kechdi. Ammo

hokimiyatning podshohlik shakliga qarshi noroziliklar tufayli Mixail Romanov bu taklifni qabul qilmadi. Faqat Ta'sis majlisi roziligi bilan taxtga vorislik qilishi mumkinligini bildirdi. Bu birinchi rus burjua inqilobi edi.

Mamlakatda amalda ikki hokimiyatchilik qaror topdi. Hokimiyat burjua partiyalari vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat bilan ishchi va askar deputatlari organi bo'lgan Sovetlar (Sho'rolar) o'rtasida taqsimlandi. Rossiyada qo'sh hokimiyatchilik-ikki diktaturaning yakka hukmronlik uchun kurashi 1917 yil 1 martdan 2 iyulgacha davom etdi. Muvaqqat hukumat parlamentar monarxiya e'lon qilish tarafdori edi. Ishchi va dehqon Sovetlari proletariat va dehqonlarning inqilobiy demokratik respublika o'rnatish uchun kurash olib borardilar. 1917 yil 4 iyulda Petrograddagi ishchilar namoyishining o'qqa tutilishi bilan ikki hokimiyatchilikka barham berilib, Muvaqqat hukumat hokimiyati o'rnatildi.

Muvaqqat hukumat boshqaruvning Respublika shaklini e'lon qilgan bo'lsada (1917 yil 1 sentabrda Rossiya Respublika deb e'lon qilingan edi) boshqaruvning bu demokratik shakli hokimiyatda uzoq tura olmadi. Barcha markaziy idoralarning faoliyatsizligi kuzatildi, davlat mablag'larini talon-taroj qilish boshlandi. Ustiga ustak Muvaqqat hukumat Rossiyaning birinchi jahon urushidagi ishtirokini davom ettirdi. Natijada mamlakat xo'jaligi tamomila izdan chiqdi. Temir yo'llarda harakat to'xtadi. Rossiya iqtisodiy falokat yoqasida turardi. Muvaqqat hukumat ochlik va iqtisodiy tanazzulga qarshi hech qanday chora ko'rmadi.

Muvaqqat hukumatning asosiy muxolifi hisoblangan bolsheviklar esa vaziyatdan foydalanib, omma orasida siyosiy faoliyatini jadallashtirib, keng agitatsiyani olib bordilar. Bolsheviklarning asosiy shiori-"Xalqlarga tinchlik!"-mamlakat aholisining katta qismi tomonidan qo'llab quvvatlandi. Xalq urushdan charchagan va boshqa urushni istamas edi. Ana shunday targ'ibot ishlari natijasida Rossiyada Muvaqqat hukumatni ag'darishga qaratilgan harakat boshlandi.

1917 yil 25 oktabrda bolsheviklar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Amalda Peterburgda to'ntarishga qarshi turadigan kuch qolmagan, hech kimning Muvaqqat hukumatni himoya qilish niyati hom yo'q edi. Endi Rossiya Respublikasining rasmiy nomi Sovet (Sho'ro) Rossiyasi yoki to'liq holda Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) deb yuritila boshlandi.

Rossiyadagi sodir bo'lgan bu inqilobiy o'zgarishlar Turkiston o'lkasidagi siyosiy mustaqillik va demokratik huquq-erkinliklar uchun kurashning yangi to'liqini boshlab berdi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolalar orasida, hatto oddiy odamlar orasida ham ancha ommalashgan edi.

1917 yil mart-aprel oylari o'lka siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilar va islom ulamolarining yetakchilari bo'lgan M.Behbudiy, Munavvar Qori, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Mustafo Cho'qayev, M.Tanishboyev, A.Zaki Vplidiy, Obidjon Mahmudov va boshqalar o'lkada yangi tashkil etilgan "Sho'roi Islomiya" (1917 yil, mart), "Sho'roi Ulamo" (1917 yil, iyun), "Turon" jamiyatlari va "Turk adami Markaziyat (Federalistlar) firqasi" (1917 yil, iyul), "Ittifoqi Muslimin" (1917 yil, sentabr) siyosiy partiyalarining tuzilishida muhim rol o'ynadilar.

O'sha 1917 yilning o'zida to'rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o'tkazildi. 1917 yil 23 aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi ilgari surildi. Bu Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi.

Butunturkiston musulmonlari 1-qurultoyining so'nggi majlisida Markaziy rahbar organ-Turkiston o'lka musulmonlari kengashi tashkil etildi. Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir biridan tarqoq aloqada bo'lgan jamiyat, qo'mita va ittifoqlarni birlashtirish edi.

Shunday qilib, Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlar va turmush tarzini izchil turib himoya qilishi aytili.

1917 yil 10 sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining 2-qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Milliy demokratiya o'zi tutadigan yo'lning muhim asoslarini birinchi marta qat'iy qilib aytdi: hukumat demokratik siyosat yurgizadigan bo'lsa, ana shundagina musulmonlar bu hukumatda ishtirok etadilar. Ikkinchi qurultoyda faqat Milliy Markaz-Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin, degan qat'iy talab qo'yildi.

Rossiyada 1917 yil oktabr voqealaridan keyin hokimiyatni egallab olgan bolsheviklar Turkiston bolsheviklari bilan birga yerlik musulmon aholisining o'lkani boshqarishga bo'lgan huquqini inkor etib, hokimiyat to'g'risidagi masalani kelishib hal qilish imkoniyatini yo'qqa chiqardilar va shu bilan o'lka siyosiy hayotidagi kuchlarning kelgusida muxolifatga aylanishini oldindan muqarrar qilib qo'ydilar.

Toshkentdagi Xalq Komissarlari Kengashi Turkiston musulmonlari vakolatli syezdining mamlakatni idora qilishni yerli xalq qo'liga topshirish haqidagi qarorni rad etganidan so'ng, Turkiston Musulmonlari Markaziy Kengashi hokimiyat masalasini hal qilish uchun mustaqil harakat boshlashga majbur bildi. Biroq Toshkentda mustahkam o'rnatilgan sovet komissariati qizil qo'shin kuchiga tayanib, milliy markaz deb hisoblangan Turkiston Musulmonlari Markaziy Kengashi faoliyatiga ochiqdan ochiq to'sqinlik qildi. Shundan keyin milliy markaz iz harakatini Qo'qonda turib davom ettirishga qaror qildi.

1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Ma'lumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyi va unda qabul qilingan qarorlar o'n yillar mobaynida "millatchilar guruhining yig'inida e'lon qilingan burjua muxtoriyati" deb noto'g'ri talqin qilinib, yangi muxtoriyatning nomini xalqimizga tor ma'noda tushuntirish uchun "Qo'qon muxtoriyati" deb yuritib kelindi. Hujjatlar esa ushbu holning butunlay aksi bo'lganligini isbotlaydi. Masalan, M.Behbudiy qurultoydagi ma'ruzasida "Qurultoyimiz qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun ham ahamiyatli, unda Turkiston aholisining yevropalik vakillari ham ishtirok etmoqdalar", deydi.

Turkistonni boshqarish shakli to'g'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e'lon qilinishi o'lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqani va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma qo'llab quvvatladi.

28 noyabrda tarkib topayotgan davlatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kungi yig'ilishida Butunrossiya Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq Majlisi qo'lida bo'lishi kerak deb qaror qabul qildi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib M.Tanishboyev saylandi. Islom Shoahmedov Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Cho'qayev-tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xo'jayev-harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agayev yer-suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri, Solomon Abramovich Gersfeld - moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rtacha ma'lumotli huquqshunos ekanligi Muxtoriyat hukumati a'zolarining bilim darajasi naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

1 dekabrda Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat hukumati a'zolari imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu murojaatnomada Turkistonda barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

Turiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Yangi hukumat faoliyati Qo'qonda va Farg'onada emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Fitrat Muxtoriyat e'lon qilingan tunni "Milliy Laylat-ul-qadrimiz" deb atadi.

1 dekabrda Namangan uyezdida 100.000 kishi qatnashgan namoyish bo'ldi. Namoyish qatnashchilarining bayroqlarida "Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!" deb yozilgan so'zlar hilpirab turardi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan fojeali voqealar muhim o'rin tutadi. Toshkentda eski shahar aholisi "Muxtor Turkiston uchun!" shiori ostida tinch bayram namoyishi o'tkazdilar. Ammo Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruq berdilar. Oqibatda tinch namoyish ishtirokchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 ta kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi.

1917 yil 26-3 dekabrda Qo'qon shahrida yerli ishchi, askar va dehqon deputatlari 1-favqulodda qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda o'lka mehnat komissari P.Poltoraskiy qurultoyda dag'dag'ali ohangda so'zlab, xalqimiz tarixidagi ilk demokratik hukumatni "boylar muxtoriyati" deb tuhmat qildi. "Biz kambag'allar muxtoriyatiga qarshi emasmiz", deb Potoraskiy munofiqlik qildi.

Muxtor hukumatning xalq o'rtasidagi obro'-e'tibori va nufuzi bolsheviklarni tashvishga solib qo'ydi. 1918 yil 19-26 yanvarda Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favqulodda IV qurultoyida muxtoriyat masalasi asosiy o'rinda turdi. Qurultoyda so'zga chiqqan Toshkent

Sovetining raisi I.Tobolin surbetlarcha shunday degan edi: “Muxtoriyatni hayotga tadbiq e’tish uchun hali vaqt erta. Chunki biz bu ishni amalga oshirsak, muxtoriyatning birinchi sharti sifatida rus qo‘shinlari o‘lkadan chiqib ketishi kerak bo‘ladi”. Qurultoy Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a‘zolarini qonundan tashqari holatda deb, hukumat a‘zolarini qamoqqa olish to‘g‘risida qaror chiqardi. Bolsheviklar bu qabih va mudhish niyatlarini amalga oshirishga zudlik bilan kirishdilar.

Atigi uch kun o‘tgach, 30 yanvarda Turkiston XKS Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlar boshladi. 30 yanvar kechqurun Skobelev (Farg‘ona) shahridan Qo‘qonga dastlabki qizil otryadlar yetib keldi. “Ulug‘ Turkiston” gazetasida yozilishicha 31 yanvar tushdan keyin jang harakatlari boshlangan. 15 fevralda esa shaharda yong‘inlar bo‘lgan.

Dastlabki jangda Muxtoriyatning milliy qo‘shinidan tashqari qo‘qonlik aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho‘kich, tayoq ko‘targan xaloyiqning soni 10.000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo‘qon shahriga hujumlarini uch kun davomida mardonavor qaytardilar.

Turkiston o‘lkasi harbiy komissari Ye.Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo‘qonga keldi. qizil askarlar shaharda bosqinlar uyushtirib, uni talon-toroj qilishga kirishdilar. Shahar ustiga uch kun davomida tuplardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hudumlari oqibatida ag‘darib tashlandi. Qo‘qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash, o‘ldirish avjiga chiqdi. Faqat Qo‘qonning o‘zida uch kun ichida 10.000 kishi o‘ldirildi.

1918 yil 22 fevralda Qo‘qon shahrida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “tinchlik shartnomasi” imzolandi. Ushbu shartnomaning ikkinchi moddasida: “Aholi o‘lka Xalq Komissarlari Sovet hokimiyati va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oladi”. deb yozilgan edi. O‘qqa tutilgan, talangan, o‘ldirilgan va tahqir qilingan qo‘qonliklarning tirik qolgan qismi sovet hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham, u erksevar xalqimizning milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashiga da‘vat etdi va vatanimiz tarixida o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Turkiston xalqlari, ularning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari va milliy yetakchilari o‘lkada erkinlik va mustaqillik uchun, uning demokratik Rossiya tarkibida muxtor respublika shaklidagi milliy davlat tuzilishi uchun fidokorona kurash olib borayotgan, shu bilan birga bularning hammasiga tinch vositalar bilan erishishga intilayotgan bir paytda Turkiston bolsheviklari o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida urush va xo‘jalik sohasidagi vayronagarchilik tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va oziq-ovqat qiyinchiliklaridan foydalanib, hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun jon-jahdlari bilan hozirlik ko‘rdilar.

1917 yil kuziga kelib o‘lkada siyosiy kuchlarning joylashuvini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklarni aholining asosiy qismi qo‘llab-quvvatlamas, ular biron bir darajada kengroq ijtimoiy bazaga ega emas edilar. Aholi o‘sha vaqtlarda o‘z milliy tashkilotlariga, birinchi navbatda “Ulamo” va “Sho‘roi Islom” tashkilotlariga ergashardi. Buning tasdig‘i sifatida 1917 yil yozining oxirlari-

kuzning boshlarida shahar dumasiga bo‘lib o‘tgan saylov yakunlarini aytib o‘tish mumkin. Ko‘pgina shaharlarda saylovchilarning aksariyati ana shu milliy partiyalar nomzodlari uchun, bolsheviklar vakillariga esa juda ozchilik ovoz bergan edilar. Bir qancha shaharlarda bolsheviklar hatto o‘z nomzodlarini ko‘rsatmadilar, chunki ular baribir shahar dumasiga o‘tmasliklarini oldindan bilar edilar. Bu vaqtda Turkistonda bolsheviklar soni bor-yo‘qi bir necha yuzdan oshmasdi, shu bilan birga ular orasida mahalliy aholi vakillari deyarli yo‘q edi. Shunga qaramasdan, o‘lka bolsheviklari Rossiyadagi o‘z partiyasi ta’sirining ortib borayotganligidan foydalanib, zo‘r berib hokimiyatga intilar edilar.

Bu vaqtga kelib Turkistonda hokimiyatning sovetlar qo‘liga o‘tishi uchun obektiv shart-sharoitlar ham, subektiv shart sharoitlar ham yo‘q edi. Bu yerda amalda sanoat proletariati mavjud emas edi. Uning miqdori o‘lka aholisining bir foizidan kamrog‘ini tashkil qalardi. Hokimiyatning sovetlarga o‘tishini yoqlab chiqadigan siyosiy kuchlar shakllanmagan, ommaning o‘zi ham bunga g‘oyaviy jihatdan yetilmagan edi. O‘lka sovetlarining o‘zi (Toshkent kengashidan tashqari) hokimiyatning sovetlar qo‘liga o‘tishini yoqlab chiqmadilar, chunki ularning ko‘pchiligi ish vaqtda koalitsion Muvaqqat hukumat va uning Turkiston qo‘mitasi tarkibiga kirgan eserlar va mensheviklardan iborat edi.

Turkiston mahalliy sovetlari ko‘pchiligining bu masalada tutgan yo‘li Oktabr to‘ntarishidan keyingina o‘zgardi. Turkiston bolsheviklari va so‘l eserlari Turkiston xalqlari irodasini, o‘lkadagi mahalliy aholining, shuningdek, mahalliy bo‘lmagan aholining ko‘pchilik ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarining keskin noroziligini nazar-pisand qilmay zo‘r berib qurolli qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘ra boshladilar.

Petrograddan Oktabr to‘ntarishi haqida xabar olinishi qurolli qo‘zg‘olonning amalda ro‘yobga chiqarish uchun turtki bo‘ldi. 27 oktabrdan 28 oktabrga o‘tar kechasi Toshkent sovetlari qo‘shma majlisida 28 oktabr kuni ertalab qurolli qo‘zg‘olon boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi va bu qo‘zg‘olon belgilangan vaqtda sodir bo‘ldi.

Qurolli to‘qnashuvda mahalliy aholi ishtirok etmadi. To‘rt kechayu to‘rt kunduz davom etgan to‘qnashuvda, haqiqatda, yevropalik qurollangan ishchilardan iborat bir necha ming kishi ishtirok etdi. 1917 yil 1 noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati qaror topdi.

1917 yil 15 noyabrda ish boshlagan O‘lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III qurultoyi tortishuvlar oqibatida hukumat-Turkiston Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi. Yevropaliklardan iborat hukumat tuzildi. Hukumat a‘zolari tarkibiga mahalliy aholi vakillari kiritilmadi. Bu tasodifiy hol emasdi.

Turkistondagi so‘l-ekstremistik siyosiy guruhlar, ularning namoyandalaridan tuzilgan hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildilar. Rossiyada bo‘lgani singari Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Asosiy inqilobiy kuch proletariat va kambag‘al dehqonlar ko‘klarga ko‘tarilib, aholining boshqa qatlamlari reaksion, ekspluatatorlar deb e‘lon qilindi. Mulkdorlar-ekspluatator, ezuvchilar: milliy ziyolilar, o‘qimishli, obro‘-e‘tiborli xalq vakillari-milliy burjuaziya qorchalonlari va malaylari, islom dini rahnamolari-reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash va qatag‘onlar boshlab yuborildi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy faktlar Rossiyaning Turkiston General Gubernatorligida sodir bo‘lib, o‘lkaning qolgan hududlarida ikkita monarxiya tuzilmasi (Buxoro amirligi va Xiva xonligi) saqlanib kelayotgan edi. Turkistonda sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar keyinchalik xonliklar hududiga “eksport” qilindi. Xonliklarda ham sun’iy “xalq inqiloblari” uyushtirilib, Xivada xon hokimiyati 1920 yil 2 fevralda, Buxoroda amir hokimiyati 1920 yil 2 sentabrda qizil askarlar tomonidan ag‘darilib “Xalq inqilobi” amalga oshirildi. Xiva Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) e‘lon qilinib, “Turkiston Muxtoriyati” qonga botirilgach 1918 yil 30 aprelda tashkil etilgan yangi tuzilma Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (TASSR) da Sho‘rolar tomonidan mahalliy aholining davlatchiligi va milliy an‘analariga tamomila zid ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar Xiva hamda Buxoro Respublikalariga ham zo‘rovonlik yo‘li bilan tiqishtirila boshlandi. Bu esa umumturkiston miqyosida yot mafkura va uning zo‘rovon siyosatchilariga qarshi umumiy norozilik va qurolli harakatni keltirib chiqardi.

Turkistonda “buyuk oktabr inqilobi”dan keyingi sodir bo‘lgan voqealar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, markaziy sovet hukumati o‘lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyatni ham ravo kirishni istamadi. To‘g‘ri, bu achchiq haqiqatni dastavval barcha Turkiston xalqlari tushunib yetmadi. Buni faqat milliy vatanparvarlar, jadidlar va ayrim rahbar xodimlargina tasavvur qila olgan edilar.

Ozodlik osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo‘lga qurol olib bolsheviklar rejimiga qarshi istiqloлчаilik harakatini boshlab yubordilar. Sovet mustabid tuzumi mafkurasi hukmronligi davrida ularga “bosmachilar” deb tamg‘a osilib, ataylab kamsitilgan edi.

Istiqloлчаilik harakatlari “Turkiston muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanishi” deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e‘tirof etiladi. Aslini olganda muxtoriyat hukumati bo‘lmaganida ham istiqloлчаilik harakatlarining vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat istiqloлчаilik harakatining boshlanishini muqarrar qilib qo‘ygan edi. Chunki Turkistonda istiqloлчаilik harakatining boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham mavjud edi.

Birinchidan, 1917 yilda sodir bo‘lgan oktabr to‘ntarishi va bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi.

Ikkinchidan, sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki kunlardanoq hokimiyatni boshqarishda mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g‘ururi, haq-huquqlari inkor etildi.

Uchinchidan, yangi tuzum o‘rnatilgan dastlabki kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy qadriyatlari toptaldi. Qozi sudlovi bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olinib, sotsialistik -davlat mulkidan tashqari mulkchilikning barcha shakliga chek qo‘yildi.

Chorizmning mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan fargʻonaliklar Turkistonda birinchi boʻlib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa istiqlolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlanib ketdi.

Istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi: oʻziga toʻq badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda baʼzi boylar qoʻshildi. Istiqlolchilik safida oq-qorani tanigan savodxon kishilar-ziyolilar koʻpchilikni tashkil etgan. Bir soʻz bilan aytganda istiqlolchilar safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar ishtirok etdi.

Bolsheviklarga qarshi dastlabki guruhlarining tuzilishi Qoʻqon atrofidagi Bachqir qishlogʻidan boʻlgan Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan bogʻliq. 1918 yil 27 fevraldagi janglarning birida Kichik Ergash shahid boʻlgach, uning oʻrniga Katta Ergash Fargʻona vodiysida bolsheviklarning tartibiga qarshi ozodlik bayrogʻini koʻtardi.

Margʻilonda esa militsiyaning sobiq boshligʻi Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi. Madaminbek Fargʻona fronti qoʻshinlari qoʻmondoni M.Safonov nomiga yoʻllagan maktubida (1919 yil mart) istiqlolchilar qanday maqsad yoʻlida kurashayotganliklarini, bu harakatning mohiyati va “bosmachi” deb kimni aytish lozimligini yaqqol koʻrsatib berdi.

Fargʻona vodiysida istiqlolchilik harakatining yana bir nomoyondasi Shermuhammadbek (1893-1970) edi. Uning quyidagi soʻzlari diqqatga sazovor: “Bu harakat Umumturkiston istiqloli uchun yuzaga kelgan haqiqiy millatchilarning harakatidir. Bu harakat Temur, Ulugʻbek, Navoiylarning yurtini Moskov hukmronligidan halos etish demakdir”.

Fargʻona vodiysida shuningdek Islom Pahlovon, Yormat Mahsum, Shakarxon va Muhiddinbekning onasi singari oʻzbek va qirgʻiz ayollaridan yetishib chiqqan qoʻrboshilar, Samraqand viloyatida Ochilbek, Baqrombek va boshqalar milliy istiqlol kurashi tarixida shonli sahifalar qoldirdilar.

1918 yilning oʻrtalariga kelib Fargʻona vodiysida taxminan yuzga yaqin qoʻrboshi oʻz guruhlari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15.000 yigit bor edi.

Istiqlolchilik harakatini tashkiliy jihatdan uyushtirishda Fargʻona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qoʻrboshilarning mazkur davrda boʻlib oʻtgan oʻttizdan ortiq qurultoylarining ahamiyati katta boʻlgan.

Namanganlik Nosirxon toʻra, Toshkentlik muftiy Sadriddin Mahsum Sharifxija oʻgʻli, Turkiston MIK raisining sobiq oʻrinbosari Toʻraqul Jonuzoqov, Boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy va boshqalar istiqlolchilik harakatining gʻoyaviy mafkurachilari edilar. 1921 yil avgust oyida Buxoro shahrida Validiy boshchiligida tuzilgan Turkiston Milliy Birligi Tashkiloti butun Turkiston mintaqasidagi barcha istiqlolchilar guruhlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz vazifasini bajardi.

Fargʻona vodiysidagi istiqlolchilik harakatlari 1919 yilning yozi oxiri va kuzida oʻzining eng yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Shu yilning 22 oktabrida Pomirning Ergashtom ovulida boʻlgan anjumanda Madaminbek boshchiligidagi Fargʻona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. 1919 yilning kech kuziga kelib

Madaminbek qo‘l ostida 30.000 , Shermuhammadbek qo‘li ostida 20.000, Ergash qo‘rboshida 8.000 yigit qizil armiyaga qarshi istiqloqlilik janglarini olib bordi.

Farg‘ona vodiysiga bolsheviklar tomonidan qo‘shimcha kuchlarning tashlanishi natijasida 1920 yil yanvar oyining o‘rtalariga kelib jangovar tashabbus qizil armiya qo‘liga o‘tdi. Katta Ergash qo‘shini mag‘lubiyatga uchragach 1921 yil dekabrda Xonobodagi qarorgohida qizil askarlar tomonidan o‘ldirildi. Shermuhammadbek asosiy kuchlarini olib Oloy vohasiga chekindi. Madaminbek vaqtdan yutish uchun 2-Turkiston o‘qchi diviziyasining boshlig‘i Verevkin-Raxalskiy bilan 1920 yil 6 martda bitim imzoladi. Madaminbekning bu siyosatini boshqa qo‘rboshilar xoinlik bilan tenglashtiriladi va Shermuhammadbekning roziligi bilan Holxo‘ja Eshon tomonidan 1920 yil 14 mayda Madaminbek xiyonatkorona o‘ldiriladi. Madaminbek o‘rtadan ko‘tarilgach, ertasigayoq bolshevikar qurolli harakatlarini kengaytiradilar.

1921 yilning 13 sentabrda Farg‘ona vodiysida favqulodda holat e‘lon qilindi. Noyabr oyida esa harbiy diktatura o‘rnatildi. P.Branov Farg‘ona viloyatining harbiy diktatori qilib tayinlandi.

Shermuhammadbek boshchiligida 1920 yil 3 mayda tuzilgan Turkiston Muvaqqat hukumati 1922 yil oxirida tarqalib ketdi. Uning o‘zi qator janglardan keyin 1922 yil dekabr oyining so‘nggi kunlarida Buxoro Respublikasi hududlariga, 1923 yil bahorida esa Afg‘oniston davlatiga o‘tib ketdi.

Farg‘ona vodiysida vatanparvarlarning qo‘shiniga 1923-1924 yillarda oldin Islom Pahlavon, so‘ng Yormat Mahsum kabi qo‘rboshilar rahbarlik qildilar.

Qo‘rboshilar 1924 yilga kelib Turkistonda iqtisodiy inqiroz va qashshoqlik, dahshatli ocharchilik, xalqning og‘ir turmushini ko‘rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan yetti yillik kurashdan ular ham, Farg‘ona xalqi ham charchagan edi. Shuning uchun ham qasoskorlarning ko‘pchiligi 1924 yil oxiriga kelib qarshiliklarni to‘xtatdilar.

Itiqlolchilik harakati Buxoro va Xorazm xalq Sovet respublikalarida ham davom etdi. Buxoroda istiqloqlilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ibrohimbek (1889-1932) bo‘lib, u 1921 yil sentabrda bo‘lgan Buxoro qo‘rboshilarining qurultoyida “Islom lashkarboshisi” degan mo‘tabar unvonga sazovor bo‘lgan edi. Turkiyaning sobiq bosh vaziri Anvar Poshsho (1881-1922) ham Buxoroga kelib sovetlarga qarshi kuchlarga qo‘shildi. U Sharqiy Buxoroda sovetlarga qarshi birlashgan lashkar bunyod etib, g‘arbcha qo‘mondonlik uslubini joriy qildi.

Buxoroning markaziy va g‘arbiy viloyatlarida ham istiqloql uchun janglar boshlanib ketdi. Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor (1884-1924) boshchiligidagi poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to‘plandi va jangovor harakatlar olib borildi.

Mujohidlarning katta armiyasi 1922 yil mart oyida poytaxt Buxoro shahriga yurush qilib shaharning ancha qismini sovetlardan tozaladilar. Ammo zudlik bilan yetib kelgan ko‘p sonli qizil askarlar katta qurbonlar berib istiqloqlchilarni poytaxtdan chekintirishga erishadilar. Tadqiqotchilar ma‘lumotlariga qaraganda bolsheviklar 1923 yilda istiqloqlchilik harakatini bostirish uchun markazdan 100.000 kishilik ulkan armiyasini safarbar etishga majbur bo‘lgan. Buxoro istiqloqlchilarining

asosiy qismi 1924 yil oxirigacha kurash olib bordilar. Ammo Buxoro vatanparvarlari Surxondaryo va Tojikistonning tog‘li hududlarida yana o‘n yil (1925-1935) davomida qurolli qarshilik harakatlarini olib bordilar.

Xorazmda bolsheviklar va qizil armiya kuchlariga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun qurolli kurash 1919 yilning yozidan boshlanib ketdi. Qurolli kurashni turkman yovmut urug‘ining boshlig‘i Qurbon Mamed Sardor-Junayidxon (1857-1938) guruhlar boshlab, qator yillar davom ettirdi. Xorazmdagi qo‘rboshilar guruhlariga Madraimboy, Ota Mahsum, Sa’dulla bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qildilar. Xususan Qo‘xna Urganch, Ilalli, Toshhovuz, Mang‘it, Qo‘shko‘pir, Chimboy, Qo‘ng‘irot va To‘rtko‘lda harakat qilgan o‘nlab sardorlarning guruhlar qizil askarlarga jiddiy zarba berdilar. Qizil armiya qo‘mondonligi yangidan yangi harbiy qismlarni, to‘plar, aeroplanlarni Xorazmga keltirib, qasoskorlarga qarshi jangga tashladi. Kuchlarning teng emasligi, harbiy texnikaviy qoloqlik, yagona qo‘mondonlikning yo‘qligi, moddiy yetishmovchiliklar va boshqa bir qator omillar Xorazm vatanparvarlarining mag‘lubiyatiga sabab bo‘ldi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. 1917 yil fevral voqealari Turkistonda qanday siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi?
2. «Shuroi islomiya», «Shuroi Ulamo» va «Alash O‘rda» siyosiy tashkilotlari nima sababdan tuzildi. Ularning dasturiy yo‘nalishi qanday edi?
3. Musulmon shuolarining muxtoriyatchilik g‘oyasining mohiyatini tushuntirib bering?
4. 1917 yil fevral voqealari va Oktabr to‘ntarishi Turkistonda qanday siyosiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi?
5. Sovetlar va musulmon shuolarining hukumat masalasidagi kelishmovchiligini izohlab bering?
6. «Turkiston muxtoriyati»ning asl mohiyati nima edi? Nima uchun Sovet hokimiyati tomonidan ag‘darib tashlandi?
7. Istiqlochlilar harakati, uning bosqichlari va harakatga keltiruvchi kuchlari haqida fikringizni bildiring?
8. Xiva xonligi va Buxoro amirligi agdarilgach bu hududlarda qanday tizim urnatildi?
9. Dastlabki davlarda shuralar istibdodi nimalarda o‘z ifodasini topdi?

Vazifalar:

1. “O‘zbekiston tarixi” davlat muzeyiga borish va mavzuga oid eksponatlar bilan tanishib chiqib, daftarda fikrlar bildirish.
2. “Bosmachilik” iborasi: uydirma va haqiqat masalasida ma’lumotlar to‘plab, o‘z fikrini daftarda bayon etish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. “Turkiston Muhtoriyati” mavzusida ma’ruza tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar. 4-jild. -T., "O'zbekiston". 1996.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. --T., "O'zbekiston" 2015
3. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T., "Fan", 1991.
4. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati. -T., "Fan".
5. Ibrohim Karim. Madaminbek. -T., "Yozuvchi", 1993.
6. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. -T., "Cho'lpon", 1994.
7. Xo'jayev Fayzulla. Tanlangan asarlar. 1-jild.
8. Inqilob jangchilari. -T., "O'zbekiston", 1990, O'zbekim. 1992.
9. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.
10. H.Ziyayev. Turkistonning Rossiya va tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi.-T.,1998;
11. X.Majidiy. Turkiston bosqini. -T.,1992;
12. A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. -T., 2000.
13. Sh.G'afarov. Tarix va taq-dir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. -Toshkent: Fan, 2006.
14. Soliqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vositalarimiz. -T., 1992. 20-30 betlar.
15. Karimov Sh. Qafasdagi qush orzusi. -T., "Fan" 1990. 30-39 betlar.
16. Z.Choriev. Turkiston mar-dikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari. -Toshkent:Sharq, 1999.
17. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q.O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T.,:Sharq, 2000.
18. O.Suyunova. Chor Rossiyasining mustamlaka Turkistonda olib borgan agrar siyosati. -Toshkent, 2006
19. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T., Sharq . 2000
20. Nabiyeu A. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi -T., "Yozuvchi" 1998.
21. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

11-mavzu. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSIY, IQTISODIY, IJTIMOY TADBIRLARI VA ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

Darsning o'quv maqsadi: Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va o'rnatilgan mustamlakachilik tuzumining salbiy oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar berish va markazning olib borgna siyosatiga holisona baho bera olish ko'nikmasini rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Bolsheviklar, totalitar, ma'muriy buyruqbozlik tuzumi, sho'ro hokimiyati, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet

Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, yer-suv islohoti, kooperatsiya, milliy-davlat chegaralanishi, Fayzulla Xo‘jayev, sanoatlashtirish, agrar siyosat, rus aholisini ko‘chirish siyosati, temir yo‘llari, paxta yakkahokimligi, quloqlashtirish, katta Farg‘ona kanali, bo‘z yerlarni o‘zlashtirish.

Reja:

1. 20-yillar oxirida sobiq sho‘rolar mamlakatida totalitar, ma‘muriy buyruqbozlik tuzumning qaror topishi.
2. Industrlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning salbiy oqibatlari.
3. O‘zbekiston iqtisodiy va ma‘naviy hayotining 50-80-yillarda chuqur turg‘unlik holatiga duchor bo‘lishi va uning asoratlari.
4. Qo‘mfirqa va sho‘ro hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan umumiy qatag‘onlik siyosati va uning ijtimoiy-ma‘naviy hayotga ta‘siri.

Asosiy qism

Ma‘lumki, 1924-1925 yillarda markaz tomonidan milliy-davlat chegaralanishi o‘tkazilib, O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan milliy respublikalar-Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (1918-1924), Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924) tugatilib, mahalliy aholining azaliy tarixiy an‘analari va hohish irodasiga zid ravishda milliy-hududiy davlat chegaralanishi o‘tkazilgan edi. Mohiyatan bu tadbir “bo‘lib tashla va hukmronlik qil!” siyosatining amaldagi davomi bo‘lib, turkiy xalqlarning tarixiy birligiga raxna solish uchun amalga oshirilgan edi. Mahalliy rahbar xodimlarning “turkiy xalqlar azaldan bir butundir, ularning bir biridan ajratish tarixiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq emas” deya Markazda qilgan tashabbuslari esa inobatga olinmadi.

Milliy-davlat chegaralanishi natijasida O‘zbekiston Sovet Respublikasi (O‘zSSR 1925-1991) va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikasi (TSSR 1925-1991) tashkil etilib, Tojikiston avval 1925-1929 yillarda O‘zSSR tarkibida ASSR (1925-1929), keyinchalik 1929 yildan Sovet Sotsialistik Respublikaga aylantirildi. Qozog‘iston 1920-1936 yillarda RSFSR tarkibida ASSR, 1936 yildan Sovet Sotsialistik Respublikaga aylantirildi. Qirg‘iziston esa 1926-1936 yillarda Qozog‘iston tarkibida Avtonom Okrug (AO), 1936 yildan esa Sovet Sotsialistik Respublikasi deb yuritila boshlandi. Qoraqalpoq xalqining statusi 1925-1930 yillarda Qoz ASSR tarkibida Avtonom Okrug (AO), 1930-1936 yillarda RSFSR tarkibida ASSR va 1936 yildan O‘zSSR tarkibida ASSR qilib belgilandi.

Ma‘lumki, rasman 1922 yil 30 dekabrda RSFSR, Ukraina va Belorussiya Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tarzida tashkil etilgan SSSR (1922-1991)-Sovetlar shaklidagi, ishchi va dehqon deputatlari sovetlarining ishchi va dehqonlar hokimiyatini o‘zida mujassamlashtiruvchi yagona davlat tizimidan iborat edi. Ittifoq davlatining Oliy organi SSSR Oliy Soveti bo‘lib, u asosan “qonun chiqaruvchi” hokimt hisoblangan. Aslida esa mustabid tuzumning butun “hayoti” tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat oliy organi bo‘lgan Oliy Sovet faoliyatining barcha bosqichlarini kompartiya (qo‘mfirqa) boshqarib kelgan. Kompartiyaning rasmiy nomi bir necha marta o‘zgartirilib turlicha nomda yuritilgan. 1898-1917 yillarda RSDRP, 1918-1925 yillarda RKP (b), 1925-1952 yillarda VKP (b), 1952-1991 yillarda esa KPSS. Barcha qonun va qarorlar partiya organlari tomonidan tayyorlanar, yoki ularning ko‘rsatmasi bilan yozilar, Oliy Sovet sessiyalarida esa ular nomigagina tasdiqlanar

edi. Shuning uchun ham Oliy Sovet sessiyalarida deputatlarning mudrab yoki uxlab o'tirishlari odatiy holga aylangan.

O'zbekiston SSR tashkil etilganidan so'ng respublika davlat boshqaruvi organlari ittifoq organlari tarkibida va ular andozasida tuzildi. Bu ittifoqdosh respublikalarni Markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga takomillashgan mustahkam shakli edi.

1927 yil martda O'zSSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya matnidagi O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi teng huquqli Ittifoq a'zosi sifatida SSSR tarkibidan chiqishi mumkinligi to'g'risidagi qoida shunchaki bir deklaratsiyadan boshqa narsa emas edi.

Davlat ishlarini yuritishda borgan sari rus tili ustun bo'la boshladi. Milliy tillar unutilish darajasigacha bordi. Respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayoti 20-yillarning oxiri va 30-yillarda sovet-kommunistik tartibotning mustahkamlanishi va 1953 yilga qadar hokimiyatda turgan Stalin shaxsiga sig'inishning kuchayib borishi sharoitlarida o'tdi. Markaz va joylarda kompartiya byurokratlar apparati tobora kuchayib bordi.

Respublikaning butun ijtimoiy siyosiy hayoti kompartiyaning qattiq nazorati ostida o'tardi. Bu juda murakkab va qiyin davr bo'ldi. 1929 yili o'tkazilgan tozalash natijasida partiya a'zolarining 15,6 % uning saflaridan chiqarildi. Achinarlisi bularning bari asosan ayibsiz, o'z xalqining taqdirini o'qayg'urgan odamlar edi...

Korxona va xo'jaliklarda partkomlar, sex yacheykalari, guruhlar, boshlang'ich partiya tashkilotlarining tuzilishi, sovet organlari, kasaba uyushmasi, komsomol va boshqa jamoat tashkilotlari ustidan partiya rahbarlik rolining kuchayishi respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotini mafkuralashtirishning chuqurlashishiga olib keldi.

O'rta Osiyo respublikalarining xalq xo'jaligi va madaniyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 1926 yildayoq O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi-SredazEKOSO tuzildi. 20-yillarda respublikalararo boshqaruv organlari: O'rta Osiyo suv xo'jaligi boshqarmasi (Sredazvodhoz), O'rta Osiyo Davlat Plan qo'mitasi (Sredazgosplan), O'rta Osiyo Xalq xo'jaligi Oliy Kengashi hamda Ittifoq xalq komissarliklarining filiallari tashkil etildi. Shu bilan Markaz ittifoqdosh respublikalarning barcha moddiy va ma'naviy-intellektual resurslari va ularni boshqarishni o'z iskanjasiga olgan edi.

20-yillarning o'rtalariga kelib Sovet davlatida xalq xo'jaligini tiklash asosan tugallandi. Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish iqtisodiyotning aksariyat sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. O'zbekiston sanoatida ham muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi.

Tiklash davrining muvaffaqiyatli tugallanishi kun tartibiga sanoat qurilishi ko'lamini jiddiy ravishda kengaytirishdan iborat yangi vazifani qo'ydi. Chunki SSSR ko'proq agrar mamlakat bo'lib kelayotgan edi. 1925 yil dekabrda VKP(b) XIV syezdi "sotsialistik industrilashtirish" yilini avj oldirishni e'lon qildi.

Oldin qabul qilingan besh yillik reja va uning bir qator topshiriqlari eskirib qolgan deb e'lon qilindi. "Industrial o'sish"ning yangi dasturi asossiz ravishda ko'paytirish tomonga qayta ko'rib chiqildi. 1930 yilning yozida VKP(b) XVI syezdida Stalin qat'iy qilib, bir qator yetakchi tarmoqlar bo'yicha besh yillik reja

2,5-3 yilda bajariladi, dedi. Stalincha subyektiv jadallashtirish usuli butun sovet mamlakatida, shu jumladan, O'zbekistonda bosh usul bo'lib qoldi. Shu bilan birga uning salbiy ko'rinishlari o'lkaning o'ziga xos iqtisodiy ahvoli tufayli yanada ortdi, eng asosiysi-SSSRning xalq xo'jaligi majmuida O'zbekistonning roli va o'rni Ittifoq hukumati tomonidan majburan belgilab berildi. Darvoqe, O'zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur'atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki respublika iqtisodiyoti 20-30- yillar chegarasida ham agrar xususiyatiga egaligicha qolayotgan edi. 1927-28 xalq xo'jaligi yilida qishloq xo'jaligining hissasi 62,61% ni, sanoatniki 38,4% ni tashkil qilardi. Respublikamizda mavjud sanoat ishlab chiqarishining 90% qishloq xijalik xom ashyosini ishlashga ixtisoslashtirilgan edi. Og'ir industriya esa endigina rivojlana boshlangan edi.

20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida sanoatlashtirishning jadal sur'atlariga o'tishning tub mohiyati texnikaviy qoloq sovet mamlakatining bor imkoniyatlarini to'g'ri hisobga olmagan holda, zo'ravonlik yo'li bilan tez orada zamonaviy sanoatni barpo etishdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston xalqi o'z kuch quvvati, idroki va mahoratini ona diyor uchun safarbar qilib, qisqa muddatlarda hashamatli sanoat binolarini, irrigatsiya inshootlarini, yangi-yangi yerlarni o'zlashtirar, bog'-rog'lar bunyod etardi. Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi (1931), Quvasoy sement va ohak zavodi (1932), Chirchiq elektrokimyo kombinati (1937), Toshkent to'qimachilik kombinati shular jumlasidandir. Respublika neft sanoatida ochilgan konlar soni 11 taga yetdi. Ohangaron, Shorg'un, Boysuntog' toshko'mir konlari ishga tushirildi. Elektr stansiyalari quvvati 482 mln. kilovattga yetdi. 30-yillarda Chirchiq-Bo'zsuv GESlari kaskadi barpo etildi.

Birinchi besh yillik davrida (1927-1932) O'zbekistonda 289 ta sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxona qayta tashkil etildi, sanoat ishlab chiqarish fondlari 3 baravar, neft qazib chiqarish 2,5 baravar, metall ishlash sanoati maxsulotlari 6 baravar, sement ishlab chiqarish 3,5 baravar ortdi.

To'g'ri, industrilashtirishni sun'iy jadallashtirish oshkora ma'muriy tazyiq o'tkazish, haybarakallachilik bilan ta'minlanar edi, bu esa sanoat qurilishi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Korxonalarning aksariyat qismi texnologik jihatdan eskirgan asbob-uskunalar bilan jihozlanardi.

Urushdan oldingi besh yilliklarda (undan keyingi yillarda ham) O'zbekistonda barpo etilgan sanoat qayd qilinganda, tashkil etilgan korxonalarning hammasi ham uning o'ziga tegishli emasligini, ulardan ko'plari, eng avvalo, eng muhimlari va ittifoq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lganlari Markaz tasarrufiga olinganligini nazarda tutishimiz lozim. Agar 1928 yilda O'zbekistondagi mavjud korxonalarning 81,7%i ittifoqqa tegishli, 14,5%i respublika va 3,8%i mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib ittifoq tasarrufida bo'lgan korxonalar 90%ni tashkil qilgan edi.

Qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda o'zgartirish istiqbollariga yondashish jarayonida kommunistik mafkurachilar yirik agrar jamoa korxonasi yakka dehqon xo'jaligidan yaxshiroq, degan fikrga qat'iy asoslanib ish ko'rdilar. Chunki yerdan foydalanishning jamoa tizimi markazlashgan rejalashtirishni va ko'p millionli qishloq mehnatkashlarini boshqarishni osonlashtirar, qishloqdagi kengqamrovli

ijtimoiy-siyosiy ishlarni butun mamlakat miqyosida tezroq amalga oshirish imkonini berar edi.

Stalinning 1929 yil 7 noyabrda bosilib chiqqan “Buyuk burilish yili” degan maqolasida jadal jamoalashtirish “nazariy” jihatdan asoslab berildi. Unda, keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb aytilgan edi. 1929 yil 27 dekabrda Stalin “yoppasiga jamoalashtirish asosida quloqlarni sinf sifatida tugatish” shiorini e’lon qildi. Yuqoridan ko’rsatmaga monand ravishda 1930 yil 17 fevralda O’zbekiston kompartiyasi MK “Kollektivlashtirish va quloq xo’jaliklarini tugatish to’g’risida” qaror qabul qildi. Hokimiyat organlari “dohiy”ning ko’rsatmasini bajarish uchun jadal jamoalashtirishning boshida turib asosan zo’ravonlik usullariga e’tiborni kuchaytirdilar. Qishloqdagi an’anaviy iqtisodiy munosabatlarni yoppasiga buzish avj oldirildi. Davlat qishloq mehnatkashlariga qancha va nima ekishni, yetishtiriladigan maxsulotni qanday narx bilan topshirishni aytib turadigan bo’ldi. Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg’inlar uyushtirildi, qishloq ahlini zo’rlilik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi. Qarshilik ko’rsatganlar ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar “quloq qilindi”.

Jamoalashtirishning “jadal sur’atlari” natijasida respublika biyicha 1930 yil martda dehqon xo’jaliklarining 47% jamoalashtirildi. Jamoalashtirishni jadallashtirish amalda o’ziga to’g’roq xo’jaliklarni tugatish, ya’ni xo’jalik mulklari va imoratlarni musodara qilishga aylanib qoldi. Bunday xo’jaliklarning tugatilishi dehqonlarda ishonchsizlik va havotirni uyg’otdi. Ko’pgina odamlar o’z xo’jaliklarini qarovsiz tashlab qochdilar, chorvalarini so’yidilar va sotib yubordilar. Mollarning ko’plab sotilishi jiddiy muammo bilib qoldi. Qoramollar soni respublika bo’yicha 1930 yili 60 mingdan ziyodga kamaydi. Yuqoridan qilingan qattiq tazyiq shunga olib keldi.

Jadal jamoalashtirish va quloq xo’jaliklarini tugatish, o’rta hol dehqonlarga zo’rlilik qilish respublikadagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Dehqonlarning noroziligi kuchayib, ayrim tumanlarda ommaviy norozilik namoyishlari boshlandi. Jamoalashtirishga qarshi chiqishlar bir qancha hollarda sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy chiqishlarga aylanib ketdi. Jumladan, Farg’onada kolxozlarga qarshi qarshi namoyishlar anashunday hususiyat kasb etgan edi.

Kolxozlashtirishga qarshi chiqishi mumkin deb hisoblangan tadbirkor xo’jaliklarni, ruhoniylarni “uchlik”, ya’ni partiya, sovet, ichki ishlar organlari rahbarlaridan iborat komissiya qarori bilan “quloq” qilinib ko’chirib yuborganlar. Majburan ko’chirilganlarning ahvoli nihoyatda og’ir kechdi, ularning ko’pchiligi yo’lda nobud bo’ldi. “Quloq” qilinganlarning bir qismi Ukraina, Sibir va Qozog’istonning odam yashamaydigan cho’llariga, o’rmonlariga surgun qilindi, yana bir qismi respublikaning boshqa joylariga zo’rlilik bilan ko’chirildi.

Shuni ham aytib o’tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (F.Xijayev, A.Ikromov) volyuntaristik usullarga qarshi turushga intildilar, raqamlar va jamoalashtirish muddatlariga tuzatish kiritishni taklif qildilar. Biroq ularning takliflariga umuman e’tibor berilmadi.

O’zbekiston qishloq xo’jaligini jamoalashtirish rasman 1932 yili poyoniga yetkazildi. Shu vaqtga kelib respublikadagi dehqon xo’jaliklarining 75% iga yaqini umumiyashtirilgan sektorga birlashtirildi. 1939 yilga kelib respublikadaga yakka

xo‘jaliklarga butkul barham berildi. Jamoalashtirish qishloq xo‘jaligini ma‘muriy buyruqbozlik tizimi bilan boshqirishni mustahkamladi, dehqonlarni mustabid davlat asoratiga tushishiga yo‘l ochdi.

1945 yil mayda fashizmga qarshi urush g‘alaba bilan tugallandi. O‘zbek xalqi urush yillari front ehtiyojlarini ta‘minlashga moslashtirilgan xalq xo‘jaligini qayta qurish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Urush tugadi lekin urushning og‘ir oqibatlarini respublika hayotining hamma sohalarida, shuningdek, sanoatda ham sezilib turar edi. O‘zbekiston sanoatini tiklash, aholini oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta‘minlash uchun yoqilg‘i, elektr energiyasi, xom ashyoga, shuningdek, malakali ishchi va muxandis xodimlarga tanqislik sezilardi. Bu murakkab vazifalarni hal etish uchun O‘zbekistonning geografik holati, milliy an‘analari, xalq manfaatini hisobga olib turib, uning xalq xo‘jaligini rivojlantirishning aniq dasturlarini ishlab chiqish zarur edi. Biroq bunday bo‘lmadi. Asosan Markazning ehtiyojidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish rejalari tuzildi.

Urushdan keyingi yillar ham davlat faoliyati partiyaning totalitar hukmronligi bilan belgilandi. U yo‘l-yo‘riq va farmoyish beradigan zo‘ravonlik siyosatini o‘tkazdi. O‘zbekiston oliy tashkilotlarining yuqoridan berilgan dastur va rejalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi fikr mulohazalari bilan Markaz hisoblashmasdi.. Markazning ulkan rejalarida O‘zbekistonga faqat xom ashyo yetkazib beruvchi bir qo‘shimcha manba deb qaraldi. Xuddi shu narsa O‘zbekiston iqtisodiyotining aslida bir tomonlama rivojlanib borishiga olib keldi.

Xalq xo‘jaligi va sanoatni tiklash dasturida birinchi galda paxtachilikka tegishli industrial ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalari olg‘a surildi. Sanoat qurilishida rivojlangan mamlakatlarda keng tadbqiq etiladigan yangi texnologiyalar, fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni ko‘zda tutmas edi.

Eng kuchli nomutanosiblik hollari yengil sanoatda sodir bo‘ldi. Yengil sanoat ishlab chiqarish rejalari bajarilmas edi. Bu soha amalda rivojlanmay, turg‘un bo‘lib qoldi. Rejalarga muvofiq bu sohaga ajratilgan sarmoya keyinchalik qaytarib olindi. Asbob-uskunalar yillar mobaynida yangilanmas, yangi texnologiyalar haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. Bunday munosabat mahalliy korxonalarda iste‘mol mollari ishlab chiqarishni tobora kamaytirib, ularning chetdan keltirilishini oshirdi. Respublika aholisining bunday mollarga ehtiyoji yetarli darajada ta‘minlanmadi.

Sanoatni rivojlantirishdagi ichki ziddiyatlarga qaramay, ishchilarning fidokorona mehnati tufayli urushdan keyingi har besh yillikda 100 taga yaqin sanoat korxonalari ishga tushirildi. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarish 1970 yili 1940 yildagiga qaraganda 8,5 baravar ko‘paydi.

Ushbu yillarda O‘zbekiston Respublikasida ko‘p sohali mashinasozlik industriyasi, kimyo, neft, toshko‘mir, gaz, tog‘-kon va energetika sanoati yanada rivojlandi. Mashinasozlik va metall ishlash O‘zbekiston sanoatining yirik sohasi bo‘lib, xalq xo‘jaligini texnik jihatdan qayta qurollantirishda muhim rol o‘ynadi. 1970 yilga kelib 100 ga yaqin mashinasozlik va metall ishlovchi korxonalar faoliyat ko‘rsatardi. Respublika mashinasozlik zavodlarining aksariyati paxtachilik bilan bog‘langan edi (Toshkent traktor zavodi, “Tashselmash”, “Chirchiqselmash”, “Qizil dvigatel”).

50-yillarda Buxoro viloyatining Gazli shahrida ulkan gaz-neft konining topilishi O'zbekistonda gaz sanoatining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga asos bo'ldi. Gazlining umumiy zahirasi 446 mlrd. kubometrغا teng edi. 1963 yilda Buxoro-O'rol, 1967 yilda eng uzun O'rta Osiyo-Markaz gaz quvuri ishga tushirildi. Bu ikkala quvurlar orqali Rossiyaga 1969 yilda 28 mlrd. kubometr tabiiy gaz olib ketildi. Achinarlisi shundaki, 80- yillar oxirigacha ham O'zbekistonning sanoqli shaharlarini hisobga olmaganda qolgan hududlari gazlashtirilmay qolgan edi.

50-60 yillarda respublikada oltin ishlab chiqarish sanoati ancha rivojlandi. Oltin ajratib oluvchi komplekslar, fabrikalar, oltin ruda kombinatlari, shuningdek, mis rudasini qayta ishlovchi kombinatlar ishga tushirildi.

O'ta markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik, yakkahokimlik tizimi hukmronlik qilgan 70-yillarda ham Ittifoq markazida belgilangan reja va qarorlarda O'zbekiston manfaatlari hisobga olinmadi. Sanoatning rivojlanish sur'atlari pasayib ketdi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmida yengil sanoat ulushi 1970 yilgi 40,7 % dan 1986 yilda 38,4 % ga, oziq-ovqat sanoati ulushi 14,6 % dan 13,5 % ga tushib ketdi. Respublikadagi sanoat korxonalarining asosiy qismi tashib ketishga yo'naltirilgan maxsulotlarni ishlab chiqarishga moslashtirildi.

1976-1980 yillarda respublikada jami 23 ta yengil sanoat korxonasi qurildi. Biroq ularni joylashtirish puxta rejalashtirilmasdan amaga oshirildi. Masalan, 80-yillar boshida bu tarmoq maxsuloti hajmining 60 % ini ishlab chiqarish Toshkent va Samarqand shaharlariga, 27 % i Andijon, Buxoro, Namangan, Qo'qon shaharlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, Jizzax va Termiz shaharlarida birorta ham tikuvchilik korxonasi yo'q edi.

Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kutilgan natija bermadi. Mehnat unumdorligining o'sishi 1976-1980 yillarda 2,2 % dan oshmadi, 1981-1985 yillarda esa, 1,3 % ga tushib ketdi.

Buyruq bilan zo'ravonlik o'lish, irodani bo'g'ib qo'yish sharoitlarida industriyadagi jamoat mulki amalda egasiz qoldi. Ishchilar ishlab chiqarish vositalaridan begonalashtirildi. Bu misli ko'rilmagan xo'jasizlikka, mehnat va ijtimoiy hayotdagi faollikning pasayib ketishiga olib keldi.

Respublika aholisi madaniyatining o'sishida ta'lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo'lib qo'shilishiga yordam beradi. Iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebal, asbob uskunalar bilan yaxshi ta'minlanmas edi. Buning sababi xalq ta'limiga qoldiq prinsipi asosida mablag' ajratilishida ko'rinar edi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga sarf-xarajatlar byudjet mablag'ining atigi 2,7 % ini tashkil etardi.

Sovet hukumatining madaniy siyosati milliy madaniyatni cheklashga yo'naltirilgan edi. Millatning mavjudligi uning milliy madaniyatida ekanligi ma'lum. Milliylikning yo'qolib borishi jamiyat a'zolaridan ko'pchiligida madaniyatga befarqlik, e'tiborsizlik kabi illatlarni yuzaga keltira boshladi. Bu juda katta yo'qotish edi.

Milliy til ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan siqib chiqarila boshlandi. Idoralar, hokimiyat muassasalarida ish yuritish rus tilida olib borildi, majlislar ham shu tilda o'tkazildi. O'zbek tilida so'zlashuvchi aholi (71,4 %) respublikamizdagi vazirlik va idoralarga ona tilida xatlar, arizalar, shikoyatlar bilan murojaat qila olmas edi. Ta'lim muassasalarida ona tili chuqur o'rgatilmadi. Respublikadagi ilmiy adabiyotlarning 80 % idan ko'prog'i rus tilida chop etildi.

Din-e'tiqod erkinligiga bo'lgan munosabatda qo'pol xato-kamchilik va nohaqliklarga yil qo'yildi. Xalqimizning ming yillik islom an'anasi, marosimlari va qadriyatlari eskilik sarqiti sifatida qoralanib, "din-afyundir" shiorlari bilan sug'orilgan ateistik tarbiya avj oldirildi. Musulmonchilik bilan bog'liq muqaddas bayramlarimiz unitilish darajasigacha bordi. Xatto shunday vaziyatlar ham bo'lganki, mansabdor shaxslar amalidan ayrilishdan qo'rqib ota-onasining janaza-ma'rakalariga bormaslikkacha borib yetdilar.

O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham deyarli o'rgatilmadi. Ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim-tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik tamoyillari asosida yondoshish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarini o'rganishiga to'sqinlik qildi.

Ma'naviy madaniyatning barcha sohalari kabi adabiyot va san'at ham hukmron mafkura tazyiqiga uchradi. San'atni mafkuralashtirish, baynalmilallashtirishga urinish amalda ruslashtirishga olib keldi. Bu siyosat milliy madaniyat, san'atning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. San'atning barcha sohalarida milliy ruhga ega bo'lgan asarlar soni keskin kamaydi.

O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar 20-yillarning oxiridan ancha ziddiyatli xususiyat kasb etdi. Hukmron partiya jamiyat a'zolarini sun'iy ravishda "mehnatkashlar" va "mehnatkash bo'lmaganlar"ga ajratib, ular o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirdi. Bir tomondan, kommunistik rejim ko'r-ko'rona "mehnatkashlar ommasi"ning siyosiy faolligini "qo'zg'ash"ga, ularni partiya tuzilmalariga va jamoat tashkilotlariga keng jalb qilishga intilsa, ikkinchi tomondan, aholining "mehnatkash bo'lmagan" (mulkdorlar, dindorlar, amaldorlar va h.k.) qatlamlarini ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishni sovetcha qonun asosida cheklab qo'ydi. Shu bilan birga, ularga qarshi doimiy ish olib bordi. Bu kurash faqat "mehnatkash bo'lmagan" qatlamlarga emas, kommunistik rejimga qarshi chiqqan barcha kishilarga, o'zgacha fikr yuritadiganlarga, o'zbek xalqining va o'z respublikasining manfaatlarini himoya qilganlarga qarshi ham olib borildi. Mazkur murosasiz kurash 30-yillarning boshlarida kommunistik mafkuraning faqat oshkora va "yashirin" dushmanlariga emas, butun xalqqa qarshi ommaviy qatag'onlarga oylanib ketdi.

Mustabid tuzum boshqacha fikrlashga mutlaqo toqat qilolmasdi va unga qarshi qat'iy kurash olib bordi. Respublikaning vatanparvarlik kayfiyatidagi xodimlarini birlashtirgan "g'ayripartiyaviy" guruhlar ("18 lar guruhi", "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik") birin-ketin "fosh etildi" va badnom qilindi. 20-yillar oxiri-30-yillar boshlarida mustabid tuzumning jazolovchi qilichi mustabid

tuzum kirdikorlariga qarshi fikr bildirgan milliy ijodkor ziyolilarning ko'pgina vakillariga zarba berdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov, Mahmud Hodiev, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Ashurali Zohiriy, Elbek, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Otajon Xoshimov, Usmon Nosir va boshqalar qatag'onlarga uchradi. Faqat 1929 yil yanvardan 1933 yilgacha mustabid tuzum respublika milliy ziyolilarining 217 vakilini-yozuvchilar, jurnalistlar, o'qituvchilar va hokazolarni qatag'on qildi, ularning ko'plari otildi.

Qatag'on balosi faqat ziyolilargagina emas, shuningdek, dehqonlarni ham misli ko'rilmagan darajada o'z komiga tordi. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish davrida O'zbekistonda 40 mingdan ortiq jamoa xo'jaligi "quloq" qilinib, ulardan 31,7 mingi qatag'on qilingan edi.

Bolsheviklar tuzumining 30-yillar oxirida o'z xalqiga nisbatan qilgan qatag'onlari ayniqsa keng ko'lamda avj oldi. Bir tuman yoki qishloq miqyosida birorta rahbar "xalq dushmani"ga aylantirilgan bo'lsa, uning "dumi" sifatida yana 50-60 kishi o'z yurtidan badarg'a qilingan yoki qamalgan edi. Shuning uchun ham qatag'onlar respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotini larzaga keltirdi, kishilarda doimiy qo'rquv, ertangi kunga ishonchsizlik uyg'otdi. Ittifoqning jazo organlari va uning respublikadagi tuzilmalari hech bir aybsiz kishilar ustidan soxta "ishlar"ni to'qib chiqdilar, ommaviy hibsga olishlar uyushtirildi, minglab jamoat arboblari, yirik olimlar, adabiyot va san'at arboblari, xo'jalik kadrlari sudsiz-so'roqsiz qamoqqa tashlandilar. Kommunistik rejim shu yo'l bilan mamlakatdagi har bir millatning eng ilg'or ziyoli qismini, mustabid tuzum mohiyatini tushunib yetadigan qismini yo'qotishga harakat qildi. Ular avval o'z kabinetlarida o'tirib o'nlab soxta "aksilinqilobiy tashkilotlar"ni o'ylab topdilar va ularni "fosh etish"ga kirishdilar, go'yoki ular imperialistik davlatlarning agentlari bo'lgan emish. Jumladan, 1937-1938 yillarda markaziy hukumatning jazo organlari va uning respublikadagi "nazoratchilari" O'zbekistondagi yirik aksilinqilobiy tuzilmalarni "fosh etdilar" va "tugatdilar", bular: respublika rahbarlari Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi "Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi", Abdurauf Qoriev rahbarligidagi "Musulmon ruhoniylarining millatchi-isyonchilar tashkiloti", "Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi", S.Xo'janov boshchiligidagi "Aksilinqilobiy millatchi qozoqlar tashkiloti", respublika komsomoli MQ kotibi I.Ortiqov rahbarligidagi "Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti" va boshqalar. Endilikda ma'lum bo'lishicha, bularning hammasi tuzumning jazo organlari kabinetlarida ataylab to'qib chiqarilgan bo'lib, haqiqatda bunday "aksilinqilobiy tashkilotlar" respublikada mutloqo bo'lmagan ekan.

"Qizil terror" natijasida respublika bo'yicha yozuvchilar, jurnalistlar, davlat, jamoat arboblari va hokazolar ustidan 1936-1940 yillarda 5.758 kishi qamoqqa olingan, ulardan 4.811 kishi otib tashlangan. O'ylab chiqarilgan soxta ayblovlar bo'yicha O'zbekistonda 1937-1939 yillarda hammasi bo'lib 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan, ulardan 37 mingdan ortiq kishi jazolangan, 6 ming 920 kishi esa otib tashlangan.

40-yillar oxiri-50-yillar boshlarida mustabid tuzum "mafkura maydoni"da keng hujumni avj oldirib, o'zining asosiy zarbasini boshqacha fikrlovchi ijodkor va

ilmiy ziyolilarga, “KPSS tarixi”da yozilganidek, “burjua qarashlari va nuqtai nazarlari qoldiqlariga, reaksiyon burjua madaniyatiga tanqidiy baho bermaslikka qarshi, fan, adabiyot va san’atda marksizm-leninizmdan chekinishlarga qarshi” qaratildi. Ana shu davrda partiya adabiyot va san’at masalalari yuzasidan bir qator qarorlar qabul qilgan bo’lib, ularda mamlakat ijodkor ziyolilarining ko’pgina vakillari o’z asarlarida “G’oyasizlik”ni targ’ib qilganliklari, “adabiyot va san’atni siyosatdan ajratib qo’yishga uringanliklari”uchun, badiiy ijoddagi partiyaviylik prinsiplaridan uzoqlashganliklari uchun badnom etiladi.

Mustabid tuzumning birinchi zarbasi respublikamizning bir guruh yozuvchilari va shoirlariga qaratildi. Badnom qilish uchun asosiy bahona shu bo’ldiki, go’yo ular o’z asarlariga millatchilik g’oyalarini “olib kirgan” ekanlar. Yozuvchi va shoirlardan kimda-kim o’z ijodida o’z xalqining tarixi saxifalariga murojaat qilgan bo’lsa, uni darhol feodal o’tmishni “ideallashtirish” da ayiblashar, unga “millatchi” yorlig’i topshirilar va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlariga duchor qilinardi.

1949 yil 25 iyunda O’z KP(b) MQning byurosida O’zbekiston yozuvchilari ishi muhokama qilindi. Unda Abdulla Qahhor qattiq tanqid ostiga olindi, Mirkarim Osim “siyosiy jihatdan ishonchsiz...millatchilik xato fikrlardan xalos bo’lmagan” sifatida ta’riflandi. Oybek, Mirtemir, Tuyg’un, Sharipov, M.Boboyev, O’.Rashidov, Hamid G’ulom, A.Qayumov, M.Shayxzoda asarlaridagi “jiddiy xato va buzilishlar” ko’rsatib o’tildi.

O’z KP(b) MQning 1951 yil avgustdagi yig’ilishida yuqoridagi “ishlar” yanada qayta ko’rib chiqilib, qoralangan safiga ijodiy tashkilotlar va matbuot sahifalari hamda ularning mualliflari ham tortildilar.

40-yillar oxiri-50 yillar boshlari stalinizm davrida mustabid tuzum o’z xalqiga qarshi o’tkazgan ommaviy qatag’onlarning navbatdagi bosqichi bo’ldi. Bu qatag’onlar SSSRda 1930 yildan 1953 yilgacha 3.778.234 kishiga dahldor bildi. Ulardan 786.098 kishi otib tashlandi.

1937 yildan 1953 yilgacha respublikada NKVD “uchligi” tomonidan 100 ming kishi qamoqqa olindi va turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi, ulardan 15 ming nafari otib tashlandi.

Asossiz qatag’on qilinganlarni oqlash “xalqlar otasi” vafotidan keyin boshlandi. Natijada O’zbekiston bo’yicha qatag’on qilingan tiriklar va holok bo’lganlardan 40 mingga yaqini oqlandi. Lekin ularni oqlash ham kommunistik mafkura andozasi asosida amalga oshirildi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Sho’ro tuzumida ma’muriy- islohotning shakllanishiga, bu tuzumning dastlabki yillaridayok buzila boshlashiga nimalar sabab bo’ldi?
2. Shaxsga sig’inish oqibatlari nimalarga olib keldi?
3. Sobiq hukmron firqa va sho’ro hukumatining qatag’onlik siyosatini yurgizishdan maqsadi nima edi ?
4. Nima sababdan 20-yillar oxiridagi qatag’onlik aynan sobiq jadidlarga qaratildi?

5. 30 va 50 yillar qatag'onligi aynan tuman, viloyat va respublika rahbarlariga hamda shoir, yozuvchi va olimlarimizga qaratildi. Buning sababi nimada edi?

6. 20-30 va 50 yillardagi qatagonlik siyosatining og'ir oqibatlarini izohlab bering?

7. Sobiq ittifoq rahbariyatining 80 yillarda O'zbekistonda qatag'onlikning yangi ko'rinishlarini sodir etishdan maqsadi nima edi va u yurtimiz va xalqimizga qanday zahmatlar yetkazdi?

8. Yaqin qarindoshlaringiz orasida qatog'onlik siyosatidan zahmat chekganlar bormi? Ular haqida so'zlab bering?

9. Bu mudhish tariximizdan qanday saboq chiqara olasiz?

Vazifalar:

1. "O'zbekistonda sovet davrida o'tkazilgan quloqlashtirish siyosati" mavzusida ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Paxta yakkahokimligi syosatining sabablari va salbiy oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., "O'zbekiston", 1997.

2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriya-T., — T., "O'zbekiston" 2005.

3. Mahmudov M. Barhayot siymolar. (Qatag'on qurbonlari haqida lavhalar). -Toshken-T., "O'zbekiston", 1991.

4. Niyozova F. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning salbiy oqibatlari. O'zR FA "Fan". "O'zbekiston tarixi" jurnali. №4, 1999.

5. Tursunov I. O'zbekiston maorifchiligining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan. (1917-1939), -T., 1995.

6. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. (savollar va javoblar) -T., "O'zbekiston", 1991.

7. Xo'jamberdiyev Ye. O'zbeklar ishi. -T., "Yozuvchi", 1996.

8. H.Ziyayev. Turkistonning Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi. -T., 1998.

9. X.Majidiy. Turkiston bosqini. -T., 1992;

10. O'zbekistonning yangi tarixi. 3 jildlik. 1-jild. -T.,2000.

11. Sharofiddinov O. Cho'lpon. -T., 1991.

12. Hasanov M. Fayzula Xo'jayev. -T., "O'zbekiston", 1990.

13. Qo'shchanov M. Qodiriy erksizlik qurboni. -T., "Fan", 1962.

14. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T., "Sharq", 2000.

15. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.

16. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Milliy Universite-T., -T., 2005.

17. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Iqtisod moliya. -T., 2006.

18. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

12 - mavzu. SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI

Darsning o'quv maqsadi: Sovet hokimiyati davrida O'zbekiston aholisining ma'naviy-madaniy qaramligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirish va bu holatning salbiy oqibatlarini tushuntira olish malakasini rivojlantirish.

Tayanch iboralar: ma'naviy-ma'rifiy sohada ma'muriy buyruqbozlik, paxta yakkahokimligi, madaniy inqilob, "hujum" harakati, "savodsizlikni tugatish", eski va yangi alifbo, O'zbekiston Fan Komiteti, maorif, Milliy universitet, SSSR FA O'zbekiston filiali, ma'muriyatchilik, miliy huquqlarning cheklanishi, Sharof Rashidov.

Reja:

1. Respublikada sanoat taraqqiyoti va uning kamchiliklari, sanoatlashtirish, milliy manfaatlarning kamsitilishi, yangi shaharlar, rejalashtirish, yutuqlar va nuqsonlar, oqibatlari.

2. Sovet davlatining O'zbekistondagi agrar siyosati. Paxta yakkahokimligining shakllanishi. Yer-suv islohotlari, agrar siyosat, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, quloqlashtirish, paxta yakkahokimligi, ekologik mutanosiblikning buzilishi, Orol fojiasi, oqibatlari.

3. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning ma'naviy qaramligi va uning oqibatlari, madaniy inqilob, «Hujum» harakati, ziyolilarni qatag'on qilish, ma'naviy-ma'rifiy sohada ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi, adabiyot va san'atdagi cheklashlar, oqibatlari.

Asosiy qism

Kommunistik firqa va sho'rolar hukumati 1925 yildan boshlab butun mamlakatdagi kabi O'zbekistonda ham bolshevoylar dohiysi V.I.Lenin ishlab chiqqan va amalga oshirishi" mumkin bo'lmagan reja asosida sotsializm qurilishini boshlab yubordi. Albatta bu ish sho'rolar ittifoqi qo'mfirqasining har tomonlama qo'g'irchog'iga aylanib qolgan O'zbekiston firqa tashkilotining bevosita rahbarligida amalga oshirila boshladi.

o'z davrda yer yuzidagi yashayotgan xalqlarning talaygina qismini siyosiy qarashlarida ancha chalkashliklarni vujudga keltirgan va shu bois keyinchalik juda qimmatga tushgan. V.I.Leninning bu mash'um rejasi 20 yillarning boshlarida yaratilgan edi. (V.I.Lenin tomonidan 1922-23 yillarda yozilgan bir qancha maqola va xatlarda)

V.I.Lenin ishlab chiqqan sotsializm qurish rejasining o'zagini ya'ni, asosini mamlakatni sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va «madaniy inqilob»ni amalga oshirish masalalari tashkil etar edi.

Bolsheviklar dohiysi sho'rolar Rossiyani sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishni vazifa qilib qo'yar ekan, har qanday mustaqil davlatning

yashashining asosiy sharti zamonaviy rivojlangan sanoatiga, og'ir industriyasiga ega bo'lishiga bevosita bog'liq ekanini yaxshi tushunar edi.

V.I.Leninning sotsializm qurish rejasi sobiq ittifoq miqyosida yagona umumiy reja bo'lishga harakat, mamlakatning turli yerlarida amalga oshirilgan.

O'zbekiston kabi mustamlaka mamlakatlarida bu siyosat alohida maqsadlarda amalga oshirildi

O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati jarayonida sho'rolar hukumati va qo'mfirqaning mustamlakachilik siyosatining mazmun va mohiyati yanada ko'zga tashlandi. Sanoatlashtirish davrida O'zbekistonda qurilgan zavod va fabrikalarni qurishda O'zbekistonni, Respublika xalqini shu sanoat korxonalariga extiyoji hisobga olinmasdan faqat markazni ehtiyojigina hisobga olindi.

O'zbekiston sanoat ishlab chiqarish taraqqiyotining 1925-1940 yillardagi ahvolini ko'rib chiqadigan bo'lsak, shu yillar ichida Respublikada yirik sanoat mahsulotlarini o'zi ishlab chiqariladigan bironta yirik sanoat korxonasi qurilmaganini ko'ramiz. Chunki sho'rolar hukumatining mustamlakachilik manfaatlarini aynan ana shunday sanoat korxonalarini qurishni taqazo etmas edi.

Sho'rolar hukumati O'zbekistonda sanoatlashtirish sohasida o'zi amalga oshirgan siyosatida dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarning o'zlari bosib olgan mamlakatlarda sanoatning tez foyda beradigan va eng avvalo mustamlakachilikka tahdid solmaydigan sohalarini yaratishga qaratilgan yo'lini e'tiborda tutdi.

Sho'rolar hukumati O'zbekiston kabi milliy Respublikalarda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini niqoblash maqsadida «SSSR yagona xo'jalik kompleksi» g'oyasini ilgari surdi. Unga asosan xalq qishloq ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish bahonasida asosan og'ir sanoat tarmoqlarini Rossiya, Belorussiya va Ukrainada qurib, O'zbekistonda esa asosan paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan hamda aholining yashashi va turmush kechirish bilan bog'liq bo'lgan yengil sanoat korxonalarini qurdi. Bunday korxonalarining ko'pchiligi 1925-1940 yillarda qurilib ishga tushirildi. Bular jumlasiga Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro to'qimachilik fabrikalari Chust va Buxoro paxta tozalash zavodlari, Bo'zsuv BSP, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termez, Asaka issiqlik elektrostansiyalari, Chirchiq ximiya kombinati, Toshkent Qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Farg'ona konserva, Xilko sement zavodlari, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro ipak yigiruv fabrikalari va boshqa korxonalar kiradi. Umuman Respublikamizda «Birinci besh yillikda 192 ta» «Ikkinchi besh yillikda 189 ta», «uchinchi besh yillikning dastlabki yillarida 134 ta sanoat korxonalarining qurilganligi hamda sho'rolar davrida yozilgan tarixiy kitob hujjatlarda, tuzilgan statistik ma'lumotlarda ko'rsatilgan. Lekin, bu korxonalarining birontasi ham aynan respublikamiz manfaatlaridan kelib chiqib qurilmaganligiga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati natijasida ishchilar sinfi ham son jihatidan ko'paydi. 1940 yilda respublikadagi ishchilar 142 ming kishini tashkil etardi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda dastlabki besh yilliklar davomida, ishchilar sonining karib 8 barovar o'sganligidan dalolat berardi.

Biroq, shu yerda bir achchiq haqiqatni aytib o'tish o'rinli bo'ladi. Gap shundaki sho'rolar yuritgan ulug' davlatchilik va davlatchilik siyosati tufayli

respublika aholisi ichida o'ziga xos mehnat taqsimoti paydo bo'lgan edi. Bunga ko'ra mahalliy tub yerli xalq asosan qishloqlarda yashab dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Ularning shaharlarda yashaydiganlari ham yuqori ilm, malaka, talab qilmaydigan sohalarida ishlar edilar. Sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridan respublikamizga kelgan Yevropa millatiga mansub aholi vakillari esa asosan shaharlarda yashab, boshqaruv, rahbarlik idoralari hamda zamonaviy bilim talab qiladigan sanoat korxonalarida mehnat qilar edilar. Jumladan, Mustafu Chuqay o'zining «Turkiston sho'rolar hokimiyati davrida» maqolasida 1927 yilda Yevropa millatiga mansub bosmaxona ishchilari 2.028 kishini tashkil etgan holda, yerli turkistonliklar 389 kishi bo'lgan, metall sanoatida yevropaliklar 3627 kishi, yerli aholi 819 kishidan iborat bo'lganini, Turkiston xalqdan bironta mashinist bironta temir yo'l boshlig'i bo'lmaganini zo'r iztirob achinish bilan yozadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak shuni ta'kidlash zarurki, 20-30 yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish siyosatining bosh maqsadi Respublikani kelajakda mustaqil taraqqiyoti uchun imkon bermasdan, uni abadiy-abad Rossiya xo'jalik mexanizmiga, uni iqtisodiga qaram qilib qo'yish edi.

V.I.Lenin ilgari surgan sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismlaridan biri jamoalashtirish edi. Bugunga kelib bu siyosat va tajribaning hayot sinovidan ijobiy o'ta olmay inqirozga uchragani barchaga ma'lum.

Jamoalashtirish siyosatiga ko'ra yakka dehqon xo'jaliklari majburan kolxozlarga birlashtirilyapti. Vujudga kelgan bu sharoitda kishilarning ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash o'zaro tenglik asosida amalga oshirildi, moddiy manfaatdorlikka putur yetdi. G'ayri qonuniy zo'ravonlik yo'li bilan o'tkazilgan bu siyosat tufayli odamlarning «dehqonlarning» ko'pchiligida mehnatga, ishga bo'lgan intizomini, munosabatini salbiy tomonga o'zgartirdi. Tabiiy, qishloqda mehnat qilayotgan dehqon o'z mehnatidan manfaatdor bo'lmas ekan qishloq ishlab chiqarishida ijobiy siljish bo'lmaydi.

Bu haqiqatni hurmatli yurtboshimiz I.Karimov o'zining asarlarida, xususan qishloq xo'jaligini isloh qilishga doir amallarida ko'p martalab ta'kidlaydi.

«...Eng muhimi, - deydi Prezidentimiz qishloqda xo'jalik yuritishni har bir dehqonga manfaatdorlik bilan erkin mehnat qilish, o'z mehnatini natijalarini mustaqil tasarruf yetish imkon beradigan vositani yaratishdan iborat». (I.Karimov, «O'zbekiston buyuk kelajak sari». Toshkent, «O'zbekiston» 1998, 228 6)

Sho'ro hukumatining jamoalashtirish siyosatini o'tkazishdan asosiy maqsadi o'lka xalqlarni ko'proq ishlatib katta foyda olish edi. O'lkada jamoatlashtirish siyosati va yer suv islohotini o'tkazishdan boshlab kirishildi. Yer-suv islohoti ikki bosqichda: 1920-1924 yillar (birinchi bosqich) va 1925-1929 yillar (ikkinchi bosqich) o'tkaziladi.

Yer-suv islohoti bir qancha maqsadlarni ko'zlab o'tkazilgan edi. Bulardan eng asosiysi o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus mujiklarini qo'lidagi serunum, katta hajmdagi yerlarni mahalliy dehqonlar yerlari bilan tenglashtirish edi. Albatta sho'ro hukumatining bundan ko'zlangan asosiy maqsadi mahalliy xalqni ko'zini bo'yash, o'zining ularning «tarafdori» qilib ko'rsatish edi. Sho'ro hukumati o'lka, yer - suv islohotini o'zining yer to'g'risidagi dekreti asosida o'tkazdi va bu islohot tufayli o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan qishloqda sinfiy tabaqalanishini ko'chaytirishga

erishdi. Natijada qishloq aholisi boy va kambag'allarga bo'linib o'zaro kelishmovchilikda yashadilar.

Bu kelishmovchiliklarni ham o'z maqsadi yo'lida foydalanmoqni maqsad qilib qo'ygan sho'ro hukumati 1921 yilda «qushchi» ittifoqini tuzdi, bu ittifoqqa asosan yersiz va kam yerli dehqonlar kirgan bo'lib, u hukumat tomonidan boshqarilar edi. «20 yil boshlarida ittifoqning 160 ming ortiq a'zosi bo'lgan». Ittifoq katta yer egalari bo'lmish boy va ruhoniylar yerlarini tortib olib, kambag'al dehqonlarga berar edi 1921-1922 yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv viloyatlarida, Turkman viloyatining Merv uyezdi 1772626 desyatina yer musodara qilindi. Shu yerlardan 117512 desyatini yersiz va kam yerli mahalliy dehqonlarga berildi.

Sho'ro hukumati yer-suv islohoti o'tkazishda yo'l qo'ygan xatolaridan yana biri shu bo'ldiki, islohot o'z yerida halol mehnat qilib shu orqali hayot kechirayotgan dehqon xo'jaliklarini ham o'z girdobiga tortib, ularni yer-suvi, otulovidan mahrum qildi. 1929 yilga kelganda ular barcha dehqonlarni 52 % ni tashkil kilardi. Ayniqsa, O'rta hol yer-suv islohoti tufayli og'ir ahvolga tushib qoldilar. Sho'rolar hukumati dastlab ularga yer berib keyinchalik ulardan yerlarni tortib olib, o'zlarini quloq qildi. Sho'ro hukumati o'lkada yer-suv islohoti ketidan jamoalashtirish siyosatini o'tkazishga kirishdi. O'zbekistonda ham jamoalashtirish 1929 yilning dekabrda bo'lib o'tgan VKP qurultoyidan keyin boshlangan bo'lsa, bu sohada ancha muncha ishlar 20 yillarning boshlaridanoq qilingan edi. Ayni shu yillarda Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida 8743 xo'jalikni birlashtirgan 275 ta jamoa qishloq tuzilgan edi. Shu yillarda ushbu viloyatlarda 74 davlat xo'jaliklari sovxozlar ham tashkil etilgan edi. Jamoa xo'jaliklarining soni keyingi yillarda ancha ortdi va yer-suv islohotining oxirlariga kelganda 552 taga yetdi. 1929 yildan boshlab jamoalashtirish siyosatini amalga oshirishda sun'iy tezlashtirish davri boshlandi. Bunga I. Stalinning o'sha 1929 yilning 7 noyabrda «Pravda» gazetasida bosilgan «Buyuk burilish yili» maqolasi sabab bo'ldi. Maqolada jamoalashtirish siyosatining mamlakatda muvofaqiyatli ravishda olib borilayotgani, qishloq mehnatkashlarining ommaviy ravishda, ya'ni qishloq- qishloq bo'lib jamoa xo'jaliklariga kirayotganliklari haqida gapirilib bu sohadagi mavjud kamchiliklar haqida hech narsa deyilmagan edi.

Jamoalashtirish siyosati O'zbekistonda bevosita markazning ko'rsatmalari asosida mahalliy xalqning urf-odati, uni turmush tarzi, eng asosiysi o'lkadagi mavjud shart-sharoitni hisobga olmagan holda, o'ta yuqori sur'atlarda o'tkazildi. Bunda O'zbekiston qo'mfirqasining Markaziy qo'mitasining 1930 yil 17 fevralida qabul qilgan «Jamoalashtirish va qoloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» gi qarori ma'lum darajada rol o'ynaydi. Chunki bu qarorda respublikada jamoalashtirishni 17 hududga bo'lib o'tkazish belgilanib, ularni muddatlari ham ko'rsatib qo'yilgan edi.

Yuqoridagi qarordan so'ng respublikada o'tkazilayotgan jamoalashtirish jarayonida o'ziga xos musobaqa kelib chiqdiki, bu tabiiy ravishda jamoalashgan xo'jaliklarining sonni tez sur'atlarda ortib borishga sabab bo'ldi.

Agar 1930 yilning 1 yanvarigacha dehqon xo'jaliklarining atigi 10 foizi jamoalashtirilgan bo'lsa, shu yilning 1 martiga kelib bu ko'rsatkich 44,85 ga yetdi.

O'zbekistonda jamoalashtirish asosan 1932 yilda tugatilgan bo'lib, bu davrga kelib dehqon xo'jaliklarining 75 foizi jamoalashtirilgan bo'lsa, bu kompaniya respublikada keyingi yillarda ham davom etdi. U 1937 yilda 95 foizni 1939 yilda esa 99,5 foizni tashkil etdi.

Ajablanarli tomoni shundaki respublikada quloq qilinganlarning, surgun qilinganlarning ko'pchiligi qishloqda asrlar davomida yashab, o'z yerlariga, yerni ishlashga imkon beradigan qurol aslahasiga, eng asosiysi dehqonchilik qilish, boshqacha qilib aytganda yer bilan munosabatda bo'lish tajribasiga ega bo'lgan O'rta hol dehqonlar edi. Xatto quloq qilinganlar ichida jamoa xo'jaliklarga kirishni istamagan kambag'al dehqonlar ham bor edi.

Jamoalashtirish siyosatining yana bir kamchiligi shundan iborat bo'ldiki, hali uning Nizomida mulkni umumlashtirish tabiati, jamoa xo'jaliklarning bo'linmas fondlari kabi masalalar o'z yechimini topmagan edi. Buning natijasida Uy-joy binolari uyoqda tursin, hatto yirik shoxli molar, qo'y-echkilar, parrandalar ham jamoalashtirilib umumiy mulkga aylantirilgan ediki, bu keyinchalik o'z mulkidan ajralgan xalqning haqli ravishda noroziligini keltirib chiqargan edi.

Sho'ro hukumatining jamoalashtirish siyosatida yo'l qo'ygan yuqoridagi va boshqa xatolari ommani o'z xo'jaliklarini tashlab ketishlariga, qo'lidagi chorva mollarini ayovsiz ravishda so'yib tugatishlariga yoki ularni arzimagan pulga bozorga olib borib sotishlariga sabab bo'ldi. Natijada Respublikada qoramollar soni keskin kamayib ketdi. 1928-32 yillarda respublikada qoramollar

soni 715 mingtaga, otlar 160 ming, eshak, xachirlar 123 mingtaga, tuyalar 49 mingtaga, qo'y-echkilar bir necha mingtaga kamayib ketgan edi.

O'zbekistonda jamoalashtirish siyosati yuqorida ko'rsatilgan nuqsonlar bilan yildan-yilga tez sur'atlar bilan amalga oshirila boshladi. Ayniqsa 1930 yilning kuzlaridan boshlab quloqlarni sinf sifatida tugatish asosida respublikada jamoalashtirish bir muncha tezlashdi. 1931 yilning yozida dehqon xo'jaliklarining 56,7 foizi jamoalashtirilgan bo'lsa, 1933 yilda-91,7 foizi va 1939 yilga kelib 99,5 foiz jamoalashtirilgan edi.

Markaz rahbariyati O'zbekiston sho'ro hukumati va qo'mfirqa rahbariyati bilan kelishgan holda jamoalashtirish siyosatini o'lkada amalga oshirgach bu siyosat tufayli vujudga kelgan xo'jaliklarni boshqarish uchun 1930 yilning yozidan boshlab markaziy shaharlardan (Moskva, Leningrad, Ivanova-Voznesensk va

bosh..) desant yubordi. Bu desantchilar dastlab «25 mingchi» lar nomi bilan yuborildi. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, O'zbekistonda jamoalashtirish 1930 yilning oxirlariga kelib yakunlandi. Markaziy sho'ro hukumati jamoalashtirishni amalga oshirishdan ko'zlagan maqsadlaridan biri SSSR ning paxta mustaqilligini ta'minlash edi. O'zbekiston esa bu maqsadni ruyobga chiqarishda asosiy rolni o'ynashi kerak edi. Shuning uchun mamlakat qishloq ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bahonasida O'zbekistonda paxta yakka hokimligini qaror toptirishga erishildi. Sho'rolar hokimiyati o'zining butun umri davomida O'zbekistonda nima bo'lsa ham paxta ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilgan tadbir-choralarni amalga oshirdi.

Natijada yuz ming gektarlab yangi yerlar o'zlashtirildi, katta hajmdagi Irrigatsiya-melioratsiya ishlari bajarildi, suv resurslaridan ayovsiz ravishda

foydalanildi, millionlab, tonnalab turli xil kimyoviy moddalar qishloqda foydalanilib, odamlar sog'lig'iga, ekologik vaziyatga katta zarar yetkazildi.

20-30 yillarda Respublikamiz aholisining iqtisodiy turmush darajasi ham nihoyatda og'ir edi. Mamlakatda zo'rlik bilan o'tkazilgan jamoalashtirish siyosati tufayli xususiy mulkchilik bitirildi, hamma narsa davlat mulkiga aylantirilgan edi. Erkin savdo tugatilib, u ham davlat nazorati ostiga o'tgan.

Buning ta'siri sifatida Prezident I.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: «Bir necha o'n yillar mobaynida iqtisodda umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlat byurokratik» tizimining ixtiyorida bo'lgan davlat sektori to'liq hukmronlik qilib keldi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari faqat ikki turdan: davlat mulki va kolxoz kooperativ mulkidan iborat qilib qo'yildi. Buning ustiga kolxoz-kooperativ mulki ham amalda butunlay davlat ixtiyorida edi. Bu hol real ishlab chiqarish qatnashchilarining egalik hissini yo'qola borishga, iqtisodiy manfaatdorlik va mehnatdan rag'batlanishning pasayishiga olib keldi».

Sho'rolar davrida O'zbekistonda, uning iqtisodida olib borilgan g'ayriqonuniy siyosat tufayli respublika moddiy turmush darajasi yildan-yilga yomonlashib bordi. Xususan 1930 yillarning boshlarida o'lkamizda sodir bo'lgan ocharchilik buning yaqqol isboti edi. (Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent «O'zbekistan» 1998, 212-213 be-T.,)

Shunday qilib sho'rolar hukumati tomonidan O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati o'lkamiz iqtisodiyotini boshi berk ko'chaga kiritib, xalqimiz turmush darajasini ayanchli ahvolga tushib qolishga sabab bo'ldi.

20-30 yillarda fan va madaniyat, hamda xalq ta'limining ahvoli.

Bolshevoylar, xususan ularning yo'l boshchisi V.I.Lenin «madaniy inqilob»ni o'zlari ilgari surgan sotsializm qurish rejasining muhim tarkibiy qismi deb hisobladilar. O'zbekistonda ham «madaniy inqilob»ni amalga oshirishga 20 yillarning boshlaridan kirishilgan bo'lib, bu siyosat «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» qobig'iga o'ralgan holda amalga oshirila boshladi. Chunki sho'ro hukumati, uning birinchi rahbari Turkiston dunyoning eng qadimiy madaniyat, ilm-ma'rifat o'choqlaridan biri ekanini yaxshi bilardi. Ular ana shu yuksak madaniy - ma'navi boylik, kerak bo'lsa ma'rifat beshigida tarbiyalangan xalqimizning ongini zaharlash, ularning qalbidan vatanparvarlik, mardlik, imon-etiqod, milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlik, erk va ozodlikka tashnalik, bosqinchi mustamlakachilarga nisbatan nafratni siqib chiqarishni o'z oldilariga masad qilib qo'ydilar.

Negaki, ma'rifatli kishini, mamlakatni yengish aslo mumkin emas. Bu oddiy haqiqatni Prezidentimizni quyidagi so'zlaridan ham bilishimiz mumkin. «Jamiyat taraqqiyotini asosi, uni muqarar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. (I.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». -T., Sharq» 1998, 76 b.)

Sho'rolar hukumati Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatgach bu yerda o'z ma'orif ta'lim-tarbiya tizimini yaratishga katta ahamiyat berdi. Sho'ro hukumati bu borada ish ko'rar ekan, o'lkada yangi sho'ro maorifiday tarmoqlarini keng ravishda yaratish bilan bir vaqtda, eski an'anaviy milliy ta'lim-tarbiya hamda o'qitish tizimining ham faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yib berdi. Chunki mabodo sho'rolar

o'lkadagi eskicha ta'lim-tarbiya tizimiga qarshi chiqsa, mahalliy xalq sho'rolarga nisbatan noroziligi ko'payish mumkin edi.

1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari ,1,5 mingdan ortiq eski maktablar faoliyat ko'rsatmoqda edi. Biroq sho'rolar hukumati asosiy diqqat e'tiborini o'z maorif sistemasini vujudga keltirishga qaratdi. Natijada besh yillik va to'rt yillik maktablar tashkil qilindi. 1921-1922 o'quv yillardan boshlab Respublikaning qator shahar va qishloqlarida mingdan ortiq turli xil maktablar kurslar va savodsizlikni tugatish punktlari ishlab, ularda 50 mingdan ortiq kishi o'z savodini chiqarayotgan edi. O'zbekistonda umum ta'lim maktablari soni 1924-1925 o'quv yilidagi 913 tadan 1940-1941 o'quv yilida 5448 taga yetdi. Bu maktablarda dars olayotgan o'quvchilar soni yuqoridagi yillarda 2,7 mingdan 36,7 ming kishiga yetdi. Biroq o'sha davrdagi maorif tizimida ham qator nuqsonlar mavjud edi. Xususan maktablar yetishmasligi tufayli darslar ko'p hollarda qishda sovuq, yozda issiq ta'lim-tarbiya uchun yaramaydigan xonalarda olib borilgan. Buning ustiga fan o'qituvchilarining ko'pchiligi o'zi dars berayotgan fandan tegishli ma'lumotlarga ega bo'lmagan. Sho'rolar hukumati O'zbekiston asta-sekinlik bilan eski milliy maktablar faoliyatini taqiqlash siyosatini olib bordi va 1928 yillarga borib ularni ishini butunlay man etib qo'ydi. Sho'rolar hukumati juda qisqa vaqt ichida turkiy xalqlar jumladan o'zbek xalqi ta'lim va tarbiya tizimiga ikki marta jiddiy zarba berdi. Ya'ni 1929 yilning 1 dekabridan e'tiboran arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvini lotin alfaviti asosidagi o'zbek yozuvi bilan almashtirdi. Oradan ko'p o'tmay 1940 yildan (may oyi) lotin alfavitiga asoslangan o'zbek yozuvi rus grafikasiga asoslangan yangi alfavitga (krill yozuvi) kuchirildi. Buning natijasida O'zbek xalqi ota-bobolari tomonidan ming yillar davomida yaratilgan madaniyat durdonalaridan mahrum bo'ldilar. Ularning savodsizlik darajasi ortib, umumiy madaniy saviyasi pasaydi. Aholini savodsiz darajaga tushirgach, kommunistik mafkurani yerli xalq ongiga singdirish maqsadida maorif tizimini rivojlantirib, unga davlat byudjetidan ma'lum miqdordagi mablag'ni sarflagan.

Sho'rolar hukumati Turkistonda ko'zlagan mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirish niyatida bu yerda oliy ta'limni rivojlantirish, shunga asosan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmadi.

Xususan Toshkentda Oliy o'quv yurtini ochish masalasi hayot « Oq podsho» davridayoq aktual masala sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi. Rus injineri G.Davidov 1916 yil 27 sentabrda rus imperatorligi geografiya jamiyatning Turkiston bo'limi majlisida so'zlagan ma'ruzasida jumladan shunday degan edi: «Turkiston qancha mukammal o'rganilsa shuncha ko'p tuxfa beraveradi».

Turkistonda Universitet ochish masalasiga A.Kerenskiy boshliq Muvaqqat hukumat ham urinib ko'rgan edi.

Toshkentda universitet ochish masalasiga yurtimizda o'qish va o'qitish ishini isloh qilishni birmuncha marta dadil ko'tarib chiqqan jadidchilar, ularning ko'zga ko'ringan rahbarlari, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydulla xo'ja Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbutabekov va boshqalar katta ahamiyat bergan edilar. Lekin qator sabablarga ko'ra bunday Universitet ochildi. Nihoyat 1918 yilning (R.Shamsitdinov, Sh.Karimov Vatan tarixi (ikkinchi kitob) Andijon «Meros» 1998, 370 b.) 18 aprel kuni Toshkent xalq universiteti ochildi. Lekin bu

universitet tashkil qilingan kundan boshlab YEropa millati vakillariga xizmat qildi. Shu sababli Toshkentda uning eski shahar qismida mahalliy millat vakillarining boshlang'ich va oliy ta'limini isloh qilish va dorilfunun tashkil etish guruhi tuzildi. Uning raisi qilib Munavvar Qori Abdurashidxonov saylandi. Keyinchalik xuddi shu odam rahbarligida 9 kishidan iborat tashkiliy komissiya tuzildi. Bu kommissiyaning faoliyati tufayli 1918 yil 13 may kuni vakula Morozovning sobiq dukoni (hozirchi yosh tomoshabinlar teatrida) musulmon xalq dorilfununi ochildi.

Unda yerli xalqling eng fidoyi farzandlari taxsil ko'ra boshladilar. Bu albatta, Moskvani jahlini chiqardi. Chunki ular o'qib chiqqach, ommani o'z ortidan ergashtirib sho'rolarga qarshi bosh ko'tarishlari mumkin edi. Shu sabab qisqa vaqtdan keyin bu musulmon xalq dorilfununi bекitib qo'yildi. 1919 yil dekabridan boshlab xalq dorilfununi Turkiston Universitetiga aylantirildi. Jadidlar, ularning qator rahbarlari 1921 yil «davlat to'ntarilishi yasashga urinish»da aylanib hibsga olindi.

1920 yil 7 sentabrda RSFSR xalq Kommisarlari kengashi Toshkentda Turkiston Davlat Universitetini tashkil qilish to'g'risidagi dekretni e'lon qildi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu universitet eng avvalo kelgindi rusiyzabon millatlar ehtiyojlari uchun tashkil etildi. Bunda 1920 yilda universitetga o'qishga qabul qilingan 2671 talabadan, bor yo'g'i 7 tasi o'zbek millati farzandlari bo'lgan. (R. Shamsitdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi (ikkinchi qism) 372 b) sho'rolar hukumatining mahalliy millat bolalariga oliy ta'lim berishni istamayotgani ko'rgan jadidchilar rahbarlari Fayzulla Xujayevga o'xshagan o'z davrining rahbarlari xalqimizning ilmga chanqoq o'g'il - qizlarini Germaniya, Turkiya singari rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborishga erishadilar. 1920-1922 yillarda yurtimizdan 300 ga yaqin talaba chet elga o'qishga yuboriladi. 1927 yilgacha barcha chetda ukiyotgan yoshlar chaqirib olinadi va ularning deyarli barchasi imperialistik mamlakatlarning «ayg'oqchilari»deya gumon qilinib otib tashlanadi. Sho'rolar hukumati o'lkada keyingi yillarda oliy ta'limni rivojlantirishga erishgan bo'lsada (1940-41 o'quv yilida 30 ta oliy o'quv yurti bo'lib, ulardagi talabalar soni 19,1 ming kishi bo'lgan), umuman olganda ta'lim sistemasining barchasi sho'rolar hukumatining qo'lida bo'lib, bundan u mustamlakachilik va manqurtlik g'oyasini singdirishda jangovor qurol sifatida foydalandi.

Sho'ro hukumati O'zbekistonda fanni rivojlantirishga ham ozmi - ko'pmi harakat qildi. Bundan uni ko'zlagan maqsadi shu ilm fanni rivojlantirish bilan qo'mfirqa mafkurasini omma o'rtasida tarqatish mustamlakachilik qonun - qoidalarini singdirish edi. Vatan Urushi yillarigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda fanni rivojlanish, haqida gapirilar ekan, 1932 yilda bu yerda tashkil etilgan fan qo'mitasi, gidrometeorologiya instituti agrotexnika qo'mitasi fanning bir qancha sohalarida olib bordagan ilmiy ishlarni ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi.

1940 yilda SSSR FA sining O'zbekiston filiali tashkil etilib, u respublikadagi 55 ta ilmiy tadqiqot ishlariga boshchilik qildi. Urush arafasida O'zbekistonda 109 ta fan doktorlari va 510 ta fan nomzodlari bor edi. Lekin barcha ilmiy tadqiqot ishlari Moskvadan turib rejalashtirilar va bajarilishi nazorat qilinar ediki, bu ham respublikamizning markazga ma'naviy qaramlidani dalolat berardi.

Sho'rolar hukumati va qo'mfirqa Turkiston, jumladan O'zbekiston xalqlari ongida itoatkorlik qulchilik mafkurasini qaror toptirishning oson yo'li deb adabiyot, sinfiylik, partiyaviylik va sotsialistik realizm deb atalmish qolip, dastur asosda faoliyat ko'rsatishi kerak edi. Adabiyotda ana shunday dastur asosda ishlashni 1928 yilda tuzilgan «Qizil qalam» jamiyati ta'sis etildi. Bu jamiyat o'z atrofiga sho'rolar tomonida bo'lgan ijodkorlarni birlashtirgan edi. 1930 yilda «Qizil qalam» jamiyati tugatilib, o'rniga O'zbekiston Proletar yozuvchilar uyushmasi tashkil etildi. Bu davrda progressiv yozuvchilar ham bo'lib, ularga eng avvalo jadidchi ijodkorlar Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmud xo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Abduhamid Cho'lpon, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, M.So'fizoda Abdulla Avloniy va boshqalar kirar edi. Ular milliy istiqlol manfaatlariga xizmat qilish, millatning dunyo qarashini, siyosiy madaniyati, ongini oshirish uchun kurashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar va shu yo'lda mardonavor faoliyat ko'rsatib, ularning ko'pchiligi sho'rolar qo'lida qurbon bo'ldilar.

Sho'rolar hukumati qo'mfirqa o'lkada ommaviy axborot vositalari ishga katta e'tibor berdi. Chunki bu orqali qo'mfirqa mafkurasi omma ongiga singdirilishi kerak edi. O'lkada 1924 yilda 26 ta gazeta chiqarilgan bo'lsa, 1940 yilda u 200 tani tashkil etdi. Bu yillarda san'atni rivojlantirishga ham katta e'tibor bilan qaraldi. San'atning turli xil formalari: teatr, kinochilik, ashulachilik va boshqalar orqali kommunistik mafkura targ'ibot qilindi.

Sho'rolar hukumati 1918 yil 23 noyabrda V.I.Lenin imzosi bilan «Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida dekret e'lon qildi. Lekin bu mash'um davlat butun umri davomida bu dekretga rioya qilishdan barcha dinlarni, ayniqsa islomni ta'qib ostiga olish siyosatini qo'llab keldi. Natijada respublikamizning turli yerlaridagi noyob masjid-madrasalar oyoq osti qilindi, aziz avliyolarning mozorlari buzildi, islom diniga amal qilgani uchun fuqarolar jazolandi.

20-30 yillarda sho'ro hukumati o'lkamizda qatog'onlik siyosatini o'tkazdi. 16 yil davom etgan istiqlol, erk uchun olib borilgan kurash qatnashchilari bu siyosatning dastlabki qurbonlari bo'ldi. Bu kurashda 1200 ming kishi tengsiz jangda shahid bo'lgan bo'lsa 1,900 ming vatandoshlarimizning jon saqlash uchun turli xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdilar. Bu yillarda (xususan 20 yillar boshlarida) maxsus to'qib uyushtirilgan «O'n sakkizlar guruhi», «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik», «Badridinovchilik», «Ko'r kalamush» kabi guruhlar millatimizning ilg'or ziyolilarini qatog'on qilishni mo'ljallab qilingan nayrangi edi. Bu nayrang tufayli yuz minglab yurtimizni asl farzandlari begunoh qurbon bo'ldilar.

Ayniqsa, Stalin shaxsiga sig'inish yillarda respublikamizda qatog'onlik siyosati avjga mingan. Faqat 1937-1939 yillarda respublika fuqarolaridan 41 mingdan ko'proq kishi qamaldi. Shulardan 37 mingdan ortiq sudlandi. 6920 kishi otib tashlandi. Ular orasida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon), Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi yuzlab yurtimiz va xalqimizning asl farzandlari bor edi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, sho'rolar hukumati va qo'mfirqa 20-30 yillarda O'zbekistonda fan, madaniyat, xalq ta'limini rivojlantirish borasida bir qator

ishlarni amalga oshirdi. Biroq bundan faqat o'z mafkurasini ommaga singdirishlarni g'oyaviy jihatdan qurolsizlantirishni maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadini amalga oshirishga to'sqinlik qilish mumkin bo'lgan kishilarni ayovsiz qatag'on qildi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish siyosatining mustakamlachilik mohiyati nimalardan iborat edi?
2. Nima uchun O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi milliy manfaatlarimizga mos kelmadi?
3. Sho'rolar hokimiyati davrida Respublika xalq ta'limidagi mavjud nuqsonlar nimalardan iborat edi?
4. Fan va madaniyatda kommunistik mafkuraning hukmronligi nimalardan ko'rinadi?
5. Sovetlar davrida O'zbekistonda adabiyot va san'at qanday rivojlandi?
6. Sovetlar davrida mutaxassislarni tayyorlash haqida nimalar bilasiz?
7. Sovetlar davrida xalqimizning milliy qadriyatlariga munosabat qanday edi?

Vazifalar:

1. Sharof Rashidovning davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyatiga oid kitoblar o'qish va tahlil etish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Sovetlar davrida O'zbekistonda yaratilgan adabiy asarlar haqida daftarda ma'lumotlar keltirish

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -Toshkent «O'zbekiston» 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent «O'zbekiston», 1996 y.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -Toshkent-T., «O'zbekiston» 1996 y.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -Toshkent «O'zbekiston» 1996 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q -T, «Sharq» 1998
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar. -Toshkent-T., «O'zbekiston» 1998.
8. Karimov I.A. Milliy mafkura mamlakat kelajagi poydevori. 2000-yilning 6 aprelida Oqsaroy qarorgohida milliy mafkura masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. O'zbekiston ovozi. 2000 y 8 aprel.
9. Karimov I.A.. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». Prezidentning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari. «Fidokor» gazetasi 2000 yil 8 iyun.
10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida

xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., “O‘zbekiston” 2015

11. R.Shamsitdinov I.Karimov. Vatan tarixi (ikkinchi kitob) -Andijon, «Meros», 1998 y.
12. Tursunov. X., Bekmirzayev. N. O‘zbekiston SSR tarixi, T «O‘qituvchi» 1982 yil V - bob O‘zSSR ensiklopediyasi. -T., 1981. 109 - 113 betlar.
13. Kim.P, Uydirma va haqiqat inqilobgacha. Turkiston xalqining savodxonligi to‘g‘risida -T., «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati». 1989 y 20 oktabr.
14. I.Sultonov, Mamajonov. Madaniyatimizning ikki aytmasi (Fitrat va Cho‘lpon) o‘zbek adabiyoti va san’ati, 1988 3 iyun.
15. Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. -T., 1996.
16. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-jild. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T., 2001
17. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. —T.,2001.
18. Muxiddinov Nuriddin. Kremlda o‘tgan yillarim -T., O‘zbekiston. 1995.
19. Narodnoe xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1987 sta-T., ejegodnik -T., O‘zbekiston 1988
20. Levitin L. Uzbekistan na istoricheskoy povorote -M.Vagrius 2000.
21. Xalq so‘zi ro‘znomasi 2004. 30 yanvar. Burilish nuqtasi.
22. O‘zbekiston 13 yil mustaqil taraqqiyot yo‘lida -T., 2004 yil.
23. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. 3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

13 - mavzu. MUSTABID SOVET TUZUMINING O‘ZBEKISTONDAGI QATAG‘ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Darsning o‘quv maqsadi: Mustabid sovet tuzumi davrida olib borilgan qatag‘onlik siyosatining sabablari, qurbonlari va salbiy oqibatlari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar berish va sodir bo‘lgan voqealarga to‘g‘ri baho berish ko‘nikmasini rivojlantirish

Tayanch iboralar: ma’muriy buyruqbozlik, totalitar, yakkahokimiyatchilik, huquqlar cheklanishi, Stalinchilik sotsializm, «18 lar guruhi», “Qosimovchilik”, «Inog‘omovchilik», “Badriddinovchilik”, davlat va partiya arboblari, ziyolilar, ruhoniylar ta’qibi, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, madaniyat xodimlari qatag‘onligi, «paxta ishi», «kadrlar desanti», Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Stalin, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, “Qatag‘on qurbonlari tarixi” davlat muzeyi.

Reja:

1. Sobiq ittifoqda ma’muriy buyruqbozlik–byurokratik tuzumning shakllanishi. Stalin shaxsiga sig‘inishning boshlanishi.
2. 20-30 yillarda sho‘ro hukumatining O‘zbekistonda yuritgan qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari.
3. 40-50 yillardagi qatag‘onliklar, uning 80-yillardagi yangi ko‘rinishlari.
4. Qatag‘onlik siyosatining salbiy oqibatlari

Asosiy qism

Milliy istiqlolimiz tufayli boy manaviy merosimiz, milliy qadiryatlarimiz, tilimiz, dinimiz va tariximiz o'zining qadimiyligi, haqqoniyatligi bilan qayta to'yinib, xalqimiz, yurtimiz farovonligi uchun xizmat qila boshladi. Ayniqsa haqqoniy yoritilgan tariximizning mustaqilligimizni, mustahkamlashdagi o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkuramizni targ'ib etishda ham tariximizning o'rni bebahodir.

«Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi»-deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz I.Karimov. Keyingi yillarda haqqoniy tariximizni yaratishga va uni xalqimiz, yoshlarimiz ongiga singdirishga bo'lgan e'tiborning yanada ko'chayotganligi ham buning isbotidir.

«Aslida biz qo'lga kiritgan mustaqillikning mohiyati ham o'zligimizni anglab, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, millatimiz qadr-qimmatini uning shani va g'ururini tiklab, asriy adolatni qaror toptirish va xalqimizning obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, demakdir», -deb bejiz ta'kidlanmagan edilar Prezedent I. Karimov. Shu bois ham bu borada respublikamizda qilinayotgan ishlar kengayib bormoqda. Bugungi kunda 30-50 yillar qatag'onligi va uning oqibatlarini, uning haqqoniy mohiyati, tarixini chuqur o'rganish uchun mamlakatimizda e'tiborli komissiyaning tuzilishi, ularning faoliyati Davlat va Milliy xavfsizlik qo'mitasi hujjat asrovlarida olib borayotgan ishlar xalqimiz, ozodligi uchun kurashgan qahramonlarimiz nomlarining oqlanib, ular ruhini poklantirish borasida qilinayotgan ishlar, poytaxtimizning markazida ular xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan yodgorlik va hokazolar yaqin o'tmishdagi qora kunli tariximizni yaratish va uni qanday bo'lsa, shundayligicha xalqimizga yetkazishgina emas, adolatni qaror toptirish va xalqimiz sha'nini tiklab unga yuksaltirish maqsadida qo'yilayotgan muhim qadamlardir.

Sobiq sho'rolar davrida amalaga oshirilgan bu kabi qatag'onlik siyosati istiqlolimizga qadar o'rgatilmadi va unga yo'l ham ko'yilmadi. Istiqlol tufayligina yaqin o'tmishdagi bu qora kunlar tarixini o'rganish va bilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Quyida esa mana shu davr tarixi haqida fikr yuritamiz.

1. Sobiq ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik byurokratik tuzumning shakllanishi, Stalin shaxsiga sig'inishning boshlanishi

20-yillar oxirida sobiq ittifoq va respublikada tartib topib kelayotgan talablar jamiyatiga xos xususiyatlar tobora oshkora namoyon bo'la boshladi. Bu jamiyatning negizi bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, NEP iqtisodiyotining ziddiyatlarini o'ziga singdirib, «harbiy kommunizm» an'analarini davom ettirib bordi. Asosiy qismi past malakali va qashshoq kishilardan iborat bo'lgan ishchilar bozor stixiyasini yakka tartibda zo'r berib qilinadigan ijodiyotini emas, balki tayinli ma'lum ijtimoiy kafolatlarni afzal ko'ra boshladi. Aynan mana shu holatlar ma'muriy islohot tizimiga moyillik tug'dirar edi. Bu esa ommani g'oyaviy jihatdan bo'ysindirish imkoniyatini yengillashtirar edi.

Iqtisodiyot, siyosat, madaniyat partiya va davlat nomenklaturasi iskanjasiga tushib koldi. Hukmron partiyaning tor doirada qabul qilgan qarorlari mamlakat uchun majburiy edi. Rasman e'lon qilingan demokratik jarayonlar ijodiy baxs, munozaralar, kelishuv yo'llarini qidirishlar amalda to'xtatilgan edi. Sovetlar va jamoat tashkilotlari yuqoridan berilgan direktiv ko'rsatmalarning passiv ijrochilariga aylanib qoldilar. Hukmron partiya organlarisiz bironta qaror ham, qabul qilish mumkin bo'lmay qoldi. O'sha davr konstitutsiyasida e'lon qilingan haq-huquqlar ommaviy ravishda buzila boshlandi.

Markaz va joylarda partiya-byurokratlar apparati tobora ko'chayib bordi. Uning butun mexanizmi hukmron partiyaning «zo'raki yangi jamiyat» qurishiga doir yo'l yo'riqlarini amalga oshirishga qaratilgan edi.

Butun mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti partiya tazyiqi bilan amalga oshirila boshladi. Jumladan: 30-yillarda respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayoti ham sovet targ'ibotining mustahkamlanishi va shaxsga sig'inishning ko'chayib borishi sharoitlarida o'tdi. Hukmron partiyaning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston kompartiyasi ham respublika hayotining butun ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va madaniy sohalariga rahbarlik qildi. Barcha jabhalar uning nazorati ostiga o'tdi. 1929 yilda o'tkazilgan partiyadagi tozalash natijasida hukmron partiya a'zolarining 15,6 % uning saflaridan chiqarildi. Ularning ko'pi aybsiz bo'lsa ham jazolandilar. Ommaga partiya ta'sirini ko'chaytirish maqsadida korxonalarda partiya komitetlari va sex yacheykalari, brigadalarda partiya guruhleri, kolxozlarda boshlang'ich partiya tashkilotlari tuzildi. Qishloq sovetlari kolxoz, sovxozlar qurilishida, qishloqning siyosiy va xo'jalik hayotida partiya bo'limi amalga oshirib boradigan ijrochi organlarga aylanib bordi. 30-yillarda jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha sohaları ustidan hukmron partiya nazorati yanada ko'chaydi. Insonlarning butun hayoti, ularning o'y-fikrlari asta-sekin hamma narsani unutishga majbur qiladigan yangi jamiyat qurish g'oyasini amalga oshirishga qaratildi, haddan tashqari tig'iz va uddalab bo'lmaydigan besh yilliklar topshiriqlarini bajarishga bo'ysundirildi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) uzil kesil barham topdi. Qishloq xo'jaligini zudlik bilan kollektivlashtirish yo'liga qat'iyon kirishildi. Shahar bilan Qishloq qisqa muddat ichida qattiq markazlashtirish va ma'muriyatlashtirish ixtiyoriga tushib qoldi. Sanoat va savdoda davlat sektori tobora qattiq monopolist, ya'ni yakka hokim bo'lib bordi. O'zbekistonda ham sanoatda umumiyashtirish jarayoni boshlandi. Mayda sanoatdagi xususiy sektorning ulushi to'xtovsiz qisqaraverdi va 20 yillarning oxirlariga kelib deyarli barham topib ketdi. Industriallashtirish va hunarmandlarni kooperatsiyalash natijasida respublika sanoatida xususiy sektor deyarli butunlay tugatildi.

Boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimini ta'minlashda iqtisodiyotni rivojlantirishning rejalar asosidagi usullari muhim rol o'ynadi. Ular iqtisodiyotga rahbarlik qilishni davlat tamonidan ishlab chiqiladigan xalq xo'jaligi rejaları asosida mumkin qadar ko'proq markazlashtirishni mustahkamlab berdi.

Sovet tuzimida azaldan mavjud bo'lgan ziddiyatlar 30- yillarda kuchaya boshladi. Hayotning barcha tomonlari ustidan davlat to'la nazorat olib boradigan, partiya apparat har qanday hukm chiqarishga qodir bo'lgan vaziyatda

mehnatkashlar hayotining ijtimoiy iqtisodiy, maishiy sohalarini isloh qilish yoki loaqal yumshatish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin bo'lmay qoldi.

O'sha davr hukmron mafkurasi tomonidan sotsializmning kapitalizmdan afzalligi to'g'risida, mehnatkashlar faravonligini tubdan yuksaltirishga, hayotning asl mohiyatini o'zgartirishga qodir bo'lgan yangi ijtimoiy tizim to'g'risida e'lon qilingan fikrlari marksizm-leninizm nazariyasiga, shak-shubhasiz, jozibador tus berar edi. Biroq ma'muriy-islohot, totalitar targ'ibot sharoitlarida bu nazariyaning amaliyot bilan to'qnashuviga bardosh bera olmagan 30-yillarning o'zidayoq ma'lum bo'lib qoldi. Chunki hayot tajribasi moddiy boyliklarni bir tekis taqsimlash, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish, xususiy mulkni tugatish, bozorga qarab xo'jalik yuritish mexanizmlaridan voz kechish siyosatining be'maniligini isbotlab berdi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining pasayib borishi muqarrar sur'atda mehnatga to'lanadigan haq miqdorining kamayishiga, mehnat va turmush sharoitlarining yomonlashib qolishiga olib keldi. Mehnat to'g'risidagi qonunlarning qattiqlashuvi ishchilarning ishlab chiqarishga va Qishloq aholisini kolxozlarga zo'rlab biriktirib qo'yish, ishga kechikkanlik uchun jinoiy jazo berishni joriy etish va boshqa choralar totalitar tuzumning samaralari bo'lib, ular og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi.

Mamlakatda ma'muriy islohot, byurokratik tuzimning shakllanishida sun'iy obrular bilan, qattiq qullik va ja holat orqali « xalqlar otasi» nomini olgan I.V.Jugashveli (Stalin) ning xizmati kattadir. U 1922 yilda mamlakat hukmron partiyasi markaziy qo'mitasi bosh kotibi lavozimini eg'allab, 20- yillar oxirlarida «dohiy» darajasiga erishgan edi. U o'ta ustalik bilan o'zidan har tomonlama kuchli bo'lganlarni yo'q qila oldi. O'zi singari byurokrat, totalitarlarni esa o'z atrofiga to'pladi. U o'zigacha xalq ishonchini qozona olgan bolsheviklar rahbari nomini o'ziga qalqon qilib oldi. Stalin oppozitsiyachilar bilan kurashni «Sotsializm uchun kurash» dek tarzda olib bordi. U Leninning davomchisi rolini o'ynadi. Kim o'ziga qarshi chiqsa, uni «Leninga qarshi», «sotsializmga qarshi», deb e'lon qildi.

O'sha davrdagi tashqi ahvolning og'irligi, mamlakatning holsizligi ham markazlashtirilgan boshqaruv uchun imkoniyat yaratib berdi. Ayniqsa mamlakat aholisining katta qismining savodsizligi ham bunday boshqaruvga imkon yaratdi.

Bu holatlar esa Stalin shaxsiga sig'inishdek uzoq davom etgan kasallikni keltirib chiqardi.

Mamlakatda bundan keyingi amalga oshirilgan barcha ishlar, muvaffaqiyatlar, yutuqlar Stalin nomi bilan bog'landi. Uning nomini yanada ulug'lashda «soxta shiorlar», «soxta tashabbuskoliklar», «soxta qahramonliklar» ham muhim rol o'ynadi. Ayniqsa fashizmga qarshi matonat bilan kurashgan xalqning g'alabasi ham «Stalin boshchiligidagi g'alaba» ga aylandi.

Buyuk orzu-niyatlar bilan «yangi jamiyat» qurmoqchi bo'lgan oddiy xalq esa mamlakatda bo'layotgan siyosiy jarayonlar mohiyatini anglab yeta olmas edi. Chunki Stalin yasagan siyosiy apparat, uning g'oyaviy yo'nalishi barcha qilinayotgan ishlar oddiy xalq, mehnatkashlar manfaati uchun qilinayotgandek tasavvur hosil qilar edi. Hatto odamlar Stalinsiz o'z hayotlarini tasavvur qilolmaslik darajasiga ham tushib qolgan edilar. Shu sababdan ham ular Stalin vafot etganda

(1953 yil 5 mart) «endi nima qilamiz?», «endi qanday yashaymiz?» deb vasvasaga ham tushgan edilar.

Ana shu tariqa boshqarishning ma'muriy–buyruqbozlik usuli, Stalin shaxsiga sig'inish mamlakatda o'zboshimchalik va g'ayri qonuniylikni boshlashga va bunday holatlarni keng miqyosda yoyilishiga sharoit yaratib bergan edi.

2. 20-30-yillarda sho'ro hukumatining O'zbekistonda yuritgan katag'onlik siyosati va uning oqibatlari

Biz o'rganayotgan 20-30 yillarda Respublikamiz hayoti Markazning qattiq nazaroti ostida o'tar edi. Partiyaning yo'l-yo'riqlaridan bir oz bo'lsa-da chetga chiqish siyosiy, aksil inqilobiy harakat deb baholanar edi.

«Sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik ko'chayib boradi» degan stalincha soxta g'oya butun mamlakatda qatag'onlik siyosatini boshlanishiga sabab bo'ldi. VKP(b) markaziy qo'mitasi tomonidan o'ylab chiqarilgan «partiyadagi o'ng xatar» ning e'lon qilinishi bilan mamlakada «Troitskiychilar» niqobi ostida, hibsga olinishlar boshlandi.

Mamlakatda boshlangan qatag'onlik siyosatining bosh maqsadi zo'raki o'rnatilgan tuzumga qarshi bo'lganlardan o'ch olish, Stalin siyosatidan norozi bo'lganlar va undan aql, bilim jihatdan ustun turganlarning yo'q qilish hamda yangicha ko'rinishda davom etayotgan mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashdan iborat edi.

O'zbekiston kompartiyasining IV syezdi (1929 y) ham Respublikamizda partiya tashkilotlaridagi guruhbozlikka qarshi kurash niqobi ostida tazyiq mexanizmini ishga tushirdi.

Dastlab joylarda milliy madaniyatni qayta tiklash, xalq turmushini yaxshilash muammolariga diqqatni jalb etishga uringan rahbar xodimlar va ijodiy ziyoliylar yo'q qilingan edi. Aynan shu munosabat bilan respublikamizning Turor Risqulov, Abdulla Rahimboyev, Nazir To'raqulov, Inog'omjon Xidiraliyev, Qayg'isiz Ataboyev, Sultonbek Xo'janov singari mashhur arboblarning millatchilikda ayblandilar. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yo'llarini amalga oshirishga uringan kishilarga guruhbozlikka qarshi kurash shiori ostida ayblar qo'yildi. Keyinchalik «inog'omovchilik», «18lar guruhi», «qosimovchilar» deb nom olgan ishlar xuddi o'sha paytlarida to'qilgan edi.

1929 yil oxirlarida atoqli ma'rifatchi Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligidagi «milliy istiqloq» tashkilotining a'zolari qamoqqa olindi. Qamalgan 85 nafar a'zolaridan 15 tasi otib tashlandi, qolganlari esa tuzatish-mehnat lagerlariga jo'natildi. Yirik jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramz), Nosir Saidov, Mahmud Xodiyev (Botu), Xosil Vasilov, Sobir Qodirovlar o'lim jazosiga hukm etildilar, keyinchalik bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosi bilan almashtirildi.

1930 yili Davlat banki apparatida tozalash o'tkazilib, bir qancha rahbar xodimlar qamoqqa olindi. Respublika Oliy sudining sobiq raisi Sa'dulla Qosimovning ishi bilan bog'liq «qosimovchilik» degan, ishlar to'qib chiqarildi. Sud ishlarining hammasi asosan ilg'or siyosiy arboblarni yo'q qilishga qaratilgan edi. Bularning hammasida Stalinning xo'jalik muommalarini ma'muriy choralar bilan yechishga moyilligi va cheksiz hokimlik qilishga intilish mudhish rolni o'ynadi. 20-yillar oxirlarida boshqa respublikalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham

xususiy kapitalni va nepmanlar, boylar xo‘jaliklarining qoldiqlarini juda qisqa muddat ichida tugatish yo‘li qo‘llab quvvatlandi. Mana shu nepmanlar, boylarning hammasi sotsialistik qurilishning eng ashaddiy dushmanlari deb e‘lon qilindi.

1930 yil fevralidan boshlab O‘zbekistonda quloq xo‘jaliklarni tugatish kompaniyasi boshlandi. Bu kompaniya, xuddi boshqa respublikalardagidek, qonunlar va inson huquqlarini qo‘pol ravishda buzish hollari bilan birgalikda davom etib bordi. Birgina Mirzachultumani (Toshkent okrugi) da 75 ta xo‘jalik quloq qishloq sifatida tugatildi. Ko‘pgina rayonlarda quloq xo‘jaliklarigina emas, balki o‘rta hol va hatto kambag‘al xo‘jaliklar ham musodara qilindi. Natijada O‘zbekistonda birgina 1930 yili 2648 ta quloq va boylar xo‘jaliklari deb atalgan xo‘jaliklar tugatildi. 1930-1933 yillari tugatilgan xo‘jaliklar soni 5,5 mingga yetdi, ularning ko‘pchiligi ittifoqning boshqa rayonlariga, asosan Ukraina va Sibirga ko‘chirilib yuborildi. Ko‘chirilganlarning ko‘pchiligi nobud bo‘lib ketdi.

Sobiq ittifoqda qatag‘onlikning keng miqyosida boshlanishi VKP(b) XVII syezdi (1934y) va unda ko‘rilgan tashkiliy masalalar bilan bog‘liqdir. Syezd yakunida partiya markaziy qo‘mitasiga kotiblar saylovi o‘tkazildi. Nomzodlar orasidan S.M.Kirov ko‘p ovozni egalladi. Stalin ustalik bilan bosh kotib (sarkotib) saylovini o‘tkazdirmadi. Chunki, S.M.Kirov sarkotiblik lavozimini egallashi mumkin edi. Shu sababli Stalin to umrining oxirigacha hukumat raisi va partiya markaziy qo‘mitasi kotibi (sarkotib deb atalmasa ham u partiyaning bosh rahbari sifatida faoliyatini davom ettirdi) lavozimlarida turdi.

Partiya XVII syezdidan keyin ko‘p o‘tmasdan S.M.Kirov o‘ldirildi. Bu voqea partiya va mamlakatda keng qamrovli qatag‘onlikni boshlab berdi. Bu harakatlar nomiga-Kirov dushmanlariga qarshi kurash niqobida bo‘lsada, aslida syezdda Kirovga ko‘p ovoz berib, Stalinga uncha ishonmagan kommunistlardan o‘ch olishdan iborat edi.

Partiya XVII syezdida qatnashgan 1956 delegatdan 1108 tasi, syezd saylagan 139 ta markazkum a‘zolari va a‘zolikga nomzodlardan 98 tasi, ya‘ni 70 foizi qatag‘on qilindi.

Stalin syezddagi saylovlardan saboq chiqarib, o‘zidan har tomonlama kuchli, ongli faollarni yo‘q qilishga kirishdi. Sobiq ittifoqdagi qatag‘onlik 1937-1938-yillarda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Partiya va davlat rahbarlaridan Zinovev, Kamenev, Buxorin, Rikov, Pyatakov, Tomskiy kabilar ustidan sun‘iy ayblar to‘qildi. Mamlakatda «Zinovevchi», «Kamenevchi», «Buxarinchi», «Pyatakovchi», «Tomskiychi» lar qidirildi. Bir necha minglab kishilar ana shu yorliqlar bilan qatl ettirildi va lagerlarga jo‘nattirildi.

O‘zbekistonda yangi Qatag‘onlik partiya va Davlat oldida katta -katta xizmatlar qilgan atoqli arboblarni qamoqqa olishdan boshlandi. Siyosiy boshqarma organlari (OGPU) F.Xo‘jayev, A.Ikromov, D.Manjara, S.Segizboyev, A.Karimova va boshqalar xususida sovetlarga qarshi qo‘poruvchilik ishlarini to‘qib chiqardilar. Bular nazariy baxs va munozaralarda o‘z pozitsiyalarini mahkam turib himoya qiladigan hurmatli va e‘tiborli xalq yetakchilari edi. Ular shaxsga sig‘inishning yakka partiya zo‘ravonligi ildiz otib ketishining xavfli ekanligini ochiq ravshan tushinar edilar. Ular joylarda katta xukm o‘tkaza oladigan bo‘lishlariga qaramay qatag‘onlarning zo‘rayib borishini to‘xtatib qolmadilar. O‘zbekistonda

keng ko‘lamli agentura kuzatuvlari va ommaviy ravishda qamoqqa olish ishlari tashkil etildi. 1937 yilning avgust sentabr oylarida bir necha ming kishilar respublika ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) ning ichki qamoqxonalari tushib koldi. Ularning orasida O‘zkompartiya markaziy komitasi kotiblari S.Boltayev, I.Xudayqulov, A.Sexev, markazko‘m bo‘lim boshliqlari M.Shermuhammedov, M.Usmanov, K.Berchin, O‘ZLKSM markazkumi kotiblari I.Ortikov, -T.,Risqulov, F.Tarasov, Respublika xalq komissarlari A.Islamov, M.Tursunxo‘jayev, viloyat partiya qo‘mitasi kotiblari D.Rizayev, K.Boltayev, N.Isroilov, YU.Irismetov va boshqalar bor edi. 1938 yil bahoriga kelib viloyatlar, shaharlar, partiya qo‘mitalari kotiblarining 60% dan ko‘prog‘i, shu yilning ikkinchi yarmida esa viloyatlar, shaharlar, rayonlar partiya qo‘mitalarining 114 nafar kotiblar qatag‘on qilindi.

1934 yildan 1938 yilgacha boshqa respublikalar kabi O‘zbekistonda 40 mingdan ziyod kishi jazoga tortilgan edi. Shulardan 730 tasi xalq dushmani degan tuhmat bilan otib tashlandi.

O‘zbekiston jamiyati hamma tabaqalarga keng yoyilgan hibsga olish to‘lqini ostida qoldi.

O‘zbekiston NKVD sining ichki turmasi va boshqa joylardagi qamoqxonalarda maxbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etilar edi. Eng kuchli va mardonavor kishilar ham ahvoli ilojsizligi ko‘rib va o‘z yaqinlarining taqdiralaridan xavotir olib qilmagan jinoyatlarini tan olishga majbur bo‘lar edilar.

Maxbuslarning ko‘plari o‘z-o‘zini o‘ldirishni birdan bir chora deb bilardilar. 30-yillarning oxirida O‘zbekiston hammaning ko‘ngliga tushgan daxshat, xoinlik, zo‘rluk va bedodlik sharoitiga tushib qoldi.

(Xalqimizning guli bo‘lgan ziyolilarimizning, yetakchilarimizning qatag‘on qilinishida o‘z yurtdoshlarimizning ayrim vakillarini qo‘rquvdan xoinlik, sotqinlik qilganliklaridan, amal kursilariga o‘tirish maqsadida bir birlarini sotganlaridan, o‘sha davr qatag‘onlik mafkurasi ta‘sirida ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolgan ayrim millatdoshlarimizning qabih ishlaridan ham ko‘z yummasligimiz kerak).

Shu tariqa insoniylik va demokratiya prinsiplarini toptab, oyoq osti qiladigan, har qanday o‘zgacha fikr yuritishni kuch bilan bo‘g‘adigan, ommaviy o‘zboshimchalik va zo‘rluk o‘tkazib, Vatanga sodiq necha o‘n minglab kishilarni qirib tashlagan totalitar targ‘ibot qaror topib bordi.

"Sotsializm qurilishi" deb atalgan yillarda yangi jamiyat kishisining to‘la qonli obrazini yaratish bobida hormay tolmay kurash olib borgan o‘zbek ziyolilarining katta bir guruhi hech qanday asossiz sabablar, uydirma tuhmatlar va bo‘xtonlar orqasida shubha ostiga olinib, umumiy ta‘qib va quvg‘inga giriftor bo‘ldilar. Ajoyib fan zahmatkashlari, qobiliyatli ijod sohiblari, madaniyat jonkuyarlari stalincha qatag‘onlikning aybsiz aybdorlari, begunoh qurbonlari bo‘ldilarki, buni hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Bunday mislsiz ayanchli qismatga, jismoniy yo‘q qilinishga mahkum etilgan siymolar orasida A. Qodiriy, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, K. Aliev, Sh.Sulaymon, U.Nosir, O.Xoshim, M.Sufizoda, A.Yoqubov, Miyon Bo‘zrik, Solihov singari o‘zbek xalqining ma‘naviy mulkiga bebaho hissa qo‘shgan o‘nlab uning ajoyib o‘g‘lonlari borligi bizni chuqur qayg‘u va iztirobga soladi.

O'z xalqining kuylagani, uning davri, tashvishi, xasrati va muammolarini o'ylagani uchun bu o'ta is'tedod sohiblarining yo'q qilinganligi, ularning yorqin ijodi so'ndirilgani-totalitar tuzum xunrezligi va beboshligining qonuniy natijasidir.

Totalitar tuzum, shaxsga sig'inish va stalincha qatag'onlik siyosati O'zbekiston xalq ta'limi rivojiga ham salbiy ta'sir etdi. Ta'lim tarbiya o'ta siyosatlashtirildi. Milliy madaniy me'rosni o'rganish, milliy tarbiya usullaridan foydalanish taqiqlandi. Maktabda "bolshevikcha tarbiyalarni" o'rnatish uchun olib borilgan kurash yosh avlod tarbiyasiga putur yetkazdi, natijada bolalarga kattalarning hohish irodasini va talablarini itoatgo'ylik bilan bajaruvchilar deb qaraladigan bo'ldi. Bo'layotgan ishlardan xalqni chalg'itish, xalqda "dohiy" ga muhabbatni yanada oshirish uchun g'alaba raportlari, o'lgan yutuklar, buyuk natijalar kerak edi. Bu g'alabalar "dohiy" obrazining yanada yaqinroq bo'lishi uchun nima qilib bo'lsa ham qo'lga kiritilishi lozim edi. Biron natijaga erishilmasa, buning uchun javob berish kerak edi. Shu sababli Stalin mamlakatning istalgan joyida hohlagan kishini qatag'on qilish uchun nazariy asos bo'la oladigan fikrlarni bashorat qila olar edi. "Pravda vostoka" gazetasining 1940 yil 30 iyun sonida e'lon qilingan "xalq ma'orifining yuksak marralari sari" nomli maqolada: "Partiya va shaxsan o'rtoq Stalin kun sayin bolalarga, maktabga bo'lgan haqiqiy muhabbat va g'amxo'rlik namunalarini ko'rsatmoqdalar. Stalinning qo'lida pioner qizcha bilan tushgan tasviri bizda partiyaning sovet bolalariga bo'lgan mehr muhabbati timsoli bo'lib qoldi"-deb yozilgan edi. Va holanki 1939-1940 yillarda "dohiy sevgan" bolalarning 4.7% maktablarga jalb etilmagan, 6.1% maktablardan ketib qolgan, jami 100 mingdan ziyod bolalar maktablarga qatnamay qo'ygan edilar.

30-yillarda ko'pgina halol o'qituvchilar ham "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. Ularning farzandlari esa, bunday "yorliqni" olgan boshqa kishilar farzandlari singari komsomol a'zolidan o'chirilib, maktablardan xaydaldilar.

Qatag'on yillarida favqulodda qonunlar qabul qilindi. 12 yoshdan boshlab o'lim jazosini qo'llash mumkin bo'lib qoldi. O'smirlarning kattalar bilan birgalikda qatl etilgan hollari ham sodir bo'ldi.

Qatagonliklar oqibatida o'qituvchi kadrlar soni kamayib ketdi. Xalq ta'limi tuzimi rahbarlari, pedagog olimlar hibsga olinib, "xalq dushmani" sifatida yo'q qilindi: (xalq ta'limida qatog'onlikni kengroq, tushuntirishni istagan o'qituvchilar uchun professor I.Tursunovning "Istiqlolga intilgan qalblar nidosi" (-T., 1993 i) kitobini tavsiya etamiz.)

Mehnatkashlarni chalgitish uchun matbuotda "xalq dushmanlari" ni "fosh etadigan" maqolalar muntazam e'lon qilinib borildi. Shu maqolalardan ayrimlarini matnda keltirib o'tishni lozim topdik:

"Dushmanlar O'zbekiston Maorif xalq komissarligini bexudaga qo'ldan bermay kelgan emaslar. Turli davrlarda Maorif xalq komissarligiga boshchilik qilgan Usmonov, Karimov, Rizayev, Ramziy kabi sobiq xalq komissarlarining hammasi xalqning ashaddiy dushmani bo'lib chiqdilar. Ko'pgina shahar va rayon Maorif bulimlarining apparatlari hamda maktablar mana shunday tudalar bilan ifloslangan ekan... xalq dushmanlari juda katta zarar keltirdilar. Ularning zarar ko'randachilik xatti harakatnlari oqibatida maktab yoshiga yetgan bolalarni umumiy majburiy o'qishga jalb etish ishi xan o'z to'la amalga oshirilayapti. Xalq

dushmanlari o'zbek bolalarining to'liqsiz O'rta va O'rta maktablarni tug'allashlariga tushkunlik qildilar. Mana shuning uchun 8 - 10-sinflarda ukiyotganlarning 11%gina mahalliy millat vakillaridir... O'zbekiston maktablariga o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishiga zarar ko'randalarcha munosabat oqibatida 2176 o'qituvchi yetishmaytir... "Pravda vostoka" gazetasi, 1938 i 6 yanvar)

"Xalq komissari Sorokin kanoti ostidagi millatchilar o'zbek uquvchilarini o'zbek tilini darsliklardan o'rganish imkoniyatidan mahrum qildilar. xalq komissari esa kotibalardan tashkil topgan o'tib bo'lmas to'siq orqasiga, kabinetiga o'tirib olib, tashqarida nima bulaётganidan bexabar". Bu davrda matbuotda bunday ayblarning yezilishining o'zi insonni sud va tergovsiz otib tashlash uchun kifoya edi.

Yuqorida nomi zikr etilgan K.Sorokin 1936 yil iyul oyida respublika xalq ma'orifi komissari qilib tayinlangan edi. U 15 oygina xalq komissari bo'lib ishladi. 1937 yilning 29 sentabrida uni xibsga olishdi. so'ngra uning rafikasiga ham xibsga olish to'g'risidagi orderni ko'rsatishdi. Biroq uni (Gulsum Abduraxmanova) o'sha vaqtda xomilador ekanligi kutkarib koldi. Uni qamoqdan chikarib, yashab turgan uyini tezda b o'shatib qo'yishni talab qilishdi. U ikki yosh gudagi bilan kaynonasining kichik bir uyiga kuchib o'tdi.

U Stalinga, Voroshilovga, Beriysaga maktublar yezdi. Lekin "Eringiz xat yozishish huquqlaridan mahrum etilgan holda 10 yilga hukm qilingan degan mazmundagi javoblar Beriysa imzosi bilan kelardi. Keyinchalik qamoq muddati xatlar bo'yicha ikki baravar ko'paytirildi. Eri xibsga olingandan uch oy keyin otib tashlanganligidan bexabar Gulsim opa har oyda erining turmada kun kechirishi uchun NKVD kassasiga oltmish sumdan pul to'lab turdi. U bu yillar hatto, "dohiy" tezda adolatni tiklaydi, deb kutdi. Xatto, o'zining 1938 yil yanvarda t o'g'ilgan qiziga Stalinning qizi sharafiga Svetlana deb nom ham qo'ygan edi.

("Pravda Vostoka" gazetasi, 1937 yil, 15 sentabr.)

Stalincha mustabid hokimiyati dastidan milliy jumhuriyatlar mustaqilligi, suverenligi barbod etilibgina kolmay, shu bilan birgalikda ularning fuqarolari ichki e'tikodi, asrlar osha davom etib kelgan milliy qadriyatlari, urf-odatlar, rasm-rusmlari, diniy e'tikodlari ham toptaldi.

Dinni, ruhoniylar va dindorlarni ta'kib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga nihoyat darajada zarar yetkazdi. Ma'muriy islohot tartiboti urnatilishi bilan dinga ilmiy, milliy nuqtai nazardan yendoshish inkor etila boshladi. "Sotsializmga dinga o'rin yo'q, unga din begona" degan qoida ustun bo'lib koldi. Na masjidlar, na cherkovlar, na dindorlar shu qadar mikesdagi ta'kiblarni hech qachon boshidan kechirmagan edilar.

Respublika ruhoniylarining asosiy qismi 30-yillarda konsentratsion lagerlarga jo'natildi. Masjidlar bekitib qo'yildi. Ularning aksariyati otxonalar, omborxonalariga aylantirildi.

Bu qilingan ishlar, shubhasiz, millionlab kishilarning shaxsiyatiga, milliy g'ururi, his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Hatto shunday holatlarga ham duch kelindiki, jumhuriyatimizdagi ko'plab xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o'tkazib turiladigan tintuv paytida arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmunini surishtirib ham o'tirmasdan, o'sha xonadon

sohibiga jamiyatga yot unsur shaxs degan la'nat tamg'asi bosilib, uni qamoq yoki surgun jazosiga mahkum etilardi.

Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi Begovul qishlog'ida ilmi, yaxshi fazilatlari bilan elda hurmat qozongan, ayollarni o'qitib, savodli qilgan mo'tabar onaxon Bibijon Ismoilovani 80 yoshida diniy kitob o'qishda ayblab, qamoqqa olishgan va momo qamoqda og'ir ahvolda vafot etgan. Holbuki, uyiga o'sha quzg'unlar bostirib kirgan kechada Bibijon momo o'zining hamisha o'qib yuradigan sevimli "ahloqul-muxsinin" (yaxshi xulqlar) kitobini o'qib o'tirar va bu asar go'zal insoniy fazilatlar ta'rifidan hikoya qilar ekan. U davrlarda nohaq ayblanib mushtipar momo singari fojeali qismatga duchor bo'lganlar ko'plab uchrardi. Bunday hollardan sarosimaga tushgan odamlar avvalgidek kitobxonlik nari tursin, hatto eski kitoblarni qo'lga olishdan uni uyda asrashdan ham hadiksiraydigan bo'lib qolgandilar. (Qaralsin: M.Sodiqov. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz, -T., "Kamalak", 1992, 38-bet).

Bu xildagi bedodliklar, battolliklar orqasida xalqimizning qadim-qadimdan, avlodlar osha avaylab, saqlanib, asralib kelingan ko'plab nodir ma'naviy qadriyatlari, milliy udumlari, urf-odatlari zavol topdi, yemirildi, odamlarning esa muteligi, ma'naviy, ruhiy majruhligi kuchayib bordi.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, Stalincha mudhish yillarda ham o'z iymon e'tiqodini sotmagan, o'z fikridan qaytmagan, o'z g'oyasiga sodiq bo'lgan yurtdoshlarimiz ko'p edi. Ularning tirik qolganlari mustaqilligimizga erishishimizga o'z hissalarini qo'shdilar va qo'shmoqdalar.

3. 40-50-yillardagi qatag'onliklar, uning 80-yillardagi yangi ko'rinishlari

Fashizmga qarshi urush tamom bo'lgandan keyin oradan ko'p o'tmay barcha respublikalar singari O'zbekiston bo'ylab yana bir yalpi terror to'lqini bo'lib o'tdi. 30-yillardagi qatag'onlar asosan partiya, sovet, xo'jalik va harbiy kadrlarga bo'lgan bo'lsada 40-50-yillardagi qatag'onlar esa asosan madaniyat va ilm fan arboblari taalluqli bo'ldi.

Sobiq ittifoqdagi hukmron partiya markazqo'mi urush yillarida fashizm asoratini, nemislar bosib olgan yerlarda odamlar ongiga fashizm mafkurasining ta'siri bo'lganligini va buning oqibatida matbuot, san'at va adabiyotda- g'oyasizlik siyosatdan yiroq turish, hayotiy haqiqatni buzib ko'rsatish, realistik traditsiyadan chetlashish, umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik paydo bo'lganligini ro'kach qilib, 1946 yilning avgustida "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqidagi, 1948 yilda "ulug' do'stlik" operasi haqidagi nohaq qarorlar qabul qildi. Ularda sovet adabiyoti va san'atining bir qancha talantli xodimlarining ijodiga nohaq va asossiz ayblar qo'yildi. Partiyaning adabiyot va san'at masalalariga oid qarorlarini amalga oshirish vaqtida matbuotda va ijodiy tashkilotlarda ba'zan xatolarga va buzish hollariga yo'l qo'yildi: badiiy problemalarni ijodiy muhokama qilish ba'zan ma'muriyatchilik bilan almashtirildi, adabiyot, musiqa va kino asarlariga baho berishda ayrim hollarda ba'zi asarlar asossiz tanqid qilinsa, ba'zilar asossiz maqtaldi.

Bu qarorlar (bular o'sha davrdagi bosh ideolog A.A.Jdanovning tashabbusi va ko'rsatmasi bilan qabul qilingan edi) ning bajarilishi butun mafkurani, shu jumladan ijodiyotni, adabiyot va san'atdagi demokratik taraqqiyotni ko'p yillar davomida bo'g'ib qo'ydi. Qarorlarning salbiy ta'siridan O'zbekiston va uning

partiya tashkiloti ham chetda qolmadi. 40-yillarning oxiri, 50-yillarning boshlaridagi O'zK partiya Markazqo'mining barcha byuro yig'ilishlarida, 1952 yilda bo'lib o'tgan Markazqo'm X Plenumida millatchilikka qarshi niqob ostida o'zbek xalqining madaniy merosiga, badiiy va ilmiy ziyoliylarga qarshi kurash boshlandi. Respublikaning ko'pgina yozuvchilari, olimlari, partiya va davlat arboblari millatchilikda ayblandilar. "Ayrim o'zbek yozuvchilarining ijodida, -deb ko'rsatilgan edi. O'ZKP b MQning 1949 yil 25 indagi buyruq qarorida-millatchilik, milliy chegaralanish, feodal o'tmishni ko'klarga ko'tarish va eski feodal madaniyat oldida qullarcha ta'zim qilish hollari sezilib turadi". Qarorlarda A. Qahhor, G'.G'ulom, A. Qayumov, M. Shayxzoda, Oybek, Mirtemir, Uyg'un, M. Boboev, U. Rashidov, Shukrullo, S. Ahmadlarning ijodi qattiq tanqid ostiga olindi. Ayniqsa o'z sahifalarida o'quvchilarni tartibsizlikka undovchi maqola va badiiy asarlar berib borganligida, komopolitizm (siyosatdan yiroqlashishda) ayblangan Oybek rahbarligida chiqib turgan "Sharq yulduzi" jurnali keskin tanqid ostiga olingan edi.

1951 yilning 8 aprelidagi O'ZKP b MQ byurosida "O'zbekiston SSRda musiqa sa'natining ahvoli va uni yanada rivojlantirish choralari to'g'risida" qabul qilingan qarorda musiqa san'ati hayotdan yiroqlashishda, o'zbek xalqini yangi jamiyat qurish ruhida tarbiyalashga xizmat qilmayotganlikda ayblandi. Klassik va milliy musiqalar, maqomlar, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Alpomish" kabi asarlarni targ'ibot qilish taqiqlandi. Qo'shtirnoq ichida Millatchilarga kosmopolitlarga, panturkchilarga qarshi matbuotda keng kompaniya boshlandi. 1951 yilning 10 avgustida respublika matbuotida Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A. Bobojonov, S. Abdullayev, Xabibiylar ijodini keskin qoralagan "Ayrim shoirlar ijodida mafkuraviy buzilishlar" nomli maqola bosilib chiqdi. 1951 yilning 24 avgustida e'lon qilingan maqolada Oybek, X. Zaripov, X. Yoqubov, I. Sulton kabi ilmiy xodimlar "mafkuraviy xato va buzilishda" ayblandilar.

M. Shayxzoda, Shukrullo, Yusupov, G'ulom Alimov va yana bir qancha shoir, yozuvchilar 1951 yilda "sovet tuzimiga qarshi millatchilikda" ayblanib qamoqqa olindilar va 1952 yilda 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar.

Respublikada 50-yillar qatag'onligini boshlab berishda hukmron partiya markazqo'mi qarorlarini O'zbekiston hayotida tadbiq etishda O'zK partiya markazqo'mining 1952 yil 21-22 fevralida bo'lib o'tgan X plenumi va uning qabul qilgan qarorlari katta rol o'ynadi. Plenumda tinglangan va muhokama etilgan birinchi kotib A. Niyozovning "Respublikada ideologiya ishlarining ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida" gi dokladida shunday deb ta'kidlangan edi: "Keyingi ikki yilda respublikada adabiyot xodimlari orasidan sovet tuzimiga qarshi, millatchilik kayfiyatida bo'lgan guruh ochib tashlandi. Bu guruh Sovet davlatiga qarshi dushmanlik ishini olib bordi. Bu guruh a'zolari oldin ayblangan millatchilar bilan yaqin aloqada bo'lganlar, ular mafkuraviy buzuvchi mazmundagi she'rlar yozib, millatchilarning Sovet tuzumiga qarshi asarlarini ideallashtirib, ommaga tarqatganlar".

Plenumda jamiyatshunos-olimlarga ham nohaq ayblar qo'yildi. Jumladan faylasuf V. Zohidov "burjua millatchisi", tarixchi A. Boboxo'jayev "panturkizmni

targ'ib etuvchi", iqtisodiyotchi A.Aminov esa "burjua millatchilari bilan aloqa qiluvchi" lar sifatida ayblandilar.

50-yillarning boshlarida yana 60 tacha eng ko'zga ko'ringan qobiliyatli olimlar va yozuvchilar, san'at arboblarning ro'yxati tuzilib, ularni ham millatchi, aksilinqilobchi va hokazo ayblar ostida jinoiy jazoga tortishga urindilar. Bu ofatlardan qutilish juda qimmatga tushdi. Lekin adolat, garchi tezda bo'lmasada, harqalay tiklangan edi. O'zbekiston ilm-fani, madaniyatining asossiz qatag'on qilingan ko'pgina arboblari 1956 yilda batamom oqlandilar. 1940 yillarning oxirlarida surgunga yuborilganlarning hammasi ozod qilindi. Yo'qotish ro'yxatiga qo'shilgan, xalqimizning faxri bo'lgan 60 ta ziyolilarimiz ustidan tayyorlangan hukm bekor qilindi. Zulmlarga qarshi adolat o'rnatilgan bo'lsada Stalinizm vujudga keltirgan totalitar tuzum bedodligi va beshafqatligi xalqimizning orzu umidlarini chilparchin qildi, suveren huquqlari-milliy mustaqilligini zavol toptirdi. O'zbekiston oyoq qo'li kishanlanib, markaz deb atalmish zo'ravon hokimiyat iskanjasiga tushib qoldi. Uning til zaboni kesildi, alfaviti o'zgartirildi, o'tmishi, tarixi ko'zdan yiroqlashtirildi.

Stalin shaxsiga sig'inish tufayli ro'y bergan qatag'onlik siyosati sobiq mamlakat miqyosida 50 milliondan ortiq kishini o'z domiga tortdi.

"Moskovskie novosti" gazetasining 1988 yil 27 noyabr sonidagi Roy Medvedevning "Skolko jertv v godu kulta lichnosti Stalina?" nomli maqolasida Qatag'on qilinganlar soni yillargacha taqsimlanib quyidagicha berilgan:

1927-1928 yil- 10 minglab "Trotskiychilar"

1930-1933 yil- 10 milliondan ortiq "Quloqlar"

1933 yil 8 oyida bo'lib o'tgan ochlik natijasida-6 million kishi

1937 yilgacha- 17-18 million kishi

1937-1938 yil- (Buyuk terrorlar yillari)- 7 million kishi

1938-1940 yil- Polyak oilalari, Boltiq bo'yi aholisidan- 2 million atrofida

1942-1944 yil 3 milliondan ortiq kishi - chechen, qrim-tatar, grek, turk, kurd va hokazo xalqlar ko'chirildi. Ularning 1 milliondan ortig'i ko'chish jarayonida qiyinchiliklar natijasida vafot etdilar.

1945-1946 yil- 5 million atrofida

1947-1953 yil- "Leningrad ishi", "Vrachlar ishi" va "Kosmopolitlar ishi" bo'yicha 58 modda bo'yicha ("Sotsializmga qarshi propaganda" aybi bilan)- 1 milliondan ortiq kishi.

Urush davrida sobiq ittifoq xalqining 30 millionga yaqini kirilib ketdi. Urushsiz, nohaq ayblar bilan 50 million kishini asossiz qatag'on qilinishi totalitar tuzumni, uning rahbari bo'lgan Stalinni umuman oqlash mumkin emasligini isbotlab turibdi.

Buning ustiga sobiq ittifoq tarixchi olimlari o'rtasida bo'lib o'tgan voqealarga, jarayonlarga Stalinni to'liq aloqasi yo'qdir, ko'p qatllar uning xabarisiz bo'lgandir, ko'p hukmlar usiz bo'lganku" degan fikrlar uzoq davom etdi.

Arxiv hujjatlari totalitar tuzumni qaror topishida, qatag'onlik siyosatining butun mamlakat bo'ylab yoyilishiga uning har bir hukmida shaxsan Stalinning ishtiroki va rahnamoligi borligini tasdiqlaydi.

1934 yil 1 dekabrda Stalinning ko'rsatmasi bilan Markaziy Ijroya qo'mitasi kotibi Yenukidze imzo qo'ygan, "qo'lga olinganlarning ishi tezlatilsin ular kechirilmasin, hukmlar tezda amalga oshirilsin" degan mazmunda derektiv hujjat e'lon qilingan edi.

1937-1938 yillarda minglab sovet, partiya, komsomol va xo'jalik xodimlari va harbiylar ism-shariflari keltirilgan, tayyorlangan va hukm e'lon qilingan 383 ta ro'yxat Stalin tasdig'iga berildi. U hech ikkilanmasdan bu ro'yxat va hukmlarni tasdiqladi.

1937 yilda VKP markazqo'mi nomidan ichki ishlar xalq komissarligi organlariga qamalganlarga nisbatan jismoniy usullar qo'llash to'g'risida ko'rsatma ham berildi. RF sobiq firqa hujjat asrovi manbalaridan.

1939 yil 20 yanvarida Stalin markazqo'm tomonidan Respublikalar partiya markazqo'mlariga, viloyat, o'lka partiya qo'mitalariga, ichki ishlar xalq komissarlari va ichki ishlar boshqarmalari boshliqlariga telegramma yuborib, kulag* olinganlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish usullaridan foydalanish, bu usulni doimiy qo'llashni talab qildi. Jumladan unda shunday deyilgan edi: "VKP markazqo'mi shuni bildiradiki jismoniy kuch ishlatish usulini qo'llash 1937 yildan buyon NKVD ish tajribasida qo'llanilmoqda va unga VKP markazqo'mi ruxsat etgan. Nima uchun sotsialistik davlat xavfsizligi organlari burjuaziya quturgan agentlarga ishchilar sinfi va kolxozchilarning ashaddiy dushmanlariga nisbatan insonparvar bo'lishi kerak? VKP markazqo'mi bundan buyon ham xalq dushmanlariga qarshi jismoniy kuch ishlatish usulidan foydalanishni tavsiya etadi va uni eng to'g'ri va maqsadga muvofiq usul deb hisoblaydi".

Shaxsga sig'inish yillarida shaxsan Stalinning ko'rsatmasi asosida jazolar qattiqlashtirildi va jinoiy sud ishida shaxs huquqi garantiyasi yo'q qilindi. Bu o'z navbatida o'zboshimchalik va qonunsizlikka yo'l ochib berdi. 1934 yil 10 iyulda sobiq ittifoq partiya markazkomining "Alohida kengashlar tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bu qaror asosida OGPU, NKVD xodimlaridan iborat "uchlik", "ikkilik" kengashlari tuzildiki, ular sudsiz xohlagan kishini chiqarib, yo'q qilish imkoniyatiga ega edi.

Ko'rinib turibdi-ki, yuqorida zikr etilgan hujjatlarning hammasi 20-yillardan to "dohiy" vafotigacha bo'lib o'tgan barcha xunrezliklar shaxsan Stalin qo'l ostida amalga oshirilganligini tasdiqlab turibdi. O'sha davr mamlakat bosh prokurori Vishinskiy, NKVD, OGPU, ichki ishlar komissarligi rahbarlari Yagoda, Yejov va Beriylar esa, Stalin yaratgan qatl apparatini yurgizishga butun kuchi bilan yordam berdilar. Ular "dohiy"ning maqsadlarini amalgam oshirishda "sodiq qul" sifatida xizmat qildilar.

Sobiq hukmron firqa va sho'ro hukumatining qatag'onlik siyosati 80-yillarda yana o'z apparatini yurgiza boshladi. Biroq, endi bu siyosat markaz tanlagan ayrim Respublikalarda amalga oshirila boshlandi.

Shuni takidlash joizki, sobiq ittifoq avval boshdanoq soxta, ko'rama edi. Unga respublikalar majburan birlashgan edilar. Shuning uchun ham ular o'z xalqi, milliy davlatchiligi qadriyatlarini, xohish-irodasi inobatga olinmagan bu ittifoqdan butunlay norozi edilar. Ammo undan chiqishning iloji yo'q edi. Garchi sobiq ittifoq

Konstitutsiyasida bunday qoida mavjud bo'lsada, kuchli markaz, armiya, davlat xavfsizligi qo'mitasi kabi asosiy kuchlar bu ittifoqning tayanch nuqtalari edi.

Sho'rolar tuzumining qariyb 70-yillik hukmronlik davrida to'planib qolgan muommalar 80-yillar o'rtalariga kelib yuzaga chiqa boshladi. Endi kuch bilan ittifoqni saqlab qolish mumkin bo'lmay qolgandi. M. S. Gorbachev sobiq ittifoq hukmron partiyasi rahbari bo'lgach yangi hokimiyat sho'ro jamiyati to'qnash kelgan qiyinchiliklar va to'planib qolgan muammolarni hal qilmasdan turib mavjud davlat va tizimni saqlab qolish mumkin emasligini anglab yetdi. Natijada jamiyatni yangilash, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayotda jiddiy o'zgarishlar qilish yo'llari izlana boshladi.

Hukmron firqa markazqo'mining 1985 yil (aprel) plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib, sho'ro jamiyatini va yangilash zarurligi borasida ko'rsatmalar berdi. Natijada O'zbekistonga "kadrlar desanti" yuborildi. SSSR prokuraturasi xodimlari, ashaddiy shovinistlar Gdlyan va Ivanovlar rahbarligidagi tergovchilar guruhi O'zbekistonga kelib "eng shimarib" ishga kirishdilar. Gdlyan va Ivanovlar boshchiligida markazdan yuborilgan tergovchilar markazning qo'llab quvvatlashi bilan ular " o'zbeklar ishi", "Paxta ishi", " o'zbek mafiyasi" degan soxta uyudirmalarni to'qib chiqardilar. Bundan maqsad o'zbek xalqini, O'zbekistonni nafaqat ittifoqda, qolaversa dunyoda badnom qilish, jazolash va shu yo'l bilan boshqa ittifoqchi respublikalarni cho'chitib qo'yish edi. Afsuski, O'zbekistonning o'sha vaqtdagi rahbarlari buni ko'ra-bila turib lom-lim demadilar, aksincha desantchilarga ko'maklashdilar. Buning oqibati esa ularning o'zlari uchun ham halokatli bo'ldi.

Desantchilar o'zbek xalqini ko'zbo'yamachilikda, poraxo'rlikda, qo'shib yozishlarda, boqimandalikda va hokazolarda ayblab, firqa va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlargacha taqib ostiga oldilar. Birgina soxta, o'ylab chiqilgan "Paxta ishi" natijasida 25 mingga yaqin respublikamiz fuqarolari qiynoqlarga solindi, sudsiz, tergovsiz qamaldi. Bularni orasida keksalar, homilador ayollar, nogironlar ham bor edi.

Aybsiz kishilarga jismoniy kuch ishlatish, qo'rqitish yo'li bilan ayblar qo'yildi. Oddiy mehnatkashlardan katta miqdorlarda pul, o'z rahbarlari to'g'risida noto'g'ri ko'rsatmalar berish talab qilindi. Respublikada "adolatsizliklar", qo'shib yozishlar haqida markaziy gazeta-jurnallarda, radio va televideniyada muntazam xabarlar bosilib, millatimiz sha'ni badnom, sharmanda qilindi.

Bunday holat respublikada amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy islohotlarga ham chuqur salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatdagi mavjud ma'muriy islohot tizimi, "kadrlar desanti" siyosati natijasida yanada ko'chaygan "qo'rquv" iqtisodiy va ijtimoiy sohada jiddiy qayta qurilishlarga olib kelmadi. Xo'jalik hisobi yoki brigada pudratiga o'tkazilgan bir qancha sanoat sohalari, qurilish va transport korxonalari, paxtachilik brigadalari, sovxozlar bulimlari deyarli isloh qilinmagan vazirliklar va idoralarning eskicha to'ralarcha ish olib borishlari natijasida islohotlar yo'lidan bora olmadilar. Bu hol mehnat jamoalari tashabbusi va faolligini bo'g'ib qo'ydi, fan-texnika taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ldi. Natijada butun sobiq ittifoqda bo'lganidek, O'zbekistonda ham ijtimoiy- iqtisodiy

rivojlanishda tub o'zgarishlar yaratishga qaratilgan qayta qurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Qayta qurishning ittifoqchi respublikalar maqomi va huquqni kengaytirish haqidagi rejalari ham amalga oshmadi. Respublikaning oltin, tog'-kon, gaz, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo kabi muhim sanoat tarmoqlari xam markaz ixtiyorida qolaverdi. Shuni aytish kerakki, bu davrda ittifoq rahbariyati O'zbekistonda faqat paxtani qayta ishlashdan 75 mlrd.rubl foyda olishni bilgani holda, respublikamizni datatsiyalar va moliyaviy yordamga muxtoj, deb uni boqimandalikda ayblashda davom etdilar.

Sobiq ittifoqda va respublikada vujudga kelgan vaziyat, milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarning toptalishi, xalqimiz orasida turli ko'rinishlarda markaz siyosatidan noroziliklarning ko'chayishiga olib keldi. Tahqirlash va kamsitishlardan bezib qolgan xalq o'z haq huquqini talab qilishga kirishdi. Machitlarning yopilishi, diniy e'tiqodning ta'qib qilinishi, hatto eng yaqin kishisi vafot etganda ham uni oxirgi manzilga kuzatishdan cho'chib turish, "Navro'z" bayramining soxtalashtirilib "Navbahor" deb e'lon qilinishi, o'z go'dagiga alla aytib ovutishni ham unutish, millatlararo munosabatlarning atayin keskinlashtirilishi (Farg'ona, O'sh, Qo'qon, Parkent voqealari) va boshqa holatlar xalqimizning ko'zini ocha boshladi.

Sekinlik bilan bo'lsa-da xalqimizning ijtimoiy-siyosiy faoliyati o'sib bordi, milliy uyg'onish jarayoni boshlandi. O'sha davrda "Birlik", "Turkiston", "To'maris" kabi xalq, manfaatini himoya qiluvchi harakatlar, "Erk" demokratik partiyasi faoliyat ko'rsata boshladi. Afsuski millat ozodligi va mustaqilligi yo'lida ijobiy ishlarni boshlagan bu harakat va partiyalar keyinchalik millatchilik pozitsiyasiga o'tib ketdilar.

1989 yilda I.A.Karimovning O'zbekiston qo'mfirqa Markazqo'miga birinchi kotib etib saylanishi bilan respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar davri boshlandi. O'z siyosiy faoliyatining birinchi kunidanoq mustaqillik yo'lida prinsipial pozitsiyani egallagan I.Karimov mustaqilligimizning haqiqiy ijodkori, qo'rqmas, botir kurashchisi sifatida siyosat yurita boshladi.

Natijada O'zbekistonda siyosiy va iqtisodiy mustaqillik yo'lida dadil qadamlar tashlandi. "Paxta ishi" qayta ko'rib chiqildi, millatlararo munosabatlarga to'g'ri baho berilib, turli adolatsizliklarga chek qo'yildi.

1989 yil 21 oktabrda mustaqillik yo'lida birinchi muhim qadam tashlandi. Shu kuni Respublika Oliy Kengashi muhim tarixiy hujjat - O'zbekiston SSRda o'zbek tiliga davlat tili maqomini bergan "Davlat tili to'g'risida" gi qonunni qabul qildi. Ayni vaqtda, rus tilidan millatlararo muloqotdan erkin foydalanish saqlab qolindi. Bu qonun o'zbek xalqining milliy o'z o'zini anglashida, respublikada millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1990 yil fevral oyida O'zbekiston Oliy Kengashida ilk bor o'tkazilgan ko'p mandatli demokratik saylovlar xalqimiz faoliyatini, uning siyosiy ongini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. 1990 yil mart oyida O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq birinchi sessiyasi mustaqillik yo'lida 2 -muhim qadamni tashladi. Sessiyada sobiq SSSR dagi ittifoqchi respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik tizimi joriy etildi. Shunday qilib 1990 yili 24 martda

I.A.Karimov Oliy Kengash XII chaqiriq 1-sessiyasi tamonidan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylandi.

Mustaqillik yo'lidagi 3 - muhim qadam , mamlakatimiz va xalqimiz tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan hujjat "O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya" ning qabul qilinishi bo'ldi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990 yil iyul oyida bo'lib o'tgan XII chaqiriq, 2-sessiyasida (20-iyul) Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi sobiq ittifoq tarkibida O'zbekiston Respublikasining maqomini belgilab berdi.

12 moddadan iborat bo'lgan va O'zbekistonning yangi konstitutsiyasining va yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqishga asos sifatida qaralgan ushbu deklaratsiyada O'zbekiston Respublikasi o'z haq-huquqlarini bayon qilib, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilashi, hududi va chegaralarining dahlsizligini, o'z hududida hokimiyatni to'la o'zi boshqarishini, xalqimiz qadriyatlariga mos kelmaydigan ittifoq organlari qarorlarini ko'r ko'rona bajarmasligini ittifoqchi respublikalar va xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni shartnomalar asosida rivojlantirish va boshqa muhim talablarni ilgari surib, qonunlashtirdi.

Bu paytga kelib sovet davlatining yemirilish jarayoni tezlashdi. Litva o'z mustaqilligini e'lon qildi. Latviya va Estoniya ittifoq tarkibidan chiqish uchun faollikni ko'chaytirib yubordi. Biroq sobiq markaz hali ham SSSR ni saqlab qolish uchun kurashib, yangi ittifoq shartnomasi loyihalarini taqdim qilishda davom etdi. Ammo e'lon qilingan shartnoma loyihalarida eski ma'muriy islohot tuzimi sarqitlari ustuvor ekanligi sezilib turar edi. Bu hol ittifoqchi respublikalarning markazdan qochish kayfiyatini yanada ko'chaytirdi. Ittifoqni yangilash, uni federatsiya yoki konfederatsiya shaklida tashkil etishga urinishlar ham natija bermadi.

1991 yil 19-21 avgust kunlari sobiq markazni saqlab qolishga tish tirnog'i bilan harakat qilgan qora kuchlar - sobiq hukmron firqa, Armiya, Davlat xavfsizlik qo'mitasi SSSR ning vitse-prezidenti G.Yanayev va uning hamfikrlari A.Lukyanov, Yazov, Kryuchkov rahbarligida harbiy to'ntarish qilib, hokimiyatni qo'lga olish maqsadida GKChP favqulotda holat davlat qo'mitasini tuzib amalda o'zlarining demokratiya, oshkoralik, jamiyatni yangilash, islohotlarga, umuman xalqqa qarshi ekanliklarini ko'rsatdilar.

1991 yil avgust voqealari amalda SSSR ning chuqur tanazzuli belgisi edi. Mamlakatdagi demokratik kuchlar GKChP faoliyatiga chek qo'ydilar. Hukmron firqa (KPSS) faoliyati to'xtatildi. Sobiq ittifoqda vujudga kelgan bunday vaziyat uning inqirozini tezlashtirdi. Birin - ketin ittifoqchi respublikalar o'zlarining to'la mustaqilliklarini e'lon qila boshladilar.

O'zbekiston ham 1991 yil 31 avgustida birinchilar qatorida o'z mustaqilligini e'lon qilib, mustabid tuzum hukmronligiga butunlay barham berdi. Bu kun yurtimiz va xalqimiz uchun xur va ozod hayotning boshlanishi edi.

Aziz talabalar!

Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne og'ir sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. o'z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo'lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixiy xotiramizdan hech qachon o'chmaydi.

Ayniqsa, mash'um 1937-1953 yillardagi bedodliklar davrida 100 ming nafar yurtdoshlarimizning qatag'onlikka uchrab, ularning 13 ming nafari otib tashlanganini eslashning o'zi kifoya. (Qaralsin: I. Karimov «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi», 2000 yil, 13 may.)

Bu davr tarixini, voqealar mohiyatini chuqur bilish, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish, yurtimiz ozodligi uchun jon fido etgan ajdodlarimizdan o'rnak olib, erishgan istiqbolimizni mustahkamlashda fidoyi bo'lish, ularning ruhi va o'sha vaqtda ushalmagan orzu-umidlari oldidagi insoniy burchimizdir.

Prezidentimiz aytganlaridek, -bugungi murakkab bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyo qarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralar bosimiga ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amri mahol.

Shu bois zamonaviy bilimlarni egallab, boy ma'naviy merosimizni, haqiqiy tariximizni chuqur o'rganib, uni boyitib shakllanayotgan milliy mafkuramiz mohiyatini o'zingizda jo'qilib, "Jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish" mumkinligini aslo unutmang.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Sho'ro tuzumida ma'muriy- islohotning shakllanishiga, bu tuzumning dastlabki yillaridayoq buzila boshlashiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Shaxsga sig'inish oqibatlari nimalarga olib keldi?
3. Sobiq hukmron firqa va sho'ro hukumatining qatag'onlik siyosatini yurgizishdan maqsadi nima edi?
4. Nima sababdan 20-yillar oxiridagi qatag'onlik aynan sobiq jadidlarga qaratildi?
5. 30 va 50 yillar qatag'onligi aynan tuman, viloyat va respublika rahbarlariga hamda shoir, yozuvchi va olimlarimizga qaratildi. Buning sababi nimada edi?
6. 20-30 va 50 yillardagi qatag'onlik siyosatining og'ir oqibatlarini izohlab bering?
7. Sobiq ittifoq rahbariyatining 80 yillarda O'zbekistonda qatag'onlikning yangi ko'rinishlarini sodir etishdan maqsadi nima edi va u yurtimiz va xalqimizga qanday zahmatlar yetkazdi?
8. Yaqin qarindoshlaringiz orasida qatag'onlik siyosatidan zahmat chekkanlar bormi? Ular haqida so'zlab bering?
9. Bu mudhish tariximizdan qanday saboq chiqara olasiz?

Vazifalar:

1. Qatag'on qurbonlari va ularning taqdiri haqida yozma ish bajarish
2. "Xalq xotirasi oldida bosh egamiz" mavzusida yozma ish bajarish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Qatag'on qurbonlari tarixi" davlat muzeyining begunoh qatl etilganlar xotirasini abadiylashtirishda tutgan o'rni masalasida ma'lumotlar to'plash va ma'ruza tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod , siyosat, mafkura. -Toshkent «O'zbekiston» 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent «O'zbekiston», 1996 y .
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –Toshken-T., «O'zbekiston» 1996 y.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -Toshkent «O'zbekiston» 1996 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent «O'zbekiston» 1998 y.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q -T, «Sharq» 1998
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar. -Toshken-T., «O'zbekiston» 1998.
8. Karimov I.A. Milliy mafkura mamlakat kelajagi poydevori. 2000-yilning 6 aprelida Oqsaroy qarorgohida milliy mafkura masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. O'zbekiston ovozi. 2000 y 8 aprel.
9. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar. 4-jild -T., O'zbekiston . 1996 . 302-320 betlar.
10. Avtorxonov. Kreml saltanati. -T., 1991 .
11. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi.
12. Toxir Qahhor. Hur Turkiston uchun. -T., Cho'lpon . 1994.
13. Murtazayeva R. va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T., 2003. 2005.
14. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., 2001
15. Usmonov Q. va b. O'zbekiston tarixi. -T., 2006.
16. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T., 2000.
17. O'zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., 2001
18. Norjigitova N. «18lar guruhi». //Fan va turmush. 2001. №5.
19. A.Muhitdinov. Kreml da o'tgan hayotim. -T., 1996
20. R. Yo.Rajabova, R. X. Karimov va boshq. O'zbekiston tarixi (1991-1993
21. M . Sodiqov . Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz . -T.,1992 .
22. Tursunov. Istiqloлга intilgan qalblar nidosi -T., 1993,
23. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun -T., 1994
24. Shukrullo. Kafansiz ko'milganlar -T., 1991.
25. Usmonov Q, Sodiqov M. va b. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida -T., «O'qituvchi», 1996.
26. Hasanov M. Fayzulla Xo'jayev. -T., «O'zbekiston», 1990.
27. Xo'jamberdiev Yo. O'zbeklar ishi. -T., «Yozuvchi», 1990.
28. Sharofiddinov O. Cho'lpon. -T., «Cho'lpon», 1991.
29. K. Ergashev. O'zbekistonda xalq talimining rivojlanish tarixi. -T., «O'qituvchi», 1998
30. Q. Ergashev. Yaqin tariximizning mudhish bir bo'lagi. «Ta'lim

tizimidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar» 2004 y. №1, 81-88 b.

31. S. Tursunov, D.Bo'riyev. Etnologiya tarixni bilish demakdir. «Ma'rifat» -T., 2004 y.

32. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida 2-jild. -T., 2001., 312-410-b.

33. O'zbekiston tarixi -T., «Yangi asr avlodi» 2003 y. 461-471 betlar.

34. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 3 kitob. –Toshkent:Sharq, 2010

14 – mavzu. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

Darsning o'quv maqsadi: Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar keltirish va urushning respublika ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ta'sirini ko'rsatib berish. Mustaqillik yillarida Xotira va Qadrlash kunining joriy etilishi ahamiyatini tushuntirish.

Tayanch iboralar: SSSR, Germaniya. Fashizm, II jahon urushi, xo'jalikning harbiy izga o'tkazilishi, urushning dastlabki oylaridagi qurbonlar, umumiy safarbarlik, front ortini mustahkamlash, sanoat korxonalarini ko'chirish, front ortidagi mashaqqatli mehnat, o'zbek xalqining buyuk gumanizmi, qochoqlar va ko'chirib keltirilgan xalqlarga nisbatan mehribonlik, jangchilarimizning jasorati, M.Topiboldiyev, general S. Rahimov, Zebo G'aniyev, O'zSSR FA, urushning oqibatlari, Xotira va Qadrlash kuni.

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. O'zbekistonning kuch va vositalarining urushga safarbar etilishi.

2. SSSRning frontga yaqin g'arbiy viloyatlaridan O'zbekistonga sanoat korxonalari, ilmiy madaniy muassasalar va bolalarni ko'chirib keltirilishi.

3. Urush yillarida O'zbekiston sanoati, qishloq xo'jaligi hamda fan va madaniyati.

4.O'zbekistonlik jangchilarning frontdagi jasoratlari.

Asosiy qism

O'zbekistonning kuchlar vositalarini urushga safarbar etilishi. Insoniyat boshidan kechirgan urushlar ichida har tomonlama eng dahshatli bo'lmish ikkinchi jahon urushi 1939 yil 1 sentabrda boshlandi. Bu urushning asosiy aybdori Adolf Gitler boshliq Germaniya fashistlar davlati edi.

Urush Gitler Germaniyasining Polsha davlati ustiga yurushi bilan boshlanib juda qisqa vaqt ichida dunyoning ko'pgina davlatlarini o'z domiga tortdi.

1941 yilning 22 iyunida fashistlar Germaniyasi sobiq SSSRga juda katta kuch bilan xiyonatkorona hujum qilib, Sovet Ittifoqining G'arbiy hududlaridagi shahar va qishloqlarini birin-ketin bosib ola boshladi.

Sovet xalqining nemis-fashist bosqinchilariga qarshi muqaddas urushi boshlandi. Ma'lumki, 1939 yil 23 avgustda fashistlar Germaniyasi bilan SSSR o'rtasida bu har ikkala davlatning tashqi ishlar vazirlari V.Molotov va Ribbentron imzosi bilan 10 yil bir-biriga hujum qilmaslik to'g'rsida bitim tuzilgan edi. Bu bitimni SSSRni o'sha vaqtdagi rahbari A.Gitler dunyoni o'zaro bo'lib olish maqsadlarini ko'zlab tuzgan edilar. Bitimga ko'ra Germaniya o'z hududlarini Polsha hisobiga kengaytirishga kirishgan bo'lsa, SSSR 1939 yil sentabr oyining ikkinchi yarmida G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya yerlarini egallab olib Finlandiyaga qarshi urush olib bordi (1939 yil 30 noyabrdan 1940 yil 12 martgacha). Tez orada SSSR bilan gitlerchilar Germaniyasi o'rtasidagi bu shunchaki bitim yuqorida aytib o'tganimizdek Germaniya tomonidan buzilib SSSR urushga tortildi.

Nemis fashist qo'shinlari urushning dastlabki oyidayoq mamlakatning Shimoliy-G'arbiy yo'nalishida 400 kmdan. 600 kmgacha uning ichkarisiga kirib borib shiddat bilan oldinga tashlanmoqda edi. Dushman Latviya, Litva, Belorussiyaning katta qismini va Ukrainaning o'ng sohilini egallab olgan Leningrad, Smolensk, Kiyev kabi shaharlarga xavf solayotgan edi.

Urushgacha aholining 45 foizi istiqomat qilib yalpi sanoat mahsulotlarining 33 foizini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 54 foizini ishlab chiqargan hududlar dushman qo'lga tushib qolgan edi. Dushman qo'shinlarining urushning dastlabki oylarida qo'lini bunday baland kelishining qator obyektiv va subyektiv sabablari bo'lib, bular I.V. Stalinning mamlakat kuch va vositalarini urushga yetarli tayyorlanmagan, gitlerchilar Germaniyasi tomonidan mamlakatga solinayotgan harbiy xavfga hududiy e'tibor bermagani 1939-1941 yillarda SSSR bilan Germaniya o'rtasidagi tuzilgan savdo shartnomalari sovet ittifoqiga katta zarar yetkazgani va nihoyat urush arafasida 40 000 dan ortiq harbiy sarkardalar va mutaxassislarni shaxsan Stalin tomonidan qatag'on qilingani va boshqalar edi.

Bunday sharoitda mamlakat uning aholisi shu jumladan qurolli kuchlari uchun jiddiy hayot mamot xavfi vujudga keldi.

Butun mamlakat singari uning o'sha vaqtdagi bir tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston uning xalqi uchun ham jiddiy xavf paydo bo'ldi.

Shu tufayli O'zbekistonda ham umumiy safarbarlik e'lon qilinib Respublikaning butun imkoniyatlari, kuch va vositalari urush manfaatlariga safarbar etildi.

Avvalo Respublikaning hamma yerida kommunistik partiya va sho'rolar rahbariyati tashabbusi bilan mitinglar o'tkazildi. Bu mitinglarda fashistlar Germaniyasining mamlakatlarga xiyonatkorona hujumi, dushmanning yovuz maqsadlari haqida gapirilib bunday sharoitda barchani Vatanni yovuz va makkor dushmandan himoya qilish uchun bir jon bir tan bo'lib kurashga da'vat qilindi.

Shunday mitinglardan biri urushning ertasi kuni 23 iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Ko'p ming kishilik bu mitingda qatnashgan ishchilar, ziyolilar, talabalarning vakillari yovuz dushmanning mamlakatimizga qilgan xiyonatkorona hujumiga qarshi o'z nafratlarini izhor qilib, o'z Vatanini front maydonlarida va uning orqasida ko'kragi bilan himoya qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

O'zbekistonning barcha shahar va qishloqlaridan frontga, yovuz dushmanga qarshi jang qilish istagini bildirib ko'ngililardan joylardagi harbiy komissariatlarga arizalar tusha boshladi.

Urushning dastlabki oylaridayoq bunday ariza berganlar soni 32 000 ortgan edi. Urushning dastlabki kunlaridayoq o'n minglab O'zbekistonliklar qalb amri bilan frontga, Vatan himoyasiga ketdilar.

1941 yilning 8 iyuliga qadar Samarqand viloyatida 1316 kishi Xorazm viloyatidan 1156 kishi, Toshkent viloyati buyicha 932 kishi, Farg'ona viloyati bo'yicha 1735, Andijon viloyati bo'yicha 798, Namangan viloyati bo'yicha 267 kishi frontga ketdi.

Respublikamizdan yoshi, sog'lig'i jihatdan frontga yaroqli kishilar doimiy ravishda Vatan himoyasi uchun jo'natib turildi.

Urush boshlangan O'zbekiston SSSR deb atalmish davlatning front orqasidagi muhim tayanchlaridan biri deb qarala boshladi.

Respublika frontga lashkarlar, vatan himoyachilarini yetkazib berish bilan birga qurol-aslaha, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur nasalarni yetkazib berishi kerak edi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq urushgacha sovet davlatida ishlab chiqariladigan temirning 68 foizini, po'latni 58 foizini, alyuminning 60 foizini beradigan G'arbiy rayonlardagi sanoat korxonalarining ko'pchiligini dushman bosib olgan edi. Shu bois dushman ustidan g'alabani ta'minlaydigan sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish kerak edi. Bu masalada O'zbekiston ham alohida o'rin egallashi zarur edi.

Buni anglab yetgan Respublika Qo'mfirqasi Markaziy Qo'mitasi o'zining 1941 yilning 25 avgustida bo'lib o'tgan byurosida respublikamizdagi mavjud sanoat korxonalari faoliyatini urush manfaatlariga qaratib qayta tashkil qilish tug'risida qaror qabul qildi. Bunga asosan urushgacha tinchilik davriga xos mahsulotlar ishlab chiqarayotgan korxonalar front uchun qurol-yaroq, texnika ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirildi.

1941 yilning oxirlariga kelib 300 zavod va fabrika front uchun mahsulot berayotgan edi. Bundan tashqari elektr energiyasi, yoqilg'i bazalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekiston mehnatkashlari milliy harbiy qismlarni respublika hududida tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. I.V.Stalin boshchiligida 1941 yil 30 iyunda tuzilgan Davlat mudofaa Qo'mitasi bu tashabbusni qo'llab-quvvatladi va 1941 yilning 13 noyabridan bunday milliy harbiy qismlar tuzishga ijozat berdi.

Shundan keyin respublikamizda ko'plab bunday qismlar tuzilib, ularning jangchilari jang maydonlarida mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatdilar.

Mehnatga yaroqli erkaklarning deyarli aksariyati frontga safarbar etilganligini o'z mahsulotlari bilan front ehtiyojlarini qondirishi havodek zarur bo'lgan respublika zavod va fabrikalarida ishchi kuchi, ayniqsa malakali injener-texnik xodimlar yetishmas edi. Bu muammoni hal qilish maqsadida respublikada bir qancha hunar bilim yurtlari qisqa muddatli kurslar, oliy o'quv yurtlari yangidan tashkil qilindi.

Vatan uchun o'ta og'ir bo'lgan bu urush yillarida O'zbekiston xotin-qizlari mamlakat boshiga tushgan fojiani o'z fojialari deb bilib, o'zlarining bor kuch imkoniyatlarini uning himoyasiga uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratdilar. Hali 1941 yilning iyul oyidayoq Ursatvevsk stansiyasida 300 dan ortiq Samarqand shahrida 250 dan ko'proq «Tashselmash» zavodida 220, Andijon paravoz deposida 120 dan ortiq xotin-qizlar frontga ketgan erkaklar o'rnida mehnat qilishga kirishdilar. Xotin-qizlarning bunday tashabbuslari tez orada butun respublika hududlari bo'ylab ommaviy tus oldi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq Respublikada umumxalq mudofaa fondi tashkil qililib, bu fondga hali 1941 yilning 21 avgustigacha 5 million 293 ming so'm pul, zayom obligatsiyalari va qimmatbaho buyumlar topshirildi. Mudofaa fondiga topshirilgan bunday mablag'lar butun urush yillarida ham davom etib, uning hajmi doim ortib bordi. Buni biz 1941-45 yillar davomida bu fondga Respublikamiz mehnatkashlari tomonidan 650 million so'm pul va zayom obligatsiyalari, 22 million so'mlik qimmatbaho buyumlar, 55 kg qimmatli metallarni topshirilganida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib O'zbekiston mehnatkashlari ikkinchi jahon urushi yillarida Gitlerchilar va Germaniyasining sobiq Sovet ittifoqiga qilgan yovuzlarcha hujumini, o'z boshiga tushgan fojia, og'ir hayot mamot sinovi deb baholab, o'zlarining barcha kuch va imkoniyatlarini umumiy, Vatan himoyasiga qaratdilar.

SSSR ning frontga yaqin G'arbiy viloyatlarida O'zbekisonga sanoat korxonalari, ilmiy-madaniy muassasalar va bolalarni ko'chirib keltirilishi

Mamlakat boshiga tushgan harbiy holat front orqasini mustahkamlashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni amalga oshirishni talab qilar edi. Mamlakatni xalq xo'jaligini harbiy maqsadlarga qaratib qayta qurish mamlakatni yagona harbiy lagerga aylashtirishga qaratilgan umumiy dasturning muhim tarkibiy qismi qilib qo'yilgan edi.

Bu masalada Sharqiy rayonlarga, jumladan O'zbekistonga katta e'tibor berildi. Respublika yuqorida aytib o'tilganidek, bu davrda sovet armiyasining orqadagi mustahkam istehkomi, tayanchi bo'lishi kerak edi. Shuning uchun urushning dastlabki oylaridan boshlab mamlakatning boshqa Sharqiy rayonlari kabi O'zbekisonga sovet Ittifoqining ichkari rayonlaridan yuzlab sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlarning mol-mulklari, madaniyat va maorif muassasalari yuz minglab odamlar, bolalar evakuatsiya qilindi (ko'chirildi). O'zbekistonga 100 dan ortiq sanoat korxonalari ko'chirib kelingan bo'lib bular jumlasiga V.P.Chkalov nomidagi Moskva aviatsiya ishlab chiqarish korxonasi, Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, Rosselmash, Krasniy Aksay, Sumo shahridan keltirilgan kompressor, Leningraddan keltirib Samarqand shahrida o'rnatilgan KINAP zavodi, Moskvadan keltirilgan «Podyomnik» «Elektrostanok» zavodlari Stalingrad ximkombinati va o'nlab korxonalar kiradi.

Mamlakat ichkaridan respublikamizga ko'chirib kelingan bu korxonalarni juda qisqa vaqt ichida o'rnatib, ularda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur edi. Chunki mamlakat boshiga tushgan vaziyat shuni taqozo qilardi.

Respublika rahbariyati, uning mehnatkashlari buni anglagan holda bu ishga o'zlarining butun kuch va imkoniyatlarini ishga soldilar. Natijada ko'chirib kelingan korxonalarning barchasi qisqa vaqtlarda o'rnatilib ishga tushirildi.

«Rosselmash» zavodining ayrim sexlari uch hafta ichida qurilib, frontga mahsulot berishni ta'minlangan bo'lsa bu zavodning o'zi ikki oy ichida qurib bitirilgan edi. 1941 yilning oxiriga kelganda Respublikamizga ko'chirib kelingan korxonalardan 50 tasi (yarmi) qurilib bo'lib, ulardan juda zarur front mahsulotlari olinayotgan edi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, yirik sanoat korxonalaridan tashqari Respublikamizga bu og'ir yillarda boshpanasiz qolgan oilalar, yetim go'daklardan 7-6 ming kishi keltirib joylashtirildi. Faqat 1941 yildagina 200 ming bola baolalar uyiga joylashtirilgan edi. O'zining baynalmillik burchiga doim sadoqatli bo'lib qolib kelayotgan o'zbek xalqi ko'chirib keltirilgan aholiga, bolalarga mehribonlik bildirib, ularga mehr – oqibat ko'rsatdi, kiyim-kechak, oziq-ovqat berdi.

Yuzlab, minglab o'zbek oilalari yetim bolalarni saqlab olib ularni o'z bolalari kabi ardoqlab, avaylab, o'stirib, voyaga yetkazib uyli joyli qiladi.

Jumladan, Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov o'z turmush o'rtog'i Bahri opa bilan ota-onasiz yetim qolgan bolalardan 16 tasini olib tarbiyalab voyaga yetkazdilar va mustaqil hayotga uzatdilar. Bunday misollar bu yillarda respublikamizda ko'plab topilar edi.

Shunday qilib, respublikamiz, uning mehnatkashari urush yillarida fashizmga qarshi hayot-mamot janglarini olib borayotgan sovet armiyasining front orqasidagi haqiqiy ishonchli va qudratli tayanchiga aylandi. Bu esa mamlakatning Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozongan g'alabasini ta'min etishga katta rol o'ynadi.

Urush yillarida O'zbekiston sanoati, qishloq xo'jaligi va hamda fan va madaniyati. Mamlakat urushga tortilib uning barcha hududlarida umumiy safarbarlik e'lon qilinib, butun kuch va imkoniyatlar urushga, dushman ustidan qozoniladigan g'alabalarga qaratilar ekan, bunda shu g'alabani ta'min etish imkoniyatini berdigan xo'jalikni barpo etish o'ta dolzarb masalalardan biri qilib qo'yilgan edi. Bu masalani shu davrda bunday o'tkir qilib qo'yilishi biz bundan yuqoridagi fikrlarimizda aytib o'tganimizdek, urushgacha mamlakat og'ir sanoati mahsulotining 60 –70 foizini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham talay qismini yetkazib berayotgan g'arbiy rayonlar dushman qo'lga tushib qolgan edi.

O'zbekiston respublikasi rahbariyati mamlakatda vujudga kelgan bu vaziyatdan kelib chiqib 1941 yilning 25 avgustida respublika Qo'mfirqasi Markaziy Qo'mitasining byurosini chaqirib, unda sanoat korxonalari ishiga rahbarlik qilish uchun hukumat komissiyasini tuzdi. Bu komissiya respublikadagi shu vaqtgacha faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini urushga kerakli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirdi, g'arbiy rayonlardan keltirilgan zavod-fabrikalarni respublika hududlarida o'rnatib harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'min etdi. Bundan tashqari komissiya mudofaa sanoati korxonalarini kerakli yoqilg'i, elektr quvvati va metall bilan ta'minlash borasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Xususan, 1942 yil noyabrigacha Chirchiq, Toshkent energetika sistemalarining quvvatini 160-170 ming kilovatga yetkazish, 4-5 oy ichida Toshkent yaqinida ko'mirda ishlab 60-70 ming kilovatt elektr energiyasi bera oladigan

issiqlik elektro stansiyasi qurish rejalashtirildi. Bundan tashqari bu yillarda respublikada ko'mir, neft va metall ishlab chiqarishni kuchaytirish choralari belgilandi. Natijada Solar, 1-quyi Buzsuz (birinchi navbatini) 2-Oqqovoq (ikkinchi navbatini), Farhod gidroelektro stansiyalarini qurish boshlab yuborildi. Xullas 1942 yilga kelib respublikada xalq xo'jaligini harbiy izga solish ishlari asosan yakunlandi.

Respublika mehnatkashlarining front orqasidagi mehnat jasoratlari tufayli 10 oy ichida Sirdaryo jilovlanib, Farhod GESi bunyod etildi. Uning ikki agregati (birinchi navati) 1946 yili ekspluatatsiyaga topshirildi. Respublikada urush yillarida Tovoqsoy, Oqtepa, Oqqovoq, Qibray, Solar, Qutbozsuv va boshqa gidroelektrostansiyalar qurilib ishga tushirildi. Natijada respublikada elektroenergiya ishlab chiqarish 1940 yildagi 482 million kv soatdan 1945 yilda 1.187 million kv soatga ko'paytirildi. Urush yillarida respublikada yoqilg'i sanoatini rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi. Respublikadagi mavjud eski neft, ko'mir konlari kengaytirilib, Angren, Sharg'un, Qizil qiya va boshqa yangi konlar ochilib ishga tushirildi. Ayniqsa bu yillarda respublikamizda qurilgan sanoat korxonalari ichida yetakchisi bo'lgan Bekobod metallurgiya zavodining 1944 yilning mart oyida qurilib ishga tushishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Urush yillarida Olmaliq shahrida mis koni topilib, ishga tushirilgan bo'lsa, Chirchiq, Qo'qon shaharlarida yirik ximiya sanoati korxonalari bunyod etildi. Shuningdek, bu yillarda to'qimachilik, poyabzal yengil va oziq-ovqat sanoati va transport tarmoqlarini rivojlantirish masalalarida ham ancha ishlar qilindi. Bular natijasida 1941-1945 yillar ichida respublikada 280 ta yangi sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. Natijada O'zbekistonda 1945 yilda 1940 yilga qaraganda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning umumiy hajmi 7 baravarga o'sishi ta'min etilib frontga katta hajmdagi harbiy sanoat mahsulotlari yuborilishi yo'lga qo'yildi.

Urush yillarida respublikamiz sanoati fronga 2090 samolyot, 17342 aviamotor 2318 000 aviabomba, shuncha minomyot, 22 million mina, 560 ming snaryad, 1 millionga yaqin granata, 330 ming poroshut, 5 bronopoyezd va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi.

Biz ma'ruzamizning boshida aytib o'tganimizdek urushning dastlabki 5 oyi ichida fashistlar Germaniyasi qo'shinlari 1941 yilning iyunigacha 75 mln aholi yashab turgan 1,5 mln kv km mamlakat yerini bosib olgan edi. (Sovet Ittifoqining urush arafasidagi aholisining soni 194 mln kishini tashkil etganini hisobga olsak 75 mln juda katta raqam edi.) Urushning boshida dushman bosib olgan katta hududning anchasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rayonlari edi.

Shuning uchun mamlakat aholisining, frontni oziq ovqat kiyim-kechak, sanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash ishida katta qyinchiliklar yuzaga keldi.

Mamlakatda vujudga kelgan bu og'ir vaziyatni muhimligini tushungan O'zbekiston qishloq mehnatkashlari urush sharoitida mamlakatga kerak bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berishga qaratib o'z faoliyatini qayta qurishga kirishdilar.

Biroq bu osonlikcha kechmadi. Urush tufayli markaziy rayonlardan traktorlar, mashina mexanizmlari va boshqa texnika vositalarining respublikaga kelishi uzilib qolganligi, qishloq xo'jaligida mehnat qiladigan ishchi kuchining asosiy qismini

frontga ketganligi (kolxozchilarning 30 foizini frontga ketgan edi.), o'g'it va yoqilg'i bilan qishloq xo'jaligini yomon ta'minlanganligi katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Urushgacha asosan paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan respublika endi paxtachilik bilan birga qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishi, frontga, aholiga paxta bilan birga ko'p miqdorda don, qand lavlagi, pilla, poliz mahsulotlari yetkazib berishi kerak edi.

Bu vazifalarni bajarish o'z-o'zidan bo'lmay qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishga endi qattiqroq, jiddiyroq qarashni talab qilardi. Buni hisobga olgan holda, urushning dastlabki oylaridan boshlab respublika qishloq xo'jaligida ish sharoiti sezilarli darajada og'irlashtirildi. Kolxozlarda majburiy mehnat kuni minimumi urushdan oldingi davrga qaraganda 1,5 marta ko'paytirildi, 12 yoshdan boshlab bolalarga mehnat kuni minimumi belgilandi. Belgilangan mehnat kuni minimumini bajarmagan kolxozchi va ularning oilalari sud javobgarligiga tortilgan.

Respublikamiz qishloq mehnatkashlari shunday og'ir sharoitlarda ham o'z ustilariga yana oshirilgan majburiyatlarni olib, o'zlarining kundalik ish formalarini 1,5 –2 marta oshirib bajardilar.

Urush yillarida qishloq mehnatkashlarining mehnat jasoratlari tufayli respublikada yangi suv inshootlari qurildi, yangi yerlar ochilib, ekin maydonlari kengaytirildi. Jumladan bu yillarda Shimoliy Toshkent kanali, Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari Kosonsoy suv ombori qurildi, Kattaqo'rg'on suv omborini suv bilan to'ldirish boshlandi.

Bu suv inshootlarining qurilishi natijasida faqat 1942-1943 yillardagina respublikaning sug'oriladigan yerlar maydoni 546 ming gektarga ko'paydi. Buning natijasida respublika ham 1942 yili 1940 yildagiga qaraganda g'allani 45% ga ortiq topshirdi.

Biroq shuni alohida qayd qilish zarurki, urush yillarida ham respublikamiz mamlakatni asosiy paxta yetkazib beradigan rayoni bo'lib qolayotgan edi. Ayniqsa frontni bu mahsulotga bo'lgan talabini qondirishda respublika asosiy o'rinni egallashi kerak edi. Buni idrok etgan respublika qishloq ahli 1941 yilda paxta tayyorlash bo'yicha davlat topshirig'ini oshirib bajardilar. Shu yili davlatga 1645, 7 ming tonna yoki 1940 yilga nisbatan 200 ming tonna paxta topshirdilar. Shuningdek 1941 yilda 1940 yilga nisbatan 3 marta g'alla topshirildi.

Respublikamiz qishloq mehnatkashlari urushning keyingi yillarida ham jonbozlik ko'rsatib, mehnat qildilar. Bu yillarda «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!» degan shiorlar ostida mehnat qilish dehqonlarimiz uchun an'anaga aylanib qolgan edi. Ular o'z ustilariga yildan yilga oshirilgan majburiyatlar olib, «o'n ming kilogrammchilar», «O'n besh ming kilogrammchilar» harakatini keng quloch yoydirib mehnat qila boshladilar.

Albatta, bunday mehnat o'zining ijobiy samarasini bermay qolmadi.

1944-45 yillarda urush sharoitida soha uchun katta qiyinchiliklar mavjud bo'lishiga qaramasdan, davlatga paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda yuqori natijalarga erishildi.

Respublikamiz 1944 yilda paxta tayyorlash yillik rejasini muddatdan oldin oshirib bajarib, davlatga 820 ming tonna paxta yetkazib berdi. Bu 1942 yildagiga nisbatan 325 ming tonna ko'p edi. Dehqonlarimiz 1945 yilda ham paxta tayyorlash rejasini muddatdan oldin 100, 6 foiz qilib bajardilar.

Xullas, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mehnatkashlari urush yillarida mamlakatga 4 million 806 ming tonna paxta, 1 mln 282 ming tonna don, 159 ming tonna go'sht, 54,1 ming tonna meva va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berib umumiy g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Albatta bu tarixiy g'alabani qo'lga kiritishda qishloq mehnatkashlari bilan bir qatorda respublikamiz fan, adabiyot, san'at, maorif ahlining ham hissasi katta bo'ldi.

Urush boshlanganch uning dastlabki kunlaridanoq respublikamizga Sovet Ittifoqining g'arbiy mintaqalaridan qator ilmiy muassasalar ilm fan arboblari, laboratoriyalar evakuatsiya qilindi. O'zbekistonga 22 ta ilmiy tekshirish institutlari, 16 ta Oliy o'quv yurtlari, 2 ta kutubxona keltirilgan edi. Bular jumlasiga SSSR fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, tarix, jahon adabiyoti va boshqa ilmiy tadqiqot institutlari kirar edi. Respublikaga evakuatsiya qilingan olimlar ichida SSSR fanlar akademiyasi akademiklari va muhbir a'zolari B.V.Struve, V.D.Grekov, G.O.Graftio, I.A.Kablukov, N.A.Shatalin, V.P.Filatov, Ye.E.Bertels, A.Yu.Yakubovskiy professorlar N.I.Anichkov, N.Vishnevskiy va boshqalar bor edi.

Bu olimlar respublikamizning olimlari bilan birgalikda o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini harbiy sharoit manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib bordilar.

Urush yillarida respublika olimlari, fani oldiga front tomonidan qo'yilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda 1943 yilning sentabrida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil etganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Tashkil etilgandan 1 yil keyin ya'ni 1944 yilda respublika fanining shtabi rolini o'ynagan bu dargohga 22 ta ilmiy muassasalar kirgan bo'lib, bularning barchasida katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilardi. Urush yillarida respublikada oliy va o'rta ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Natijada yangidan bir nechta oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etilib, ularda xalq xo'jaligining turli sohalariga mutaxassis kadrlar yetkazib berish ko'paytirildi. Masalan urush sababli 1941 yilda yopib qo'yilgan Samarqand Davlat Universiteti 1944 yilda o'z faoliyatini boshladi. Namangan, Marg'ilon shaharlarida o'qituvchilar institutlari, Toshkentda teatr, Chimboy va Urganchda pedagogika institutlari faoliyat ko'rsata boshladi. Mavjud Universitet va Institutlarda yangi fakultetlar tashkil qilindi.

1943 yilda respublikada 41 ta oliy, 50 ta O'rta maxsus o'quv yurtlari bor edi. Bular tomonidan urush yillarida xalq xo'jaligiga 20 mingdan ortiq yuqori malakali mutaxassislar yetkazib berildi. Urush yillarida respublikada ilmiy kadrlarni tayyorlashda ham katta ahamiyat berildi. Bu yillarda respublikamiz fanining yetakchilari bo'lmish professorlar -T.,N.Qori Niyozov, -T.,A.Sarimsoqov, -T.,N.Abdullayev, Ya.G'ulomov va boshqa o'nlab olimlar yashab faoliyat ko'rsatdilar. Olimlarimiz bilan bir qatorda urush yillarida adabiyot va san'at vakillari o'zlarining jo'shqin ijodlari, ajoyib asarlari bilan g'alabaga hissa qo'shdilar.

Bu o'rinda Oybekning «Qutlug' qon» romanini, X.Olimjonning «O'lim bosqinchilarga», «Jangchi Tursun», G'.G'ulomning «Men yahudiymen» va boshqa yuzlab asarlarni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston kompozitorlari ham bu og'ir

yillarda chetda turmadilar. Ular ham 1943 yildayoq 400 ga yaqin mudofaa «vatanparvarlik» qo‘shiqlarini yaratdilar.

Ayniqsa respublikamiz san’atkorlarining urush yillaridagi faoliyati tahsinga sazovordir. Ular turli janrlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan 30 konsert brigadasini tuzib, bular kuchi bilan 1942-44 yillarda harakatdagi jangchilar uchun 15 ming marta, jumhuriyatimizda tashkil etilgan gospital va kasalxonalarda davolanayotgan jangchilar uchun 15 ming marta konsert qo‘yib berdilar. Bu konsertlarda xalqimizning ardoqli san’at arboblari H.Nosirova, O.Xo‘jayev, R.Hamrayev, S.Eshonto‘rayeva, M.Turg’unboyeva, Tamaraxonim, Sh.Burxonov, K.Ismoilova, S.Xo‘jayev va boshqalar faol ishtirok etdilar.

Urushda qozonilgan g‘alabada O‘zbekiston kino san’ati xodimlarining ham haqli ravishda hissalar bor. Bu borada K.Yormatov, N.G‘aniyev, Sobitov, Y.A‘zamov va boshqa kino san’ati ustalari ijodlarining ahamiyati kattadir. Ular tomonidan yaratilgan «Nasriddin Buxoroda», «Tohir Zuhra», va boshqa kino asarlarining ahamiyati beqiyosdir.

Qozonilgan g‘alabada urush yillarida ommaning g‘oyaviy –siyosiy jihatdan tarbiyalashda, ularda yuksak «vatanparvarlik» tuyg‘ularini shakllantirishda o‘z sahifalarida chop etilgan dolzarb maqolalar bilan xizmat qilgan gazeta va jurnallarni ham alohida tilga olishimiz kerak bo‘ladi. Urush yillarida respublikamizda 200 ta gazeta (shundan 124tasi o‘zbek tilida), 52 ta jurnal (shundan 32 tasi o‘zbek tilida) chop etilgan.

Bundan tashqari urush yillarida o‘zbek tilida 14 ta front va 12 ta diviziya gazetasi nashr etilgan. Bular «Front haqiqati», «Qizil askar haqiqati», «Sovet jangchisi», «Dushmanga qarshi olg‘a» va boshqalar edi. Bu gazetalarda jangchilarni siyosiy-harbiy tayyorgarligi , jangchilarni dushmangan nisbatan nafrat vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi maqolalar bosilib turgan.

Xullas, fashistlar Germaniyasi ustidan erishilgan tarixiy g‘alabaga respublikamiz sanoati qishloq xo‘jaligi fan va madaniyat xodimlari o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar.

Ko‘pchiligi uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanidan ancha uzoqda bo‘lgan ikkinchi jahon urushi jang maydonlarida o‘zbekistonlik jangchilar yovuz dushmangan qarshi kurash olib borib tillarda doston bo‘ladigan qahramonlik namunalarini ko‘rsatdilar.

Ma‘lumotlarga ko‘ra ikkinchi jahon urushiga O‘zbekistondan 1 mln 433.230 kishi safarbar etilgan. Bu urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etardi. Bu urushda mamlakatimiz xalqining uning jangovar qurolli kuchlarini fashist bosqinchilariga qarshi vatan ozodligi uchun olib borgan kurashida ularning matonati va yengilmasligini butun jahonga namoyish etgan bir qancha jang maydonlari bo‘lgan. Ana shunday jang maydonlaridan biri Brest qal’asi edi. Bu qal’ani ko‘p sonli fashist gazandalarining bir oy davomida quturib qilgan hujumlaridan mardonavor himoya qilib, pirovardida barcha halok bo‘lgan jangchilar ichida bir necha o‘zbek o‘g‘lonlari ham bor edilar. Bulardan biri serjant Doniyor Abdullayev edi. U dushmanning qal’aga qilgan hujumlaridan birida 4 nemisni o‘ldirib o‘zi ham halok bo‘ladi. Brest qal’asini himoya qilishda o‘zlarining jasorati bilan dong taratgan o‘zbekistonlik jangchilar haqida gap ketganda -T.,Aliyev, Isayev, Yusupov,

-T., Xidirov, N. Sodiqov, A. Abdullayev va boshqa nomlarni alohida tilga olmoq kerak bo'ladi.

O'zbekistonlik jangchilar «Vatanimiz», uning qurolli kuchlari og'ir kechgan Kiyev, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa ko'plab shaharlarning himoyalari, bu shaharlar ostonalari kechgan tarixiy janglarda ishtirok etdilar.

Dushman Moskva ostonalari paydo bo'lib, mamlakat poytaxtiga o'lim xavfini sola boshlagan. 1941 yilning kuzida O'zbekistonda ham yangi jangovar harbiy qismlar tuzilib Moskva himoyasiga yuborildi.

Moskva ostonalari uni himoya qilish uchun olib borgan janglarda I.V. Panfilov qo'mondonligi ostidagi 8 gvardiyachi diviziya jangchilari qahramonlik namunalarini ko'rsatib jang qildilar. Bu diviziya Qozog'istonda tashkil qilingan bo'lib uning sostavida Toshkentdagi piyoda qo'shinlar bilim yurtida ta'lim olgan 180 dan ortiq zobitlar bor edi. Moskva himoyasida ko'rsatgan xizmati uchun Oliy Bosh Qo'mondonlik tomonidan Qizil bayroq ordeni bilan mukofotlangan bu diviziya jangchilari orasida o'zbek o'g'lonlari Zarif Ibragimov, Ikrom Jalilov, Mamadali Madaminov va boshqalar bor edilar. Moskva ostonalari jangda juda ko'plab O'zbekistonlik jangchilar generallar N.A. Belov va L.M. Dovatorlar qo'mondonlik qilgan otliq korpuslarida mardlik namunalarini ko'rsatib jang qildilar.

Mamlakatimizning o'sha vaqtdagi poytaxti Moskva ostonalari jangdagi ikkinchi jahon urushining eng qattiq janglarida o'zbek o'g'lonlari bilan bir qatorda o'zbek ayollari ham qatnashib o'z jasoratlarini namoyon etdilar.

Ana shunday o'zbek ayollaridan biri Zebo G'aniyeva Moskva ostonalari janglarda bir o'zi 28 ta fashistni yer tishlatdi. Ko'rsatgan bu jasorati uchun u Qizil Bayroq ordeni va Snayper belgisi bilan mukofotlandi.

Umuman Moskva ostonalari, uni himoya qilish janglarida ko'rsatgan jasoratlari uchun o'zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

O'zbekistonlik jangchilar 1942 yilning yozidan 1943 yil bahorigacha Stalingrad ostonalari bo'lib o'tgan janglarda ajoyib mardlik namunalarini ko'rsatdilar.

Snayperchi Abdujabbor Aliqulov 13 gitlerchini, yana bir snayperchi o'zbek o'g'loni Xo'jamatov 117 ta pulemyotchi Xamro Ochilov esa 1500 fashistni qirib tashlaydilar.

Stalingrad ostonalari janglarda jasoratlari uchun 2788 O'zbekistonlik jangchilar «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandilar.

O'zbekistonlik jangchilar ikkinchi jahon urushining Kursk –Oryol-Belgorod, Leningrad, Kavkaz, Boltiqbo'yi shaharlari, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviyada bo'lib o'tgan shiddatli janglarda faol ishtirok etdilar. Faqar 1944 yilda Sovet Armiyasining dushmanga qarshi olib borgan umumiy hujumi davrida O'zbekistonlik jangchilardan 78 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ladi.

O'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi «Berlin olingani uchun» medali bilan mukofotlandi. Yurtimiz o'g'lonlari Yaponiyani tor-mor etishga qaratilgan janglarda ham aktiv ishtirok etdilar. Ana shu ishtiroki 6770 jangchilarimizga SSSR ordeni va medallari topshirildi.

2 Jahon urushi fronti jang maydonlarida o'zbek o'g'lonlaridan Sobir Rahimov, Ahmadjon Shukurov, Qo'chqor Turdiyev, Vois Ergashev, Mamadali Topiboldiyev, Abdusalom Dehqonboyev, Tojiali Boboyev, Ostonaqul Shokirov, Elboy Qoraboyev va boshqa yuzlab mard-u maydonlar jang maydonlaridagi ko'rsatgan jasoratlari uchun «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga ega bulib yurtimiz dovrug'ini ulug'ladilar.

1939-45 yillarda bo'lib o'tgan bu urushda o'zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi SSSR ning turli orden va medallari bilan taqdirlandi. Shulardan 300 dan ortiq kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

Shunday qilib ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari, o'zbekning mard o'g'il-qizlari front orqasida, shuningdek urushning dahshatli jang maydonlarida mehnat va jangovarlik jasoratlarini ko'rsatib sovet xalqining bu urushda erishgan umumiy g'alabasiga o'zining salmoqli ulushini qo'shdi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. Ikkinchi jahon urushini keltirib chiqargan sabablarini aytib bering.
2. Ikkinchi jahon urushini kelib chiqishidagi asosiy sababchi bo'lgan tarixiy shaxslarni bilasizmi?
3. Ikkinchi jahon urushi qachon boshlandi?
4. Fashistlar Germaniyasining sobiq SSSRga hujumi qachon boshlandi?
5. Mamlakat hayotini harbiy izga o'tkazish deganda nimani tushunasiz?
6. Urush yillarida o'zbekistonliklar frontga qanday mahsulotlar yetkazib berdilar?
7. Urush yillari O'zbekistonga qanday sanoat korxonalari ko'chirib keltirildi?
8. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining buyuk gumanizmi nimalarda namoyon bo'ldi?
9. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda ilm-fan, adabiyot va san'at qanday ahvolda edi?
10. Urush janggohlarida qurbon bo'lgan o'zbekistonlik adabiyot va san'at namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
11. O'zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushi yillarida bergan talofatlari haqida nimalarni bilasiz?
12. O'zbekistonliklardan urush yillarida ko'rsatgan qahramonliklari uchun taqdirlanganlar soni qancha va ulardan kimlarni bilasiz?
13. Ikkinchi jahon urushi qanday natija bilan tugadi?

Vazifalar:

1. Mahallangizda, qarindoshlaringiz orasida II jahon urushi qatnashchilari, urush va mehnat faxriylari, o'sha davr zamondoshlari haqida ma'lumotlar to'plang va esse tayyorlang

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi" mavzusida mustaqil ish tayyorlash

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -Toshkent «O'zbekiston» 1998 y.

2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -Toshken-T., «O‘zbekiston» 1998 y.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -Toshken-T., «O‘zbekiston» 1998 y.
4. Karimov I.A. Xavfsizlikka tahdid va tinchlik uchun kurashmoq kerak. -T., «O‘zbekiston». 2002.
5. Karimov I.A. Vatanimiz tinchlik va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga va xalqimizning hamjihatligi va buzilmas irodasiga bog‘liq. Xalq so‘zi. 2004. 30 aprel.
6. I. Karimov. Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya 12 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi. Xalq so‘zi. 2004 y. 8 dekabr.
7. Shamsutdinov R. O‘zbekistonliklar Stalingrad janglarida-fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada O‘zbekistonning tarixiy hissasi (1941-1945) -T., Fan, 1996 y.
8. Karimov Sh. G‘alabaga qo‘shilgan hissa -T., «O‘zbekiston», 1990 y.
9. O‘zbekistonning yangi tarixi, Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T., Sharq. 2000 y.
10. O‘zbekiston tarixi -T., «Yangi asr avlodi», 2003.
11. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. 3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

15 - mavzu. SOVETLAR IMPERIYASINING TANAZZULGA YUZ TUTISHI VA O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI VA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

Darsning o‘quv maqsadi: SSSR davlatining invirozga yuz tutishi sabablari va O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishining xalqimizning tarixiy g‘alabasi ekanligini tushuntirish va Islom Karimovning mustaqil davlatimiz asoschisi sifatida faoliyatiga to‘g‘ri baho bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tayanch iboralar: SSSR, qayta qurish, M.Gorbachyov, Farg‘ona fojeasi, milliy ong, I.A.Karimov O‘zKP MQ birinchi kotibi, “paxta ishi”ning qayta ko‘rilishi, “Davlat tili haqida”gi qonun, Oliy Kengash, Prezidentlik lavozimi, Mustaqillik Deklaratsiyasi, 1991 yil avgust voqealari, KPSS, Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasi, O‘zbekiston Respublikasi referendum, davlat suvereniteti, mustaqillik, Oliy Majlis, Senat, Konstitutsiya, Quyi Palata, saylov huquqi, inson huquqlari, siyosiy partiyalar, Ombudsman, Vazirlar Mahkamasi, Milliy xavfsizlik, sud hokimiyati, mahalliy hokimiyat, mahalla, OAV, “Kamolot”, fuqarolik jamiyati.

Reja:

1. SSSRning tanazzulga yuz tutishi va qayta qurish» yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayo-T.,
2. O‘zbekiston davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.
3. Islom Karimov Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti.

4. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.

Asosiy qism

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

Turkiston o'zining keyingi bir yarim ming yillik tarixida bor-yo'g'i 376 yil hur mamlakat rutbasida bo'lgan. Boshqa paytlar esa bosqinchilar zulmi ostida kun kechirgan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, Turkiston tarixiy rivojlanishining hamma bosqichlarida turli shaklda bo'linishlarga, uning xalqi o'zgalar tomonidan tahqirlanishiga, kamsitilishiga duchor bo'lgan. Xalqimizning grek, makedoniyaliklar zulmiga, arablar istilosiga, mo'g'ul-tatar bosqinchiligiga, va nihoyat Chorizm mustamlakachiligiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari tarix sahifalarida abadiy qolgan. Ayni chog'da yaqin tariximizda, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning markazga tobeligiga qarshi, aniqrog'i shu davrda O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi uchun tarixiy vaziyatga qarab goh oshkora, goh pinhona, yashirin tarzda olib borgan kurashlarini qator manbalar orqali tobora chuqurroq bilib boryapmiz. Bir so'z bilan aytganda xalqimiz azal-azaldan o'z firki-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intilgan.

Istiqlol-o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir.

Mustaqillik-jamiatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.

Istiqlol-erkin dunyoqarash, erkin tafkkurga suyanib yashash salohiyatidir.

Totalitar tuzum davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan alohida-alohida shaxslarning kundalik turmushiga va istiqboliga daxldor bo'lgan har qanday katta-kichik masalalarni hal etishni o'z zimmasiga olgani uchun mexnatkash xalq moddiy va fikriy boqimandalik kayfiyatiga duchor bo'lgan edi. U faqat ishlash huquqiga ega edi, xolos. Mehnat deb atalgan hissiz mashinaning murvatiga aylanib qolgan edi. Ertadan-kechgacha mehnat qilasan, mehnatingga yarasha ochdan o'lmaslikka yetadigan haqqingni olasan. Bu-sobiq ittifoqda qonun kuchiga ega bo'lgan davlat siyosati edi. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi pasayib borardi.

Sobiq ittifoqda ho'km surgan qayta qurish siyosati uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qilingan makkorona harakat edi. Davlat to'ntarishiga urinish, zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish siyosatini chuqurlashtirishga intilish bu jarayonning yakuni bo'ldi. Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to'g'ri kuzatib, to'g'ri baholay bilgan O'zbekiston ittifoqdoshlari orasida birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1991 yil

31 avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. Bu tarixiy hujjatda quyidagi xulosalar ilgari surilgan:

-“O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib,

-xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqidirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib,

-O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun ma'suliyatni anglab,

-shaxs huquq va erkinliklarining, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib,

-millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,

-Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat-O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zligini anglagan kishi olamning butun rang-barangligi bilan birga hayot mazmunini, o'zining shunchaki tariklik va mavjudlik belgisi emas, aksincha, tabiatning betakror mo'jizasi ekanligini, shu asnda inson qadru-qimmatini tobora teranroq anglay boshlaydi. Ma'rifatga muhtojligiga, xurofot va jaholat hayot kushandasi, manqurtlik-o'zligini va olamni unutish ekanligiga tobora ko'proq ishonadi. Demak, bevosita ichki bir da'vat va ilohiy quvvat bilan ma'naviy yetuklikka, komillikka intiladi.

Mustaqillikning mohiyati, uning tarixiy ahamiyati milliy uyg'onish va milliy tiklanish jarayoni bilan bog'liq. Xalqimiz millat sifatidagi beqiyos qadriyatlarini, asrlar mobaynida shakllangan ma'naviy-ruhiy boyliklarni qanchalik chuqur anglasa, milliy uyg'onish hissi shunchalik kuchayadi. Qalbidan millat, Vatan, ajdodlar oliddagi burch tuyg'ulari qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, o'zligini anglashga, o'z milliy qadriyatlarini tiklashga shunchalik ko'proq ehtiyoj sezadi. Bunday odamda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini, demakki, millatini va Vatanini himoya qilish qudrati beqiyos bo'ladi. Shuning uchun ham biz mustaqillik uchun kurashning butun mazmun-mohiyatini shaxs ma'naviy barkamolligi, uning har tomonilama yetukligi bilan bog'liq holda tushunmog'imiz kerak. Ana shunda mustaqillikning taraqqiyot yo'llari, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-axloqiy asoslari mustahkam bo'ladi.

O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi

XX asrning 90 yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzimi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya

Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan ulkan hududda sotsialistik tuzum barbod etildi. Ayni chogʻda sobiq SSSR parchalanib uning oʻrnida mustaqil taraqqiyot yoʻlini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi.

Boshqacha qilib aytganda bu davrga kelib koʻpgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayongan aylandi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishish ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. “Xalqning ozodlik mustaqillik, baxt – saodatga azaliy intilishi, oʻz taqdirini oʻzi belgilashga azmu qarori hayotidagi chuqur oʻzgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir”, - degan edi. I.A.Karimov.

Qisqa qilib aytganda, shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning oʻzi koʻrsata boshladi. Buni birgina sobiq SSSR da xalq xoʻjaligini bzor iqtisodiyotiga oʻtkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham koʻrsa boʻladi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda Oʻzbekiston rahbariyati bu yoʻnalishlarning nomaʼqul ekanligini aniq-ravshan koʻrdi va respublika xalq xoʻjaligini bozor iqtisodiyotiga oʻtkazishning oʻziga xos yoʻlini mustaqil tarzda oʻzi belgilay boshladi. Avvalo, “Oʻzbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini” tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika Davlat Reja koʻmitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazarliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qoʻmitalari bilan hamkorlikda tayyorlanadi. Unga koʻra, “Oʻzbekiston xalq xoʻjaligini sogʻlomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga oʻtishning asosiy prinsiplari” ishlab chiqildi va u 1990 yil 17 oktabrida umumxalq muhokamasi uchun eʼlon qilindi.

1990 yil oktabri oxirida Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashi IV sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi.

1990 yil 23 martida Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenum boʻldi. Unda Oʻzbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy eʼtibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining oʻrni va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan oʻzaro munosabati prinsiplari toʻgʻrisidagi masalalarini muhokama qilib, buyrugʻbozlikdan, maʼmuriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. Shu bilan birga Plenum respublika siyosiy tizimi toʻgʻrisidagi masalani koʻrib chiqishni hayot taqozo qilayotganligini koʻrsatib, real hokimiyat Oʻzbekiston kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari Sovetlariga berilishi bilan bogʻliq barcha qiyinchiliklarni yengib oʻtishlari lozimligini taʼkidlab, yuzaga kelgan vaziyatda Oʻzbekiston SSR Prezidenti lavozimini taʼsis etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar oʻzbek xalqining asriy rozusi roʻyobga chiqqanligining huquqiy ifodasi boʻldi.

“Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari toʻgʻrisida”gi qonun gʻoyat katta ahamiyatga ega boʻlganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil toʻxtash lozim. Mazkur qonun asosida Oʻzbekistonning huquqiy holati tubdan oʻzgardi. Oʻz mohiyatiga koʻra bu hujjat respublika uchun vaqtincha

konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

1-modda O'zbekiston Respublikasi o'z tarkabidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilinadi.

2-modda O'zbekiston respublikasining xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi haqida gapriladi.

3-modda O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy – hududiy tuzulishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi.

Shu tarriqa xalqimizning uzoq yillar kurashib, intilib qo'lga kiritgan mustaqillik erki qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma'qullanishi.

O'zbekiston respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi tarixiy vaziyat shunday ediki, endi davlat xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi, deb e'lon qilish yetarli emas edi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. Ayni paytda mustaqillik g'oyasini ham faqat bir tomonlama - havoyi va yuzaki talqin qilib bo'lmas edi. Binobarin erishilgan mustaqillikni sobitqadamlik bilan mustahkamlash, buning uchun izchil kurashish lozim edi.

O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qiliinshi faqat mamlakat xalqi emas, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoniqish bilan kutib olindi. Buni mustaqillik kunlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga kelgan tabriklarda ham bilsa bo'ladi. O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ayrim atributlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishili qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan so'ng bu haqida respublika ichkarisida ham, uning tashqarisida ham ayrim kishilar turlicha qarashlarni ilgari surdilar. Jumladan: "O'zbekiston osongina, kurahsiz mustaqil bo'lib oldi", - degan fikrlar paydo bo'ldi. To'g'ri 1991 yilning o'rtalariga kelib sobiq SSSR ning yemirilishi, Ittifoq hukumati esa boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarib yuborganligi tufayli mustaqillikka erishish uchun qulay tarixiy shart-sharoit paydo bo'ldi. Biroq tarixiy tajriba shuni isbotladiki, o'ta murakkab rahbarlik siyosatining muhim jihatlaridan biri hal qiluvchi qadamni to'g'ri belgilash va qat'iy harakat boshlashdan ibora-T.,

Shunday qilib, qo'lga kiritilgan mustaqillik o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq yengil nafas olish imkoniyatiga ega bo'ldi. U endi kelajakka ishonch bilan qaray boshladi. O'z yurtining to'la xo'jayini ekanligini, o'z taqdirini o'zi belgilash

imkoniyatini qo'lga kiritganligini his qila boshladi. Bu buyuk olamshumul yutuq edi.

Islom Karimov mustaqil O'zbekistonning birinchi prezidenti.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamoniviy va samarali tizimi shakllana boshladi. Boshqaruvning Prezidentlik shakli mazkur tizim o'zagini tashkil etdi.

1991 yil oxirida O'zbekiston hayotida tom ma'noda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi. 29 dekabrda xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so'ng tom ma'nodagi mustaqillik ramzi sifatida birinchi bor umumxalq xohish irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayladi. O'zbekistonning yangi tarixi shu sanadan boshlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu tarixiy voqea juda katta mehnat, siyosiy faollik, milliy yaxlitlik, g'oyalar va maqsadlar mushtarakligi mahsuli bo'ldi. Bu sharaflı ishni Markaziy saylov komissiyasi, 13 saylov okrugi va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyasi amalga oshirdi. Asosiy vazifa O'zbekiston respublikasi referendumı to'g'risidagi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash haqidagi qonunlar talablarini og'ishmay amalga oshirish – bir tomondan mılloinlab fuqarolarga o'z konstitutsion huquqdan foydalanishga, xohish – irodalarini erkin bildirishga, ikkinchi tomondan prezidentlikka nomzodlik ularning saylovoldi kurashida teng sharoit yaratib berishdan iborat edi.

Referendum va saylovga tayyorgarlik jarayonida Markaziy saylov komissiyasi eng avvalo saylovga doir barcha hujjatlarni markazlashtirilgan holda tayyorlash va joylarga o'z vaqtida yetkazish choralarini ko'rdi. Bu vazifa muvaffaqiyatli hal etildi. Prezidentlikka nomzodlar har birining saylovoldi dasturlar aks ettirilgan 301 ming nusxadan iborat plakat, nomzodlar har birining 40 ming nusxadan saylovchilarga murojaatnomalari chop etilgan.

Markaziy saylov komissiyasi saylovoldi kompaniyasida nomzodlar uchun teng sharoit yaratish, ularga o'z saylovoldi dasturlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishga bir xil imkon yaratish masalalariga Prezident saylovi haqidagi qonun talablaridan kelib chiqqan holda alohida e'tibor berdi.

O'zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod - O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va "Erk" Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi. Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi I.Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karmovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikaning barcha hududlarida saylov uyushqoqlik bilan, qonunlarga qat'iy amal qilingani holda saylovlarning yuksak faolligida o'tdi. Saylov puxta tashkil etilgani, saylovlarning o'tkazilish va uning natijalarini hisoblab chiqish qonun asosida adolatli tashkil etilgani MDH mamlakatlari, shuningdek AQSh,

Turkiya va Malayziyadan hamda bir qator xalqaro tashkilotlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar tomonidan e'tirof etildi.

Tarixan g'oyat qisqa muddatda qo'lg'a kiritilgan yutuqlar mazmun – mohiyati va butun qo'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng. Zotan, qisqa fursatda jamiyatni tubdan o'zgartirish, huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish turmushimizga demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Ana shu keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 26 martda Prezidenti I.Karimovning vakolatini 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazishga qaror qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasi bo'lib, yuzta Senat a'zosidan ibora-T., Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – **olti kishi** dan saylanadi. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat ishi yalpi majlislarga va uning qomitalari majlislariga to'olanadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi. **Senatning vakolati muddati - besh yil.**

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Senat a'zosi va Qonunchilik palatasi deputati bo'lishi mumkin emas.

Senat o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Senat umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqish mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir. Senat majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

Senat va Qonunchilik palatasining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga muvofiq qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

Senat Raisi Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi. Senat Raisining o'rinbosarlari Senat a'zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

Senat Raisining o‘rinbosarligiga nomzodlar ko‘rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo‘mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat Kengashi palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to‘planadi.

Senat faoliyati masalalarni birgalikda va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamoatchilik fikrini hisobga olishga asoslanadi. Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a'zolari senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida Senat a'zosi (senator) va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Senatorlik huquqlari va majburiyatlarini moneliqsiz hamda samarali amalga oshirish kafolatlari “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to‘g'risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Senat va uning organlari majlislarini o‘tkazish tartibi

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o‘tkaziladigan majlislaridir.

Senat majlislari, agar ularning ishida senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunlarni ma’qullash, ularga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g'risidagi masalalarni ko‘rib chiqishda senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lishi shar-T.,

Senatning navbatdan tashqari majlisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi taklifiga binoan yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Senat Kengashi muntazam ravishda Senat majlislari oralig'ida to‘planadi. Senat qo‘mitalarining majlislari Senat majlislari oralig'ida zaruratga qarab o‘tkaziladi. Senat qo‘mitalarining majlislari, agar ularda qo‘mita a'zolarining kamida yarmi hozir bo‘lgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. Senat majlislari vaqtida qo‘mitalarning majlislari o‘tkazilmaydi.

Senat majlisida ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan masalalar ularni ko‘rib chiqish navbati, palataning har bir masalani ko‘rib chiqishga tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan qo‘mitalari, ma’ruzachilar (qo‘shimcha ma’ruza bilan so‘zga chiqadiganlar), shuningdek boshqa ma'lumotlar ko‘rsatilgan holda majlis kun tartibi loyihasiga kiritiladi. Senat majlisi kun tartibining loyihasi Senat Kengashi tomonidan tuziladi. Senatorlar Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritilgan masalalar to‘g'risida oldindan xabardor qilinadilar.

Senat majlisining kun tartibi palata qarori bilan tasdiqlanadi. Senat majlislari ochiq va oshkora o‘tkaziladi hamda ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi. Zarurat bo‘lganda Senat yopiq majlis o‘tkazish to‘g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunday qaror, agar bu xususdagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Senat Kengashi yoki qo‘mitasi tomonidan kiritilgan bo‘lsa, qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati organlari tizimida tutgan o‘rni.

Parlamentning davlat organlari tizimida o‘rni va mavqeyi juda muhim. “Parlament” so‘zi fransuzcha “parler” so‘zidan olinib, “gapirmoq”, “so‘zlamok” ma’nosini anglatadi. Nimaga davlatning oliy organi “so‘zlovchi” organ deb atalganini surishtirsak, biz parlamentning ahamiyatini tushunib olamiz. Qadimgi Rim, Gretsiya davlatlarida xalq vakillik organlari mavjud bo‘lgani bilan parlamentning vatani Angliya sanaladi. 1215-yili hokimiyatning zo‘ravonligidan charchagan aslzodalar qirol hokimiyatiga qarshi chiqishdi va “Erkinliklar Buyuk xartiyasini” e‘lon qilishdi. Unga ko‘ra davlatning asosiy masalalari hududiy birliklardan yuborilgan aslzodalar vakillik organi bilan bamaslahat qabul qilinishi nazarda tutilgan. Shu davrgacha qirol o‘z bilgancha insonlar hayotiga, mol-mulkiga hukmronlik qilib kelgan edi. Parlamentning paydo bo‘lishi tarixiy zarurat bo‘ldi. Chunki, qanchalik odil qirol bo‘lganida ham, u oddiy fuqaro manfaatini amalga oshirish uchun barcha hudud xalq vakillaridan mavjud muammolarni bilishi kerak bo‘lardi. Parlament ana shu maqsadda oddiy kishilar manfaatlarini ko‘zlab davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini shakllantirib keldi. Aynan parlamentning paydo bo‘lishi jamiyatni evolyutsion rivojlanishiga xizmat qildi. Chunki parlament fuqarolar, ularning turli guruhlar o‘rtasida ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy holatdan kelib chiqqan holda barcha uchun qulayroq yechimni topib, jamiyatda murosas va tinchlikni ta’minlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ham parlamentarizm madaniyatining barcha yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirishni maqsad qilib qo‘ygan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo‘yicha davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyati vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi asosida amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati davlatning uch asosiy tayanchdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ana shu uchta hokimiyat idorasining uyg‘un faoliyatini ta’minlash vositalari, ularni davlat siyosatining umumiy yo‘nalishlari bo‘yicha murosasiga keltirish va bu idoralarning bir-birlarini xatolar, zo‘ravonliklardan tiyib turish mexanizmini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-maddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi.

1992-yilgi Konstitutsiya qabul qilgunga qadar, Respublika Oliy Kengashi oliy hokimiyat organi hisoblanar edi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi avvalgi Oliy Kengashdan ko‘pgina jihatlari bilan ajralib turadi. Respublika Prezidenti I. Karimov Oliy Majlisning 1-sessiyasida so‘zlagan nutqida bu farqlarni ko‘rsatib o‘tib, shunday degan edi: “Oliy Majlis sobiq Oliy Kengashdan butun mazmun bilan farq qiladi. Uning shakllanishidan tortib, o‘z faoliyatini tashkil etish tartiblari va ish usullarigacha buni yaqqol isbotlaydi”.

Respublika Oliy Majlisining sobiq ittifoq davridagi Oliy Kengashdan birinchi eng muhim farqi Oliy Majlis ikki palata – Senat va Qonunchilik palatalaridan iborat.

Respublika Oliy Majlisning avvalgi Respublika Oliy Kengashidan ikkinchi farqi shundaki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi marta haqiqiy ko'ppartiyaviylik tamoyili asosida shakllandi. Har bir partiyaning deputatlari Oliy Majlisda partiya fraksiyalarini tashkil etadi. Ular orqali siyosiy partiyalar Oliy Majlisning qonun chiqarish faoliyatida faol qatnashib, shu tariqa davlat hokimiyatini amalga oshirishda munosib hissa qo'shadigan bo'ldilar.

Respublika Oliy Majlisning Oliy Kengashdan uchinchi farqi shundaki, Oliy Majlis deputatlarni shakllantirish avvalgi Oliy Kengashni sinfiy asosda soni va o'rnini avvaldan ko'rsatib, shakllanishidan butunlay farq qilib, hozirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Senati jami 100 nafar, jumladan 84 nafar hududiy vakillardan va 16 nafar fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan Senat a'zolaridan iborat bo'ladi.

Respublika Oliy Majlisining avvalgi Oliy Kengashdan to'rtinchi farqi shundaki, Oliy Majlis Senat tarkibidagi a'zolarining ma'lum bir qismi Oliy Majlis Senati tizimlari va uning qo'mitalarida doimiy ishlash uchun qoldiriladi. Qonunchilik palatasining 120 nafar deputatlari doimiy ishlaydi.

Respublika Oliy Majlisining yana bir farqli jihati shundaki, Oliy Majlis O'zbekistonni mustaqil tashqi siyosat olib borishi tufayli bir qator nufuzli tashkilotlarga, jumladan: Parlamentlararo Ittifoq, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlarining Parlament Assambleyasiga a'zo bo'ldi. Oliy Majlis O'zbekistonning jahondagi barcha Parlamentlari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida o'z qoshida maxsus parlamentlararo aloqalar qo'mitasini tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirish vakolatiga egadir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-80 – moddalari Respublika Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi hamda alohida mutlaq vakolatlarini belgilaydi. Respublika Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari Respublika Konstitutsiyasining 78-moddasida to'liq ko'rsatib berilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati idoralari tomonidagina amalga oshiriladi. Shuning uchun O'zbekiston Konstitutsiyasida nazarda tutilgan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zgartirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyasiga zid hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga asosan, O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qonun chiqarish sohasidagi birgalikdagi vakolatlarini shaklan besh guruhga bo'lishi mumkin. Jumladan: 1) davlat qurilishi sohasidagi; 2) xo'jalik sohasidagi; 3) boshqaruv va sud organlarini tuzish sohasidagi; 4) O'zbekiston Respublikasi huquq tizimini

qonunchiligi va inson huquqlari sohasidagi; 5) xalqaro aloqalar sohasidagi vakolatlardir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning davlat qurilishi sohasidagi qonunchilik vakolatiga quyidagi masalalar kiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimini va vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq belgilash; O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi yangi davlat tizimlarini qabul qilish va ularni O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqarish haqidagi qarorlarni tasdiqlash; ma'muriy-huquqiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi chegaralarini o'zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, nomini o'zgartirish va ularning chegaralarini o'zgartirish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash, Markaziy saylov komissiyasini tuzish; vakolati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash; Respublika referendumini o'tkazish to'g'risida va o'tkazish sanasini tayinlash haqidagi qarorlarni qabul qilish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning xo'jalik sohasidagi qonunchilik vakolatlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish; boj, valyuta, va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning O'zbekiston Respublikasining boshqaruv organlarini tuzish sohasidagi birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan), uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tayinlash va lavozimidan ozod etish; davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvi organlarini tuzish hamda ularni tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi va inson huquqlari sohalari bo'yicha birgalikdagi vakolatga: respublika huquq tizimining barcha sohasidagi Konstitutsiyasi va joriy qonunlarni qabul qilish hamda ularga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili va uni o'rinbosarini saylash kiradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning xalqaro masalalar sohasidagi birgalikdagi vakolatlariga: xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya qilish (barvaqt to'xtatish); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis o'z faoliyatini Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan deputatlar orqali omalga oshiradi.

O'zbekiston Oliy Majlis Senat a'zolarining 84 nafar 14ta huquqiy birlikning har biridan 6 nafardan, 16 nafari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakillari hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 120 nafar deputati o'z saylovchilarining, shuningdek uni deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan tegishli siyosiy partiya va nomzod qilib ko'rsatgan mustaqil tashabbuskor guruhlarining vakili hisoblanadi.

Respublika Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari o'z huquqlari va burchlarini ijro etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 88-moddasida ko'rsatilgan qoidalarga amal qilgan holda ishlaydilar. Bu moddada Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi deputatining huquqlari, burchlari hamda faoliyatining shakllari va kafolatlari ko'rsatilgan.

Oliy Majlis Senatning mutlaq vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlari Konstitutsiyamizning 80-middasida belgilangan:

- Senat Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mita raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; Prezident taqdimiga Konstitutsiyaviy sudni, Respublika Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudini saylash; Prezident taqdimiga binoan Respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish. Prezidentning Respublika Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash va ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash; Prezidentning Respublika Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash; Prezidentning taqdimiga ko'ra chet davlatlaridagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod qilish; Prezidentning taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish; Respublika Bosh prokurorining taqdimiga ko'ra, Senat a'zosini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish; Respublika Bosh prokurorining, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasini raisining, Respublika Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish; o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish. Bu vakolatlar Konstitutsiyamizning yuqorida ko'rsatilgan moddasida 14 ta bandda aniq ko'rsatib o'tilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari aniq ko'rsatilgan:

- Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylash; Bosh prokuror taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatining dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish; o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masala yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati 5 yil bo'lib, bu muddat tugagach, ular yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy shakllari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining faoliyat shakllari Konstitutsiyamizning 81-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risidagi 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonunda belgilab berilgan.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli, uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida, qoida tariqasida, haftasiga 3 marta o'tkaziladigan majlislardir.

Qonunchilik palatasining majlislari, agar ularning ishida palata deputatlari umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda, ularga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi shar-T.,

Qonunchilik palatasining 1chi majlisi Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin, ikki oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Mazkur majlisni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Qonunchilik palatasining 1chi majlisi ishini tashkil etish uchun majlisning muvaqqat kotibiyati va sanoq komissiyasi saylanadi.

Qonunchilik palatasining 1chi majlisida uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi, shu jumladan, qoida to'g'risida:

- elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat guruhi saylanadi;
- Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosari saylanadi;
- Siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar ro'yxatga olinadi;
- Qonunchilik palatasining qo'mitalari tuziladi;

Qonunchilik palatasining navbatdan tashqari majlislari uning sessiyalari oralig'ida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, Qonunchilik palatasi Spikeri taklifiga ko'ra yoki Qonunchilik palatasi deputatlari taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Qonunchilik palatasining majlislari ochiq, oshkora o'tkaziladi va ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritiladi. Qonunchilik palatasining qaroriga binoan yopiq majlislar o'tkazilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, qo'mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi.

Qonunchilik palatasi Kengashining tarkibiga Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhining rahbarlari, Qonunchilik palatasi qo'mitalari raislari kiradi.

Qonunchilik palatasi Kengashiga Qonunchilik palatasi Spikeri rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Qonunchilik palatasining qo'mitalari, komissiyalari, fraksiyalari va deputatlar guruhlari huquqiy maqomlari Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risidagi Qonunda belgilangan.

Senat faoliyatining tashkiliy shakli – zaruratga qarab, lekin yiliga 3 marta o‘tkaziladigan majlisdir.

Senat majlislari, agar senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunlarni ma’qullash, ularga o‘zgartirishlar va qoshimchalar kiritish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishda senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lishi shar-T.,

Senatning 1chi majlisi Senat shakllantirilgandan keyin bir oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Mazkur Majlisni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Senat Raisi saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Senatning 1chi majlisi ishini tashkil etish uchun muvaqqat kotibiyati va sanoq komissiyasi saylanadi.

Senatning 1chi majlisida uning foliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi, jumladan qoida tariqasida:

- Elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat quruhi saylanadi;
- Senat raisi, uning o‘rinbosari saylanadi;
- Senatning qo‘mitalari tuziladi.

Senatning navbatdan tashqari majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senatning Raisi, taklifiga yoki senatorlarning umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Senatning majlislari ochiq, oshkora o‘tkaziladi va ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritiladi. Senatning qaroriga binoan yopiq majlislar o‘tkazilishi mumkin.

Qo‘shma majlislar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi, Qonunchilik palatasi Spikerining taklifiga yoki tegishli senatorlar yoxud Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chaqiriladi.

Senat Kengashi – senat faoliyatini muvofiqlashtirish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish maqasadida tuziladi.

Senat kengashi tarkibiga Senat Raisi, uning o‘rinbosarlari, Senat qo‘mitalari raislari kiradi.

Senat Kengashiga Senat raisi rahbarlik qiladi.

Senat qo‘mitalari, komissiyalarni huquqiy maqomlari “Senat reglamenti” haqidagi Qonunda belgilangan.

Biz Konstitutsiyamizning ahamiyati va mohiyati haqida gapirar ekanmiz, avvalo, shuni e’tirof etib o‘tishimiz lozimki, mamlakatimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini eng oliy va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o‘tgan davr mobaynida qonunchilik sohasida va amaliy siyosatimizda qanday natija va yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsak, ularning barchasi Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan talab va tamoyillar bilan uzviy bog‘liqdir.

Biz qurayotgan yangi jamiyat, hayotimizga tobora kirib kelayotgan yangilanish jarayonlari, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning taqdiri va kelajagi, avvalo, xalqimizning bu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashiga, odamlar

dunyoqarashi va faolligi, ularning ongu tafakkurining yuksalishiga bog'liqdir. Insonning ongu tafakkuri esa bir kunda o'zgarmaydi, albatta. Uning dunyoqarashi o'zgarishi va kengayishiga vaqt kerak, tajriba kerak. Chetdan turib qanday tashviqot va targ'ibot, boringki, qanday zo'ravonlik bo'lmasin, odam zoti o'z hayoti misolida, tajribasida taklif etilayotgan va amalga oshirilayotgan o'zgarishlar unga nima berayotganini, qanday naf keltirayotganini ko'rishi kerak va iqrar bo'lishi darkor. Shuning uchun ham O'zbekiston o'zining milliy taraqqiyot yo'lini belgilashda inqilobiy sakrashlar yo'lini emas, balki, imkon qadar hech kimga zarar yetkazmaydigan, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanladi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlat, hech kimdan kam bo'lmaydigan jamiyat qurish kabi maqsad yo'lida erishgan yutuqlarimizni butun dunyo tan olmoqda. Taniqli chet el siyosatchilari, ekspert va sharhlovchilari hozirgi paytda qo'lga kiritilgan natijalarni baholab, "O'zbekiston o'zi belgilab olgan prinsiplariga og'ishmay amal qilsa, albatta, kelajagi buyuk bo'ladi", - degan fikrni bildirishmoqda.

Albatta, bunday yutuqlarga erishish uchun, birinchi navbatda, bizda demokratik prinsiplar asosida yaratilgan Konstitutsiyamizning mavjudligi asos bo'ldi desak, hech ham xato bo'lmaydi. Barchamizga ma'lumki, O'zbekistonning 1927, 1937 va 1978 yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari shaklan respublikaning Asosiy qonuni hisoblangan bo'lsada, ular mazmun-mohiyati, undagi normalarga ko'ra haqiqiy mustaqil davlatning Asosiy qonuni talablariga javob bermagan, ular sobiq Ittifoq Konstitutsiyasining totalitar tizimni targ'ib etuvchi, hayotiy kuchga ega bo'lmagan milliy respublikalar sharoitiga muvofiqlashtirib ko'chirilgan nusxalari bo'lgan.

O'sha vaqtlarda mafkurafiy totalitar tizim o'zining bor kuchi bilan ta'lim tizimimizni, aholining ongini o'ziga lozim bo'lgan usulda o'zgartirishga, milliy va diniy e'tiqodimizni kamsitishga, tarix haqiqatlarini o'zgartirishga harakat qilingan, milliy g'oya va ongimizni rivojlantirish borasidagi harakatlarimiz ta'qib ostiga olingan, ko'plab milliy bayramlarimiz, jumladan Navro'z, Ramazon, Qurbon hayit va boshqa bayramlar ta'qiqlab qo'yilgan edi.

O'zbekistonning Sobiq Ittifoq davridagi Konstitutsiyasiga ko'ra birinchi o'ringa davlat manfaati qo'yilib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga ikkinchi darajali deb qaralgan, ishlab chiqarish vositalari hamda barcha moddiy boyliklar davlat tasarrufida bo'lib, fuqarolar xususiy mulk egasi bo'lishlari, mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari cheklab qo'yilgan edi. Bu misollar davlatning kelajagi, xalq taqdiri, yurt faravonligi qanchalik Konstitutsiyaga, uning normalariga bog'liqligini ko'rsatib bermoqda.

Mustaqil davlatda ichki va tashqi siyosatni, demokratiya va ijtimoiy adolatni, inson huquqlarini va davlat kafolatini, odillikni ta'minlanishi, birinchi navbatda, shu davlatning asosiy bosh qonunini – Konstitutsiyasining mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, O'zbekistonda ham davlatimiz rahbarining yaratuvchiligi, ijodkorligi va tashabbuskorligi asosida bunday Konstitutsiya yaratildi va qabul qilindi.

Dunyodagi 220 dan ortiq davlatlarning atigi 120 tasi, ya'ni 55 foizida o'z Konstitutsiyalari mavjud. Shu jumladan, O'zbekiston ham o'zining jahon

standartlariga javob beradigan Konstitutsiyasiga egadir. O‘zbekiston Konstitutsiyasi jahondagi eng mukammal Konstitutsiyalardan biri bo‘lib, ixchamligi va keng qamrovliligi, insonparvarligi bilan ajralib turadi.

Milliy Konstitutsiyamiz preambulasiga kiritilgan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan qabul qilinganligining o‘zi yuksak maqtovgga sazovordir. Ayniqsa so‘nggi bir necha yillarni oladigan bo‘lsak Konstitutsiya asosida olib borilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar, “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari demokratik jamiyat qurish sari tashlangan yana bir ishonchli qadamdir.

Konstitutsiyamiz - qad rostlayotgan demokratik davlatchiligimizning mustahkam huquqiy poydevori etib yaratildi. Uni qabul qilinishi bilan mamlakatimiz hayotida keskin o‘zgarishlar amalga oshirila boshladi. Jumladan,

Konstitutsiya qabul qilinishi bilan o‘zbek xalqi uchun o‘z kelajagini o‘z qo‘li bilan belgilash va qurish uchun qonuniy asosi yaratildi, sobiq Ittifoqidan qolgan mafkuraviy, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi yo‘q qilindi, o‘z xalqi va kelajagi yo‘lida barcha tabiiy resurslardan, oltin konlaridan, mineral xom-ashyo boyliklardan, butun imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish huquqi qo‘lga kiritildi.

Ushbu huquqlardan amalda foydalanib kelinayotganligi isboti sifatida nafaqat viloyatimiz, balki butun O‘zbekiston g‘ururi bo‘lgan, respublikamiz byudjeti shakllantirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati”, “Navoiy-azot”, “Qizilqumsement”, “Fosforit” va “Elektroximiya” korxonalarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim deb hisoblayman.

O‘z vaqtida Markazdagilar go‘yoki “O‘zbekiston, mustaqillikni qo‘lga kiritgan bo‘lsada, o‘zi, Markaz yordamisiz, “Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati”ni to‘liq faoliyat ko‘rsatishini ta’minlab bera olmaydi”- degan asossiz shubhalarga berilib, kombinatni tarqatib yuborilishiga tarafdor bo‘lishgan edi.

Biroq, davlatimiz rahbari boshchiligidagi kombinat rahbariyatining tinimsiz mehnati, jonkuyarligi natijasida nafaqat kombinatning o‘sha vaqtdagi ishlab chiqarish imkoniyatlari saqlab qolindi, balki ma’naviy va jismoniy eskirgan, yaroqsiz holga kelib qolgan asbob-uskunalar eng zamonaviy texnologik jihozlar bilan almashtirilib, yangi konlar ochildi, qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratilib, ishlovchilar sonini qariyb 70 mingga yaqinlashtirildi, soha bo‘yicha o‘zining alohida kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi, ko‘plab xalqaro tashkilotlarning mukofotiga sazovor bo‘lindi.

Dunyo xaritasida paydo bo‘lgan yangi davlat – O‘zbekiston bugungi kunda butun xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq tan olindi, davlatimiz manfaatiga hamda xalqaro hamjamiyat o‘rtasida o‘z o‘rni va obro‘sin oshirilishiga javob bera oladigan tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalar shakllantirildi, hayotimizdagi tarixiy, milliy, ma’daniy va ma’rifiy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, jamiyatimiz shakllanishida muqaddas bo‘lgan dinimizning o‘rni belgilab olindi.

Konstitutsiyani qabul qilinishi bilan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlandi, ular o'zlarining jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, siyosiy dunyoqarashidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi va bir xil huquqlarga ega ekanliklari mustahkamlab qo'yildi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda 100 dan ortiq turli milliy-madaniy markazlar, 16 ta konfessiyalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik davrida O'zbekiston hududida biron marotaba ham milliy, millatlararo yoki diniy to'qnashuvlar ro'y bermagan.

O'ylaymanki, o'tish davridagi qiyinchilarga qaramasdan O'zbekistonda siyosiy barqarorlik, tinchlik, millatlararo va diniy totuvlikni saqlanib kelayotganligi barchamizning yutug'imizdir.

Konstitutsiya kuni arafasida o'tkazilayotgan tantanalarda qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalarimiz belgilab olinadi. Shu bilan birga hayotimizdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan ijtimoiy masalalarni yechish uchun kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish maqsadida yurtimizga kirib kelayotgan har bir yilga alohida nom beriladi.

Konstitutsiya bayrami munosabati bilan yillarga Inson manfaatlari yili, Oila yili, Ayollar yili, Sog'lom avlod yili, Onalar va bolalar yili, Qariyalarni qadrlash yili, Mehr va muruvvat yili, Sihat-salomatlik yili, Homiyar va shifokorlar yili, Ijtimoiy himoya yili, Yoshlar yili, Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili, Barkamol avlod yili, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili, Mustahkam oila yili, Obod turmush yili, Sog'lom bola yili deb nom berilishi inson, uning hayoti, orzu-niyatlari, dard-u tashvishlariga, odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilganligini belgilab beradi.

Joriy "Keksalarni e'zozlash yili"da amalga oshirilayotgan va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularning natijalari, o'ylaymizki, jamiyatda o'zaro qadr-qimmat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga, hayotimizni yanada obod va farovon etishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. SSSRni turg'unlik holatiga olib kelgan sabablarni ayting.
2. "Qayta qurish" siyosati nima uchun barbod bo'ldi?
3. 1985-1990 yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi.?
4. Iqtisodiyotda turg'unlik jarayonlarining chuqurlashuviga nima sabab bo'ldi?
5. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon qanday yo'l tutdi?
6. O'zbekistonda prezident lavozimi qachon ta'sis etildi?
7. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishiga nima sabab bo'ldi?
8. O'zbekiston xalqlari hayotida mustamlakachilik qanday illatlar qoldirdi?
9. O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi va uning ahamiyati haqida gapirib bering.
10. Sovet davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan kadrlar siyosatining mohiyati nimadan iborat edi?

11. O‘zbekistonning milliy davlat mustaqilligi qachon va qay tarzda e‘lon qilindi?

12. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga nisbatan jahon hamjamiyatining munosabati qanday bo‘ldi?

13. I.Karimovning 1989-1991 yillarda amalga oshirgan tadbirlarining tarixiy ahamiyati haqida gapirib bering

14. Mustaqillik Deklaratsiyasi haqida gapirib bering

15. O‘zbekistonda davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyati borasida qanday tub o‘zgarishlar ro‘y berdi?

16. Ombudsman haqida gapirib bering

17. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati to‘g‘risida ma‘lumotlar bering

18. O‘zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat olib bormoqda?

19. Fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz?

20. Prezident I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” deb nomlangan ma‘ruzasining mazmuni haqida ma‘lumotlar bering

Vazifalar:

1. I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o‘qish va fikrlar bildirish

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. “O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi” mavzusida mustaqil ish bajarish

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., “O‘zbekiston”, 1997.

2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. –T “O‘zbekiston”, 2006.- 280b

3. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T., “O‘zbekiston”, 2005

4. Prezident I.A.Karimovning 2009 yil 5 dekabrda “O‘zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” nomli ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 6 dekabr 2009 yil.

5. Prezident I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi» «Xalq so‘zi» gazetasi. 2010 yil, 12 noyabr.

6. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. -T., “O‘zbekiston”, 2005

7. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. Toshkent, 2010

8. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, 2011

9. I.A.Karimov Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T., O‘zbekiston - 2000 yil.

10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. —T., "O'zbekiston" 2015.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — -T., O'zbekiston 1992.
12. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi 1991 yil 31 avgustdagi konstitutsiyaviy qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya. -T., Adolat, 2000
13. Mustaqillik deklaratsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya. -T., Adolat, 2000
14. "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonuni. 1991 yil 18 noyabr. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. Xrestomatiya , Adolat, 2000
15. "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonuni. 1992 yil 2 iyul O'zbekiston respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya -T., Adolat, 2000
16. "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonuni 1992 yil 10 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya -T., Adolat, 2000
17. "O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqida"gi qonuni 1995 yil 24 dekabr. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. Xrestomatiya. -T., Adolat, 2000
18. "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi qonuni. 1991 yil 18 noyabr O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. Xrestomatiya -T., Adolat, 2000
19. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni. 1992 yil 2 iyul. O'zbekistonning yangi qonunlari, 6-son. -T., Adolat, 1993
20. Boboyev X.B. Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. -T., O'zbekiston, 1999
21. Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti. Tajriba va muammolar. -T., O'zbekiston, 1994
22. Qayumov R.K. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. -T., Adolat, 1998
23. Mahalla — o'zini-o'zi boshqarish organi. -T., Fan, 1994
24. Muhammedov X.M. O'zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari. -T., Adolat, 1999
25. Saidov A.X. Mustaqillik qomusi. -T., O'zbekiston, 1993
26. Fayziyev M. O'zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o'quv qo'llanma). -T., Adolat, 1998
27. Xalilov E.X. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti: birinchi chaqiriq Oliy Majlisining faoliyati. -T., O'zbekiston, 1999
28. Husanov O.-T., Mustaqillik va mahalliy hokimiya-T., -T., Shark, 1997
29. O'zbekistonning milliy Istilol mafkuras. -T., O'zbekiston, 1993
30. Mahmudov M. Barhayot siymolar. (Qatag'on qurbonlari haqida lavhalar). Toshken-T., "O'zbekiston", 1991.
31. Niyozova F. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning salbiy oqibatlari. O'zR FA "Fan". "O'zbekiston tarixi" jurnali. №4, 1999.

32. Tursunov I. O'zbekiston maorifchiligining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan. (1917-1939), -T., 1995.
33. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. (savollar va javoblar)-T., "O'zbekiston", 1991.
34. Xo'jamberdiyev Ye. O'zbeklar ishi. -T., "Yozuvchi", 1996.
35. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -T., "Sharq", 2000.
36. Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida.-T., 2001 73-81 be-T.,

16 - mavzu. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY, MADANIY TARAQQIYOTI. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

Darsning o'quv maqsadi: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotida amalga oshirilgan islohotlar va natijalar to'g'risida bilimlarni shakllantirish va O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaganligini ko'rsatib bera olish malakasini rivojlantirish

Tayanch iboralar: Bozor munosabatlari, "O'zbek modeli", ijtimoiy barqarorlik, bozor infratuzilmasi, Milliy istiqlol g'oyasi, moliya-bank tizimi, mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot, milliy istiqlol g'oyasi, davlat mulki, xususiy mulk, iqtisodiy islohotlar, investisiya, qo'shma korxonalar, "Zarfshon-Nyumont", "UzDEU avto", fermerlik, milliy valyuta, g'alla mustaqilligi, diniy qadriyatlar, Navro'z, vijdon erkinligi, Ro'za, Qurbon hayit, ozod vatan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", MDH, jahon hamjamiyati, BMT, YeXHT, tinchliksevar tashqi siyosa-T.,

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Iqtisodiyotda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi.
3. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari. Moliya-bank tizimi.
4. Mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayo-T., Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar.
5. Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi.
6. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlari ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to'rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan mol almashgan. O'zbekiston boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitdan foydalanib o'zimizning ijtimoiy iqtisodiy

taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘nalitirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo‘nalishlari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarining yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy muammosi quyidagilardan iborat:

1. Iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog‘i kerak.
2. Davlat bosh islohotchi o‘rnida bo‘lib, u islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berish va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.
3. Bozor munosabatlariga o‘tish, qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart.
4. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o‘tkazish.
5. Ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo‘nalishni belgilab beruvchi tamoyillaridan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tish evolyusion yo‘l bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlariga o‘tish tamoyillari asosida g‘oyat mas’uliyatli va murakkab vazifa- iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy- iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko‘ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimidan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o‘tish davridagi bir biriga bog‘liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to‘g‘ri keldi, ma’muriy buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g‘oyat muhim yo‘nalishlari O‘zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

6. O‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish.
7. Qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.
8. Ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun - qoidalar yuridik tashkilotlari va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o‘zida iqtisodiy munosabatlarining huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investisillari bo‘yicha Prezident huzurida maxsus idoralararo kengash tuzuldi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaidan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiylashtirish mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan maqsad: 1. Davlat monopoliyasini tugatib, ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish. 2. Xususiylashtirish mulkdorlikning keng qatlamini shakllantirish. 3. Xorijiy samaradorlarga keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining turmush tarzini yuksaltirishdan ibora-T.,

1929-1993 yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida "kichik xususiylashtirish" amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy - joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiylashtirish mulk etib berildi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'li-bozor munosabatlarini joriy qilish yo'li beshta muhim va mashhur tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'tish davrining siyosati ana shu tamoyillarga tayanadi. Ularning asosiy mazmuni qo'yidagilardan iborat:

Iqtisodiyot siyosatidan ustun bo'lishi kerak. Ham ichki ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlanishi zarur. Iqtisodiyot siyosatidan ustun bo'lishi kerak degan tamoyilning ma'nosi juda teran, buni ma'nosi avval iqtisod, keyin siyosat degani, xalqimizda avval taom, keyin kalom degan hikmat bor. Ya'ni avval odamlarning qornini to'ydir, bola chaqasining hayotini ta'min et, ana undan keyin siyosatingni yurgiz.

Ammo shuni aytish kerakki aynan hozirgi iqtisodiyot uni yanada rivojlantirish mustaqil O'zbekistonning hozirgi siyosatining asosiy mazmunidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish aynan mustaqil O'zbekiston Respublikasining siyosatidan kelib chiqmoqda, uning asosiy mazmunini tashkil qilmoqda.

Davlat asosiy islohotchi bo'lmog'i kerak.

Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren O'zbekiston davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil uni amalga oshirishi lozim.

Qonunning ustunligi (ustuvorligi).

Demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishi va ularga rioya etishlari lozim. Qonun-ustuvorligining mazmun va mohiyati ham ana shunda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i

lozim. Iqtisodiy o'zgarishlar sinalgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlarga tayangandagina bu o'zgarishlar sezilarli natijalar berishi muqarrar bo'lishi mumkin. Har bir fuqaroning unumli mehnat qilishi uchun tinch va osoyishta hayot ta'minlanishi kerak.

Militsiyaning, sud va prokuraturaning faoliyati kuchaytirildi. Xavfsizlik xizmatlarining vazifalari yangi sharoit nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi. Mustaqil O'zbekiston davlati huquq-targ'ibot organlari o'z vazifalarini ado etishda jiddiy qatnashmoqdalar. Shuni aytish kerakki, mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'zining iqtisodiy va siyosiy faoliyatida qonunlarga tayanmoqda. Chunki agar qonun qog'ozda qolib ketsa jamiyat aslo ravnaq topmaydi. Shuning uchun qonun amalda bo'lishi kerak. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham talab etilishi zarur.

Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan amaliy choralar ko'rilmoqda. Chunki, ijtimoiy himoyalash va qarorlarning kuchli ta'sirchan vositalari mavjud bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, bozor iqtisodiyotini tinimsiz rivojlanib borishini ta'minlash mumkin.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida mehnatga yaroqli va ishtiyoqli fuqarolar bilan birga mehnatga layoqatli bo'lmagan insonlar ham oz emas. Nogironlar, keksalar, serfarzand onalar, millionlab voyaga yetmagan o'spirinlar bor. Buni hisobga olgan O'zbekiston Respublikasi ana shunday tabaqalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, himoya qilish choralari ko'rmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish. Iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini inobatga olib uni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Islohotlarning asosiy maqsadi jadallik emas, balki odamlarning farovonligidir.

Hozirgi vaqtda mazkur tamoyillarni amalga oshirib respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, eng muhimi bozor munosabatlarini joriy etish sari bosqichma-bosqich ilgarilab borishimiz ta'minlanmoqda.

Besh tamoyilning hammasi ham demokratik isloh qilib borishda birday muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bozorga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Bu yetakchi tamoyillardan biridir. U iqtisodiy islohotlarni butun ichki mantiqini rivojlanib borishi va harakterini belgilab beradi.

Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy va ijtimoiy sohada qanday muammolarni hal qilishga to'g'ri keldi? Davlat mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida O'zbekiston uchun iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning madaniy-ma'naviy yangilanishning keng istiqbollari ochildi. O'zbekiston dastlabki kunlardan bir yoqalama rivojlantirilgan iqtisodiyotdan tabiiy va xomashyo boyliklaridan noto'g'ri foydalanish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishdagi, narx belgilashdagi, aholining iste'moli tarkibidagi buzilishlar tufayli vujudga kelgan g'oyat keskin muammolarni hal qilishga majbur bo'ldi.

Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotdagi bu muammolar iqtisodiy o'zgarishlarning ustuvorligini tan olish, ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan rejalashtirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlardan butkul voz kechish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, shu asosida jamiyatni yangilashga qat'iy kirishildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos modeli yaratildi. U jahon tajribasining eng yaxshi tomonlarini, respublikaning o'ziga xos shart-sharoitlarini va

xususiyatlarini, an'analarini, urf-odatlarini turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga asoslangan.

Bozor iqtisodiyotining ma'nosi nima? Bozor iqtisodiyoti pul-tovar munosabatlari va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida amal qiluvchi, turli mulkchilik shakllari, ishlab chiqaruvchi va xaridorlarning o'zaro erkin munosabatlarini hamda erkin sof raqobatga asoslangan iqtisodiy tizimdir.

O'zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yo'li konstitutsion asosga ega. Bu yo'l O'zbekistondagi barcha aholi manfaatlariga har jihatdan mos tushadi. Bu yo'l O'zbekistonliklarning munosib turmush kechirishlari uchun kafolat bera oladi. Milliy an'analar va madaniyatning rivojlanishini ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning qayta tiklashini ta'minlaydi. O'zbekistonning tanlab olgan bozor munosabatlariga o'tish yo'li jamiyatni va davlatni yangilashga hamda taraqqiy etishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning pirovard maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini barpo etishdan iboratdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bosh omili bo'lgan bozor munosabatlariga o'tishni O'zbekiston na'munasining asosli va to'g'ri ekanligini hozirgi kunda nufuzli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko'pgina mamlakatlari e'tirof etib, tan olayotganligi quvonchli bir holdir.

Bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston na'munasiga xos tamoyillari bor. Bozor munosabatlarini amalga oshirishda, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda beshta muhim va mashhur tamoyil asos qilib olingan bo'lib, o'tish davrining siyosati ana shu tamoyillarga tayanadi.

Iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirish muammolarini hal etish O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishdagi butun strategiyasini hal qiluvchi bo'g'ini hisoblanadi. Chunki, bu qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqadi. Aholining 60 foizi qishloq joylarida yashaydi. Milliy daromadning 44 foizdan ko'prog'i qishloq xo'jaligidan olinadi.

Shuning uchun iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish chog'ida agrar sektordagi o'zgarishlarga ayniqsa katta ahamiyat berildi. Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonda yerning egasi ekanligi tuyg'usini qayta tiklash, meros qila olish huquqi asosida yerni abadiy foydalanish uchun berish yo'lidan borildi. Birinchi navbatda zarar keltiradigan davlat xo'jaliklarini jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Dehqon xo'jaliklari, kichik va o'rta korxonalar, katta bo'lmagan kooperativlar, oilaviy pudrat va ijara jamoalari tashkil qilindi.

Endigi vazifa qishloqdagi mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, jamoa xo'jaliklarini qayta tuzib, ularning xo'jalik mol-mulkining bir qismini dehqonlarga birlashtirib qo'yishga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish, ularning asosini dehqon-fermer xo'jaliklari, kichik va o'rta korxonalar, ijara, jamoalari tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda bozorning keng tarmoqli infrastrukturasini shakllantirildi. Bank, kredit tizimini mustahkamlash, beriladigan kreditlar turlarini va investisiya loyihalarini amalga oshirishda banklarni ishtirok etishi kengaytirildi. Birja faoliyatini takomillashtirish tijorat markazlari, savdo uylari, vositachilik firmalari ishini tashkil qilish yaxshilandi. Bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi bo'lgan soliq tizimi ham tashkil qilindi. Soliq xizmati faqat soliq to'plash idorasi bo'libgina qolmasdan balki,

tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda ko'maklashmoqda. Eng muhimi bozor tizimlari amalda ishlay boshladi.

Ko'p ukladli iqtisodiyot nima? Ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasi qo'yildiki, u muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berilmoqda. Bu tadbir o'zaro iste'mol mollari bilan bog'liq.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchi navbatda zarar ko'rib ishlovchi korxonalar, uy-joy fondi, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari, savdo, umumiy ovqatlanish, milliy sanoat xususiylashtirildi.

Xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va ko'lami kengaydi. Hozirgi vaqtda bozor islohotlarini amalga oshirilishi natijasida xalq xo'jaligida band bo'lgan aholini milliy daromadining 70 foizi, sanoat mahsulotlarining 53.5 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 97.7 foizi davlatga qarashli bo'lmagan sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda, bozor munosabatlariga o'tish davrida amalda qo'llanilgan investisiya siyosati ham iqtisodiyotda salmoqli o'zgarishlarga olib keldi. Isloh qilish jarayonida iste'mol bozorini cheklashga majbur bo'lindi. Ayni chog'da mablag'larni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaviy korxonalar barpo etildi.

Butunga kelib bu siyosat o'z samarasini bermoqda. Sanoatning mutlaqo yangi tarmoqlari avtomobilsozlik, mikrobiologiya, selyuloza-qog'oz tarmoqlari va boshqalar barpo etildi. Bu Asaka avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Andijon, Qo'qon, Yangiyo'l spirt ishlab chiqarish korxonalari, O'zbekistonda qiyin eriydigan va o'tga chidamli materiallar kombinati, Olmaliq va Navoiy kon metallurgiya kombinatlari, oziq-ovqat va milliy sanoatga qarashli o'nlab yangi zamonaviy korxonalar qurildi va ishga tushirildi. O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama xom-ashyoviy yo'nalishiga qat'iy barham berish respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash bozor iqtisodiyotining eng muhim strategiyasi hisoblanadi.

Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonning chinakam manfaatlari o'ziga xos sharoiti va imkoniyatlari pisand qilinmadi, xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xom-ashyo tuzilmasi shakllantirildi. Buning oqibatida respublikada ayrim xom-ashyo turlari, yoqilg'i, asbob-uskunlar va texnologiya emas, balki hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchilik qismini xalq iste'moli mollarini chetdan keltirishga majbur bo'lindi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli isloh qilish natijasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Rejalashtirilgan daromadning amalga oshirilishi natijasida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishiga erishildi. Respublika iqtisodiyotini bundan buyon o'sishi investisiya faoliyatining ko'chayishi, xalqni farovonligini, rivojlanishi uchun mustahkam moliyaviy asos yaratildi.

Mulkchilik masalasini hal qilish, bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining asosi hisoblanadi. O'zbekistonda isloh qilishning birinchi bosqichida mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e'tirof qilindi. Ilgari davlatga sun'iy ravishda cheklab kelgan yuridik va tashkiliy to'siqlar hammasi hozirgi vaqtda olib tashlandi.

Davlatga qarashli bo'lmagan sektorni vujudga keltirish ko'proq mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibida amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning g'oyat muhim xususiyatidir.

1. Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikning tiklanishi.

Mustaqillikni amalga oshirish va mustahkamlash sharoitida ma'naviy qadriyatlarni tiklash va o'zlikni anglashga alohida e'tibor berildi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, ma'naviy qadriyatlarni hamda xalq uchun muqaddas bo'lgan diniy qadriyatlar va an'analarni qaytadan tiklash, o'zligimizni anglash ancha murakkab sharoitda eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan sharoitda yuz berdi. O'sha davrda jangari millatchilik, diniy ekstremistik ruhdagi xatti-harakatlar, ayrim siyosiylik guruhlarining naqadar tajovuzkorona nafratlari ko'chaygan edi. Shu bilan birga o'tmish qadriyatlarini, an'analarni va turmush tarzini betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qayta tiklash va boshqa keskinlikka, hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin edi. Bunday vaziyatni hisobga olgan mustaqil O'zbekiston davlati, ma'naviy tiklanishning ijobiy bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan, bir-birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy dasturlarni ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Ushbu dasturda o'tmish qadriyatlarimizni tiklashda umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, axloq jihatdan ahamiyatli an'analarni, urf-odatlarini tanlab olishga asoslandi. Xalqimiz adolat, milliy iftixor, tenglik, ahil qo'shnichilik, do'stlik, insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiyani, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Ma'naviy qadriyatlarni tiklashda milliy o'zlikni anglash jarayonida xalqimiz istiqloq tufayli, siyosiy davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi, o'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'ldi, o'zining ma'naviy tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyatiga muyassar bo'ldi.

Xalqning, o'lkaning, davlatimizning, hududining holisona tarixini tiklash o'zlikni anglashda, milliy iftixorni tiklashda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va tajribalari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Milliy qadriyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy meroslariga e'tiborni qaratildi. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'pi bo'lgan.

Ma'naviy meros nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmoqda? Xalqimizning etnik madaniy va diniy qadriyatlarini tiklanishi, ma'naviy uyg'onishining yana bir bitmas tugamas manbai bo'ldi. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlarini va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib kelgan.

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millatning ma'naviy-axloqiy g'oyalarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bo'lgan hodisadir.

Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishida oila va qarindoshlik munosabatlari odobini yangilash, qayta tiklash muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimiz merosiy an'analariga g'amxo'rlik qilish mustaqillik davrining asosiy axloqiy qoidasi bo'lib qoldi. Oila qadriyatlari va qon-qarindoshlik munosabatlarini qayta tiklanishi har bir oilaning iqtisodiy-madaniy va kasb jihatdan erkin bo'lishi imkoniyatini anglatadi.

Milliy qadriyatlar bilan demokratik qadriyatlarni bog'liqligi nimada? Milliy qadriyatlar bilan demokratik qadriyatlar hozirgi zamon taraqqiyoti singdirayotgan yashash me'yorlarining umumlashmasidan ibora-T.,

Inson huquqlari, tadbirkorlik, erkin savdo, ijtimoiy adolat, o'zaro yordamlashuv, siyosiy erkinliklar va boshqalar demokratik qadriyatlarni amalga oshirishda jamiyatdagi o'rni va ahamiyati katta.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'z ichiga singdirgan. O'zbekistonda yashovchi har bir inson fuqarolik huquqiga ega hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganidan qat'iy nazar hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir insonga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida mumkin qadar to'laroq ishtirok etish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikka keng erkinliklar berilgan.

Konstitutsiyada xususiy mulkni davlat tomonidan himoya qilinishi bayon qilingan. Bundan maqsad iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik, hamda yakka, hokimlikka barham berishdan, korxonalar, tashkilotlar va xususiy tadbirkorlarning mustaqilligini kengaytirishdan ibora-T.,

Ma'naviy qadriyatlarning dunyoviy mazmuni nima? Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar orasidagi to'la huquqli millat sifatida anglay olishiga kuch bag'ishladi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan mustaqil O'zbekistonning o'zaro aloqalari o'zbek xalqi xususan yoshlar salohiyatiga ularning ilm-fan sirlarini o'rganishida yangi imkoniyatlar ochdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda horijiy xalqlarning madaniy qadriyatlaridan tanlab foydalanishga ehtiyoj kuchaymoqda.

Ma'naviy qadriyat Ma'rifatli xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan. O'zbek xalqining kelajagining eng avvalo o'zining ma'naviy qadriyatiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liq. Shuning uchun ham moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va axloqiy o'sish ehtiyojiga to'sqinlik qilmasigi lozim. Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytiruvchi ma'naviy tiklanish, fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijobiy ziyolilarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Demokratik taraqqiyotni hozirgi sharoitda yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda milliy va jahon bilimining eng yaxshi tomonlarini keng targ'ib qilish va ommalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xalqning ma'naviy tiklanishi yangicha tafakkur tarzi ma'naviy qudrati va milliy ongining ijodiy kuchi mustaqillikning istiqbolini belgilab bermoqda, jamiyatning jahon hamjamiyatiga qo'shilib borishini ta'minlamoqda.

3. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida mafkurasi milliy istiqlol

Hozirgi kunda o'zbek xalqi insoniyat tarixida o'xshash andozasi bo'lmagan murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Ya'ni, nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ong tafakkurimizda ham yangilanish, o'zgarish jarayonlari kechmoqda. Milliy mustaqillik ozodlik yo'li erkin hayot uchun kurash aslida mana shunday mashaqqatli bo'ladi.

Mafkura deganda nimani tushunasiz? O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mafkura qanday o'rin tutadi? O'zbekistonning o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lida pirovard maqsadi bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot uchun kurash borasidagi intilishda ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos-milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart, chunki o'z milliy mafkurasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lidan adashishi muqarrar.

Mafkura faqat bugun emas, balki, hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z maqsadlariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab insonlar o'zlarining yashash sharoitlarini yaxshilashga, uni adolat qoidalari asosida tashkil qilishga intilganlar. Uning yo'llari usullari izlab kelingan. Ular o'zlarining bu urinishlarini muayyan g'oyalar orqali ifoda etishga intilishgan. Shuning uchun ham mafkuraga ehtiyoj vujudga kelgan va u yaratilgan.

Mafkura har bir tarixiy shart-sharoitlarining o'ziga xos tomonlarini ifoda etishi bilan birga har bir xalqning o'ziga xos milliyligini ham aks ettiradi.

Har bir tarixiy sharoitda har bir xalqning o'ziga xos mafkurasi bo'lgan. Mafkura jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamalashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobasin, toki hayot mavjud ekan mamlakatlar, xalqlar va ulaning mafkuralari bor ekan, ular o'z taraqqiyoti yo'lini ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi.

Biroq, sovetlar zamonida mafkura milliy bo'lishi mumkin emas, deb hisoblangan. Milliy mafkura xususida hatto so'z ham yuritilmagan. Buning natijasida o'zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g'ururi, iftixori anchagina sustlashtirib yuborilgandi.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach o'zining istiqlol mafkurasini nazariy jihatdan ishlab chiqish, uni xalq orasida keng targ'ibot qilish, har bir fuqaro ongida mustaqillik mafkurasining mazmun va mohiyatini singdirishi, istiqlol yo'liga xos o'zbek milliy mafkurasini ilmiy asosda yaratish kabi o'ta muhim va sharaflı vazifa paydo bo'ldi.

1993 yil 23 fevral kuni Prezident I.A.Karimov bir guruh adiblar bilan suxbat qilib milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi 12-sessiyasida 1993 yil 6 mayda oldimizda turgan eng muhim masala bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va uni hayotimizga tadbiq etish ekanligi alohida ta'kidlagan.

Mustaqillikning keyingi yillarida I.A.Karimov respublikaning bosh mafkurachisi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Uning asarlarida, maqollarida, nutqlarida, matbuot vakillarining savollariga bergan javoblarida milliy istiqlol mafkurasining ilmiy nazariy qoidalari asoslandi, uni yangi mazmun yangi g'oyalar bilan boyitildi.

Biroq, shuni ham aytib o'tish kerakki, har qanday mustaqil davlat dastlab biron bir mafkurani davlat mafkurasi sifatida olishi mumkin emas. Bir jamiyat, ijtimoiy guruh yoki

millatning mafkurasini boshqa jamiyat millat mafkurasiga majburan qabul qildirishi ham mumkin emas, bunga yo‘l qo‘yib ham bo‘lmaydi. Bunday harakatlar demokratiya va erkinlik qoidalari millatlarning suverenligiga ziddir.

Shu sababli O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasini asriy milliy qadriyatlarimiz, yangi vujudga kelayotgan xalqimizni bugungi va kelajakdagi manfaatlarini ifodlaydigan g‘oyalar shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirilib borilmoqda.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, o‘zbek xalqi o‘z milliy an‘analariga, urf-odatlariga zid bo‘lgan kommunistik mafkuradan voz kechdi, o‘zining demokratik jamiyat barpo etishdek ulug‘ maqsadlarini, harakat dasturlarini muayyan milliy mafkura orqali aniqlashga intildi.

Biroq, O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi o‘ta murakkab ziddiyatlarga to‘la davriga to‘g‘ri keldi. Umuman bir mafkuradan ikkinchi mafkuraga o‘tish darrov, qisqa davr ichida amalga oshmaydi. Xalq millat o‘z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib boyitib boradi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, mafkura qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, u uzluksiz jarayon bo‘lib, hayot davom etar ekan mafkuraning oldiga qo‘yiladigan yangi-yangi talablar ham paydo bo‘laveradi. Shu sababli inson taraqqiyotidagi yangi-yangi o‘zgarishlar, yangilanishlarni taqozo etadigan milliy manfaatlariga javob beradigan milliy mafkurani yaratish uchun ko‘p yillar davomida muntazam ish olib borish lozim bo‘ladi. Insoniyat taraqqiyoti tajribasi millat mafkurasining bir necha avlod umri davomida ishlab chiqqanligidan va takomillashib borganligidan dalolat beradi. Xalq, millat mafkurasini shakllantirish uchun isoniyat tarixining turli davrlarida aql-zakovat yorqin tafakkurga ega bo‘lgan buyuk shaxslar zahmat chekkanlar. Ular Konfustiy (Xitoy), Maxatma Gandi (Hindiston), Demokrit va Aristotel (Gretsiya), Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy (O‘rta Osiyo) va boshqalardir.

Demak, milliy mafkurani yaratish yzoq yillar davom etgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Aynan mana shunday sharoitda, ya’ni umri o‘tib bo‘lgan g‘oya, mafkura o‘rnida jamiyatda yangi bir g‘oya ilg‘or bir mafkura shakllanishi jarayonida mafkuraviy bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin.

Mafkuraviy bo‘shliq nima, uning ma’nosini tushuntirib bering? Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ana shunday mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Bu bo‘shliq jarayonidan foydalangan, mamlakatimizga o‘z hukmini o‘tkazishni istagan turli kuchlar mafkuraviy kurash boshladilar. Prezidentimiz uqtirganidek, avvalo mafkura dunyosida bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik kerak, agar shunday holat yuz bergan taqdirda bo‘sh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot g‘oyalar o‘rin egallashga urinishi shubhasiz.

Bugungi kunda dunyoda borayotgan kurashlar ichida eng kuchli, eng ta’sirchan kurash, avvalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda va bu kurashda yengish uchun juda ko‘p mablag‘ imkoniyat va kuchlar safarbar qilinmoqda. Ilgari kuchli davlatlar zaif mamlakatni bosib olib, o‘z hukmini o‘tkazgan bo‘lsa, endilikda o‘z ta’sir doirasiga olmoqchi bo‘lgan mamlakatlar aholisining ongini o‘ziga qaram qilishga intilmoqdalar.

Bu kuchlarning mamlakatimizga o‘z hukmini o‘tkazishga intilishining sababi O‘zbekistonning jo‘g‘rofiy-strategik imkoniyatlari, ya’ni Markaziy Osiyo mintaqalarining markazida joylashganligi, tabiiy xom ashyo zahiralari boyligidir.

Biroq ularning eng yovuz quroli milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, yosh avlodning qalbi va tafakkurini qoplaydigan mafkuradir. Ular diniy ekstremizm, yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi, tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va din, madaniyatni soxtalashtirishga urinishlar, narkobiznes, noqonuniy qurol-yaroq savdosi, terrorchilik va boshqalardir.

Masalan, ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itayotgan diniy ekstremizm xavfini olaylik. Ular islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan mafkuraviy tahdiddir.

Xo'sh, shunday ekan endi voyaga yetayotgan yoshlarimizni qanday g'oya va mafkura bilan qurollantirishimiz kerak. U nimalarni o'zida mujassamalashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?

Davlatimiz rahbari asoslab berganidek, milliy mafkurani shakllantirishda, avvalo ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy me'rosidan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmog'imiz lozim.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini xalqimiz, yoshlarimiz ongiga singdirish lozim. Milliy mafkura zamonaviy umumbashariy, umuminsoniy yutuqlaridan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilish hissini tarbiyalamog'i darkor.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo'lgan eng muqaddas tuyg'u va tushunchlarning mujassam ifodasi bo'lishi kerak. Ular Vatanga – ona tiliga muhabbat, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, muqaddas dinimiz va oilaga hurmat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-u hayo kabi fazilatalardir.

Ayniqsa, yoshlarning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslikka, ota-bobolarimizning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini shakllantirish, shu orqali ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish lozim, toki yoshlarning men o'zbek farzandiman deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish. Ana shunda biz uchun mutlaqo begona bo'lgan g'oyalar o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

XXI asr bo'sag'asida xalqaro vaziyatda, dunyodagi kuchlar nisbatida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida ikki siyosiy kuchlar qarama-qarshiligi, sovuq urush siyosati barham topdi. Ammo dunyo g'oyat murakkab muammoli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Dunyo tinchligiga, umumiy xavfsizlikka taxdid soluvchi xavf-xatarlar oqlanib qoldi. Ular quyidagilardan iborat:

Kuchlar nisbati ilgari ikki joyda (SSSR va AQSh) da to'plangan, ikki qutbli bo'lgan bo'lsa, endi ko'p qutbli bo'lib qoldi, nazorat qilish qiyinlashdi. Turli darajada rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlar yanada kuchaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblangan tabiiy resurslarini rivojlangan mamlakatlar o'z qo'liga olishga, nazorat qilishga intilishi kuchaydi. Ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlikka qarshi xavf va xatarlar o'sib bormoqda.

Umumiy xavfsizlikka, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikka ayrim davlatlardagi muayyan siyosiy kuchlar tomonidan yuritilayotgan buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik siyosati ham xavf solmoqda. Bunday siyosatning xavfi xalqlaro, davlatlaro, millatalararo qarama-qarshilikni, mojarolarni keltirib chiqarmoqda.

Buyuk shovinistik davlatlar kichik davlatlarning, endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh davlatlarning xalqaro-huquq va ichki davlat suverinitetini ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatmoqdalar, tashqi iqtisodiy aloqalarni chegaralashga va kamsitishga o'rinmoqdalar. «Sovuq urushi» siyosati barham topganligi natijasida yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo'lsa-da, bu turdagi ommaviy qirg'in qurollarining boshqa mamlakatlarga tarqalayotganligi ko'p miqdorda saqlanayotganligi dunyo ahlini tavishlantirmoqda.

Hozirgi dunyoda biran-bir mamlakat, shu jumladan O'zbekiston ham, boshqalardan ajralgan hudud emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda O'zbekiston xavfsizligi uchun tahdid solayotgan zaminlar mavjud. I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida O'rta Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston xavfsizligi uchun solayotgan tahdidini ko'rsatib beradi. Ular quyidagilardan iborat:

O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengiz havzasi neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqning strategik markazi hisoblanadi. Ya'ni bu yarim halqa atrofida butun dunyo energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillar va jahon kelajagi uchun ham xal qiluvchi rol o'ynaydidigan energiya zaxiralari mavjud. Bu jahon davlatlarining qiziqtirmasdan qolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Rossiya, Xitoy va Hindistonning, Sharq va g'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismi. Aslida shakllanib kelayotgan, lekin kuch qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan kuch markazlari ana shu mintaqadan manfaatdorlar. Yevropa, Osiyo markazlari tutashgan yerda joylashgan O'zbekiston hududidan islom dunyosining Turkiya, Pokiston, Eron va Saudiya Arabistoni kabi qudratli malakatlar ham yuqoridagi kuchlar kabi manfaatdorlar.

Suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolari, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omillidir. Shuningdek, mustamlakachilik davrida yuritilgan Turkistonning bo'lish, millat va elatlari ustidan hukmronlik qilish siyosatining asarotlari hozirgacha tashvishli omil hisoblanadi.

Yana bir noqulaylik shundan ibortki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yoki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buni ustiga yurtimiz mintaqadagi diniy eksterizm etnik murosasizlik narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan, mojarolar avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh.

Bularni hisobga olib O'zbekiston Vatan xavfsizligi va ijtimoiy barqarorliklikning ta'minlash uchun chora va tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari Vazirligi tashkil (1991 yil 6 sentabrda) qilindi, O'zbekiston qurolli kuchlari barpo (1992 yil 14 yanvar) etildi. 14 yanvar «Vatan himoyachilari kuni» bo'lib qoldi.

Vatanimiz Xavfsizligini ta'minlash va mustahkamlashda 1992 yil 3 iyunda Parlamentda qabul qilingan «Mudofaa doktrinasi» xizmat qilmoqda. Unda quyidagilarni belgilangan: O'zbekiston jahondagi biror davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi; Xalqaro muammolarni urush yo'li bilan hal etishga qarshi chiqadi; biror davlatga birinchi bo'lib harbiy harakatlar boshlamaydi; Yadro kurashsiz yashash prinsiplariga amal qiladi.

1996 yili O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqildi, uning huquqiy asosini belgilovchi qonunlar yaratildi. 2002 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida I.A.Karimov qurolli kuchlarni isloh qilish to'g'risida qator vazifalarni amalga oshirishni belgilab berdi. Shu asosida Mudofaa Vazirligi, yagona qo'mondonlik organi qurolli kuchlarining birlashgan tartibi tuzildi.

Vatan xavfsizligini mustahkamlash ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlash bilan ham bevosita bog'liq. Shu boisdan O'zbekiston davlati millatlararo munosabatlarni boshqarib borishda ham muhim harakat dasturlarini ishlab chiqdi. Respublikada yashovchi millat vakillarining milliy madaniy markazlari, respublika baynaminal millat madaniy markazlari tashkil etildi. Bunday markazlar millatlararo yangi munosabatlarni qaror topishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omillaridan biri kishilarni kuchli ijtimoiy himoya qilishdir, shu boisdan kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishning kuchaytirishga oid tadbirlar amalga oshirildi, mahallalar orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam beriladigan bo'ldi.

Vatanimiz milliy xavfsizligini ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning xalqaro hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik harakatida ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham O'zbekiston Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlarida, Yevropa ittifoqi, Shimoliy Atlantika hamkorlik kengashi va boshqa tashkilotlarda ishtirokini kengaytirmoqda.

2. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi va integratsiyalashuvi

Hozirgi zamon voqeligi shundaki, bir mamlakatning xavfsizligi, tinchligi va barqarorligi boshqa mamlakat hisobidan ta'minlanishi mumkin emas. Mintaqa xavfsizligini jahon xavfsizligi muammolaridan ajralgan holda ham ko'rib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekiston davlati Vatan milliy xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida jahon hamjamiyati bilan teng ko'lamda integratsiyalashuvi jarayonida faol qatnashish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'lidan bormoqda. O'zbekiston davlati o'z mustaqilligini dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirishdagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi va o'zining tinchliksevar tashqi siyosatida unga amal qilib kelmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

- davlatlararo aloqalarda teng huquqiylik va o'zaro manfaatdorlik;
- davlat milliy manfaatlarning ustunligi;
- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning Suveren tengligi va chegaralar dahlsizligini hurmat qilish;

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- kuch ishlatmaslik;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish;
- harbiy bloklarga kirmaslik;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobi boshqasidan uzoqlashmaslik.

Hozirgi butun dunyo yaxlit bir-biriga bog‘lik bo‘lib bormoqda. Bu hol hozirgi xalqaro xavfsizlik tuzilmalari bilan o‘zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etgandagina Vatan xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash va mustahkamlash mumkinligini ko‘rsatmoqda. Bu vaziyatni hisobga olgan O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan teng ko‘lamda integratsiyalashgan demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani amalga oshirmoqda. Chunki mamlakat va davlatning xavfsizlik darajasi uning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bog‘liq.

O‘zbekiston jahon hamjamiyatlarida integratsiyalashuv jarayonlariga qatnashuvi eng avvalo Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyatida (1992 yil 2 martdan) ishtirok etishida yaqqol namoyon bo‘ldi. I.A.Karimov BMT bosh Assambleyasining 1993 yil sentabrda bo‘lgan 48 sessiyasida ishtirok etdi, nutq so‘zlab bir qator takliflar qildi. Ular quyidagilardan iborat:

- O‘rta Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkarlik masalalari bo‘yicha Toshkentda BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, O‘rta Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb e‘lon qilish;
- narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish;
- Orolni kutqarish va boshqalar.

O‘zbekiston tashabbusi bilan va BMT rahhnamoligida 1995 yil 15-16 sentabrda O‘rta Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan Toshkent kengash-seminari bo‘lib o‘tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillari mintaq xavfsizligining, mojarolarining oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o‘z takliflarini aytdilar.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining tarkibi qismi davlatlarning turli birlashmalari bilan aloqalarini rivojlantirishdan iboratdir. O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlari (YeXHT), Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkiloti (NATO) Yevropa ittifoqi va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston 1992 yil 26 fevraldan boshlab YeXHT a‘zosi. A.I.Karimov 1992 yil 9-10 iyulda bo‘lgan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlarining majlisida ishtirok etishi, nutq so‘zlari O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotganligining dalilidir.

O‘zbekiston bilan Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkiloti o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlik mavjud. 1995 yil iyuldan O‘zbekiston tinchlik yo‘lida hamkorlik dasturiga qo‘shilgan. Bu tashkilot tomonidan AQShda, 1997 yilda Qozog‘iston va O‘zbekistonda o‘tkazgan harbiy mashqlari O‘zbekiston harbiy

qismlarining ishtiroki askarlarning harbiy texnik tayyorgarligini yanada ko‘tarishga xizmat qildi.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyatiga ega. O‘zbekiston 1993 yil oktabrdan boshlab YUNESKO a‘zosi. 1994 yil dekabrda Respublika YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo‘lib, tartibiga ta’lim fan, madaniyat va axborot sohalari kiradi. YUNESKO qarori bilan Amir Temur, Ulug‘bek tavalludi nishonlandi. Samarqandda O‘rta Osiyo tadqiqot xalqaro instituti tashkil bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) bilan hamkorlik qiladi. Mustaqillik yillarida Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Gruziya, Ozarbayjon, Litva, Latviya, va O‘rta Osiyodagi ham do‘stlik davlatlari bilan ikki tomonlama davlatlararo aloqalarni o‘rnatdi va yil sayin kengytirilmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixan ham qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo‘shildi, uning huquqli a‘zosiga aylandi. Nufuzli xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bular Vatanimiz xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

3. O‘zbekistonning xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashdagi faoliyati

Terrorizm va ekstremizm muammosi 20-asrning so‘nggi o‘n yildan boshlab xalqaro jamoachilikni katta tashvishga solib kelmoqda. Terrorizm va ekstremizm Birlashgan Millatlarar Tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotlari, ko‘plab mintaqaviy, xalqaro, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlari, qonunchilik va ijroiya, huquq-tartibot organlari uchun o‘ta muhim muammoga aylandi.

Terrorizm (terrorchilik) hozir global muammolar orasidan o‘rin egalladi, o‘z navbatida u insoniyatning dunyoviy taraqqiyoti va kelajagiga juda katta xavf solayotir. Terrorizm tahdidini tasavvur etish uchun uning mazmun-mohiyatini bilish lozim. Terror kuch, turli xildagi qurollarni qo‘llash, begunoh qurbonlarga sabab bo‘luvchi zo‘rovonlikdir. Terrorizmni global tahdidlari butun dunyo insoniyatga xavf soluvchi turlari: termoyadro urushi, umume ekologik tabiat resurslarinig tugatish, tibbiy biologik tUSDagi tahdid, xalqaro jinoyatchilik, narkotik va qurol-yaroq kontrabandasi va hokazolar.

Terrorizmning o‘tmishi hozirgi tarixga nazar solsangiz uning diniy ekstremistik guruhlar tomonidan sodir qilinayotganligini ko‘rish mumkin. Diniy ekstremizm garchi qadimgi islom g‘oyalarini qayta tiklash niqobi ostida harakat qilayotgan bo‘lsalarda, aslida ularning siyosiy qarashlari hokimiyatga intilishga, mamlakat boshqaruvini egallashga qaratilgan.

1994 yili Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat «Tolibon» nomini olgan diniy siyosiy kuch ham Afg‘onistonda hokimiyat sari intildi. Tolibon o‘ziga xos g‘oya va aqidalarni ilgari surgan, yangi siyosiy diniy kuch emas, aksincha vahobiylarning XX asrdagi bir ko‘rinishi holos. Pokiston va Eron hududida turib Afg‘oniston va Tojikistondagi qonuniy hukumat tuzumga qarshi kurash olib borgan va hozir mamlakatlarda terrorchilik urushini olib borayotgan Tunis terroristlari «Qur’onni himoya qilish uyushmasi» ham diniy ekstremizmni ashaddiy ko‘rinishlaridan biridir.

O'zbekistonda terrorchilik harakatlarini sodir etishni rejalashtirgan O'zbekiston-islom harakati rahnamolari 1999 yil 16 fevraldagi portlashdan tashqari Toshkentdagi ayrim elchixonalarining rahbarlarini garovga olishni rejalashtirganlar. Bundan ularning maqsadi O'zbekistondagi diplomatika vakolatxonalari faoliyatiga zarar yetkazish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalar ishiga bog'liq loyihalarni chet el sarmoyalaridan mahrum etish shu orqali respublika xavfsizligiga tahdid qilish edi. Va nihoyat O'zbekistondagi qonuniy hukumatini qo'lga olish, islom respublikasini tashkil etish edi.

2000 yil avgustida O'zbekistonning Bo'stonliq, Sariosiyo tumanlari, Qirg'izistonning ba'zi viloyatlarida suqilib kirishga urinishlari, 2005 yil 13 mayda Andijondagi mudhish voqea va boshqalar xalqaro terrorizm tahdidiga qarshi kurash, Vatan xavfsizligini ta'minlash, o'ta dolzarb ekanligini ko'rsatdi.

Terrorizm va diniy ekstremizm milliy davlat chegaralaridan chiqib, tobora kengayib, globallasib bordi. Bu hol jahon jamoatchiligini xalqaro terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan harakatlarini yanada kuchaytirishni talab qildi. Shu boisdan O'zbekiston respublikasida 2000 yil 25 dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» gi qonun ishlab chiqildi. Bu qonunga asosan quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi: O'zbekiston hududida xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatlarning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizlikka putur yetkazish, urush va qurolli mojaralarni keltirib chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirishga qaratilgan faoliyatlarga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» gi qonun loyihasi bir qancha xalqaro tashkilotlarga BMTning inson huquqlari bo'yicha oliy komissiyasi vakolatxonasi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakti va boshqalarni qo'llab-quvvatladilar.

2000 yil aprelida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlari uchrashuvida «Terrorizm, siyosiy, diniy ekstremizm, millatlara jinoyatchilik va tomonlar xavfsizligi hamda barqarorligiga tahdid soluvchi xavflar bilan kurashishda hamkorlikdagi harakatlar to'g'risida» gi shartnoma imzolandi.

2001 yil iyun oyida Shanxay Hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari Sammiti (bu uchrashuvda O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston qatnashdi) Shanxay hamkorlik tashkilotini (ShHT) tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, ayrimachilik va ekstremizm bilan kurashish haqidagi shartnoma imzolandi.

Terrorizm bilan kurashish sohasidagi xalqaro shartnoma to'g'rsida gap borganda, O'zbekiston tashabbusi bilan tuzilgan «6+2 guruhi» deb nomlangan guruh ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning harakati bilan 2000 yil oktabrda BMT va YeXHT ishtirokidagi «Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar, uyushgan jinoyatchilar va terrorizmga qarshi kurashishga birgalikda yondashish» mavzusidagi xalqaro Toshkent konferensiyasi o'tkazildi.

O'zbekiston davlati so'nggi yillarda ayniqsa AQSh dagi 2001 yil 11 sentabr voqealaridan keyin, terrorizm muammosi tobora tashvishli va jiddiy ahamiyat kasb etib, ko'plab davlatlarning milliy manfaatlariga rahna solib kelayotgan bir davrda

xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida ko'p qirrali ishlarni amalga oshirmoqda va unda hamkorlik zarurligiga alohida e'tibor bermoqda.

Hozirgi terrorizmga qarshi tashkil qilinayotgan mamlakatlar safiga o'zining siyosiy tuzumi va qarashlaridan qat'iy nazar, turli davlatlar, shu jumladan barcha yetakchi arab va musulmon davlatlari qo'shilayotgani e'tiborga sazovordir. Bunday kuchlar va davlatlarni birlashtirayotgan xalqlar hamjamiyatining qat'iyligini tobora mustahkamlanib, bu kurash oxirigacha olib borilishiga hech qanday shubha yo'q.

Nazorat uchun savollar va vazifalar:

Savollar:

1. O'zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishning zaruriyati va ahamiyati nimada?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilini tahlil qiling.
3. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha qanday tadbirlar amalga oshirildi?
4. Mamlakatimizda xususiylashtirish jarayoni qanday kechayotganligini so'zlab bering.
5. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday amaliy tadbirlar amalga oshirildi?
6. Respublikada amalga oshirilayotgan soliq siyosatining mohiyatini ochib bering.
7. Qishloq xo'jaligida qanday islohotlar o'tkazildi va ularning natijalari?
8. Respublikada sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi masalalarini yoritib bering.
9. Ma'naviy meros va uni tiklash deganda nimani tushunasiz?
10. Diniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
11. Milliy va madaniy qadriyatlarga e'tiborning kuchayishi sabablari nimada?
12. Amir Temur xotirasini tiklashning tarixiy ahamiyati va zaruriyati nimadan iborat?
13. Milliy g'oyaning tarixiy ildizlari haqida gapirib bering.
14. Mafkuraviy immunitet nima?
15. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlar haqida nimalar bilasiz?
16. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ahamiyati nimalardan iborat?
17. O'zbekistonda madaniyat va sport sohasida qanday ishlar amalga oshirildi?
18. O'zbekiston bugungi kunga kelib qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
19. O'zbekiston YuNESKO bilan hamkorlikda so'nggi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
20. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan munosabatlari qanday rivojlanmoqda?
21. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
22. O'zbekiston va BMT aloqalari haqida gapirib bering.

23. Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni jalb etish yuzasidan qanday ishlar amalga oshirildi?

24. Mintaqaviy mojarolar va terrorizm xavfini misollar yordamida tushuntiring.

Vazifalar:

1. Quyidagi mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash:

- Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi
- O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaga munosabat
- Terrorizm va narkobiznesning insoniyat uchun xavfi
- O'zbekistonning kuchli ijtimoiy himoya siyosatining natijalari
- O'zbekistonlik yoshlar va jahon ta'lim muassasalari
- O'zbekim yoshlari jahon sport maydonlarida
- O'zbekiston va BMT
- O'zbekiston va Shanxay tashkiloti
- O'zbekiston va YuNESKO

Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Quyidagi mavzular bo'yicha mustaqil ish bajarish:

- "Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti"
- "Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti"
- "O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi"

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., "O'zbekiston", 1997.

2. Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruza . 1993. Asarlar. 2-jild. 48-50 betlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bagishlangan yalpi majlisidagi nutki. «Xalq so'zi» gazetasi 2010 yil, 22 sentabr.

4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T., 2008.

4. Karimov I. A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi: O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish chora tadbirlari . -T., O'zbekiston. 2009.

37. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqbol va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. -T., "O'zbekiston" 2015.

5. Usmonov Q. va b. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T., Moliya-iqtisod. 2008.

6. Mahmudov M. Barhayot siymolar. (Qatag'on qurbonlari haqida lavhalar). Toshken-T., "O'zbekiston", 1991.

7. Niyozova F. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning salbiy oqibatlar. O'zR FA "Fan". "O'zbekiston tarixi" jurnali. №4, 1999.

8. Tursunov I. O'zbekiston maorifchiligining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan. (1917-1939), -T., 1995.

9. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. (savollar va javoblar)-T., "O'zbekiston", 1991.

10. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. -T., “Sharq”, 2000.

O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik). Yangi asr avlodi. -T., 2003.

11. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. 3 kitob. -Toshkent:Sharq, 2010

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-ж.. Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Т.: Ўзбекистон, 1998
2. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон турмуш- пировард мақсадимиз.-Т.:Ўзбекистон, 2000
3. Абу Тохирхўжа: Самария; Наршахий: Бухоро тарихи; Баёний; Шажараи Хоразмшоҳий; Ибрат: Фарғона тарихи. Т.: Мерос, 1991.
4. Абулғозий.Шажараи Турк. Т.: Чўлпон, 1992. 21 Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Уч жилдлик. Т.: Ғафур Ғулом, 1984.
5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т., 1993.
6. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1 жилд. Т.: Фан, 1968.
7. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Т.: Шарқ, 2000.
8. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. Т.: Нур, 1992.
9. Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. — Т., "Маънавият", 2001.
10. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). Т., 1996.
11. Буниёдов З. Ануштегин Хорезмшоҳлар давлати (1097-1231)-. Т.: Ғафур Ғулом, 1998.
12. Бухоро тарихи. Т.: Фан, 1976.
13. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Т.: Ўқитувчи, 1994.
14. Жўраев Н., Файзуллаев Т., Усмонов Қ. Ўзбекистон тарихи. Миллий истиқлол даври. Т.: Шарқ, 1998.
15. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарқ, 1998.
16. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи — Т., 2001 й.
17. Murtazayeva R.H. va b. O'zbekiston tarixi (Ma'ruzalar matni).-Т.,2000.
18. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. Т., "Adolat", 2001.
19. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida. -Т.: Universitet, 1996.
20. Темур тузуклари. Т., «Ғафур Ғулом», 1991.
21. Файзиев Т. Темурий маликалар. Т., 1994.
22. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., «Ўзбекистон», 1992.
23. O'zbekiston yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Т., "Sharq. 2000.
24. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Т. "Sharq". 2000.

25. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T., "Sharq". 2000.
26. Ўлмас обидалар. М.Исҳоқов ва муаллифлар гуруҳи. Т., Фан, 1989.
27. G‘ulomov S, Salimov O., Usmonov Q, G‘aniev D. Asrlarga teng yillar. T. 2001.
28. Ҳасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи. Т., «Чўлпон», 1993.

Qo‘shimcha:

1. Алиев А. Маҳмудхўжа Бехбудий. Т.: Ёзувчи, 1994.
2. Амир Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Т.: Фан, 1991.
1. Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. Т., 1994.
2. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. Т.: Нур, 1992.
3. Буюк сиймолар, алломалар. Т.: Мерос (уч китоб), 1995, 1996, 1998.
4. Ватан туйғуси. Т.: Ўзбекистон, 1996.
5. Жўрақулов О. Қашқадарё манғитлари. Т.: Фан, 1994.
6. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Икки жилдлик. Т.: Меҳнат, 1992.
7. Иброҳим Карим. Мадаминбек. Т.: Ёзувчи, 1993.
8. Иброҳимов Н. Ибн Батутта ва унинг Ўрта Осиё бўйлаб саёҳати. -Т., 1991.
9. Исҳоқов М. Сўғдиёна тарих чорраҳасида. -Т.: Фан, 1990.
10. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. Т.: Фан, 1992.
11. Исҳоқов М. ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар Т.: Ёзувчи, 2000.
12. Йўлдошев Н. Баҳовуддин Накшбанд. -Бухоро, 1993.
13. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1990.
14. Мақкам Аскар. Авесто. «Шарқ». Т.: 2001.
15. Маҳмудов М. Қатағон қурбонлари. -Т.: Ўзбекистон, 1991.
16. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит-турк. Уч жилдлик. -Т.: Фан, 1960-1963.
17. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. -Т.: Чўлпон, 1994.

XORIJY ADABIYOTLAR

1. Смирнова О.И., Сводный каталог согдийских монет. Бронза, М., 1981.
2. История Казахстана и Центральной Азии. Алматы, 2001.
3. Baymirza Hayit. Basmatschi. Nationaler Kampf Turkestans in den Jahren 1917 bis 1934. Köln, Dreisam-Verlag. 1993.
4. Kolin, Simpson. Take Me To Russia, and Central Asian republics of the soviet union. 1970
5. Peter, Roudik. The History of the Central Asian Republics. 2007.
6. Fitzpatrick, S. Education and Social Mobility in the Soviet Union 1921—1934. Cambridge University Press, 2002
7. Fitzpatrick, S. The Cultural Front: Power and Culture in Revolutionary Russia. Cornell University Press, 1992.

8. История Узбекистана. Т. (X\T-первая половина XIX века). Коллектив авторов. Т., "Фан" 1993
9. Де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. //Санъат. -1989. -№9.
- 10.Вамбери Херман. Бухоро ёки Мовароуннахр тарихи. Т., 1990.
- 11.Заки Валидий. Ўзбек уруғлари. Т., 1992.
- 12.Валихўжаев Б. Хўжа Аҳрор тарихи. Т.: Ёзувчи, 1994.